Дар банди аввал шеър, ки шаби гузашта дар торикии шаб ошиқ рӯйи маҳбубаи худро надидааст. Калимаи “шомӣ ҳичрон” ҳолати танҳой ва ғамро нишон медиҳад. Ошиқ аз дидани маҳбуба маҳрум монда, тамоми шабро дар сӯзу гудоз сипарӣ кардааст. Ӯ аз шиддати ишқ ором намегирад ва дар ҷустуҷӯи маҳбубааш кӯча ба кӯча мегардад. Ин амал нишон медиҳад, ки ишқи ӯ хеле қавӣ ва беқарор аст. Ногаҳон аз по меафтад, овози поеро мешунавад. Ин ҳолат аз ҳаяҷон ва эҳсоси шадиди ошиқ шаҳодат медиҳад. Ӯ чунон ба дидани маҳбуба умед мебандад, ки ҳатто садои пойро нишонани омадани ӯ медонад. Дар ҳамин лаҳза гӯё шахсе хабар медиҳад, ки он “маҳлиқо” (яъне маҳбубаи зебо, мисли моҳ) аз хона берун омадааст. Дар мисраи охир маҳбуба ба меваи пухта монанд карда мешавад, ки ба замин афтодан мехоҳад. Ин ташбеҳ хеле зебо ва пурмаъност: аз як тараф, зебоӣ ва камолоти маҳбубаро нишон медиҳад, аз тарафи дигар, ҳолати нозуқӣ ва наздик будани мулоқотро ифода мекунад. Яъне, гӯё лаҳзаи дидор наздик аст, аммо ҳанӯз пурра амалӣ нашудааст. Дар ин мухаммас ҳолати рӯҳии ошиқ дар ҳолати чудой хеле таъсирбахш тасвир карда шудааст, ки – ҳичрон, орзу, ҷустуҷӯ, умед ва ташбеҳҳои зебо истифода шудаанд. Шоир бо тасвирҳои зинда ва пурэхсос нишон медиҳад, ки ишқ инсонро беқарор, ҳассос ва пур ғам мекунад.

Ин асар хонандаро ба дарки амиқи ишқ ва ҳолати ошиқ водор месозад, ки зебоии сухани бадеиро нишон медиҳад.

Дар саҳифаҳои баъдинаи китоб қасидаҳои устод мавҷуд. Шумораи қасидаҳо дар ин китоб 12-ро ташкил мекунад. Ҷояи асосии ин қасидаҳо ишқи илоҳӣ, дустиву рафоқат, тасвири инқилоб ва аз бадқорӣ дур шуданро ҳидоят мекунад. Мисоли зери фикрамонро пурра тасдиқ мекунад:

Ташвиш мабодо диҳад аз дак-даки ғалтак.
 Бояд, ки зи бозори алаф зуд биёри
 Ду аспӣ накӯнок, ду-се чорчилолак.
 Гар тангаи даҳяк нарасад, ҳеч маҳӯр ғам,
 К-имрӯз намони ба ҷаҳон бепулу луччак.
 Судхӯр барои ту муҳайёст, диҳад қарз,
 Ҳам ҳучраву ҳам хона ситонад зи ту як-як... [230].

Ин қасида мазмуни иҷтимоӣ ва танқидӣ дошта, бо забони киноявӣ баъзе паҳлӯҳои зиндагии мардумро нишон медиҳад. Шоир дар он аз ташвишҳои рӯзгор, савдону харид, қарз ва муносибат бо судхӯрон сухан мегӯяд.

Дар оғоз гуфта мешавад, ки аз “дак-даки ғалтак” ташвиш набояд кашид, яъне ба овозаҳо ва мушкилоти хурд аҳамияти зиёд додан лозим нест. Баъдан ба харид ва бозор рафтани ишора мешавад: бояд аз бозори алаф зуд чизҳо оварда шаванд ва ҳатто аспҳои хуб ва ашӯи дигар харидорӣ гардад. Ин ҷо шояд ба зиндагии серхарҷ ва хоҳиши зоҳирпарастии баъзе одамон ишора равад. Дар идома гуфта мешавад, ки агар пул нарасад, ғам набояд хӯрд, зеро имрӯз мумкин аст инсон бе пул намонад. Аммо баъдан маълум мешавад, ки роҳи осон қарз гирифтани аст. Шоир судхӯрро зикр мекунад, ки омода аст қарз диҳад, вале ин қарз оқибати бад дорад, зеро дар иваз хона ва тамоми дороии инсонро мегирад.

Устод Садриддин Айни якчанд маснавиҳо доранд, ки шумораи онҳо 13-то мебошад. Яке аз онҳо чунин аст:

Эй қуввати ҷисму қути чонам,
 Осиши ҷони нотавонам.
 Бишнави зи ман ин хучиста гуфтор:
 Мафрӯш замини хеш зинҳор!... [273].

Ин байтҳо мазмуни панду ахлоқӣ доранд ва ба ҳифзи молу мулк, махсусан замин ва арзиши он дар зиндагии инсон ишора мекунанд. Шоир маснавиҳо бо мурочиат ба шахси дигар оғоз мекунад ва ўро “қуввати ҷисм ва қутти чонам” меномад, яъне ўро манбаи қувват ва оромии худ медонад. Ин ибора нишон медиҳад, ки сухан аз оиди як шахси наздик меравад, ки дар зиндагии ғӯянда нақши бузург дорад. Сипас мегӯяд, ки ин гуфтори нек ва пандомезро бишнавад. Ин ҷо оҳанги маслиҳат ба хонанда мебошад. Шоир бо таъкид мегӯяд, ки “мафрӯш замини хеш зинҳор”, яъне ҳаргиз замини худро нафурӯш. Ин ҷумла пандест, ки аҳамияти замин ва дороии асосии инсонро нишон медиҳад. Шоир меҳонад бигӯяд, ки инсон набояд дороии асосии худро, махсусан заминро, ба осонӣ аз даст диҳад, зеро он такаҷоҳи зиндагӣ ва қафилӣ ояндаи ўст. Агар инсон заминашро фурӯшад, метавонад ба камбизоатӣ ва мушкилоти зиндагӣ рӯ ба рӯ шавад.

Устод дар жанри рубоӣ ҳам эҷод кардаанд, шумораи ин рубоӣҳо дар ин китоб 47-ро ташкил мекунад. Рубоӣҳои устод мавзӯҳои гуногунро ташкил мекунад:

Мактаб ба ту ёд медиҳад илму адаб,
 Мактаб зи ту мебарад ғаму ранҷу тааб,
 Як нуктаи мухтасар зи мактаб гӯям:
 Одам нашавад касе, магар аз мактаб [291].

Ин рубоӣ мазмуни тарбиявӣ ва маърифатӣ дошта, ба аҳамияти мактаб дар ҳаёти инсон бахшида шудааст. Шоир дар он нақши мактабро ҳамчун манбаи дониш, ахлоқ ва ташаккули шахсият таъкид мекунад. Мактаб ба инсон илму адаб меомӯзонад, мактаб ҷойест, ки инсон дар он дониш мегирад, хондану навиштан ва одобу ахлоқро меомӯзад. Адиб мактабро ҳамчун сарчашмаи маърифат ва фарҳанг нишон додааст. Мактаб аз инсон ғаму ранҷу захматро дур мекунад. Ин маъно дорад, ки бо омӯзиш ва тарбия инсон метавонад зиндагии бехтар дошта бошад ва аз бисёр мушкилоти нодонӣ ва бесаводӣ раҳо ёбад. Инсон танҳо тавассути мактаб одам мешавад. Яъне, бе дониш, бе таълим ва бе тарбия инсон наметавонад ба камол расад ва шахси комил гардад.

Дар китоб шеърҳои пас аз инқилоби низ ҷой гирифтааст. Асоси мавзӯҳои он бахшида ба ҳамин мавзӯ мебошад. Шумораи шеърҳои дар ин давра навиштаи Айни 57-ро ташкил мекунад:

Аз ахгари инқилоби мо сӯхт
Дунёи ситамгарон чу хошок.
Афсӯс махӯр, ки сӯхт олам,
Баргӯй, ки “Хас каму ҷаҳон пок” [322].

Шеър болои мазмуни пурқуввати иҷтимоӣ ва инқилобӣ дошта, ба мавзӯи мубориза бар зидди зулму ситам бахшида шудааст. Шоир дар ин ҷо бо рӯҳи баланд ва андешаи озодихона аз тағйироти бузурге сухан мегӯяд, ки дар натиҷаи инқилоб ба вучуд меояд. Гуфта мешавад, ки “аз ахгари инқилоби мо сӯхт”, яъне аз шарораи инқилоб оташе бархост, ки тавонист низоми кӯҳна ва золиро нобуд созад. Калимаи “ахгар” (шарора) рамзи оғози ҳаракат ва нерӯи тағйирдиҳанда мебошад. Инқилоб ҳамчун қуввае тасвир шудааст, ки метавонад ҷомеаро аз бадӣ ва беадолатӣ пок кунад. Боз адиб мегӯяд, ки “дунёи ситамгарон чу хошок” сӯхт. Яъне ҷаҳоне, ки пур аз зулму ситам буд, мисли хошок (алафи хушк) ба осонӣ нобуд гардид. Ин ҷо шоир меҳаҳад нишон диҳад, ки низоми золим устувор нест ва бо як қувваи ҳақталабона метавонад аз байн равад. Пас шоир ба хонанда муроҷиат мекунад, ки афсӯс нахӯр, ки олам сӯхт. Ин ҷо андешаи муҳим баён мешавад: на ҳар сӯхтан бад аст. Агар чизе, ки сӯхтааст, бадӣ ва зулм бошад, пас аз байн рафтани он боиси андӯх нест. Адиб: “Хас каму ҷаҳон пок” мегӯяд. Яъне, вақте чизҳои нолозим ва бад (хасу хошок) нобуд мешаванд, ҷаҳон пок ва беҳтар мегардад. Ин як хулосаи фалсафист, ки покшавии ҷомеа баъзан бо роҳи саҳт ва шадид ба амал меояд. Шоир хонандаро ба он даъват мекунад, ки аз чунин тағйирот наҳаросад ва онҳоро ҳамчун қадаме ба сӯи адолат ва покӣ қабул намояд. Дар охири китоб “Илова ба шеърҳо” оиди мавзӯҳо маълумот мавҷуд буда, ки асосан назми ва қисман дар бораи асрҳои насри ӯ изоҳ дода шудааст.

Хулоса карда гӯем, чилди аввали “Куллийет”-и Садриддин Айни як маҷмӯи пурғановат ва арзишманди эҷодиёти назмии устод мебошад, ки дар он марҳилаҳои гуногуни фикрӣ ва эҷодии ӯ инъикос ёфтаанд. Дар ин китоб шеърҳо, қитъаҳо, муҳаммасҳо, қасидаҳо, маснавиҳо ва рубоӣ гирд оварда шудаанд, ки ҳар кадом дорои мазмун ва ғояи хоси худ мебошанд. Дар шеърҳои тоинқилобӣ бештар мавзӯҳои ишқ, муҳаббат, дӯстӣ, модар, ватан ва ҳолатҳои эҳсосии инсон баён гардидаанд. Эҷодиёти устод бо маҳорати баланд ва тасвири зебои ифодаи ҳудро ёфтааст. Қитъаҳо ва пандҳо бештар хусусияти тарбиявӣ ва ахлоқӣ дошта, инсонро ба ростқавлӣ, меҳнатдӯстӣ, эҳтироми падару модар ва кадршиносии дониш даъват мекунад. Муҳаммасҳо ва мусаддасҳо бошад, пайванди устодро бо адабиёти классикӣ нишон дода, зебоии забон ва маҳорати баланди бадеии ӯро тасдиқ мекунад. Қасидаҳо ва маснавиҳо бештар ба масъалаҳои иҷтимоӣ, иқтисодӣ ва ахлоқӣ бахшида шуда, камбудихонӣ ҷомеа, зулми судхӯрон, арзиши замин ва аҳамияти зиндагии дурустро нишон медиҳад. Шеърҳои баъдиинқилобӣ рӯҳи нав ва мазмуни иҷтимоӣ қавӣ дошта, мубориза бар зидди зулм, даъват ба адолат мебошад. Дар маҷмӯъ, ин китоб на танҳо як осори адабӣ, балки як мактаби бузурги тарбия, ахлоқ ва бедорӣ фикрӣ мебошад. Эҷодиёти Садриддин Айни дар нишон медиҳад, ки ӯ ҳамчун шоир ва маорифпарвар ҳамеша барои пешрафти ҷомеа, бедорӣ мардум ва рушди адабиёти тоҷик саҳми бузург гузоштааст.

АДАБИЁТҲО:

1. Айни Садриддин. Куллийет. Чилди 1. Шеърҳо. Душанбе: Бунёди адабии С. Айни, 2018. – 568 с.
2. Таҳсин-ус-сибён. – Душанбе: Маориф, 1994. – 52 с.
3. Садриддин Айни. Намунаи адабиёти тоҷик. – Душанбе: Ирфон, 1978. – 448 с.
4. Садриддин Айни. Ёддоштҳо. – Душанбе: Ирфон, 1989. – 680 с.
5. Садриддин Айни. Ғулмон. – Душанбе: Адиб, 1985. – 632 с.
6. Садриддин Айни. Одина. – Душанбе: Маориф, 1988. – 198 с.
7. Садриддин Айни. Марги судхӯр. – Душанбе: Ирфон, 1990. – 164 с.
8. Садриддин Айни. Ҷаллодони Бухоро. – Душанбе: Адиб, 1992. – 228 с.

FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI

*O'rayeva Darmon Saidaxmedovna,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

E-mail: darmonoyuraeva@jmail.com

(O'zbekiston)

*Nasilloeva Go'zal Erkin qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti*

(O'zbekiston)

E-mail: guzalnasilloeva@gmail.com

“BOBO RAVSHAN” DOSTONINING MATNIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nurboy Jabborov tomonidan nashrga tayyorlangan “Bobo Ravshan” nomli xalq dostoni badiiyati, uning o'zbek folklor matnshunosligidagi o'rni va qimmati, g'oyaviy, badiiy va kompozitsion xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Matnda xalq qissalariga xos poetik an'analarning, ifoda uslubining saqlanishi dalillangan. Unda garchi “Bobo Ravshan” dostoni – xalq orasida keng tarqalgan, bizgacha yetib kelgan, qissa sifatida aholi orasida ko'p aytilib kelingan asarlardan biridir. U garchi Bobo Ravshan nomi sarlavhaga ko'tarilgan bo'lsa-da, mazmunan Hazrat Alining islom olamida tutgan o'rni uning mubolag'ador sarguzatlari asosiga berilgani asoslangan.

Kalit so'zlar: matn, matnshunoslik, manba, manbashunoslik, xalq qissasi, xalq kitobi, doston, Bobo Ravshan.

Аннотация. В данной статье рассматривается литературная ценность народного эпоса “Бобо Равшан” подготовленного к публикации Нурбоем Джабборовым, его место и значение в узбекской фольклорной текстологии, идеологические, художественные и композиционные особенности. Текст доказывает сохранение поэтических традиций и выразительного стиля, характерных для народных сказок. Хотя эпос “Бобо Равшан” является одним из произведений широко распространенных среди народа, дошедших до наших дней и передававшихся как история из поколения в поколение. Несмотря на то, что в названии присутствует имя Бобо Равшан, его содержание основано на том факте, что место Хазрата Али в исламском мире определяется его преувеличенными приключениями.

Ключевые слова: текст, текстология, источник, источниковедение, народная сказка, народная книга, эпос, Бобо Равшан.

Abstract. This article examines the literary value of the folk epic “Bobo Ravshan”, prepared for publication by Nurboy Jabborov, its place and significance in Uzbek folklore textual criticism, and its ideological, artistic, and compositional features. The text demonstrates the preservation of the poetic traditions and expressive style characteristic of folk tales. Although the epic “Bobo Ravshan” is one of the most widely circulated works among the people has survived to these days and has been widely transmitted among the population as historical. Despite the presence of the name Bobo Ravshan in the title, its' content is based on the fact that Hazrat Ali's place in the Islamic world is defined by his exaggerated adventures.

Keywords: text, textual criticism, source, source study, folk tale, folk book, epic, Bobo Ravshan.

Kirish. “Bobo Ravshan” – doston janrida yaratilgan asar. Uning yozma matnini Nurboy Abdulhakim o'g'li nashrga tayyorlab, 1992-yilda uni kitob holida chop ettirgan [1, 39]. Kitob boshlanishida matnshunos shunday so'zlarni keltiradi: “Xayolan asr boshidagi o'zbek mehmonxonasini ko'z oldingizga keltiring. Nuroniylar bir mullo kishi kitob o'qiyotir. Unga quloq solayotganlar goho bosh chayqasalar, goho tizzalariga urib qo'yadilar. Ular doston eshitishayapti. Bugun esa unday gap-gashtaklar, kitobxonliklar yo'q. “Bobo Ravshan” degan narsa borligini bilsa bitta-yarimta bilar, bo'lmasa uyam yo'q. Qaniydi, o'sha mehr-oqibat, hurmat va samimiyat qaytib kelsa, qaniydi, farzandlarimizni halollik va qahramonlikka undaydigan asarlar ko'p bo'lsa... Qo'lingizdagi bu kitob mana shunday armon ila yurganlar uchun tayyorlandi” [1, 1]. Folklorshunos Darmonoy O'rayeva matnshunos Nurboy

Abdulkhakim o'g'li Jabborov haqida haqli e'tirof etganidek: "Olimning folklorga muhabbati o'zbek folklorshunosligiga hissa qo'shishga ham undagan. U "Bobo Ravshan" nomli xalq dostonini so'zboshi bilan nashr ettirish orqali o'zbek folklor matnshunosligi taraqqiyoti uchun ham xizmat qilgan" [2, 55].

Asosiy qism. "Bobo Ravshan" kitobining so'zboshisi "Xalq donoligining namunasi" degan sarlavha bilan berilgan. Bu bilan "Bobo Ravshan" dostonini ham sifatlangan. Matnshunos olimning aytishicha, ushbu dostonning hozirgi alifbodagi nashri bo'lmaganligi sababli otasi – Abdulkhakim Jabbor o'g'liga o'qib bermoqlik niyatida uning o'zidagi nusxasini qishlog'iga, otasi huzuriga olib borgan. U dostonni o'qiy boshlaganida otasi davomini yoddan so'zlab bergan ekan. Bundan anglashiladiki, "Bobo Ravshan" dostoni xalq orasida keng tarqalgan bo'lgan. Negaki, qadimdan uni xalq gap-gashtaklar va gurunglar jarayonida aytib, eshitib kelgan.

Demak, baxshi emas, xalq ichidan chiqqan biror-bir ziyoli kishi tomonidan omma orasida aytib berilgan yoki arab yozuvida avloddan avlodga yetkazib kelingan bunday asarlar nafaqat doston, balki qissa deb ham yuritilgan.

Arab alifbosida eski o'zbek yozuvida bizgacha yetib kelgan dostonlarni esa matnshunos olimlar joriy alifboga o'tkazib, yana xalqqa taqdim qilishgan. 1992-yilda uning ilk bor kirill yozuvidagi matn nusxasi nashrga tayyorlangan. Ammo hali uning hozirgi lotin yozuviga asoslangan nashri mavjud emas.

"Bobo Ravshan" dostonining bosh qahramoni – Bobo Ravshan bo'lib, asarda asosan uni qarzdand qutqarish jarayonida Hazrat Alining boshidan kechirgan qiziqarli sarguzashtlari xalq dostonlariga xos mubolag'alar, badiiy tasvir vositalari orqali hikoya qilinadi. N. Jabborov ko'rsatib o'tganidek, dostonning asosida islom dinining insonparvar din ekanligi, musulmon ahlining hech qachon xor bo'lmasligi, kofirlik esa "misli najasat" ekanligi, haqiqiy e'tiqodli, iymonli kishilarga Oллоh hamisha madadkor bo'lishi kabi g'oyalari yotadi. Bu g'oyalarni ochish uchun doston tarkibiga payg'ambarlar haqidagi tarixiy rivoyatlar mazmuni ham singdirib mahorat bilan singdirib yuborilgan. Xususan, keltirilgan she'riy misralarda bunga ishoralarni ilg'ash mumkin. Masalan, doston tarkibidan o'rin olgan Ibrohim alayhissalomning tushlarida Oллоh yo'liga o'g'lini qurbon qilishi lozimligi to'g'risida ishora qilinishi, bunga otaning rozi bo'lishi, shuningdek, o'g'li Ismoil ham bunga ko'nishi haqidagi talqinlar ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgani bilan ajralib turadi. Ammo shunda farishta Jabroil qo'y olib keladi va Ismoilning o'rniga qo'y qurbonlik qilinadi.

Shuni aytish kerakki, dostonda bu rivoyat to'lig'icha, batafsil hikoya qilinmagan, balki uning mazmuniga Hazrat Alining Oллоhga xitob qilib aytilgan quyidagi to'rt misralik she'rida ishora qilib o'tilgan:

Ibrohim Xalilga farmon aylading,
 Ismoil boshini qurbon aylading.
 Jannatdan qo'y berib oson aylading,
 Qodir Oллоh, san bilursan holimni.

Umuman aytganda, mazkur dostonda Hazrat Ali bilan bog'liq lavhalar alohida o'ringa ega. Masalan, uning daryoni bog'lab, o'n ikki farsahli ajdarhoni o'ldirishi, hammadan o'zining jismonan kuchli ekanligini namoyish etishi ham juda ta'sirlidir. U o'zini haqiqiy er kishi, halol va mard inson sifatida namoyon etadi:

Shohning haqqi gardanimda qolmasin,
 Mahshar kuni Tangri xitob qilmasin,
 Er uldur, va'dasi yolg'on o'lmasin,
 Pahlavonlar tutib bog'lang – Aliman.

Hazrat Ali tilidan keltirilayotgan ushbu misralar uning pokdomon, birovning haqqidan qo'rqadigan, oxiratini o'ylaydigan, o'z so'zida turadigan, to'g'riso'z kishi ekanidan dalolat beradi.

Shoir Hamza Imomberdiyev "Bobo Ravshan" dostonini bolaligida buvisidan tinglagan hamda uning og'zidan yozib olgan ekan. Shuning yordamida matnshunoslar har ikkala qo'lyozmani o'zaro solishtirib, asarning to'liq nusxasini imkon qadar tiklashga muvaffaq bo'lishgan. Demak, doston matnining mukammal nusxasiga erishishda Shahribonu Sulton Xalifa qizining ham alohida xizmatini e'tirof etib o'tish joizdir.

"Bobo Ravshan" dostoni "Bismillahir rohmahir rohim" deya, "Alhamdu lillahi robbil a'lamin ba'da ammo roviyon va noqilon osor andog' rivoyat qilurlarkim" degan kirish jumlar bilan boshlangan

bo'lib, undagi "roviyon va noqilon" so'zlari "roviylar va naqlchilar" degan ma'noni beradi. Bu bilan xalq qissalari roviy hamda naqlchilar tomonidan hikoya qilinib kelganiga ishora qilinadi.

Shu jumladan so'ng Madina shahri, ya'ni musulmon olamining asosiy maskanida yashagan Bobo Ravshan nomi tilga olinadi. Uning ko'p kambag'al va ayolmand kishi bo'lgani aytiladi. U majburligidan bir Yahudo ismli juhuddan ming tillo qarz olgan bo'ladi, biroq uni qaytarishga juda qiynaladi. Shunda juhud unga "yo pulimni ber, yo qizingni ber, yo dinimga kir" deb, uchta shart qo'yadi. Bobo Ravshan esa bunga javoban juhuddan ertaga peshingacha muhlat so'raydi. Juhud rozi bo'ladi. Bobo Ravshan payg'ambari Xudoning oldiga borib najot so'ramoqchi bo'ladi. Shu o'rinda uning nolalari 11 ta to'rtlik shaklidagi she'riy bandlar orqali ifoda etilgan. To'rtinchi to'rtlik boshida "Ketmishga kelib yoshim" deganidan uning yetmish yoshda ekanini bilib olish mumkin. Chunki xalq orasida bu yosh "Yetmish – ketmish" tarzida talqin qilinadi. Keltirilgan to'rtliklarning oxirgisi (11-sida) u o'zini quyidagicha tanishtiradi:

Bobo Ravshan deyr otim,
O'chir juhud daftar xatin.
Qutqarib ol omonatim,
Xudoyo, hojatim bergil.

Bobo Ravshanning bu nolalarini eshitgan juhudlar uni masxarab, ustidan kulishadi. Payg'ambarini qashshoq deb atashadi. Matnda keltirilganday "Alqissa andin so'ng" Bobo Ravshan masjidga, Payg'ambarimiz huzuriga boradi.

Natija va muhokamalar. Ko'rinadiki, xalq qissalarida syujet voqealari bir-biriga ko'pincha "alqissa" so'zi orqali bog'lanadi. Ularning tilida eski o'zbek tilida ishlatiladigan olmoshlarni ham kuzatish mumkin. Jumladan, "andin so'ng" hozirgi tilda "undan so'ng" ko'rinishida ishlatilishi ma'lum. So'roq yuklamasi hozirgiday "-mi" shaklida emas, "-mu" shaklida qo'llangani kuzatiladi: "G'ariblarga lutfu inoyat bormi?"

Shuningdek, doston tarkibidagi she'riy misralarda qo'shimchalarning qo'llanishi ham eski o'zbek yozuvi bo'yicha ekanini ko'rish mumkin. Masalan, "Tushubdur boshimg'a haqni balosi" misrasini hozirgi imlo bo'yicha "Tushubdi boshimga haqning balosi" ko'rinishida tabdil qilish mumkin. "dedilar" fe'li "aydiilar" shaklida berilgan.

Payg'ambarimiz so'rovi bilan Hazrat Ali Bobo Ravshanga yordam berishga o'tlanadi. Shunda uning Hasayn va Husayn ismli egizak o'g'illari "Otam, yo'l bo'lsin, yo'l bo'lsin!" aytimini aytib, unga ergashmoqchi bo'ladi. Biroq Hazrat Ali o'g'illarini yo'ldan qaytaradi va Bobo Ravshan bilan shahardan chiqib ketadi. Yo'lda Bobo Ravshan undan dunyosi, ya'ni molu mulki qayerga ko'milganini surishtiradi. Shunda Ali dunyoni ta'riflovchi misralar bilan unga dunyoning mohiyatini uqtiradi. Bunda u dunyoni omonim so'z sifatida talqin qilib, bir o'rinda mol-mulk, bir o'rinda hayot, borliq ma'nosida ishlatgani ko'rinadi. Keyin Hazrat Ali Bobo Ravshanni orqasiga mindirib, olti oylik joydagi shahri Barbarga yetkazadi va o'zini bozorda ming qulning bahosida qul qilib sotib, juhudga topshirishini buyuradi.

Hazrat Alining olti oylik yo'lni ko'z ochib yumguncha bosib o'tishi ertak va dostonlarda Semurg' qush yoki devlar qila oladigan ish ekanini bilardik. Shuning uchun unga xos bu sirni Bobo Ravshan juda bilgisi kelib, savollar bilan Aliga murojaat qiladi. Asarda bu haqdagi Bobo Ravshan bilan Hazrat Alining she'riy dialoglari juda jozibali chiqqanini alohida ta'kidlash joiz. Hazrat Ali Bobo Ravshanga javoban o'zining "Erning eri, Haqning sheri, duldulu zulfiqorning sohibi, sohibqiron, g'ariblar xabardori, Haybar hisorini vayron etuvchi, kofirlarga g'am soluvchi, Abu Tolibning o'g'li, murtazo, oti Ali" ekani haqida so'zlab beradi.

Bobo Ravshan Hazrat Alini qul qilib sotmoq uchun bozorga olib kiradi. Bu haqda Marg'ub podshosi ham xabar topadi va u uch shart bilan "qul"ni sotib olmoqchiligini ta'kidlaydi. Uning birinchi sharti – daryoni bog'lash; ikkinchi sharti – o'n ikki farsahli ajdarhoni o'ldirish, uchinchi sharti – huzuriga Madinadagi Alini olib kelish edi. Bobo Ravshan "quli" Alini podshoga Qashamsham deya tanishtiradi. Podsho boboga ishonib "qul" Alini sotib oladi. Bobo Ravshan Hazrat Ali bilan xayrlashib, Madinaga sog'-salomat qaytib keladi. Shu o'rinda uning tilidan rasuli akramga she'riy na't keltirilgan. Unda "yo rasul" undovi alohida o'rin egallagan.

Bobo Ravshan kelib payg'ambarga uchrab, bo'lgan voqealarni unga so'zlab beradi. Keyin uning buyrug'i bilan juhudning qarzini berishga ketayotganida, yo'lda Alining Hasan va Husayn o'g'illarini

uchratib qoladi. Ularning she'riy dialogi "Bobo Ravshan va O'g'lonlar" ko'rinishida berilgan. Bolalar otasining Shahri Barbarda qul bo'lib qolganini eshitib, yig'lay boshlaydilar. Shu payt Hazrat Alining otboqari Qambarbobo kelib, imomzodalarga dalda beradi. Uning daldasi ham she'riy misralarda aks etgan.

Bobo Ravshan Yahudo juhuddan olgan qarzini beradi hamda shu kuni, juma oqshomida bandalikni bonuri iymon bilan bajo keltiradi.

Shahri Barbarda qolgan Hazrat Aliga podshoning Mashhur va Maqbul ismli vazirlari gumondorlik qilib, uni sinash kerakligini aytishadi. Marg'ub podshoning kunda yuz non, yuz qo'yinging go'shtini yeydigan, yuz o'ttuz gaz olmos porasi bor, beliga suqib, karkini minib jo'naydigan G'ayg'am degan pahlavoni esa Hazrat Ali bilan olishmoqchi bo'ladi. U qilich bilan hamla qilsa, Hazrat Ali qodir xudodan madad so'raydi va g'olib bo'ladi.

Shundan so'ng Hazrat Ali daryoni bog'lashga yuboriladi. U yo'lda Oллоhga munojot aytadi. Daryoga yetgach, u yerda soyasi uch tanob joyini oladigan bir tup archa ostida turib, duldul oti bilan zulfiqorini yo'qlab so'z aytadi. Uning so'zlarini eshitgan dulduli bilan qilichi joyidan jilib, Bobo Qambar yoniga keladi. Bobo Qambar ularni Hazrat Ali tomon yo'llab yuboradi.

Hazrat Ali daryoni bog'lab turgan barcha qullarni ozod qilib yuboradi. Faqat birgina Habash ismli qul bu ishni Alining yolg'iz o'zi qanday uddalashiga qiziqib, qullardan ayrilib qoladi. Habash qarasaki, Hazrat Ali zulfiqorini g'ilofidan chiqarsa, u yuz gaz cho'zilibdi. Ali qilichi bilan tog'ni tubidan kesib, uni quchoqlab ko'tarib kelib daryoga bosibdi. Suv to'xtabdi. Yana Hazrat Ali ismi a'zamni o'qib, besh panjarini urgan ekanlar, tosh mumdek botib ketibdi. Qo'llarining o'rnidan esa o'n sakkiz anhor suv oqib keta beribdi. Habash qul bu karomatlarni ko'rib, hayron qolibdi. Unga savollar berib, javob olibdi. Hazrat Ali o'z zulfiqoriga Azroil suv berib dasta qo'ndirgani, Jabroil esa uni ko'kdan yerga indirganini so'zlabdi. Bularni bilgan qul kofir Habash haq yo'lga kirib, Hazrat Ali ko'rsatganidek, Kalimayi shahodatni takrorlab, musulmon bo'ladi. U vaqti xush, maston bo'lganicha, shukronasiga Hazrat Aliga atab "aylading" radifli bir muxammasni o'qiydi. Keyin jamoasiga qaytib, uch ming uylik jamoatini ham musulmon qiladi.

Hazrat Ali ajdarni ham mag'lub etadi. Bunda unga rasuli xudo, farishta Jabroil ko'mak beradi. Rasuli xudo Hazrat Alining holidan Oллоhga o'z munojotlari orqali xabar yetkazadi. Payg'ambarimiz duolari xudoi taolloning dargohida qabul bo'lib, Ali o'ziga ato etilgan kuch bilan bir na'ra tortgan ekan, ajdarho karaxt bo'lib qoladi. Ali uni ikkiga bo'lib o'ldiradi. So'ngra podshoga nishona bo'ladi deb, uning terisidan bir tasma tilib olib, beliga taqadi. Ajdahoning o'limiga ko'ngli buzilib, bevafo dunyodan shikoyatini she'rga solib aytadi. Uning o'zi o'ldirgan ajdarho terisidan tasma tilib olib, nishona sifatida beliga taqishi ham ertakona motiv ekani bilan diqqatni tortadi.

Marg'ub podshosi ham Hazrat Alini ta'rif-tavsiflaydi. Ammo uning saroyidagi sozandasi Matlabxon Hazrat Alini tanib qoladi. Chunki u Haybar podshohi Umar Anzarshohning mahrami edi. Ali esa bu podshohni o'ldirgan edi. Biroq Ali Marg'ub podshosi va uning odamlarini o'zining Ali emasligiga ishontiradi. Shunda podshoning vaziri Maqbul undan Hazrat Alini olib kelishni talab etadi. Ali esa qirq pahlavon bilan yetti teva (tuya) zanjir olib yo'lga tushadi. Yo'lda ketayotib, Hazrat Ali jami pag'ambarlarni yo'qlab yana munojot qiladi. Keyin o'zini qirq pahlavonga tanishtiradi. Pahlavonlar esa undan qo'rqib qochib qolishadi. Hazrat Ali o'zini bandi qilishga ularni ko'ndiradi. Uni bog'lab, Mag'rub shoh oldiga olib boradilar. Podsho uning ustiga yetti lak kofir, ya'ni najas to'ktiradi.¹ Bundan ko'ngli buzulgan Hazrat Ali Oллоh nomini tilga olib, undan madad so'rab bir na'ra tortgan ekan, dulduli bilan zulfiqori oldida hozir bo'libdi. U ixlos bilan "Oллоhu akbar" deb, na't onhazratni o'qib, yetti ming pahlavonni bir o'zi yengibdi. Mag'rub shoh "Al-omon, Al-omon" deganicha omonlik so'rab, musulmonlar safiga kiribdi. Uni ko'rib, xalqi ham musulmonlikni qabul qilibdi. Mag'rub shoh musulmon bo'lganining shukronasi uchun bir g'azal o'qibdi. Unda o'zining musulmonligidan oldin "Bir zang bosgan sopol", "Yomonlardan yomon" bo'lganini, endi esa o'z davlatiga loyiq, sodiq, oshiq, javohirdan ortiq, yaxshilarga rafiq, oynadan ortiqlikka erishganini ta'kidlaydi. U Madinaga qaytar bo'lgan Hazrat Alini qirq tuyaga ortilgan tillo bilan kuzatib qo'yadi. Shu chog'da u Hazrat Ali bilan xayrlashar ekan, xalq

¹ Bu o'rinda kofir so'zi o'rmiga najas so'zi qo'llanganiga guvoh bo'lish mumkin.

dostonlarida ko‘p uchraydigan xayrlashuv mazmunidagi “xo‘sh emdi” qo‘shig‘ini aytadi va yig‘lab qoladi.

Hazrat Ali Madinaga yetib borib, u yerdagi yaqinlari, do‘stu yoronlari, sahobalari bilan ko‘rishar ekan, “ko‘risholi” radifli g‘azal uning tilidan ijro etilgan.

Doston yakunida “Hazrat Ali misoli Rustami dostondek ishlarni qildilar” deya ta’kidlangani ko‘rinadi. Dostonning xuddi ertaklar kabi “Barcha ahli solih murodlariga yetdilar” deb xotimalanishi ham e’tiborga molik. Faqat undagi “ahli solih” jumlasini har bir banda emas, aynan ahli solih, ezgu niyatli, imon-insofli kishilarninggina niyatiga yetishini anglatib keladi.

Xalq qissasi sifatida taqdim qilinayotgan ushbu matnning “Parvardigoro, bizdek noqis bandalaringni ham murod-maqsudiga yetkur, hamisha sening ishqing bilan yashamoqlikdek ulug‘ va sharaflini baxtga erishmoqligimizni nasib aylagin” olqishi bilan yakunlanishi ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Xulosa. “Bobo Ravshan” dostoni – xalq orasida keng tarqalgan, bizgacha yetib kelgan, qissa sifatida aholi orasida ko‘p aytilib kelingan asarlardan biridir. U garchi “Bobo Ravshan deb nomlangan bo‘lsa ham, uning matni bilan tanishgach, asosan, Hazrat Alining sarguzatlari asosiga qurilgani oydinlashadi.

ADABIYOTLAR:

1. Бобо Равшан: Достон (Нашрга тайёпрловчи ва сўз боши муаллифи Нурбой Абдулҳаким ўғли). – Т.: Чўлпон, 1992. – 48 б.
2. Ўраева, Д. Хайрат, илм, эътиқод. (Ижодий портрет) [Матн] / Д. Ўраева, Д. Қувватова, У. Тўраева. – Бухоро: Sadriiddin Salim Вухорӣ, 2026. – 124 б.
3. Каримов, Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 2008. – 256 б.
4. Мирзаев, Т. Ўзбек халқ дostonлари поэтикаси. – Т.: Фан, 1974. – 312 б.
5. Жўраев, М. Фольклоршунослик асослари. – Т.: Академнашр, 2011. – 280 б.
6. Қодиров, Б. Ўзбек халқ эпоси ва унинг хусусиятлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. – 198 б.
7. Абдурахмонов, Ф. Ўзбек халқ оғзаки ижоди тарихи. – Т.: Фан, 1999. – 220 б.
8. Ҳасанов, Б. Эпос ва дostonлар табиати. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. – 176 б.
9. Раҳимов, К. Ўзбек халқ қаҳрамонлик дostonлари. – Т.: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2007. – 240 б.
10. Тўраев, О. Фольклор ва адабиёт муносабатлари. – Т.: Университет, 2015. – 150 б.

Quvvatova Dilrabo Xabibovna,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)
(O'zbekiston)

E-mail: dilrabo68@mail.ru

Nizomova Nozanin Ismatovna,
Buxoro davlat universiteti
talabasi (O'zbekiston)

E-mail: nizomovanozanin4@gmail.com

YANGI NAVOIYSHUNOSLIKDAGI MUHIM VA DADIL QADAM

Annotatsiya. O'zbek navoiyshunosligi sahifalari nihoyatda boy va rang-barang. Shu silsilada Nurboy Jabborov yaratgan mag'zi to'q, asosi mustahkam izlanishlarning alohida o'rni bor. Uning bu boradagi katta-kichik tadqiqotlari orasida "Maoniy ahlining sohibqironi" monografiyasi ayricha ahamiyat kasb etadi. Maqolada olimning ushbu keng qamrovli monografiyasi o'rganilgan va kitobning yangi navoiyshunoslikdagi mavqei yoritilgan. Darhaqiqat, kitob mundarijasini tashkil etgan Alisher Navoiy ijodigda diniy-irfoniy g'oyalar tajassumi, "Nasoyil ul-muhabbat" haqidagi talqinlar, "Makorimu-l-axloq" asari atrofida kuzatishlar, tarbiya inson kamolotini belgilaydigan asosiy mezon ekanligini bilan bog'liq qarashlar, "dunyo" timsolining tasavvufiy mohiyatiga e'tibor, fatiy obrazi, ahli maoniyning yuksak maqomga egaligi kabi ulug' mutaffakir boy ijodining konseptual masalalari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: navoiyshunoslik, nazm, diniy-irfoniy g'oyalar, Qur'oni karim ta'limoti, matnshunoslik, hadis, hamd, na't.

Аннотация. Страницы узбекского навоиведения чрезвычайно богаты и многообразны. В этом ряду особое место занимают глубокие и основательные исследования Нурбой Джаббарова. Среди его многочисленных крупных и малых научных трудов монография "*Маоний аҳлининг соҳибқирони*" имеет особое значение. В статье рассматривается данная масштабная монография ученого и освещается место и роль книги в современном навоиведении. Действительно, в содержании книги всесторонне освещены такие концептуальные вопросы богатого наследия великого мыслителя, как воплощение религиозно-мистических идей в творчестве Алишера Навои, интерпретации "*Насоим ул-мухаббат*", наблюдения над произведением "*Макориму-л-ахлоқ*", взгляды на воспитание как на основной критерий совершенства человека, внимание к суфийской сущности символа "мира", образ *фатий* (духовного рыцаря), а также высокий статус "*ахли маони*" ("людей смысла").

Ключевые слова: навоиведение, поэзия, религиозно-ирфанские идеи, учение Священного Корана, текстология, хадис, хамд, на'т.

Abstract. The field of Uzbek Navoi studies is exceptionally rich and diverse. Within this tradition, the profound and well-grounded research conducted by Nurboy Jabborov occupies a distinctive place. Among his numerous major and minor scholarly works, the monograph "Maoniy ahlining sohibqironi" holds particular significance. This article examines the scholar's comprehensive monograph and highlights the book's position and contribution to contemporary Navoi studies. Indeed, the book provides a comprehensive analysis of the conceptual aspects of the great thinker's rich creative heritage, including the embodiment of religious-irfanic (mystical) ideas in the works of Alisher Navoi, interpretations regarding "Nasoyim ul-muhabbat", observations on the work "Makorim ul-axloq", and perspectives on upbringing as the primary criterion for human perfection. Furthermore, it delves into the Sufi essence of the symbol of the world (dunyo), the image of the fati (spiritual knight), and the high status of the ahli maoni (the people of spiritual meanings).

Keywords: Navoi studies, poetry, religious-mystical ideas, teachings of the Holy Qur'an, textual studies, hadith, hamd, na't.

Kirish. Hassos adabiyotshunos, zahmatkash olim Nurboy Jabborovning "Maoniy ahlining sohibqironi" nomli monografiyasini "Istiqlol Navoiynomasi" deyish mumkin. Unda Alisher Navoiy

ijodiyotining o'zak masalalari, uning millat adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri izchil o'rganilgan. Monografiya nashr qilinishi bilan u haqda bir qator taqrizlar yozildi. Jumladan, akademik Sh.Sirojiddinovning "Ilmiy haqiqat yog'dusi", Dilnavoz Yusupovning "Buyuk mutafakkir ijod olamiga yaqinlashuv", Maqsud Asadovning "Maoniy ahlining sohibqironi" xususida", Zebo Qobilovning "Asl o'zanlarga qaytish", Obidjon Karimovning "Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini" kabi maxsus taqriz-maqolalar matbuot yuzini ko'rdi. Shu bilan birga, ozarbayjon olimasi, professor Almaz Ulvi Binnatovanning "Professor Nurboy Jabborov" nomli keng qamrovli maqolasida ushbu kitob haqidagi fikr-qarashlar aks etgan. Binobarin, akademik Sh.Sirojiddinov monografiyaning beshta yutug'ini sanab o'tadi. Shundan to'rtinchisida u yozadi: "Nurboy Jabborov asarining muvaffaqiyatini ta'minlagan to'rtinchi omil ulug' mutafakkir e'tiqodi, hayot tarzi va asarlari mohiyatidan kelib chiqib, hazrat Navoiy "Maoniy ahlining sohibqironi" ekani dalillanganidir.

Asosiy qism. Buyuk shoir ilk bor Maqsud Shayxzoda tadqiqotlarida "G'azal mulkinging sultoni" deya ulug'langani ma'lum. "Maoniy ahlining sohibqironi" degan nisba buyuk Navoiyning avliyolarning avliyosi sifatidagi kamoloti darajasini ko'rsatib, "G'azal mulkinging sultoni" ta'rifini yanada to'ldiradi" [1, 6]. Ko'rinadiki, ustoz-adabiyotshunos kitobning nomidayoq katta ilmiy yuk, mazmun yuklanganligini qayd etgan holda, uning N.Jabborovgacha Navoiyga berilgan ta'riflardan deyarli qolishmasligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, akademik ustozning "monografiyaning beshinchi yutug'i navoiyshunoslikda mavjud muayyan ilmiy qarashlar bilan bahsga kirishilganida va muallif nuqtayi nazarining quvvatli ilmiy dalillanganida ko'rinadi" [1, 6] deyishida ham jon bor. Chunki ustoz-olim Navoiy dahosiga yondashar ekan, uning bitiklari o'zigacha mas'ul so'z aytgan navoiyshunos salaflarga uyg'un kelishi, ularning "panjasiga panja ura olishi" bilan alohida ahamiyatga molik. Taniqli navoiyshunos D.Yusupova ham kitobning har bir ko'tarilgan ilmiy muammolarni yoritib berar ekan, o'z qarashlarini: "Maoniy ahlining sultoni" monografiyasi Nurboy Jabborovga xos bo'lgan ilmiylik, aniqlik, kitobxonga manzur keladigan ravon uslub va til bilan yozilgan. Bugun bu kabi kitoblar har doimgidan ko'ra zarurroq, chunki yangilanishlar nafasi ufurib turgan, navoiyshunosligimizning so'nggi yangiliklarini o'zida jamlagan nashrlar barchani buyuk mutafakkir ijod olamiga yaqinlashtirish bilan birga uni to'g'ri anglashda ham yordam beradi" [2, 4] deya xulosalaydi. Demak, mazkur monografiya navoiyshunoslikdagi yangilanishlar nafasi ufurib turgan fundamental tadqiqotdir. Ozar olimasi Almaz Ulvi Binnatova Nurboy Jabborov faoliyatiga bag'ishlangan adabiy portret xarakteridagi maqolasida monografiyaga ham to'xtaladi va ustoz-olimning Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy "Xamsa"lari qiyoslangan o'rinlarga diqqat qaratadi [3]. Bu kuzatish va e'tiroflardan ko'rinadiki, olimning "Maoniy ahlining sohibqironi" monografiyasi istiqbol davri navoiyshunosligining o'ziga xos yangi sahifasini ochib bergan.

Natija va muhokamalar. Monografiyaning birinchi bobi "**Komil shaxsiyat va ijodiy salohiyat uyg'unligi**" tarzida sarlavhalangan va "*Alisher Navoiy va islom ma'rifati*" nomli maqola bilan ibtido topgan. Unda dastlab "adab", "adabiyot" terminlarining keng va tor ma'nolari "G'iyosu-l-lug'ot", "Muntaxabu-l-lug'at" kabi nodir manbalarga tayanib, izohlangan. Ushbu so'zni adabiyotshunos Alisher Navoiyga bog'lab talqin etadi: "Hazrat Alisher Navoiy fikricha, adab kichiklarning saodatga erishmog'iga va ulug'larning kamolotda yanada yuksalmog'iga bois bo'ladi"[4,12]. Adabiyotshunos "adabiyot" terminining tor ma'nosidan kelib chiqib, Sharq adabiyotida nazmning mavqeyi baland bo'lganligini ta'kidlaydi va ulug' mutafakkirning nazm haqidagi fikrlarini keltiradi.

Ustoz-adabiyotshunos Alisher Navoiy ijodiga diniy-irfoniy g'oyalar ifoda etilishini uning amaliy faoliyati bilan bog'laydi. Zero, ulug' mutafakkirning besh vaqt namozni jamoat bilan o'qishi, "Hirot shahridagi Marg'aniy bog'i ichida benihoya chiroyli bezaklar bilan ziynatlangan jome masjidi qurib, o'z zamonasi qorilarining sarasi bo'lgan Xoja Hofiz Muhammad Sultonshohni ushbu masjid imomligiga tayinlagan"ligi, zakot berish borasida ham katta g'ayrat ko'rsatganligi buni tasdiqlab turadi. Qolaversa, Navoiyning haj safari uchun yo'lga chiqqanligi, biroq Hirotidagi notinchliklar tufayli qaytishga majbur bo'lganligi, ikkinchi marta bu ulug' ishga azimat qilganida yana yo'lda sog'ligi yomonlashganligi bilan aloqador talqinlar yangiligi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiyning buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allomalarining kitoblarini qunt bilan o'rganganligi va o'z asarlarida tilga olganligi ham bunga dalil qilib ko'rsatiladi. Uning "Arba'in" asari yozilishi zaminida ham mutafakkirning hadis ilmini chuqur egallaganligi yotishi borasidagi qaydlar ham olimning qator yillar olib borgan izlanishlarining natijasi, albatta. Ayniqsa, bunda Alisher Navoiyning "Xamsa" asari birinchi dostoni "Hayrat ul-abror" bilan maqolotlari, na'tlar bilan bog'liq tahlillar ustoz-olimning mutafakkir shoir ijodining tub mag'ziga,

asarlarida aks etgan islomiy-ma'rifiy g'oyalar manbaiga yanada chuqur kirib borganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" hamda "Sab'ayi sayyor" dostonlari asosiy qahramonlari tarixiy ildizlariga teran nazar solinganligi, "Sab'ayi sayyor"da muallif konsepsiyasi negizida nafs talqini Qur'oni karim ta'limoti bilan aloqadorligi, "Saddi Iskandariy"ni yozishga kirishishdan oldin ulug' shoirning "Tarixi anbiyo va hukamo" uchun materiallar yig'ganligi haqidagi kuzatishlar ham ilmdagi yangi gaplar sifatida ahamiyatlidir.

Yana bir jihatni qayd etish kerak: kitob sahifalaridagi "Nasoyil ul-muhabbat" haqidagi talqinlar ham hassos olimning mutafakkir ijodiga kompleks yondashganligini ko'rsatadi: "Asarda tasavvuf ta'limotining asoslari, uning taraqqiyot bosqichlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Buyuk mutafakkirning yozishicha, tasavvuf ahli qat'iy amal qilgan qoidalar quyidagilardir: 1) ularning eng avvalgi ishlari tavba bo'lgan, ya'ni ular Haq taoloning barcha qaytariqlaridan parhez qilgan; 2) luqma hilliyati, ya'ni luqmaning halol bo'lishiga jiddu jahd ko'rsatgan"[4, 35]. Demak, bu qarash ham "770 avliyoulloh hayotiga oid ibratli voqealar tizimli yoritilgan" asarning islom ma'rifati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Dastlabki bobning 2-fasli "*Buyuk shaxs va davlat arbobi*" deb nomlangan va quyidagicha ibtido topgan: "G'iyosiddin Humomiddin o'g'li Xondamir Alisher Navoiyga bag'ishlangan asarini bejjiz "Makorimu-l-axloq" deb atamagan. "Innamo bu'istu liutammima makorima-l-axloq", ya'ni "Men yaxshi xulqlarni mukammal darajaga ko'tarish uchun yuborildim" mazmunidagi muborak hadisdan kelib chiqib, muarrix buyuk mutafakkirni ana shunday mukammal xulqning timsoli, deb biladi. Asarda "bob" o'rniga "maqsad" atamasi qo'llangan va muallif o'n maqsadda buyuk mutafakkir siymosini mufassal tasvirlagan"[4, 41]. E'tibor berilsa, bunda Alisher Navoiyga bag'ishlangan "Makorimu-l-axloq" asari xususida so'z ketmoqda. Ta'kidlash kerakki, ushbu tarixiy asar haqida ko'p va xo'p aytilgan esa-da, olim talqinlari yangi: ya'ni asar nomi muborak hadis mazmuni bilan bog'langan. Darhaqiqat, ushbu sarlavhaning ulug' mutafakkir suratiyu siyratini aks ettirishi, uning har jihatdan mukammal inson ekanligini "mukammal xulqning timsoli" degan ta'rif dalillab turadi. Ustoz-adabiyotshunos ushbu mukammallikni ifoda etuvchi 10 maqsad (bob)ni nomma-nom keltiradi. "Hazrat Navoiyning oddiy inson, davlat arbobi, ijodkor va shaxs sifatidagi siyrati, fazilatlar haqida to'laqonli ma'lumot beradigan mo'tabar manba"da Alisher Navoiyning komillik sifatleri hayotiy lavhalarda tarixiylik tamoyiliga asoslanib, yoritib berilganki, adabiyotshunos olim shu nuqtalarga alohida diqqat qaratgan. Asardagi ulug' shoirga nisbatan qo'llangan "ul hidoyat va iqbol osmonining quyoshi" istiorasi uning olimlarning olimi, shoirlarning shoiri, "avliyolarning avliyosi", nihoyatda saxovatpesha bo'lganligini ko'rsatib turadi.

Kitobning "**Buyuk shoirning irfoniy va adabiy-estetik olami**" tarzida sarlavhalangan bobi "*Hayot falsafasi talqini*" fasli bilan boshlangan. Unda ustoz-adabiyotshunos tarbiya inson kamolotini belgilaydigan asosiy mezon ekanligi, Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida tarbiyani insonni kamolga yetaklovchi kuch sifatida talqin etganliklari haqida fikr yuritar ekan, o'z e'tiborini Alisher Navoiy asarlari qatida yashiringan hikmatomuz fikrlarga qaratadi. Uning ta'kidlashicha, Navoiy talqinida tarbiya ustoz va muhit orqali amalga oshadigan uzluksiz jarayon sifatida sabr, vaqt va mehnatni talab qiladi. Shunga ko'ra, Nurboy Jabborov ulug' mutafakkir baytlaridan keltirib, uning vatanparvarlik, elparvarlik, ma'rifat, keksalarga hurmat, tinchlik va ofiyat, ogohlik, ishq haqidagi baytlarini tahlil etadi.

"*Dunyo*" timsoli va uning talqinlari"dan bahs etuvchi keyingi fasl ham ohorli tahlil va xulosalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ta'kidlash kerakki, ushbu masalaga ko'plab olimlar u yoki bu darajada munosabatlar bildirishgan. Biroq N.Jabborov mazkur muammoning tub ildizlariga nazar soladi, "dunyo" timsolining tasavvufiy mohiyatini ochishga e'tibor qaratadi: "Alisher Navoiy asarlarida dunyo timsoli ikki xil ma'noda qo'llangani kuzatiladi: 1) inson yashab turgan dunyo; 2) odamzodni ma'rifatdan to'suvchi parda. Hazrat Navoiy asarlari uchun ilmiy-ma'rifiy asos vazifasini o'tagan ilohiy manba – Qur'oni karimda va muborak hadislarda ham "dunyo" tushunchasi ana shu ikki ma'noda zikr etilgan. Alisher Navoiyning "dunyo" tushunchasiga yondashuv konsepsiyasi ushbu ikki mo'tabar manbaga asoslanadi"[4, 75]. Binobarin, olim "dunyo" so'zining zohiriy va botiniy ma'nolarini Qur'oni karim va hadislarga tayangan holda ochib bergan. Ustoz-adabiyotshunos shu timsolning ikki ma'nosiga tayanib, mutafakkir she'rlaridagi mazmuni ham 2 ga bo'lib tasnif etadi: 1. "*Dunyo*" timsolining inson yashab turgan makon ma'nosida talqin etilishi. 2. "*Dunyo*" timsolining odamzodni ma'rifatdan to'suvchi parda sifatidagi talqini.

Bobdan o‘rin olgan *“Futuvvat g‘oyasi va fatiy obrazi”* deb nomlangan fasl ham ulug‘ Navoiy asarlaridagi juda kam o‘rganilgan fatiy obrazi talqiniga aloqadorligi bilan e‘tiborga loyiq. Bu haqda zakiiy olim D.Yusupova yozadi: “Navoiyshunoslikda ilk marta ushbu obrazga yangicha badiiy-estetik vazifa yuklab, uni pir timsoli sifatida talqin qiladi, u taloq qilgan yor, aslida dunyo timsoli ekanligini, Axiy uning timsolida o‘z suyuklisini emas, dunyoni taloq qilayotganligini ishonarli tarzda ochib beradi”[2, 4]. Binobarin, hassos adabiyotshunosning keng qamrovli tahlillari shunday ilmiy xulosaga kelishga omil bo‘lgan. Mutafakkir shoir fardlari, “Sab‘ayi sayyor”dagi lavhalar, g‘azallaridan olingan baytlar misolida futuvvatning uchta darajasi: saxovat, ya‘ni bor narsasini hech kimdan qizg‘anmaslik; safo, ya‘ni qalbni kibru havo, gina-kudurat, qasd-g‘azabdan pokiza, pok tutish; vafo, ya‘ni hamma vaqt xalq xizmatida bo‘lish tarzida ko‘rsatilgan. Bunday darajalarni aniqlash esa tadqiqotchisidan keng bilim, yuksak iqtidor, badiiy so‘zni chuqur his etish salohiyatini talab etadiki, Nurboy Jabborovda esa bu fazilatlar mujassamdirl. *“Maoniy ahli vasfi”* deb nomlangan faslda “ma‘ni” va “ahli maoniy” tushunchalari hazrat Alisher Navoiyning dunyoqarashi va ijodiy konsepsiyasini belgilab berganligi, ularga zid ravishda “surat” va “ahli surat” atamaları ham qo‘llanganligi, ahli maoniyning yuksak maqomga egaligi, ahli ma‘ni va ahli surat o‘rtasidagi munosabat masalalari izchil yoritilgan. Sinchi olim “ma‘ni”, “maoniy” istilohlarining mohiyatini “G‘iyosu-l-lug‘ot”da “Muntaxabu-l-lug‘at”, Dehxudoning “Lug‘atnoma”, “Al-mo‘jamu-l-vasiy” singari turli davr va makonlarda yaratilgan lug‘atlarga tayanib, izohlangan. Alisher Navoiyning Badoyi‘u-l-bidoya” devoni debochasi, “Favoyidu-l-kibar” devoni, Hazrat Navoiy “Hayratu-l-abror” dostonlarida kelgan mazkur terminlar orqali ifoda etilgan umuminsoniy g‘oyalar ochib berilgan.

“Mirzo Ulug‘bek davri adabiyoti Alisher Navoiy talqinida” tarzida sarlavhalangan faslda Mirzo Ulug‘bek va uning davri adabiyotiga doir qarashlar o‘z ifodasini topgan. Bunda Nurboy Jabborov quyidagi tasnifni keltiradi: “Hazrat Alisher Navoiy asarlaridagi ushbu mavzuga doir fikrlar va talqinlarni quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin: 1) ulug‘ shoir asarlarida Mirzo Ulug‘bek vasfi; 2) uning zamonida yuzaga kelgan adabiy muhit va ushbu muhit namoyandalari ijodiga munosabat; 3) bu hukmdor davrida adabiy-estetik tafakkur rivoji”[4, 120]. Avvalo, “Farhod va Shirin” xotimasida Mirzo Ulug‘bekning adolatli podshoh sifatida ibrat qilib ko‘rsatilishi, “Majolisu-n-nafois”da qomusiy bilimlar egasi, tab‘idagi nazmga bo‘lgan mayl (o‘g‘li Abdullatifda ham) borligi aytilgan. Shu o‘rinda adabiyotshunos bitta o‘rinli taklif va ilmiy g‘oyani aytib o‘tgan: “Mirzo Ulug‘bek va Abdullatif Mirzoning she‘riy asarlarini topish va tadqiq etish adabiyotshunoslik oldida turgan vazifalardandir”[4, 120].

Adabiyotshunos olim *Mirzo Ulug‘bek davri adabiy muhiti va namoyandalari haqida* fikr yuritar ekan, Mirzo Ulug‘bek davrida “ahli zurafo ustozlari” deya ta‘riflangan Xatoiy taxallusli Mavlono Mir Qarshiy, Xoja Ismatullo Buxoriyning shogirdi Mavlono Xayoliy, Mavlono Kavsaroy kabi yana o‘nlab shoiru adiblar qizg‘in ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanganligini qayd etadi.

Kitobning uchinchi bobida **“Xamsa” – buyuk badiiy obida** sifatida o‘rganilgan. “Xamsa”ning kaliti” tarzida sarlavhalangan dastlabki faslda sinchkov olim “Xamsa” dostonlarining ibtidosi – “Hayratu-l-abror”ning nomlanishiga e‘tibor qaratadi: “Shu paytgacha asar nomi “Hayratul-abror”, “Hayrat al-abror”, “Hayrat ul-abror”, “Hayratu-l-abror” shakllarida turlicha ifodalanib keldi. Nashr variantida “Hayrat ul-abror” tarzida berilgan. Biroq mohiyatan “Hayratu-l-abror” shaklida tabdil qilinishi to‘g‘riroq. Negaki, “u” tovushi aslyatda “Hayrat” so‘zi bilan birga qo‘llanadi. Uni hech qanaqasiga “abror” tarafga o‘tkazib bo‘lmaydi. Izofa talabiga ko‘ra, “al” aniqlik artiklidagi “a” o‘qilmaydi. “L” harfini o‘rtada ikki tarafdan chiziqcha bilan ajratib ifodalash eng to‘g‘ri yo‘ldir. Shunga ko‘ra, biz asar nomini “Hayratu-l-abror” shaklida qo‘llaymiz”[4, 138-139]. Bunda N.Jabborovning ziyrak matnshunos nigohi ko‘zga tashlanadi: u arab yozuvi va grammatikasini yaxshi bilganligi bois tabdildagi qusurni to‘g‘ri ko‘rsatgan. Shuning o‘zi adabiyot ilmidagi yangilikdir. Bizningcha, bundan keyin mumtoz nomlarni yuqoridagi kabi ifodalashni an‘anaga aylantirish orqali bu boradagi xilma-xilliklar bartaraf etish mumkin bo‘ladi. Dostonni ustoz-adabiyotshunos “majozan bu buyuk beshlikning kaliti” deya ta‘riflaydi.

“Buyuk shoirning ijod konsepsiyasi” faslida ulug‘ ozarbayjon shoiri Shayx Nizomiy Ganjaviyning “Panj ganj”i, Alisher Navoiyning “Xamsa”si o‘zaro qiyoslangan.

Bobning *“Ona obrazining poetik suvrati”* deb nomlangan faslida ulug‘ mutafakkir asarlaridagi ona obrazining badiiy tajassumi yoritilgan. Bu haqda ustoz-adabiyotshunos yozadi: “Hazrat Navoiy asarlarida ona obrazi tasvirini shartli ravishda quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin: 1) omma hayotida ona obrazi; 2) xoslar – podshohlar va avliyolar taqdirida onaning o‘rni. Har ikki turda ham ona

obrazi tasviri ikki asosga – birinchidan, milliy ruhga, millatimizning asl tabiatida azaliy boʻlgan onaga ehtirom tuygʻusiga; ikkinchidan, Qurʼoni karim va hadisi sharif ahkomlariga tayanadi”[4, 158]. Birinchi tasnifga koʻra, olim omma uchun kelgan ilohiy amrlar va shu mazmundagi hadislar asosiga qurilgan “Hayratu-l, abror”dagi baytlar mohiyatini ochib beradi.

Kitobning keyingi bobi “Diniy-maʼrifiy asarlar mohiyati” deb nomlangan. “*Arbaʼin*”da maʼrifiy mazmun va badiiy shakl mutanosibli” tarzida sarlavhalangan dastlabki faslda asarning 1968 (Porso Shamsiyev), 1991 (Karimbek va Sayidbek Hasan, Masʼudali Hakimjon) va 2011 (Suyima Gʻaniyeva) yillardagi nashrlari matnshunoslik nuqtayi nazaridan qiyoslangan.

Bobning keyingi faslida “*Siroju-l-muslimin*”da aqoid va fiqh masalalarining badiiy ifodasi” yoritilgan. Dastlab bunda asardagi hamd va naʼt qismlari tahlil etilgan. Unda koʻtarilgan masalalar 4 qismga boʻlib oʻrganilgan: 1. *Iymon keltiriladigan narsalarning tafsiloti*. 2. *Alloh taoloning sakkiz sifati*. 3. *Haq deb bilinishi aqidadan hisoblangan boshqa narsalar*. 4. *Fihiy masalalar ifodasi*.

Kitobning soʻnggi bobi “**Navoiyga izdoshlik saodati**” deb nomlangan. Unda Navoiy va Furqat ijodi qiyoslangan. Maʼlumki, Nurboy Jabborov Furqat ijodining yirik tadqiqotchisi, shoir asarlarini nashrlarini amalga oshirgan zahmatkash olim. Shuning uchun ham turli davrning ikki katta shoiri ijodidagi uygʻunliklarni nozik did va oʻtkir nigoh bilan topa olgan hamda Furqatni chin maʼnoda ulugʻ mutafakkirning izdoshi sifatida talqin etgan: “Furqat sheʼriyatida buyuk Navoiy anʼanalarining munosib davom ettirilishi va yangilanishini quyidagi tamoyillar asosida oʻrganish mumkin: 1. Poetik mazmun yangilanishi. 2. Poetik obraz takomili. 3. Poetik janr yangilanishi. 4. Vaznda tatabbuʼ qilish”[4, 207].

Ustoz-adabiyotshunos Furqat sheʼriyatidagi uning **munojot-gʻazali, munojot-musaddaslari** tahlili orqali rus mustamlaka siyosati, istibdod sharoitida millat hayotining barcha jabhalari asoratga solinganligi, milliy istiqloлга, nurli istiqbolga eltuvchi barcha yoʻllar batamom toʻsilganligini poetik mazmun yangilanishi sifatida baholaydi.

Bobdan “*Navoiy va Abdulla Oripov*” fasli ham oʻrin olgan. Undagi fikr-gʻoyalar nihoyatda ohorli. XV asrning murakkab sharoitida yashagan mutafakkir ijodkor bilan yangi zamonning donishmand shoiri yaratgan bitiklar oʻzaro solishtirilgan.

Xulosa. Umuman olganda, nuktadon adabiyotshunos, oʻtkir nigohli matnshunos Nurboy Jabborovning “Maoniy ahlining sohibqironi” nomli monografiyasi istiqloл davri navoiyshunosligining yangi sahifasini tashkil etadi. Akademik Sh.Sirojiddinov yozganiday: ushbu kitob “buyuk shoir ijodiyotining faqat zohiriy mazmuni va badiiy shakl xususiyatlarinigina emas, balki teran botiniy maʼno qatlamlarini anglash va anglatish” yoʻlidagi muhim va dadil qadam sifatida ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR:

1. Сирожиддинов Ш. Илмий ҳақиқат ёғдуси ёхуд янги давр навоийшunosлигининг муҳим ютуғи// Янги Ўзбекистон, 2022 йил 23 апрель. – №81. – Б. 6.
2. Юсупова Д. Буюк мутафаккир ижод оламига яқинлашув// Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2022-йил 1-январ. – № 1 (4660). – Б. 4.
3. Биннатова Алмаз Улви. Профессор Нурбой Жабборов// Шарқ, 2024. – 11 октябрь. – С.7. (Боку)
4. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т.: Адабиёт, 2021. – 258 б.
5. Ўраева Д., Қувватова Д., Тўраева У. Хайрат, илм, эътикод. (Ижодий портрет). – Бухоро: Sadriddin Salim Вухорӣ, 2026. – 124 б.

Mizrabova Jeren Ismailovna,
BuxDU Fakultetlararo chet tillar kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
(O'zbekiston)
E-mail: inbox.mizrabova@mail.ru

“LINGUOPOETICS AND METHODOLOGICAL APPROACHES IN LITERARY ANALYSIS”

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvopoetikaning nazariy asoslari, uning lingvostilistika va adabiyotshunoslik bilan o'zaro aloqadorligi hamda badiiy matnni tahlil qilishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda lingvopoetik tahlilning asosiy tamoyillari, uning xarakteri va matnni yaxlit badiiy-g'oyaviy birlik sifatida o'rganish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqidning lingvopoetik tahlil uchun metodologik ahamiyati ko'rsatilib, badiiy asar tilining estetik va semantik qatlamlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi. Maqola lingvopoetik yondashuvning zamonaviy filologiyada badiiy matnni yanada obyektiv va chuqur talqin etish imkonini berishini ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Lingvopoetika, lingvostilistika, badiiy matn tahlili, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, estetik ta'sir, metodologik yondashuvlar.

Аннотация. В данной научной работе рассматриваются теоретические основы лингвопоэтики, её взаимосвязь с лингвостилистикой и литературоведением, а также её значение в анализе художественного текста. В исследовании раскрываются основные принципы лингвопоэтического анализа, его концептуальные особенности и необходимость рассмотрения художественного произведения как единого художественно-идеологического целого. Также подчеркивается методологическая значимость литературной теории, истории литературы и литературной критики для лингвопоэтического исследования, а также анализируется взаимодействие эстетического и семантического уровней художественного языка. В статье утверждается, что лингвопоэтический подход позволяет обеспечить более объективную, системную и глубокую интерпретацию художественных текстов в современной филологии.

Ключевые слова: лингвопоэтика, лингвостилистика, анализ художественного текста, теория литературы, история литературы, литературная критика, эстетический эффект, методологические подходы.

Abstract. This study explores the theoretical underpinnings of linguopoetics, its relationship with linguostylistics and literary studies, and its significance in literary text analysis. It outlines the fundamental principles of linguopoetic analysis, its conceptual framework, and the importance of interpreting literary works as cohesive artistic and ideological entities. The research further underscores the methodological relevance of literary theory, literary history, and literary criticism in linguopoetic inquiry, while examining the interaction between the aesthetic and semantic dimensions of literary language. The paper argues that a linguopoetic approach facilitates a more systematic, objective, and profound interpretation of literary texts within modern philological research.

Keywords: Linguopoetics, linguostylistics, literary text analysis, literary theory, literary history, literary criticism, aesthetic effect, methodological approaches.

Kirish. The complexity of literary works arises largely from the challenges involved in interpreting their distinctive linguistic features. It is widely acknowledged that fundamental categories of literary studies - such as style, genre, composition, rhythm, theme, plot, conflict, character, artistic idea - play a crucial role in shaping the understanding of a literary text. The core of knowledge within literary studies provides researchers with essential tools for analyzing literary works, interpreting the author's language and stylistic choices, and comprehending the underlying ideas conveyed in the text.

Moreover, key literary concepts including form and content, theme and idea, plot structure, composition, pathos, literary genres and types, figures of speech, artistic language, and style function as analytical instruments for identifying the author's linguistic expression and artistic-ideological intentions across texts of various styles. These concepts enable scholars to conduct systematic and comprehensive literary analysis from a theoretical perspective.

However, in the analysis of literary texts, particular emphasis should be placed on linguistic characteristics, specifically on artistic-linguistic devices that serve not only as means of representing reality but also as forms of imagery. The artistic world created by the author becomes a source for figurative language, which manifests in the text through diverse expressive devices. Additionally, words with neutral semantic meanings and freely combined lexical units frequently employed in prose may acquire supplementary connotations and evoke new associations, thereby functioning as innovative means of artistic expression.

In recent years, the distinctive features of literary texts have increasingly been examined from diverse methodological perspectives. Notably, there has been a growing demand for comprehensive and systematic approaches to the analysis of literary works, emphasizing detailed, step-by-step investigation. Philological analysis of literary texts, therefore, necessitates the integration of both literary and linguistic perspectives, highlighting the close interrelationship between literary studies and linguistics. At the same time, contemporary scholarship suggests that analyzing literary works solely from either a linguistic or literary standpoint is insufficient for uncovering their full meaning and artistic value. In this context, V. V. Vinogradov proposed the establishment of a specialized philological discipline-linguopoetics-focused specifically on the study of the language of literary texts. Moreover, the synthesis of stylistic approaches within linguistics and literary studies has facilitated the development of linguopoetics as an independent branch of philology.

Linguopoetics primarily investigates the system of artistic language devices within a literary work that reflect the author's ideological and aesthetic conception and contribute to the creation of artistic impact. Accordingly, linguopoetic analysis aims to explore how the unique combinations of linguistic elements – such as lexical units, phrases, idiomatic expressions, grammatical forms, and syntactic constructions – employed by the author function to generate aesthetic meaning and expressive effect within the literary text.

Linguopoetics is a field of philology that focuses on the study of the poetic characteristics of language and the structural organization of poetic texts. It considers language as an essential instrument for conveying aesthetic and artistic meanings. Typically, linguostylistic analysis can be conducted at two primary levels: semantic and metasemiotic [1, 247.]. At the semantic level, linguistic elements – such as words, phrases, and syntactic constructions are examined according to their direct lexical meanings. In contrast, metasemiotic analysis involves a shift from literal meanings to contextual functions, whereby linguistic units are analyzed based on the connotations and additional meanings they acquire within the literary context. However, due to the generalized nature of linguostylistic analysis, this approach may not fully reflect the unique features or the overall integrity of a literary work. Considering the complexity and artistic depth of literary texts, analysis should not be confined solely to the interpretation of meaning but should also aim to reveal the artistic and ideological content embedded within the work. This objective necessitates an integrated approach that highlights the interrelationship between language and poetics. Furthermore, it is important to explore the complex relationship between the speech characteristics of a literary text and its compositional and artistic structure, as well as to assess their aesthetic impact. Consequently, researchers are encouraged to move beyond preliminary stages of analysis and employ linguopoetic methods. Such an approach enables the examination of how authors utilize the metasemiotic properties of linguistic units, the purposes behind their usage, and their role in conveying the author's intention and the ideological and artistic meaning of the literary work. As mentioned above, in contrast to linguostylistic analysis – which is characterized by its broad applicability to any type of text or individual linguistic units, linguopoetic analysis is carried out only after the entire literary work has been thoroughly read, perceived, and interpreted. Conducting a linguopoetic analysis of a specific literary text requires the researcher to deeply engage with the author's ideological framework and to develop a comprehensive understanding of the writer's artistic vision, worldview, aesthetic orientation, and relationship to cultural and philological traditions.

For instance, in contrast to linguostylistic analysis, which may function as a foundational tool for linguopoetic studies, literary scholarship supplies linguopoetics with important encyclopedic forms of knowledge. In particular, during the linguopoetic examination of a given literary text, the researcher may draw on literary theory and historical studies to gain insight into the genesis of the work, the broader socio-historical circumstances of its period, and relevant biographical information about the author.

Furthermore, the researcher may undertake comparative analyses of texts that are similar in their thematic content and stylistic features, in order to identify both shared and divergent aspects of their linguopoetic patterns. Such an approach makes it possible to justify similarities and differences within the overall artistic-ideological and linguistic organization of the works at a comprehensive and integrative level.

In V. Y. Zadornova's studies, several key distinctions between linguostylistics and linguopoetics are outlined. First, linguostylistics is considered applicable to all registers and types of texts, whereas linguopoetics is limited specifically to works of fiction. Second, linguostylistic analysis focuses on individual stylistic features of a text and its concrete linguistic material; however, such an approach is deemed insufficient for linguopoetic research, as linguopoetics is primarily concerned with the aesthetic effect and emotional response generated within a literary work. Third, linguostylistic analysis may be carried out on virtually any segment or fragment of a text, regardless of its nature or completeness [2, 39].

The linguostylistic approach described above may also be inadequate for linguopoetic investigation. In particular, linguopoetic analysis is broader in scope and requires that textual material not be studied in isolation but instead be examined as an integral whole at the level of the complete literary work. This is because analyzing a corpus of literary texts without sufficient contextualization may undermine the reliability of taxonomic generalizations and call their validity into question.

Overall, the execution of linguopoetic analysis demands a high degree of professional competence from the researcher. It is essential for the investigator to be well-versed in the historical, cultural, linguistic, linguostylistic, and other areas of knowledge necessary for accurately interpreting a literary work and its artistic idea. In other words, a philological scholar should be capable of appreciating the art of language and comprehending a literary text as an integrated and coherent whole.

The primary objective of linguopoetics is to examine the relationship between the content and form of literary works under analysis. A philologist-linguist engaged in comparative linguopoetic research cannot confine their investigation solely to the thematic content of a text. This is because, within this framework, linguopoetics is not considered a purely linguistic discipline but rather a specialized methodological approach within philological analysis that is more closely aligned with literary studies [3, 9.]. Consequently, it is necessary to take into account the interconnections between linguopoetics and literary theory, literary history, and literary studies as a whole.

As is well established, literary studies is the academic field that explores literature, including its origins, nature, and developmental stages. In broad terms, literary studies encompasses a wide range of subdisciplines; however, this study focuses on three principal areas most directly related to linguopoetics: literary theory, literary history, and literary criticism. Specifically, literary theory addresses the fundamental principles underlying the structure and evolution of literature. Literary history investigates literary processes of the past or selected segments of these historical developments. Literary criticism, in turn, assesses the more recent and contemporary state of literature, as well as literary history, from the standpoint of prevailing socio-aesthetic criteria.

The field of literary theory has a broad scope, as it is "focused on defining and explaining the essence of literary art" [3, 78.]. By contrast, linguopoetics is concerned with the study of particular, selected literary works. Nonetheless, there are significant points of intersection between linguopoetics and literary theory. A considerable number of studies in literary theory are integrative in nature, which brings this discipline closer to linguopoetic analysis. In particular, when interpreting a literary text, the researcher must first acquire a strong understanding of the theoretical foundations of literary studies, including its forms, genres, and movements. Furthermore, in linguopoetic research, it is necessary to determine the literary current and genre of a work in order to properly assess its artistic value.

Literary history examines the development of world literature or the literary tradition of a specific nation, as well as the creative evolution of individual authors. This discipline provides researchers with essential factual information and forms an important basis for linguopoetic interpretation. In this context, the notion of "vertical context" [4, 17], which includes objective historical, philological, and socio-cultural data related to a literary text, is particularly significant. It is crucial for identifying the sources of allusions and quotations in a work and for understanding their linguopoetic role.

Taking into account the above-mentioned relationships between linguopoetics, literary theory, and literary history, it is also important to emphasize the significance of literary criticism for linguopoetic studies. Literary criticism aims to interpret both the content of a work and its artistic-ideological features.

However, its usefulness in linguopoetic research depends on the objectivity of its conclusions. It is well known that literary criticism is often shaped by particular theoretical approaches or the viewpoints of individual critics. Therefore, for it to be relevant to linguopoetic analysis, it should primarily focus on literary and aesthetic aspects.

The renowned literary scholar A.A. Lipgart also made a significant contribution to the development of methods in linguopoetic research. One such approach focuses on identifying the thematic and stylistic characteristics of a particular artistic device within specific literary works. For instance, studies of the relationship between authorial narration and character speech in drama as a linguopoetic issue [5, 87.] among others, may be regarded as examples of such analytical methods.

It should be emphasized that all the aforementioned approaches are grounded in a common principle – the integrated examination of both form and content in literary texts. Accordingly, linguopoetic analysis of prose is concerned with exploring the intricate interaction between the linguo-stylistic system and the compositional-artistic structure of a work, as well as its aesthetic effect. Our study likewise employs a comparative linguopoetic approach to the analysis of thematic layers in prose texts. Furthermore, we examined the role of free word combinations and other linguistic units in expressing the author's intentions and conceptual ideas. In particular, linguopoetic analysis essentially involves the investigation of stylistic and linguistic material in relation to the compositional, narrative, and artistic features of the text.

As observed, comparative linguopoetic analysis allows the reader to understand how combinations of various linguistic means operating at different levels of a literary work contribute to the creation of imagery and the emotional-aesthetic response intended by the author. Consequently, such analysis is not confined to the principles of literary theory in assessing the ideological and artistic significance of a work; rather, it is based on concrete linguistic and stylistic data or their combinations, representing one of the key achievements of contemporary linguopoetics.

It is widely acknowledged that in recent years interest in the language of literature and its linguopoetic norms has been steadily increasing. It is also evident that readers interpret and evaluate literary works according to their personal experience and aesthetic preferences. This has led scholars across various branches of philology to pay greater attention to literary studies, thereby reinforcing the need for such research. Thus, literary linguopoetics seeks to further objectify our understanding of literature.

In general, philological analysis should not be restricted solely to the examination of artistic and stylistic devices, since the formation of diverse connotative meanings through various combinations of neutral linguistic elements is a natural feature of literary discourse. Moreover, the overuse of stylistic devices does not necessarily determine an author's artistic skill, and it should be noted that even prose lacking overt stylistic ornamentation can possess a high degree of imagery. Therefore, any linguistic element within carefully constructed combinations may perform a significant aesthetic role in producing imagery and representation. In such cases, the semantic range of a word or free word combination may give rise to additional artistic meanings, namely secondary connotations.

Conclusion. Linguopoetics approaches a literary work not merely through isolated linguistic or stylistic elements, but in an integrative manner that relates them to the work's artistic and ideological dimensions. For a more comprehensive and objective linguopoetic interpretation, it is often necessary to move beyond a single textual fragment, or even beyond the text itself, and consider the author's broader corpus and biographical context, as well as to conduct comparative analyses with works of similar stylistic orientation. Within this framework, linguopoetic analysis explores the correlation between the intrinsic meaning of a literary work and the poetic qualities of its language as an organic unity. Such an approach enables the identification of distinctive features of the text's linguistic organization—such as the deployment of artistic devices, imagery, metaphorical structures, and the interaction of neutral and stylistically marked lexical units—and the interpretation of their artistic and ideological functions. Ultimately, this facilitates a more nuanced understanding of the aesthetic value of the literary work and its overall artistic specificity.

LITERATURE:

1. Полубиченко Л.В. Филологическая топология: теория и практика. Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1991. – 729 с.

2. Задорнова В.Я. Стилистика английского языка. Методические указания. – М.,1986. – 236 с.
3. Lipgart A. A. Osnovy lingvopoetiki. – Moscow: KomKniga, 2006. –326 p.
4. Polubichenko L. V. Filologicheskaya topologiya: teoriya i praktika. Doctoral dissertation. – Moscow, 1991. – 230 с.
5. Ешмамбетова З.Б. Соотношение авторской речи и речи персонажа как лингвопоэтическая проблема (на материале английского языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1984. – 180 с.

O'roqova Nafosat Yoriyevna,
Buxoro davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
dotsenti, f.f.f.d.(PhD) (O'zbekiston)
E-mail: n.y.uurooqova@buxdu.uz
Olimova Zilola Iskandar qizi,
Buxoro davlat universiteti
talabasi (O'zbekiston)
E-mail: Iskandarovna0802@gmail.com

YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA QUSH OBRAZINING RAMZIY-FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya. Maqolada yangi o'zbek she'riyatida qush obrazining badiiy-estetik, ramziy-semantik va funksional xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda turna, kabutar, qarg'a, burgut, mayna kabi qush timsollarining turli shoirlar ijodida tutgan o'rni qiyosiy-tipologik asosda o'rganiladi. Qush obrazlari orqali inson ruhiyati, individual kechinmalar, ijtimoiy muammolar, falsafiy mushohadalar hamda milliy-madaniy qadriyatlarining ifodalanish mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, ramz va timsol tushunchalarining nazariy asoslari yoritilib, badiiy matnda ularning semantik qatlamlari, konnotativ ma'nolari hamda poetik funksiyalari aniqlanadi. Shuningdek, obrazlarning lirik qahramon ruhiy olami bilan o'zaro aloqasi, poetik tafakkurdagi transformatsiyasi hamda an'anaviy va individual talqinlari tahlil etiladi. Maqolada struktural, semantik, qiyosiy va interpretativ tahlil metodlaridan foydalanilgan bo'lib, qush obrazining yangi o'zbek she'riyatidagi ko'p qirrali badiiy imkoniyatlari ochib beriladi. Natijada, ushbu obrazlarning nafaqat estetik, balki ijtimoiy-falsafiy yuklamaga ega ekanligi ilmiy asosda dalillanadi.

Kalit so'zlar: qush obrazi, ramz, timsol, yangi o'zbek she'riyati, falsafiylik, poetik tafakkur, lirik qahramon, badiiy obraz

Аннотация. В статье комплексно анализируются художественно-эстетические, символическо-семантические и функциональные особенности образа птицы в новой узбекской поэзии. В исследовании на основе сравнительно-типологического подхода рассматривается место таких образов как журавль, голубь, ворона, орёл и майна, в творчестве различных поэтов. Через данные образы раскрываются механизмы выражения внутреннего мира человека, индивидуальных переживаний, социальных проблем, философских размышлений, а также национально-культурных ценностей. Также освещаются теоретические основы понятий символа и художественного образа, определяются их семантические слои, коннотативные значения и поэтические функции в художественном тексте. Анализируется взаимосвязь образов с внутренним миром лирического героя, их трансформация в поэтическом мышлении, а также традиционные и индивидуальные интерпретации. В статье используются структурный, семантический, сравнительный и интерпретационный методы анализа, что позволяет раскрыть многогранные художественные возможности образа птицы в новой узбекской поэзии. В результате научно обосновывается, что данные образы обладают не только эстетической, но и социально-философской нагрузкой.

Ключевые слова: образ птицы, символ, художественный образ, новая узбекская поэзия, философичность, поэтическое мышление, лирический герой, эстетическая категория

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the artistic-aesthetic, symbolic-semantic, and functional features of bird imagery in modern Uzbek poetry. Using a comparative-typological approach, the study examines the role of such images as the crane, dove, crow, eagle, and myna in the works of various poets. Through these images, the mechanisms of expressing the human inner world, individual emotions, social issues, philosophical reflections, and national-cultural values are revealed. The paper also outlines the theoretical foundations of the concepts of symbol and image, identifying their semantic layers, connotative meanings, and poetic functions within literary texts. Furthermore, it analyzes the relationship between imagery and the lyrical subject's inner world, its transformation in poetic thinking, as well as traditional and individual interpretations. The study employs structural, semantic, comparative, and interpretative methods, which allow for revealing the multifaceted

artistic potential of bird imagery in modern Uzbek poetry. As a result, it is scientifically substantiated that these images carry not only aesthetic but also socio-philosophical significance.

Keywords: bird imagery, symbol, artistic image, modern Uzbek poetry, philosophical depth, poetic thinking, lyrical subject, aesthetic category

Kirish. Badiiy adabiyotda obrazlar tizimi asarning mazmun-mohiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ramziy obrazlar orqali shoir o'zining ichki kechinmalarini, jamiyatga munosabatini va falsafiy qarashlarini chuqur ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Yangi o'zbek she'riyatida qush obrazlari ana shunday serqirra timsollar sirasiga kiradi. Qushlar azaldan erkinlik, tinchlik, ezgulik, ayriliq, g'am yoki umid kabi tushunchalar bilan bog'lab talqin etilgan. Shu bois ular she'riy matnda oddiy tasvir vositasi bo'lib qolmay, balki muayyan g'oya va mazmuni ifodalovchi ramz darajasiga ko'tariladi.

Asosiy qism. Yangi o'zbek she'riyatida qush obrazi ko'pincha umr o'tkinchiligi, vaqt masofasi va insonning hayot bosqichlarini ifodalashda qo'llanadi. Masalan, Asqad Muxtor she'rlarida turna obrazi yoshlik va erkinlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Turnalarning osmonda tizilib uchishi – tartib, go'zallik va hayotning uyg'unligini anglatadi. Bu obraz orqali shoir inson hayoti davomiyligi va uning o'tkinchi mohiyati haqida falsafiy mushohada yuritadi. Shoirning “Zarrama-zarra” nomli she'rida umr masofasi – yoshlik va qarilik o'rtasidagi vaqt masalasi yoritilgan. Falsafiylikka yo'g'rilgan she'rda lirik qahramon o'z savollariga javob qidiradi:

Mensiz tong yulduzi hamon porlasa,
Osmonda turnalar uchsa tizilib,
Qizlar qahqahasi yangrasa mensiz...
Yo'q, axir, bu qanday adolatsizlik?! [2, 49]

She'rda yoshlikning ifodachisi sifatida **turna obrazi** qo'llangan. Odatda, bahor fasli kelishi bilan ular musaffo osmonda bir xil tizilib, maxsus guruh hosil qiladilar. Turnalar tinch yurt, musaffo osmon ostida erkin ucha oladi. Shu jihatdan, ular, o'z navbatida, **tinchlik ramzini** ham ifodalaydi.

Muhammad Yusuf o'zining “Turnalar” she'rida esa bugungi kunning global muammosini ko'tarib chiqqan. Bunda odamlar orasida mehr-oqibatning yo'qolib borayotganligi shoir ko'ngliga g'ulg'ula solganligini his etish mumkin:

Qush emas, xullas kalom,
Biri bobom, biri momom.
Jonlari jannatni ko'zlab,
Ketayotir turnalar!..
Issiq-issiq yurtlar izlab,
Ketayotir turnalar [7, 210].

Shoir osmonda parvoz etayotgan turnalarning birini bobosiga, birini momosiga qiyoslaydi. Mazkur o'rinda jannat halovat maskani, issiq yurt ham shunga mos ravishda mehr-muruvvatli go'sha ma'nosida kelgan. Umr o'tgani, yosh ulg'aygani sayin insonning qalbi bolaga aylanib boraverar ekan. Ularning ko'ngli noziklashib, atrofdagilarning mehr-u oqibatiga intiq bo'lishadi. Shuning uchun keksalarga hamisha mehr va e'tibor ko'rsatish lozim. Shoir insonlar orasida mehr-oqibat kamayib ketayotganligini turna ramziy obrazi va tasvirlar orqali ochib beradi. Ularning issiq o'lkalarni izlab ketishi – qariyalarning mehrga muhtojligi bilan parallellik kasb etgan.

Mirtemirning to'rg'ay qushi obrazlantirilgan “Bo'zto'rg'ay” sarlavhali she'ri mavjud. Unda qator to'rg'aylar tizmasi tasviri bir ipga osilgan qushlardek taassurot uyg'otadi. Turnalarning osmon-u falakda charx urib, baxtni tarannum etishi yurtdagi tinchlik, osoyishtalikdan dalolat beradi. Qushlarning quvnoq “chah-chah”lari shundan darak beradi. Demak, she'rda **to'rg'aylar tinchlik timsoli** sifatida gavdalandirilgan:

Yopiray, munchalar shaydo mittijon
Munchalar sayroqi va xushovoz bu,
Munchalar afsungar, muallaqboz bu,
Ham oshar, ham tushar, boqaman hayron [6, 101].

Shoir osmonga boqib, shaydo mittijonlarning harakatlaridan hayratga tushadi. “Munchalar” so'zining uch o'rinda takror kelishi, “ham oshar, ham tushar” satri qushning tinib-tinchimasligini

bildiradi. She’rda qo‘llangan “muallaqboz” yangi so‘z bo‘lib, vaqtincha degan ma’noga mos keladi. Sayroqi, xushvoz, afsungar kabilar sifatlash bo‘lib, bular ham to‘rg‘ayning xususiyatlarini bildiradi.

Maqsud Shayxzodaning “Kabutarlar” she’rida insonlar bilan yonma-yon yashab kelayotgan, uning mehrini qozongan qushlar obrazi yaratilgan:

Rasmingizning sadaf belgisin
Ko‘kragiga taqadi qizlar,
El-uluslar hurmat – sevgisin
Simvolingiz orqali so‘zlar [5, 237].

Kabutar qadimdan **tinchlik, musaffo osmon ramzi** bo‘lib kelgan. She’rda lirik qahramon uni hamsoya – qo‘shni, deb ataydi. Bundan ko‘rinadiki, insonlar kabutarlarning yaxshilik keltirishiga ishonishadi. Ularga ayvonlarining to‘ridan joy ajratishadi.

Kabutarlar ba’zan kaptarlar tarzida ataladi. Bu ikki nom ham bir qush ma’nosini anglatadi. Asqad Muxtorning “Kaptarlar” she’ri bunga misol bo‘ladi.

Tinchlik kaptarining dadil parvozi
Bolalar qalbiga zo‘r quvonch soldi.
Kaptarlar shularning baxtli ovozi,
Qanotli qo‘shigi, talpingan qalbi [3, 50].

“Tinchlik kaptari”ning chiroyli parvozi bolalar qalbiga quvonch baxsh etadi. Shu jihatdan, shoir kaptarlarni bolalarning baxtli ovozi, qanotli qo‘shig‘i, talpingan qalbi, deya ta’riflaydi. Demak, kaptar tinchlik bilan birga ezgulik ramzini ham bildirib keladi.

Uning “Yangi kun tug‘ilar” she’rida esa kaptar obrazi yana boshqa bir ma’noni ifodalab kelgan:

Yangi kun tug‘ilar go‘yo oq kaptar,
Olamga momiqday yoyilar nuri [2, 45].

Natija va muhokamalar. Ko‘rinadiki, shoir bunda **oq kaptarni tongga** qiyoslagan. Quyoshning ilk nurlarini esa uning momiq patlariga tenglashtirgan. O‘xshatish san’atini mohirona va o‘rinli qo‘llash orqali shoir mana shunday yangi badiiy topilma yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

She’riyatda lirik qahramonning boshqalarga, atrofda narsalarga xitob qilishi, ularga murojaat etgan holda o‘zining ichki kechinmalarini, tuyg‘ularini bayon qilishi nido (murojaat) san’atini hosil qiladi. U orqali she’riy asardagi timsollarning ma’naviy qiyofasi jonli ifoda etiladi:

Ey, **kabutar**, she’rim olib
Yori dilxohimga yet.
Yor mening ohimga yetmas,
Endi sen ohimga yet.
Oshiq ahli ichra tengsiz
Bir gadodanman deb ayt,
Husn mulki ichra hech bir
Tengi yo‘q shohimga et [13, 316].

Alisher Navoiyning mashhur “Ey, nasimi subh, ahvolim diloroming‘a ayt” deb boshlanadigan g‘azali ruhi, mazmuni, ohangida bitilgan ushbu satrlarda mazkur san’at ishlatilgan. Agar Alisher Navoiyning lirik qahramoni – oshiq o‘z dil rozlarini yoriga subh – tong shamoli orqali yetkazishni istagan bo‘lsa, Erkin Vohidovda esa bu vazifani kabutar ado etadi. Umuman, ko‘ngil izhorlarini shunday yetkazish an’anasi, avvalo, xalq dostonlarida (“Ravshan”da Ravshanning bandilikdagi holati xabarini aqlli mayna qushi olib borgan), keyin esa o‘zbek mumtoz sheriyatida an’anaviylashgan.

Shodmon Sulaymonning “Ona tilim” she’rida afsonaviy **humo qushi** xuddi shunday xushxabar eltuvchi vazifasini bajarib kelgan. Ma’lumki, bu qushning ezgulik va baxt ramzi bo‘lib kelishi an’anaviy tus olgan. Zero, qadimiy afsona va rivoyatlarda ularning g‘ayrioddiy xususiyati, insonlarga baxt olib kelishi tasvir etilgan:

Humo qanotida sehrli maktub –
Keksa Nuh yo‘llagan o‘g‘li Yofasga.
Bir zot ehtirom-la kaftida tutib,
Sayyoh so‘zlaringni “soldi qafasga” –
Ustoz Qoshg‘ariydan meros “Devon”im,
Ona tilim, onajonim [11, 17].

O‘zbek tilining qadimiyligi, ko‘hna tarixga egaligini ifodalash maqsadida shoir talmehlarga murojaat etadi. Ona tili nima? Shoir nazdida, u “Humo qanotida kekxa Nuhning o‘g‘li Yofasga yo‘llangan sehrli maktub”dir. Poetik fikr – o‘horli. Demak, shoir bu bilan Nuh payg‘ambar va uning o‘g‘li Yofasga ishora qilyapti. Yoxud o‘zbek tili tarixidagi durdona asar Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asaridir. Shoir shu ulug‘ manba va uning muallifiga ishora qilar ekan, ona tilining qadim tarixiga nazar soladi. Demak, humo qanoti – baxtning qanotida xalqqa yetkazilgan maktub – bu ona tilidir. Shodmon Sulaymonning milliylik ruhi ufurib turuvchi singillariga bag‘ishlangan she‘ri hayotiy mazmunga boy:

Musichadek qimtinaz, kamtar biram,
Bir-u borim O‘zi sizga qilsin karam,
Men kim bo‘ldim, ojiz banda akangiz ham,
Singillarim, yuragimning parchalari [11, 94].

Shoir singillarga mehrini izhor etar ekan, ularni yurakning parchasiga o‘xshatadi, go‘zalligini atirgulga, beozorligini musichaga qiyos etadi. Chunki qushlar ichida beozor qush sifatida musicha tilga olinadi.

Badiiy adabiyotning yashovchanligi ko‘plab omillarga bog‘liq. Uning qanday mavzuda yozilgani ham katta ahamiyatga molik. Ma‘lumki, abadiy mavzular she‘r yaratilgan ilk davrlardan buyon uning yashovchanligini ta‘minlab kelmoqda. Zero, olam yaralibdiki, inson ezgulik va yovuzlik, yorug‘lik va zulmat, mehr va qahr, urush va tinchlik kurashida toblanib keladi. Cho‘lponning “Kuz” she‘rida mana shu abadiy qarama-qarshi kuchlarning kurashi namoyon bo‘lgan. She‘r ramziy obrazlar bilan to‘la. Unda kuzning darakchisi **qarg‘alar** obrazi qo‘llangan bo‘lib, osmonda balo yanglig‘ qator bo‘lib tizilishlari tasviri bor. Ma‘lumki, Cho‘lpon ijodining bosh g‘oyasi – erkka da‘vat etishdir. Shu singari mazkur she‘rda ham buyuk Sharqning ayanchli ahvoli ifoda etilgan. Bu kuz, qarg‘a, qora bulut, sarg‘aygan barglar, sovuq va qora qish timsollari orqali namoyon bo‘lgan:

Balo yanglig‘ qator-qator chizilib,
Ko‘k yuzidan qarg‘alar ham o‘talar.
Sharqdek ichdan yashiringina ezilib,
Ko‘p jonlilar so‘nggi tinni kutalar [1, 30].

Demak, shoir yurt boshiga kelgan balolarni qarg‘a timsolida tasvir etgan. Qarg‘alarning yurt osmonidan balo yanglig‘ qator-qator uchib o‘tishi – vatan boshiga tushgan qora kunlarga ishora qiladi.

Asqad Muxtorning “Pop” etib naqsh olma tushdi yo‘lakka...” deb boshlanuvchi she‘ridagi **qarg‘a** obrazi boshqa mazmun tashiydi. Bunda shoir uning “iflos tumshug‘i”ga, doimiy ravishda axlatlarni titib yurishiga ishora qiladi:

Go‘zallikni ko‘rmas, naq ko‘r singari,
Xushbo‘y shirada ham ta‘m sezmaydi u.
Faqat olma qurtin ko‘rar ko‘zlari,
Undan faqat qurt izlaydi u [2, 46].

Bunda qarg‘aning go‘zallikni, xushbo‘y shirani emas, faqat olmaning qurtini ko‘rishi – uning hasadgo‘y inson obraziga parallel qo‘yilganligini ko‘rsatadi. Ichi qora, birovdan faqat ayb qidiradigan, dunyoning go‘zalligini his etmaydigan ayrim kimsalarning hayot tarzi qarg‘alarnikiga juda o‘xshaydi. Shu jihatdan, she‘rda falsafiy mazmun kuchaytirilgan.

Rauf Parfi she‘riyatida ham qarg‘a obrazi uchraydi:
Boshimda charx surar bo‘ronlar, qorlar,
Bir umr izg‘isa qarg‘alar, nahot,
Qaylarga qochdilar lochin, shunqorlar? [10, 279]

Shoir sonetlaridan birining uchlik qismida keltirilgan mazkur misralarda qarg‘a obrazi bor. Bu qush folklorida ham, mumtoz lirikada ham salbiy obraz sifatida gavdalanirilgan. Rauf Parfi ijodida har bir obraz qandaydir ma‘no tashishga xizmat qiladi. Ko‘ramizki, bo‘ron va qor timsollari qarg‘aga yondosh obraz sifatida qo‘yilgan. Ular birgalikda lirik qahramon boshiga kelgan tashvish-u balolarni ifodalab kelgan. Qarg‘a g‘am-tashvishlarning tashuvchisi sifatida gavdalangan. Eng muhimi, bu o‘rinda anglashimiz lozim bo‘lgan bir nuqta bor, bu ham bo‘lsa, lirik qahramon dard-u alaming ijtimoiylashganligidir, ya‘ni xalq, millat dardini o‘z dardi deb qabul qilganligidir. Lochin, shunqor unga

qarama-qarshi obrazlar bo‘lib, ijobiy ma’noda kelgan va yurtga fidoyi, millat jonkuyarlari ramzini ifodalagan.

Zulfiyaxonim ijodida **mayna** go‘zal va betakror tabiatning bir parchasi sifatida talqin qilingan. She‘r peyzaj lirikasining yorqin namunasidir. Unda tabiatning sof manzarasi chizilgan. Jim quloq solinsa, bir butun tabiatning jonli shiviri quloqqa eshitilganday bo‘ladi. Lirik qahramon shunday baxtga muyassar bo‘la olgan:

Sharqirar soy, shitirlar archa,
Mayna sayrar, kezar shabboda.
Bari butun tabiat bo‘lib,
Quchoqlaydi meni ko‘k tog‘da [14, 114].

She‘rda tashxis san‘atining go‘zal namunalarini uchratish mumkin. Bunda mayna obrazi o‘z ma‘nosida qo‘llangan. Tabiatning bir bo‘lagi sifatida poetik butunlikni ta‘minlashga xizmat qilgan.

Abdulla Oripov ijodida qushlar va hayvonlarga alohida e‘tibor qaratilgan:

Ulgursa yer yuzin aylardi taqir,
So‘ngra bir-birin yeb topardi barham.
Dunyoda insofli qushlar ko‘p axir,
Ular soyasida yashar mayna ham [8, 247].

Darhaqiqat, **mayna** kichkina qush bo‘lishiga qaramay, topganini “o‘marishga” o‘rgangan. Shu jihatdan, shoir yebto‘ymas insonlarni maynaga o‘xshatadi. Bunda mayna qushi salbiy ma‘no tashiydi.

Abdulla Oripovning “Burgut” nomli she‘rida falsafiy mazmun ramziy-timsolli fikrlash yo‘sinida ifoda etilgan:

O‘ynoqi shamollar ila basma-bas,
Ana, qo‘ndi burgut eng yuksak joyga!
Cho‘qqi uzra mag‘rur turdi-yu, birpas,
Yana bo‘ron misol qo‘zg‘aldi. Qayga ?..
Axir ne bo‘lardi bersang, tabiat,
Shu buyuk shiddatga yarasha maqsad [9, 68]!

Ma‘lumki, burgut juda mag‘rur, kuchli, qudratli qush. Shu ma’noda, u adabiyotda kuch-qudrat, mag‘rurlik ramzi bo‘lib keladi. She‘rda ham shunga yaqin badiiy mazmun bor. Zero, burgut katta shiddat bilan yuksak qoyaga qo‘nadi va cho‘qqida mag‘rur turadi. U yerdan bo‘ron misol qo‘zg‘aldi. Bunda yana o‘ziga xos hayotiy qiyos bor: burgutning harakatlari tabiatning nihoyatda kam kuzatiladigan hodisasi – bo‘ronga o‘xshatilgan. Demak, burgut va bo‘ron birlikda kuch-qudrat ramzini ifodalagan. She‘riy misralarda burgut kuch-qudratga to‘lgan, lekin hayotda maqsadini aniqlab olmagan yoshlarga ham qiyoslangan.

Abdulla Oripovning “Burgut qismati” she‘ri hayotiy lavhalarga boy bo‘lib, shoir badiiy tafakkurining eng yorqin chizgilarini namoyon eta olgan. Unda burgut timsoli qo‘llangan:

Quloqqa chalinar gohi-gohida,
Shunday bir rivoyat, shunday bir o‘git:
Nochor-u noiloj qolgan chog‘ida
O‘zini toshlarga urarmish burgut [8, 266].

Azaldan burgutga nisbatan mard, jasur, g‘ururi baland qush sifatida qarashlar mavjud bo‘lgan. Hayot qiyinchiliklariga, mushkulotlariga dosh berolmasa, burgut boshini toshlarga urar ekan. Bu haqdagi rivoyatlar qadimdan mavjud bo‘lgan. She‘rda bunday ayanchli manzara lirik qahramonni larzaga soladi. Bu tamsil – burgutning nochor holati va keksalikni yonma-yon qo‘yish asosida shoir inson qismatiga ishora qiladi. Chunki agar inson qarigan chog‘ida atrofdagilar e‘tibor, mehr ko‘rsatmasa, o‘zini toshlarga urgan burgut bilan qismatdosh bo‘ladi, deydi. Bunda, albatta, chuqur falsafa bor.

... Nahot sor burgutni shubhalar yengdi,
Nechun qarashingda azob surati.
Ne uchun ko‘zingda gohi-goh endi
Men uqib yetmagan to‘fon turadi... [12, 84]

Yuqoridagi misralar Halima Xudoyberdiyevaning “Iqrorlik” nomli she‘ridan olingan. Bunda “sor burgut” birikmasi qo‘llangan. E‘tibor berilsa, “sor” so‘zi faqat burgutning sifatlashi bo‘lib keladi. Bu so‘z boshqa qushlarga nisbatan ishlatilmaydi. She‘r matnidan anglashiladiki, ma‘shuqa bir zamonlar

oshiqning ko'ziga singganini tan oladi, sevilganiga shak keltirmaydi. Biroq vaqt o'tib, uning ko'nglida shubha-gumon paydo bo'ladi. U mana shu shubhalarga yengila boshlaydi. Demak, rashk va shubha o'tida yongan oshiq bu yerda sor burgutga – yirtqich qushga o'xshatilyapti.

Shoiraning "Tishsiz odam faryodi..." she'rida ham burgut, sor obrazi qo'llangan:

U borida ko'nglim burgut, sor edi-ku,
bugun og'ir qordaymi, tumanday yuray?
Birodarlar, kecha onam bor edi-ku... [12, 94]

She'dan anglashiladiki, lirik qahramon – shoir onasidan judo bo'lgan. Onasi hayotligida u juda xotirjam edi, o'zida burgutdagi kuch-qudratni tuyardi. Biroq aziz insonini yo'qotgandan so'ng u o'zini og'ir qor, tumanday his etadi. Bunda burgut lirik qahramonning shodlik damlaridagi kayfiyatini, og'ir qor bilan tuman esa qayg'uli chog'laridagi ruhiy holatini obrazli va ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan.

Shodmon Sulaymon ijodida burgut obrazining yangi talqinlarini uchratamiz. Yangi ohang, yangi mazmunning she'rga ohorli nafas baxsh etganligi shoir taxayyulining behad cheksizligini ko'rsatadi:

She'riyat misoli burgutdir,

Olisga tikadi ko'zini.
Shum ajal solganda xavotir,
Toshlarga uradi ko'ksini [11, 180].

Ko'rinadiki, she'riyat haqida shoirning tashbihlari betakror. Shoir she'riyatni burgutga o'xshatadi. Chunki burgut qudratli qush sifatida shum ajal xavotir solsa ham, ko'ksini toshlarga ura oladi. Shu g'oyani Abdulla Oripov ham o'z she'riga singdirganini tahlil jarayonida ko'rib o'tgan edik.

Fitratning "Behbudiyning sag'anasin izladim" she'ri marsiya ruhida yozilgan. Unda chor Possiyasi tuzumining qora izlarini ko'rish mumkin:

Cho'kmishdi yer uzra olam to'sug'i,
O'ksuzlik boyqushi qanot qoqardi.
Botuvda qizarib turg'an bulutdan
Ezilg'an ko'nglima motam yog'ardi [4,40].

She'r ma'rifatparvar jadid Mahmudxo'ja Behbudiyning vafoti munosabati bilan yozilgan. Uning bunday nomlanishida ham ramziy ma'no bor. Bunda lirik qahramon – shoirning o'zi. "Cho'kmishdi yer uzra olam to'sug'i" birikmasi qorong'ulik va tunga ishoradir. Ular ham, o'z navbatida, xalq boshiga tushgan qora kunlardan, quyuq zulmatli davrdan nishona beradi. She'rda boyqush obrazi bor. Biroq u ramziy ma'noda qo'llangan. O'ksuzlik – chorasizlik. O'ksuzlik boyqushining qanot qoqishi o'lkaning naqadar ayanchli ahvolga kelib qolganligidan dalolat beradi. Boyqush tunda sayr qiladi. Uni faqatgina qorong'u tushganda payqash mumkin. Demak, boyqush bunda Behbudiyday millat oydinlarini qatl etgan sobiq tuzumning ramzini bildirib kelgan. Qizarib turgan bulutdan lirik qahramonning ko'ngliga motam yog'ishi uning qonli bag'riga qiyosan olingan.

Xulosa. Umuman olganda, yangi o'zbek she'riyatida qush obrazi ko'p qatlamli va serma'no badiiy timsol sifatida shakllangan. U turli shoirlar ijodida turlicha mazmun kasb etib, inson ruhiyati, ijtimoiy muammolar, falsafiy qarashlar hamda milliy qadriyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Turna, kabutar, qarg'a, burgut, mayna kabi qushlar har biri o'ziga xos ramziy ma'noga ega bo'lib, she'riyat matnda muhim estetik vazifa bajaradi. Ular orqali shoirlar nafaqat tabiat manzaralarini tasvirlaydi, balki inson hayoti, jamiyat muammolari va ma'naviy qadriyatlar haqida chuqur mushohada yuritadi. Shunday qilib, qush obrazi yangi o'zbek she'riyatida poetik tafakkurning muhim unsurlaridan biri bo'lib, uning badiiy imkoniyatlari keng va serqirra ekanligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulhamid Cho'lpon. Binafsha. – T.: Adabiyot, 2021. – 96 b.
2. Asqad Muxtor/nashrga tayyorlovchi Ikrom Iskandar. – T.: Akademnashr, 2020. – 128 b.
3. Асқад Мухтор. Танланган асарлар. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1958. – 264 б.
4. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. V жилдлик. I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Т.: Маънавият, 2000. – 256 б.
5. Мақсуд Шайхзода. Чорак асп девони. Танланган асарлар. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1958. – 144 б.

6. Миртемир. Ёдгорлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 144 б.
7. Муҳаммад Юсуф. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Хотиралар. – Т.: Шарқ, 2007. – 288 б.
8. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. Шеърлар ва достонлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2013. – 432 б.
9. Орипов А. Йиллар армони. Шеърлар ва достонлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 592 б.
10. Рауф Парфи. Сакина. – Т.: Муҳаррир, 2013. – 376 б.
11. Сулаймон, Шодмон. Мен бахтли яралдим. Шеърлар, достон. – Т.: Наврўз, 2015. – 136 б.
12. Xudoyberdiyeva N. Yillar nafasi. Yangi she'rlar. – Т.: Sharq, 2016. – 128 б.
13. Воҳидов Э. Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Муҳаббатнома. Шеърлар, достонлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 528 б.
14. Зулфия. Асарлар. Икки томлик. Биринчи том. Шеърлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 320 б.

*Шадманова Алёна Сергеевна,
Преподаватель кафедры русского
языка и литературы университет
экономики и педагогики
Республика Узбекистан(Узбекистан)
E-mail: shadmanovaalena@yandex.com*

МЕТАФОРА КАК СРЕДСТВО СОЗДАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ В ПРОЗЕ К. Г. ПАУСТОВСКОГО

Аннотация. В данной статье исследуется значение метафоры как одного из ключевых средств художественной выразительности в прозе Константина Георгиевича Паустовского. Особое внимание уделяется её роли в формировании лирической тональности текста, передаче тончайших эмоциональных состояний персонажей и создании целостной образной картины мира. В работе рассматривается специфика функционирования метафоры в контексте авторского мировосприятия, её связь с природной образностью и философским осмыслением действительности. На основе комплексного текстового анализа произведений писателя выявляются основные типы метафор, их структурно-семантические особенности и стилистические функции. Отдельно подчёркивается роль метафоры как средства выражения внутреннего мира героев и носителя глубинных смыслов. Делается вывод о том, что метафорическая система Паустовского является важнейшим элементом его индивидуального художественного стиля и определяет его лирико-философскую направленность.

Ключевые слова: метафора, художественная выразительность, Паустовский К.Г., образность, лирическая проза, тропы.

Abstract. This article examines the significance of metaphor as one of the most important means of artistic expression in the prose of Константин Георгиевич Паустовский. Particular attention is paid to its role in shaping the lyrical tone of the text, conveying the subtle emotional states of characters, and creating a coherent figurative picture of the world. The study analyzes the specific functioning of metaphor within the context of the author's worldview, its connection with natural imagery, and its role in the philosophical interpretation of reality. Based on a comprehensive textual analysis of the writer's works, the main types of metaphors are identified, and their structural-semantic features and stylistic functions are revealed. The role of metaphor as a means of expressing the inner world of characters and conveying deep meanings is also emphasized. It is concluded that Paustovsky's metaphorical system is a key element of his individual artistic style and determines the lyrical and philosophical orientation of his works.

Keywords: metaphor, artistic expressiveness, Paustovsky, imagery, lyrical prose, tropes.

Annotatsiya. Mazkur maqolada metaforaning *Константин Георгиевич Паустовский* nasridagi eng muhim badiiy ifoda vositalaridan biri sifatidagi ahamiyati tadqiq etiladi. Unda metaforaning matnda lirik ohangni shakllantirishdagi roli, qahramonlarning nozik hissiy holatlarini ifodalash hamda yaxlit obrazli manzarani yaratishdagi funksiyasi alohida e'tiborga olinadi. Ishda metaforaning muallif dunyoqarashi kontekstida ishlash xususiyatlari, uning tabiat obrazlari bilan bog'liqligi va voqelikni falsafiy anglashdagi o'rni tahlil qilinadi. Yozuvchi asarlarini kompleks matn tahlili asosida metaforalarning asosiy turlari aniqlanadi, ularning struktur-semantik xususiyatlari va stilistik vazifalari ochib beriladi. Shuningdek, metaforaning qahramonlar ichki dunyosini ifodalovchi hamda chuqur ma'nolarni tashuvchi vosita sifatidagi roli ham ta'kidlanadi. Xulosa qilib aytganda, Paustovskiy metaforik tizimi uning individual badiiy uslubining muhim elementi bo'lib, asarlarning lirik-falsafiy yo'nalishini belgilaydi.

Kalit so'zlar: metafora, badiiy ifodalilik, Paustovskiy, obrazlilik, lirik nasr, tropalar.

Введение. Метафора по праву считается одним из ключевых средств художественной выразительности: именно она делает текст образным, усиливает эмоциональное воздействие и придаёт высказыванию смысловую многослойность. Её основа – перенос значения по сходству предметов, явлений или их признаков, благодаря чему возникают неожиданные смысловые

сближения и проявляются дополнительные оттенки значения. В художественной речи метафора работает не только «для красоты»: она помогает выстраивать авторскую концепцию и участвует в организации целостного смыслового пространства произведения. Через метафорический перенос становится возможным точнее передать сложные переживания, ассоциации и индивидуальный взгляд автора на реальность [1].

Развитие современной лингвистики заметно расширило трактовку метафоры. Сегодня её понимают не только как стилистический приём, но и как общий, универсальный способ мышления – механизм, с помощью которого человек осмысливает мир и связывает новые явления с уже известным опытом.

Метафора играет важную роль в процессе познания, поскольку с её помощью абстрактные понятия осмысливаются через конкретные чувственные образы. Таким образом, она становится одним из инструментов формирования языковой картины мира и отражения особенностей человеческого мышления [6]. В художественном тексте эта функция проявляется особенно ярко: метафора выступает основным средством создания эмоционально-образной системы произведения и одновременно способом выражения авторской позиции.

В русской литературе XX века значение метафоры особенно возрастает в рамках лирической прозы, ориентированной на передачу субъективного восприятия реальности. В отличие от классической реалистической традиции XIX века, стремившейся к детализированному и объективному описанию внешнего мира, лирическая проза сосредоточена прежде всего на внутреннем состоянии человека, его эмоциональных переживаниях и философских размышлениях. В этом художественном направлении метафора становится главным инструментом передачи индивидуального восприятия действительности и создания особой атмосферы повествования. К числу писателей, чьё творчество в полной мере отражает эти особенности, относится К.Г.Паустовский, художественный стиль которого отличается повышенной образностью, поэтичностью и глубокой взаимосвязью человека с природным миром [7].

xronotop sarlavhalardan unumli foydalanib, har bir hikoyada muayyan badiiy maqsadni ro'yobga chiqaradi. Obraz-sarlavhalar orqali qahramon ichki dunyosi va mohiyati ochilsa, detal va syujetga asoslangan sarlavhalarda ijtimoiy muammolar hamda voqelik umumlashtirilgan holda ifodalanadi. Falsafiy sarlavhalar esa inson va borliq munosabatini metaforik asosda yoritib, kitobxonni mushohadaga chorlaydi, ruhiy-emotsional sarlavhalarda esa inson qalbidagi kechinmalar markazga chiqadi. Xronotop sarlavhalarda esa makon va ruhiyat uyg'unlashib, qahramon xarakteri va g'oyaviy yechim chuqurlashtiriladi. Shu jihatdan, yozuvchi hikoyalarida sarlavha oddiy nom emas, balki asarning semantik kaliti, badiiy g'oya va konsepsiyasini mujassam etuvchi muhim poetik unsur sifatida xizmat qiladi. Nazar Eshonqul ijodi orqali zamonaviy o'zbek nasrida sarlavhaning funksional imkoniyatlari kengaygani, u orqali inson, jamiyat va ma'naviyat muammolarini chuqur falsafiy talqin etish imkoniyati yuzaga kelgani yaqqol namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. –560 б.
2. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: Абдулла .Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 264 б.
3. Ҳамраев К. Ҳикоя композицияси. Монография. – Т., 2020. – 140 б.
4. Эшонқул Н. Сайланма I (Ҳикоялар). – Т.: Академнашр, 2022. – 512 б.
5. Eshonqul N. Kitob bandasi. – Т.: Akademnashr, 2022. – 416 б.

*Mamayusupov Ma'murjon Muxtorjonovich,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil izlanuvchisi (O'zbekiston)
E-mail: mamurjon0075577@gmail.com*

“VOMIQ VA AZRO” DOSTONI GENEZISIGA DOIR

Annotatsiya. Sharq mumtoz adabiyotida sevgi-muhabbat mavzusida yaratilgan dostonlar alohida o'rin tutadi. “Vomiq va Azro” dostoni ham ana shunday mashhur ishqiylar asarlaridan biri bo'lib, u “Yusuf va Zulayho”, “Tohir va Zuhro”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” singari dostonlar qatorida turadi. Mazkur asar ko'plab ijodkorlar tomonidan qayta-qayta ishlangan bo'lib, har bir variant o'zining syujet va g'oyaviy xususiyatlari bilan muayyan darajada originallikka ega. Dostonning keng tarqalganligi va ko'p variantlilikligi uning nafaqat Sharq, balki G'arb olimlari diqqat markazida bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu bois “Vomiq va Azro” dostoni genezisini o'rganish adabiyotshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada “Vomiq va Azro” dostoni genezisi, uning tarixiy ildizlari, turli davrlarda yaratilgan yozma va og'zaki variantlari hamda Sharq xalqlari adabiyotidagi tarqalishi yuzasidan mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: “Vomiq va Azro”, arab adabiyoti, fors adabiyoti, Sharq adabiyoti, genezis, yozma va og'zaki ijod, tarjima.

Аннотация. В восточной классической литературе особое место занимают поэмы, созданные на тему любви. Поэма «Вомик и Азра» является одним из таких известных произведений о любви и стоит в одном ряду с такими дастанами, как «Юсуф и Зулейха», «Тахир и Зухра», «Фархад и Ширин», «Лейли и Меджнун». Данное произведение многократно перерабатывалось различными авторами, и каждый вариант обладает определённой оригинальностью с точки зрения сюжета и идейного содержания. Широкое распространение и наличие множества вариантов поэмы привлекли внимание не только восточных, но и западных учёных. В связи с этим изучение генезиса поэмы «Вомик и Азра» имеет важное научное значение для литературоведения. В данной статье рассматриваются генезис поэмы «Вомик и Азра», её исторические корни, письменные и устные варианты, созданные в разные периоды, а также её распространение в литературе народов Востока.

Ключевые слова: «Вомик и Азра», арабская литература, персидская литература, восточная литература, генезис, письменное и устное творчество, перевод.

Abstract. In classical Eastern literature, epic poems devoted to the theme of love occupy a special place. The epic “Vomiq and Azro” is one of such famous romantic works and stands alongside epics such as “Yusuf and Zulayho,” “Tohir and Zuhro,” “Farhod and Shirin,” and “Layli and Majnun.” This work has been repeatedly reinterpreted by many authors, and each version possesses a certain degree of originality in terms of its plot and ideological features. The widespread popularity and the existence of numerous versions of the epic have attracted the attention of not only Eastern but also Western scholars. Therefore, studying the genesis of “Vomiq and Azro” is of significant scholarly importance for literary studies. This article discusses the genesis of the epic “Vomiq and Azro,” its historical roots, its written and oral versions created in different periods, and its dissemination in the literature of Eastern peoples.

Keywords: “Vomiq and Azro”, Arabic literature, Persian literature, Eastern literature, genesis, written and oral creativity, translation.

Kirish. “Vomiq va Azro” dostoni Sharq xalqlari adabiyotidagi mashhur asarlardan hisoblanadi. Bu doston “Varqa va Gulshoh”, “Yusuf va Zulayho”, “Tohir va Zuhro”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi asarlar qatorida turli davrlarda ko'plab ijodkorlar tomonidan yozilgan. “Vomiq va Azro” dostoni ham ko'plab ijodkorlar tomonidan ijodiy tarjima qilingan yoki qaytadan yozilgan. Biroq ularning har biri sujet va g'oya jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Ta'kidlash kerakki, bu asarlar Sharq adabiyoti rivojida chuqur iz qoldirgan. Dostonning keng tarqalganligi va ko'p variantlilikligi uning nafaqat Sharq, balki G'arb olimlari diqqat markazida bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu bois “Vomiq va Azro” dostoni genezisini o'rganish adabiyotshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. “Vomiq va Azro” dostoni syujeti juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” tazkirasida bunday ma’lumot bor: Hodisalar bilan to’la olam o’zgarib turuvchi bir maqom, u har hodisada o’zgacha tushlangani tufayli hamisha yangi asr-u qavm, yangi zamon, yangi lug’at-u til yuzaga keladi.

Bayt:

Shohidi dahr firebanda arusest, valek

Nest ma’lum, ki Kovusi Kayash Doro bud.

Ma’nosi: Dahr go’zali aldamchi bir kelinchakdir, lekin Kovusi Kayining ham, Dorosining ham kim bo’lgani ma’lum emas.

To’fonlar, yangilanish-u inqiloblar, qatli om kabilarning hammasi holatning o’zgarishiga sabab bo’ladi.

Ulamoyu fuzalo islomdan oldin fors tili bilan aytilgan she’rni topolmaganlari kabi shoirlar ismlarining zikrini ham ko’rmadilar, ammo Bahrom Go’r forsiy tilda she’r aytgan ilk shaxs sifatida mashhurdir. Bunga sabab shu ediki, uning “Dilorom changiy” deb ataluvchi yoqimtoy, ziyrak, nuktadon, oqila va xushfe’l mahbusasi bo’lgan. Bahrom unga oshiq bo’lgani bois kanizakni doim ov va sayrga birga olib borardi. Bir kuni Bahrom o’rmonda Diloromning ko’z oldida bir sherga yo’liqdi, sherning ikki qulog’idan tutib darrov bandi qildi va bu jasoratidan g’oyatda g’ururlangani tufayli beixtiyor tilidan quyidagi gap chiqdi:

Manam on pili damon-u manam on sheri yala.

Ma’nosi: U quturgan fil menman-u shijoatli sher menman.

Bahromdan har qanday so’z chiqsa, Dilorom shunga munosib bir javob aytardi. Bahrom so’radi: “Mening bu so’zim javobida nima deya olasan?”

Dilorom shunday dedi:

Nom Bahrom turo-vu padarat Bujabala.

Ma’nosi: Sening noming Bahrom-u otangning ismi Bujabala.

Bu gapning ifoda tarzi podshoning ta’biga ma’qul tushdi va uni hakimlarga yetkazadi. Ular nazm bobida bir qonun yaratdilar, ammo bir baytdan ziyod aytmas edilar. Abu Tohir Xotuniyning aytishicha, Azududdavla Daylamiy zamonida ham Xoniqin viloyatidagi Shirin qasri butunlay vayron bo’lmagan va o’sha qasrning peshtoqida qadimiy fors tilidagi bir baytni ko’rishdi:

Hijabro ba geyhon ano’sha biziy,

Jahonro ba didor to’sha biziy.

Ma’nosi: Ey qo’rqmas sher, dunyoga quvonch ulashding,

Jahonni esa ko’z uchun tamoshogoh qilding.

Ma’lum bo’ldiki, islomdan oldin ham forsiy she’r aytganlar, ammo kisrolar (sosoniylar) va ajam mulki arablarning qo’liga o’tgach, u muborak qavm islom dini va shariatni barpo etishga sa’y qildilar, ajam urf-odatiga barham berib, ehtimol, she’rni ham taqiqladilar yoki sustkashlik tufayli she’r noma’lum qoldi. Bani Umayya davri va Bani Abbos xalifaligida bu diyor hokimlari arab edilar, shu bois she’r, insho va farmonlar arab tilida yozilgan. Xoja Nizomulmulkning “Siyar ul-mulk”da hikoya qilishicha, to’rt xalifa zamonidan Sulton Mahmud G’aznaviy vaqtigacha qonunlar, daftarlar, farmonlar, sultonlar dargohidan chiquvchi yorliqlar arab tilida yozilgan va sultonlar dargohida farmonlarni forscha yozish ayb sanalgan. Alparslon ibni Chaqarbak Saljuqiyning vaziri Amidulmulk Abunahr Kunduriy vazirligi vaqtida o’z qobilyatsizligi tufayli mazkur qoidani bartaraf qilishni buyurdi va sultonlar devonidan chiquvchi hukm-u farmonlarni fors tilida yoza boshladilar.

Yana hikoya qilishlaricha, abbosiy xalifalar davrida Xuroson amiri bo’lgan amir Abdulloh ibni Tohir bir kuni Nishopurda o’tirgan edi, bir kishi bir kitob keltirib, tuhfa sifatida uning oldiga qo’ydi. So’radi: “Bu qanday kitob?” Dedi: “Bu “Vomiq va Azro” qissasi. Donishmandlar yaxshi hikoya bo’lgani sababli shoh No’shiravon uchun jam qilganlar”. Amir dedi: “Biz Qur’onxon xalqmiz, Qur’on va Payg’ambar (s.a.v) hadisidan boshqa biror narsani xohlamasmiz. Biz uchun bunday kitobning keragi yo’q, bu mug’lar (zardushtiylar)ning kitobi, shu bois biz tomondan rad etilgan”. U kitobni suvga uloqtirishni buyurdi va mamlakatning qayerida ajamlar va zardushtlar yozgan kitoblar bo’lsa, barchasini kuydirsinlar deb hukm qildi. Shu boisdan somoniylar davrigacha ajam she’rlarini ko’rmadilar, agar ahyon-ahyon she’r aytgan bo’lsalar ham devon holiga keltirmadilar (Давлатшоҳ Самарқандӣ. Тазкирату-ш-шуаро. – Хучанд: Ношир, 2015. – Б. 47. Ushbu ma’lumotni bizga tadqim etganlari uchun

professor Ilyos Ismoilovga minnatdorlik bildiramiz). Ko‘rinadiki, “Vomiy va Azro” dostoni ilk variantining taqdiri ana shunday kechgan.

“Vomiy va Azro” dostonining yozma adabiyotdagi ilk namunalari haqida turli qarashlar mavjud. Ana shunday qarashlardan biri – bu doston ishq-muhabbat mavzuyidagi yunon eposlaridan bo‘lib, uni IX asrda Sahl ibn Horun (hij. 215/mel./830) nasriy yo‘lda arab tiliga o‘g‘irgan. Keyinchalik bu tarjima bilan Abu Rayhon Beruniy, Fasihi Jurjoniylar ham shug‘ullanganlar [3, 82].

Fors adabiyotidagi “Vomiy va Azro” dostonining muallifi Abulqosim Hasan Unsuriy ekani ma‘lum. “Vomiy va Azro” dostoni XI asrda Unsuriy tomonidan yangidan qayta ishlangan. Unsuriy Firdavsiy zamondoshi bo‘lib, o‘z davrining yirik adiblaridan biri hisoblanadi. Biroq Unsuriyning bu dostoni to‘liq holda bizgacha yetib kelmagan, faqat ayrim parchalarigina saqlanib qolgan. Sharqshunos olim Muhammad Shafi‘ tomonidan Kembrijda o‘tkazilgan xalqaro kongressda ushbu parchalar haqida ma‘lumot berilgan. Ma‘lum bo‘lishicha, saqlangan qism 316 baytdan iborat bo‘lib, dostonning o‘rta qismiga tegishlidir [5, 56-57].

XVI asrda esa “Vomiy va Azro” dostonini Lomeiy ham yozadi. Manbalarda Lomeiy bu asarni turk tiliga tarjima qilgani, umuman, bu mavzuda 13 ta asar yozilgani aytiladi. Bu asarning yana bir qo‘lyozma nusxasi 1833-yilda sharqshunos olim Y.Hammer tomonidan topilib, Vena kutubxonasiga topshirilgan [5, 58].

Ta‘kidlash kerakki, turkiy adabiyotdagi “Vomiy va Azro” syujeti dastlab arab adabiyotida shakllangan bo‘lib, keyinchalik fors adabiyotiga o‘tgan. Aynan fors adabiyotida, xususan, Unsuriy tomonidan yaratilgan dostonning forsiy varianti keyingi mualliflar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Lomeiy Chalabiy ushbu an‘anani davom ettirib, asarni Usmonli adabiy muhiti talablariga moslab qayta yozgan. Lomeiy asarida asosan, Vomiy va Azroning pok va samimiy muhabbati yetakchi o‘rin tutadi. Ular o‘rtasidagi sevgi jamiyat va taqdir sinovlari bilan to‘qnash keladi. Shuningdek, Lomeiy asarida muhabbat insonni ruhiy kamolotga yetaklovchi kuch ekanligi, unda ilohiy ishq ramziy tarzda ifodalangani tasvirlanadi. Bu doston turkiy xalqlar adabiyotida ishqiy-didaktik dostonlar rivojiga ham katta ta‘sir ko‘rsatgan. U nafaqat saroy adabiyotida, balki xalq og‘zaki ijodida ham qayta ishlangan. Jumladan, uyg‘ur shoiri Abdurahim Nizoriy ham “Muhabbat dostonlari” to‘plamiga “Vomiy va Azro” dostonini kiritgan. Tadqiqotchilarga ko‘ra, bu asar tarjima emas, balki uyg‘ur tilida yaratilgan original variant hisoblanadi [4, 10]. Garchi bu doston turli mualliflar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning turkiy (o‘zbek) tilidagi variantlari to‘liq taqdiq etilgani yo‘q.

“Vomiy va Azro” dostoni Xorazmda ham nasriy va she‘riy yo‘lda Mag‘furxo‘ja Xorazmiy va Ahmad Tabibiylar tomonidan qayta yozilgan. Adabiyotshunos F.G‘anixo‘jayevning ma‘lumot berishicha, dostonning Xorazm variantlari uchun Zohir Kirmoniy tomonidan yozilgan variant asos bo‘lgan. XVIII asr fors adabiyoti vakili Zohir Kirmoniy ham “Vomiy va Azro” dostonini yozgan. Muallif asarining o‘ziga xosligi Kirmoniy dostonida xalq og‘zaki ijodiga xos afsonalardan ijodiy foydalanganidir. Shoir afsonani tarix bilan, ishqiy sarguzashtlarni davrning ijtimoiy masalalari bilan bog‘laydi. Kirmoniyning dostoni fors tilida nasr yo‘lida yozilgan bo‘lib, bu asar 1880, 1853, va 1901-yillarda kotiblar tomonidan qayta-qayta ko‘chirilgan [5, 59].

XIX asr oxiri XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitiga xos yetakchi xususiyatlardan biri – tarjimachilikdir. Ayniqsa, bu jarayon Feruz hukmronlik yillari qizg‘in tus olgan. XIX asr o‘rtalari (hij. 1250; mel.1834-35yillar) da Mag‘furxo‘ja Sayid Hasan Xorazmiy Zohir Kirmoniy tomonidan yozilgan “Vomiy va Azro” dostonini o‘zbekchaga tarjima qiladi. Dostonning o‘zbekcha tarjimasi ancha muvaffaqiyatli chiqqani, tili sodda va obrazli ekani uning muvaffaqiyatli chiqqanining asosiy sabablaridan bo‘lgan. Shuning uchun bu kitob (Mag‘furxo‘ja tarjimasi – M.M.) bir necha bor – 1840, 1895, 1902 va 1911-yillarda qayta ko‘chirilgan. Dostonning bu nusxalari O‘zR FASHI fondida 1228, 5072, 6911, 6918, 7472-raqamlari bilan saqlanadi [5, 59]. Bu nusxalar ichida 6911-raqamli qo‘lyozma eng mukammali hisoblanadi. Dostonning bu nusxasi juda chiroyli kitobat qilingan, matn ham juda xushxat. Dostonning kirish qismi matnida juda ko‘plab oyat va hadislar keltirilganki, bu hol asarni hukdorga yoki saroy kutubxonasiga tuhfa qilish uchun tayyorlanganini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, Mag‘furxo‘ja tomonidan ham, Tabibiy tomonidan ham yozilgan asarlarni aynan tarjima deb bo‘lmaydi. Bu asarlarni ijodiy-erkin tarjima deyish yoki mustaqil asar sifatida baholash mumkin. Sababi ularda ijodkorning o‘ziga xos uslubi yaqqol ajralib turadi. Qolaversa, ijodkor yaratayotgan asarini o‘z davriga moslashtiradi, ko‘proq hukmdorlar madhi va ularning siyosati madhiga e‘tibor qaratiladi.

XX asrda baxshilar tomonidan “Vomiq va Azro” dostonining xalq variant ham yaratilgan. Ana shunday variantlardan biri – nurotalik Rahmatullo Yusuf o‘g‘li tomonidan ijod etilgan. Doston 1946-yilda yozilgan bo‘lib, bu variant qo‘lyozmasi O‘zFA Til va adabiyot instituti Folklor bo‘limi fondida saqlanishi haqida ma’lumotlar bor [5; 59].

Ma’lumki, 1910-yilda Ahmad Tabibiy ham bu mavzuga qo‘l uradi. Ya’ni “Vomiq va Azro” dostonining she’riy variantini yozadi. Bu haqda adabiyotshunos F.G‘anixo‘jayev quyidagilarni yozadi: *“Vomiq va Azro” asosan ishqiy-romantik dostonidir. Unda do‘stlik, chin muhabbat, ilm va hunarga hurmat, mardlik va qahramonlik, haqiqat va adolatni ulug‘lash kabi masalalar kuylanadi. Shuningdek, xalqning ozodlik, adolatli shoh va markazlashgan davlat xaqidagi orzulari tarannum etiladi. Tabibiy doston muqaddimasida ta’kidlaganidek, Sayid Hasan Xorazmiy qilgan “Vomiq va Azro”ning nasriy tarjimasini (muallifi eron shoiri Zohir Kirmoniy – F.G‘) Xorazm xoni Muhammad Rahim soniyga yoqib qolgan va shoir Tabibiyga nasrda yozilgan “Vomiq va Azro”ni nazmda yozishni buyurgan. Bu esa shoirdan katta ijodiy kuch talab etgan. Chunki dostonning she’riy varianti badiiy va g‘oyaviy jihatdan ancha pishiq. U klassik adabiyotimizdagi barcha dostonlar kabi masnaviy yo‘lida yozilgan. Asar 8100 baytdan iborat [5, 58-59].*

XX asr boshlarida “Vomiq va Azro” dostoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Ahmad Tabibiy tomonidan yaratilgan she’riy variant o‘zbek yozma adabiyotidagi eng mukammal namunalardan biri hisoblanadi. Mazkur doston hijriy 1328 (1910) yilda yozilgan bo‘lib, taxminan 16200 misra, 81 bob va 386 betdan iborat. Asar Muhammad Yusuf Chokar tomonidan ko‘chirilgan.

Tabibiy dostoni xalq og‘zaki ijodi va yozma an‘analarni uyg‘unlashtirgan holda yaratilgan bo‘lib, u mazkur syujetning o‘zbek adabiyotidagi eng yetuk talqinlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotlarda Tabibiyning “Vomiq va Azro” dostoni hajman juda katta bo‘lib, u taxminan 16200 misradan iborat [5, 60] ekani aytiladi. Doston mazmun va shakl jihatidan ham, badiiy jihatdan ham yuksak darajada ijod etilgan. Asarning yuqori saviyada yozilishida shoirning Navoiy asarlaridan unumli foydalangani ham qo‘l kelgan.

Xulosa qilib aytganda, “Vomiq va Azro” dostoni Sharq musulmon adabiyotining ma’lum va mashhur adabiy namunalariidan hisoblanadi. Dostonning arab, fors va turkiy tillardagi variantlarini qiyosiy o‘rhanish, avvalo, dostonning to‘liq matniy tahlilini amalga oshirish, shu asosda asarning adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berish dolzarb hisoblanadi. Negaki, “Vomiq va Azro” dostoni qadimiy ildizlarga ega bo‘lib, uning syujeti bir nechta davr va xalqlar adabiyotida qayta talqin qilingan. Fors-tojik, turk, uyg‘ur va o‘zbek adabiyotidagi variantlar asarning universalligi va badiiy qudratini namoyon etadi. XX asr o‘zbek she’riy varianti esa uning eng mukammal talqinidir.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidagi 3461, 3460/IV, 1243, 1078 raqamli qo‘lyozmalar.
2. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo‘lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 258 b.
3. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974. – 152 б.
4. Ғанихўжаев Ф. Танланган асарлар. – Т.: Бадий адабиёт, 1968. – 314 б.
5. Ғанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Т.: Фан, 1978. – 120 б.

*Safarboyeva Hilola Alisher qizi,
Osiyo xalqaro universiteti
Xorazm filiali o'qituvchisi
E-mail: safarbayevahilola@gmail.com*

NABI JALOLIDDIN HIKOYALARIDA “OTA” KONSEPTI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi, shoir va jurnalist Nabi Jaloliddinning “Ota” hikoyasi orqali Ota obrazining badiiy talqini va milliy xarakter masalalari tadqiq etiladi. Hikoya misolida sharqona tarbiya, oiladagi ma’naviy muhit hamda insoniy fidoyilik motivlari adabiyotshunoslikning zamonaviy metodlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida qahramon ruhiyatini ochib beruvchi badiiy detallar, tabiat va suv ramziyligi hamda ota obrazining milliy qadriyatlar tizimidagi o’rni yoritib beriladi. Maqolada keltirilgan xulosalar yozuvchining individual uslubi va badiiy mahoratini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: “Ota” hikoyasi, konsept, milliy xarakter, fidoyilik, badiiy mahorat, suv ramzi, psixologizm, badiiy detal, ma’naviy ideal.

Аннотация. В данной статье исследуются художественная интерпретация образа Отца и проблема национального характера на примере рассказа писателя, поэта и журналиста Nabi Jaloliddin “Ota” (“Отец”). В ходе исследования освещаются художественные детали, раскрывающие психологическое состояние героя, символика природы и воды, а также место образа отца в системе национальных ценностей. Выводы, представленные в статье, способствуют более глубокому осмыслению индивидуального стиля и художественного мастерства писателя.

Ключевые слова: Рассказ “Ota” (“Отец”), концепт, национальный характер, самоотверженность, художественное мастерство, символика воды, психологизм, художественная деталь, духовный идеал.

Abstract. This article examines the artistic interpretation of the “Father” figure and the question of national character in Nabi Jaloliddin’s short story Ota (“Father”), recognizing the author as a distinguished writer, poet, and journalist. The research highlights the psychological depth revealed through artistic details, the symbolism of nature and water, and the father figure’s role within the framework of national values. The conclusions drawn in this article contribute to a clearer understanding of the author’s distinctive literary style and artistic craftsmanship.

Keywords: “Ota” (“Father”), concept, national character, devotion, artistic mastery, water symbolism, psychologism, artistic detail, spiritual ideal.

Kirish. Badiiy adabiyot insoniyatning ruhiy olamini boyituvchi, uni ma’naviy jihatdan tarbiyalovchi va insonlarning hissiy kechinmalarini soʻzlar vositasida aks ettiruvchi eng kuchli vositadir. Yuqoridagi xususiyatlarni oʻzida aks ettiruvchi har qanday badiiy asarning yaralish jarayoni esa juda murakkab jarayon sanaladi. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov ta’kidlaganidek: “Badiiy asar ijodkorning borliq bilan munosabati mahsuli oʻlaroq dunyoga keladi. Ya’ni borliqda yashayotgan individ sifatida ijodkorni muayyan muammolar oʻylatadi, tashvishga soladi. Ijodkor oʻsha muammoni idrok etishga intilishi ichki ehtiyojga aylangani uchun ham asarga qoʻl uradi[5, 149]. Zamonaviy oʻzbek nasrining iste’dodli ijodkorlaridan biri boʻlmish Nabi Jaloliddini ham oʻylantiradigan, borliqda yashayotgan individ sifatida tashvishga soladigan bir qator muammolar mavjudligini uning qissa va hikoyalari orqali anglashiladi. Xususan, uning “Ota” hikoyasida bugungi davr uchun aktual boʻlgan muammolardan biri aks etadi. Shu bois, ushbu maqolada hikoyadagi milliy xarakter qirralari, fidoyilik va “ota” konseptining gʻoyaviy-estetik asoslarini badiiy ifodasini yoritishni maqsad qildik. Ushbu tadqiqotda “Ota” obrazi shunchaki badiiy personaj emas, balki milliy qadriyatlar tizimidagi murakkab konsept sifatida talqin etiladi. Konsept (lot. conceptio – majmua, tizim) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, va izohlashning muayyan usuli boʻlib, adabiyotda - biror asarning asosiy gʻoyasini ifoda etadi [11-413].

Asosiy qism. Istiqloq davri adabiyotida jamiyat, inson va ruhiyat mavzulariga boʻlgan yondashuv tubdan oʻzgardi. Realistik yondashuv oʻrnini psixologik tasvir, ichki monolog, falsafiy umumlashtirishlar, estetik tafakkur orqali insoniylik mohiyatini ochishga qaratilgan badiiy izlanishlar egallay boshladi.

Badiiy ijodda siyosiy mavzular bir muncha torayib, ijtimoiy munosabatlar haqidagi mavzularda kengroq ijod qilina boshlandi. Yozuvchilar erkinlik, shaxsiylik, falsafiy mushohada, ruhiy kechinmalar, jamiyatdagi murakkab ziddiyatlar, qadriyatlar inqirozi kabi mavzularga murojaat qildilar. Psixologizm chuqurlashdi, syujetdan ko'ra ichki holat, ramziy va modernistik ifodalar ustuvor bo'ldi. Qahramonlarning tashqi harakatidan ko'ra, ichki holati, kechinmalari, ruhiy iztiroblari tasvirlanadi. Hikoyalarda global muammolar milliy qadriyatlar, insoniylik, vijdon va ruhiy uyg'unlik bilan bog'langan holda tasvirlanadi [3, 154].

So'nggi yillarda Nabi Jaloliddin nasri zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida o'ziga xos tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Xususan, adibning badiiy mahorati, uslubi va asarlaridagi obrazlar tahlilini G .Oripova, N.Abdurasulova, N Alimbayeva, I.Bazarbayeva kabilar maqolalarida ko'rish mumkin. Ular yozuvchi asarlaridagi ruhiy tahlil va milliy ruhning ustuvorligini alohida e'tirof etishadi.

Xususan, I. Bazarbayevaning tadqiqotlarida "Ota" hikoyasi misolida o'zbekona oilaviy muhit, farzandlar tarbiyasi va otaning xonadon ustuni sifatidagi roli Fitratning oila haqidagi qarashlari bilan qiyoslangan holda o'rganilgan. Ushbu maqolalarda milliy qadriyatlardan biri – bolajonlik va ota-onaga hurmat masalalari markaziy o'ringa qo'yiladi.

Biroq mavjud tadqiqotlarda ota siymosi ko'proq pedagogik-tarbiyaviy nuqtai nazardan baholangan bo'lsa, bizning tadqiqotimizda ushbu obraz yaxlit bir "konsept" sifatida tahlilga tortiladi. Ushbu maqolada "Ota" tushunchasini nafaqat ijtimoiy rol, balki asardagi detallar, ramzlar va qahramonning fidoyilik pallasidagi ruhiy kechinmalari bilan bog'langan murakkab tizim (konseptual maydon) sifatida tadqiq etishni maqsad qildik. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida D. Quronovning badiiy asar qurilishi va badiiy reallik haqidagi nazariy qarashlariga tayanildi. Ishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Konseptual tahlil metodi: "Ota" tushunchasining milliy-madaniy qatlamlarini (intizom va fidoyilik) ochish uchun;

Germenevtik tahlil: matndagi badiiy detallar va suv simbolikasining yashirin ma'nolarini talqin qilish uchun;

Psixologik tahlil: qahramonning o'zgaralar bolasi uchun jon fido qilish jarayonidagi ruhiy holatini yoritish uchun.

Muhokama va natijalar. Badiiy asarda hayotiy materialning tanlanishi ijodkorning g'oyaviy niyati va bevosita asar mavzusi bilan bog'liq. Zero, adabiyotshunos olim D. Quronov ta'kidlaganidek: "Ijodkor o'zini o'ylatgan, tashvishga solgan muammo(lar)ni badiiy idrok etish uchun qulay va keng imkon beruvchi hayot materialini tanlab tasvirlaydiki, shu asar mavzusidir" [7, 45]. Nabi Jaloliddinning "Ota" hikoyasida ham adib aynan o'zbek milliy mentalitetining asosi bo'lgan "Ota" konseptini va uning atrofidagi ma'naviy qadriyatlarni badiiy idrok etish uchun eng qulay hayotiy materialni – fidoyilik va oila mustahkamligi mavzusini tanlagan. Hikoyada tanlangan ushbu hayotiy material (ota obrazi, farzandlar kamoloti va kutilmagan fojiviy yechim) o'quvchiga millat ma'naviyatining negizlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Nabi Jaloliddin hikoyalarida asosan qahramonlar ichki dunyosini ochib berishda atrof-muhit va tabiat tasvirlaridan ko'p foydalaniladi. Shu jumladan, ushbu hikoyada ham ota obrazini yaratishda an'anaviy ta'riflardan ko'ra, badiiy detal imkoniyatlaridan keng foydalangan. Xususan, asar boshidagi hovli tasviri shunchaki maishiy manzara emas, balki "Ota" konseptining moddiy in'ikosidir. Hovli va uyning tasviridan oilaning tartibli oila ekanligi ekanligi ma'lum bo'ladi. Ota – tartib o'rnatuvchi kuch. Uy va hovlidagi tartib-intizom va saranjomlikning asosiy sababchisi deb oila boshlig'ini aytish mumkin. Uning hovlisidagi saranjomlik – fikrlari va hayotiy prinsiplari ham shunday tiniq ekanligini bildiradi, shu bilan birga otaning ichki intizomini ramzidir. Bundan tashqari hovli va uydagi tartib-intizom va sarishtalik oiladagi insonlarning xarakteridagi qat'iyat, mas'uliyat va poklik kabi jihatlarni ochib beradi.

"Hovli ancha katta, uylari juda unaqa hashamatli bo'lmasa-da, serxona edi. Hamma narsa o'z o'rnida – saranjom – sarishta, ko'zga hunuk ko'ringuvchi biron narsa yo'q" [4].

"Ota" konseptining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu uning tarbiyachilik mahoratidir. Hikoyada otaning 7 o'g'il va 1 qizni jamiyatda munosib o'ringa olib chiqqani shunchaki tasodif emas, balki tizimli tarbiya mahsulidir. Tadqiqotchi I. Bazarbayeva ta'kidlaganidek: "Bu – otaning uzoq yillik mehnati va oiladagi sog'lom muhitning samarasi. Har bitta farzandiga diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlardan ham benasib qilmagani, savodli, el-yurt koriga yaraydigan qobiliyatli farzandlarni

tarbiyalagani yaqqol namoyon bo'ladi" [2, 142]. Darhaqiqat, yozuvchi farzandlar erishgan yutuqlarning (vazir, rais, jurnalist, direktor, o'qituvchi kabi martabalar) asosi va poydevori sifatida aynan oilani, undagi sog'lom muhitni va otaning shaxsiy namunasini ko'rsatadi. Bu esa "Ota" konseptining nafaqat oila boshlig'i, balki millat ma'naviyatini shakllantiruvchi asosiy bo'g'in ekanligini isbotlaydi.

Bundan tashqari asarda ota konsepti axloqiy mezonlarni belgilovchi shaxs sifatida ham namoyon bo'ladi. "U shunday tarbiya bergan, chunki azali baqir– chaqir qilib yetti mahallani boshiga ko'taradigan oilalarni yoqtirmaydi. Ahillik, baraka– xotirjamlikda, deydi..." [4]

Otaning haybati va unga bo'lgan cheksiz hurmat farzandlarning xatti-harakatlarida (imohoralarda) aks etadi. Xususan, ota tanbeh berganda o'g'illarning munosabati quyidagicha aks etadi: "Hamidullo ham, tik turgan kelini ham yerga qaradilar. Kenjasi ohista o'rnidan turib, ko'chaga chiqib ketdi". Bu yerda "yerga qarash" va "ohista chiqib ketish" detallari sharqona andisha va otaga bo'lgan yuksak ehtiromning badiiy ifodasidir.

Nabi Jaloliddin hikoyasida otaning o'g'itlari va farzandlarining unga bo'lgan munosabati orqali sharqona tarbiya modelini mahorat bilan chizgan.

O'zbek xalqi mentalitetida ota obrazi nafaqat oila boshlig'i, balki xonadonning fayzi bo'lgan farzandlar va nabiralarning davrasida o'zini baxtiyor his qiluvchi shaxsdir. Hikoyada ota obrazining ushbu qirrasini uning ruhiy holati orqali mahorat bilan chizilgan. Masalan, uydagi sukunatni u "huvillab qolish" deb qabul qiladi: "– Namuncha hammayoq huvillab ketibdi? Churvaqalaring qani? – dedi u kampiri yoniga yetib kelmasidan, go'yo hozir bolalarning shovqin– suroni bo'lmasa nafasi qisib qoladiganday betoqatlanib" [4].

Ushbu parchadan ko'rinadiki, "ota" konsepti uchun bolalarning shovqini hayotiy zarurat – «nafas» kabidir. Bu yerda shovqinni salbiy tushuncha emas, balki hayot davomiyligi va oila butunligi ramzi sifatida ko'rish mumkin.

Yakshanba kungi hovli tasviri esa bu fikrni yanada mustahkamlaydi:

"Uning kutgani shu edi – quloqlari bolalarning shovqiniga to'lsa, uyiga fayz kirib, bag'ri ham to'lardi" [4]. Chunki "o'zbek oilasi uchun kechki ovqat qorin to'ydirish tadbirigina emas, balki birlashish, dardlashish, hammaning jamligi, borligi va birligini his etish omili hamdir" [13, 271]. Darhaqiqat hikoyadagi ota ham Q.Yo'ldosh aytib o'tgan barcha hissiyotlarni his qilishni istagan edi, aslida. "Dasturxonga osh tortildi. Aka-ukalar bolaliklarini eslab, oshni hazil-huzul bilan «talashib-talashib» yedilar. Ota esa qulog'ini batangga keltirgan haligi huvillashlardan qutilib, bag'ri yayrab o'tirardi..." [4] Yozuvchi bu o'rinda «bag'ri to'lish» iborasini ishlatish orqali, otaning baxti moddiy boylikda emas, balki naslning davomiyligi va jipsligida ekanligini ta'kidlaydi. Muallif ideal ota siymosini aynan mana shu bolajonlik xislati orqali yanada mukammallikka yetkazadi.

Hikoya kulminatsiyasida yozuvchi kutilmagan burilish qiladi. Otaning o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, oqib ketayotgan begona bolani qutqarishi – "ota" konseptining fidoiylik darajasiga ko'tarilishidir. Bu sahna o'zbek xalqiga xos bo'lgan "bolajonlik" xislatining shunchaki hissiyot emas, balki hayot-mamot pallasida namoyon bo'ladigan milliy qadriyat ekanligini tasdiqlaydi.

Bu o'rinda yozuvchi oddiy hayotiy voqeani emas, balki yuksak ma'naviy namunani taqdim etadi. Zero, adabiyotshunos olim Dilmurod Qur'onov ta'kidlaganidek: "Asarda tasvirlangan badiiy reallik voqealikning ijodkor tomonidan ko'rilgan ideal asosida g'oyaviy-hissiy baholangan va muayyan mazmunni ifodalashga mos tarzda qayta ishlangan aksidir" [7-52b]. Darhaqiqat, Nabi Jaloliddin ushbu sahnada ota obrazini shunchaki oila boshlig'i emas, balki jamiyatning ma'naviy tayanchi, fidoiylikning oliy namunasi – ideal ota darajasiga ko'taradi.

Otaning vazir o'g'liga havas qilib, o'zining 7-8 yashar kenja farzandini "kelajakda prezident bo'ladi" deb niyat qilgan qishloqdoshining bolasini qutqarishi – ma'naviy ramzdir. Ota o'zining zafarli hayot yo'lini boshqa bir murg'ak qalbning istiqboli uchun poydevor qilish orqali yakunlaydi.

Otaning farzandlari allaqachon jamiyatda yuksak mavqega (vazir, rais) erishgan. U hayotini saqlab qolgan bolakay esa – hali shakllanmagan, ammo «prezidentlik» niyati bilan yo'g'rilgan kelajak timsolidir. Bu yerda ota shunchaki o'z do'stining o'g'lini emas, balki millatning ertangi kunini, uning umidini saqlab qoladi.

Ma'lumki, "o'zbek mumtoz adabiyotida ham suv badiiy obrazidan muallifning badiiy niyatini ochishga xizmat qiluvchi vosita sifatida foydalanilgan. Tabiiyki, bu adabiy an'ana zamonaviy o'zbek

adabiyotida ham davom etmoqda” [11, 291]. Yozuvchi Nabi Jaloliddin ham ushbu hikoyada ota ruhiyatini ochib berishda suv detalidan unumli foydalanadi.

Suv adabiy mifologiyada ham, hayotiy falsafada ham poklanish, asliga qaytish va abadiyat timsolidir. Otaning suv bag‘rida jon taslim qilishi o‘ziga xos ramziy ma‘no kasb etadi. Ya‘ni umrining oxirida ham o‘zi sevgan makon – tabiat va suv bilan butunlikka aylanadi. Zero, bu o‘rinda suv ham hayot baxsh etuvchi ham hayotdan olib ketuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Suvning badiiy detal sifatida turli badiiy funktsiya bajarishi tarixi xalq og‘zaki ijodi namunalari borib taqaladi. Dongdor shoirlar G‘afur G‘ulom va Oybek she‘rlarida, shuningdek yangi o‘zbek nasrining peshqadam adiblari E.A‘zam, X.Do‘stmuhammad, U.Hamdani, I.Sulton ijodida suv obrazining turfa ma‘no qatlamlari kuzatilishini o‘rgangan. Ko‘rinadiki, o‘zbek adabiyotida suv obrazidan turli badiiy niyatda foydalanish adabiy an‘anaga aylangan [11, 292].

Tadqiqotimiz davomida aniqlangan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Nabi Jaloliddin ijodida milliy ruh tashqi ko‘rinishlarda emas, balki qahramonning ruhiy qatlamlarida namoyon bo‘ladi. Zero, adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldosh e‘tirof etganidek: “Badiiy asardagi milliylik tashqi libos ham, mavzu yo‘nalishi ham emas, balki estetik mohiyatdir” [13, 269]. Ushbu nazariy qarash “Ota” hikoyasi misolida o‘zining to‘liq isbotini topadi. Hikoyada milliylik otaning kiygan kiyimi yoki qishloq hayoti tasvirida emas, balki uning oila muqaddasligi borasidagi qat‘iy estetik qarashlarida, begona farzand hayoti uchun o‘z jonini tikishidagi ma‘naviy mohiyatda, kelajak avlodga bo‘lgan cheksiz ishonch va mas‘uliyatida ko‘rinadi.

Tadqiqotimiz davomida olingan natijalar Nabi Jaloliddinning “Ota” hikoyasida “Ota” konsepti shunchaki oila boshlig‘i emas, balki milliy ma‘naviyatning ustuvori sifatida aks ettirilganligini ko‘rsatadi. Ushbu natijalarni ilmiy-nazariy jihatdan quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Birinchidan, asardagi badiiy reallik masalasi. D. Quronov ta‘kidlaganidek, asardagi reallik ijodkorning ideali asosida qayta ishlangan aksdir. Biz o‘rgangan ota obrazi – o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan “komil ota” haqidagi tasavvurlarining badiiy in‘ikosidir. Uning hovlisidagi tartib va farzandlarining so‘zsiz itoati hayotiy nusxa emas, balki yozuvchi ilgari surgan axloqiy idealning ko‘rinishidir.

Ikkinchidan, milliylikning ifodalanishi. Maqolada keltirilganidek, milliylik tashqi libosda emas, balki estetik mohiyatdadir. Otaning o‘z farzandlariga ayolga ehtirom ko‘rsatish borasidagi tanbehlar va nevaralar oldidagi mas‘uliyati o‘zbekona tarbiya tizimining etik asosini tashkil etadi. Bu yerda milliylik qahramonning xatti-harakatlari va ichki dunyosiga singib ketgan.

Uchinchidan, fidoyilikning ijtimoiy ko‘lami. Munozaramizning eng muhim nuqtasi – otaning “prezident bo‘ladigan” bolani qutqarishi bilan bog‘liq. Tadqiqotchi I. Bazarbayeva oiladagi sog‘lom muhitni poydevor deb hisoblasa, biz ushbu poydevorning oliy nuqtasi sifatida otaning o‘zgarlar farzandi (millat kelajagi) uchun jonini tikishini ko‘rsatamiz. Bu detal “Ota” konseptini shaxsiy manfaatdan yuksaltirib, uni umummilliy himoyachi maqomiga ko‘taradi.

Shunday qilib, “Ota” konsepti shunchaki etnik bir obraz emas, balki o‘zbek xalqining yashash falsafasi, uning olijanoblik va fidoyilik haqidagi eng yuksak ideallarini o‘zida mujassam etgan estetik hodisadir.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yozuvchi Nabi Jaloliddin “Ota” hikoyasida har bir ota o‘z farzandlariga berishi zarur bo‘lgan barcha insoniy fazilatlar, xususan sharqona tarbiya, vijdonlilik, halollik, oqibat kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zining har bir farzandiga to‘laligicha singdira olgan D.Quronov ta‘biri bilan aytganda “ideal ota” obrazini aks ettiradi. Binobarin, bu masala, ayniqsa, bugunning eng og‘riqli va dolzarb muammolaridan sanaladi. Zero, hozirgi texnika va innovatsiyalar davrida ko‘pchilik ota-onalar farzandlariga ushbu milliy qadriyatlarni singdirish lozimligini hamda o‘zlari kelajak avlod uchun o‘rnak bo‘lishi kerakligini anglamayotgan bir paytda, ushbu asar ma‘naviy mayoq vazifasini o‘taydi. Yozuvchi Nabi Jaloliddin esa ushbu muhim ijtimoiy yukni kitobxonga yetkazishda yuksak badiiy mahorat ko‘rsatgan. Chunki adabiyotshunos Izzat Sulton aytganidek: “Yozuvchi mahorati – aytilmoqchi bo‘lgan fikr, tasvirlanayotgan predmet va ruhiy holatni eng aniq va eng yorqin ifoda eta oladigan so‘z va iboralarni topa bilishdan iboratdir” [10, 38]. Adib aynan mana shunday aniq so‘zlar orqali “Ota” konseptining ruhiy qatlamlarini ochib beradi. Asar yechimining kutilmagan fojia bilan yakunlanishi esa yozuvchining voqealar tizimini boshqarishdagi mahoratini yaqqol namoyon etadi. Zero, Hotam Umurov ta‘kidlaganidek, “ijoddagi eng kichik zarra ham badiiy mahoratga muhtojdir” [10, 32]. Nabi Jaloliddin ijodidagi har bir detal – hovlidagi tartibdan tortib, suv sahnasigacha bo‘lgan barcha

«zarralar» yagona badiiy niyatga xizmat qilishi bilan asardagi “Ota” konseptining mukammalligini ta’minlagan.

ADABIYOTLAR:

1. Alimbayeva N. Nabi Jaloliddin hikoyalarida obrazlar tahlili // Multidisciplinary Scientific Journal. – Toshkent, 2023. – April. – B. 145–150.
2. Bazarbayeva I. Nabi Jaloliddin hikoyalarida milliy ifoda talqini // IQRO JURNALI (Journal of Iqro). – Toshkent, 2025. – Volume 15, Issue 01. – B. 141–144 – ISSN: 2181-4341. – SJIF: 5. 431.
3. Istamova Sh.M. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining o‘ziga xos xususiyatlari // Science and Education. – Toshkent, 2022. – Volume 3, Issue 2. – B. 1541–1547. – [Elektron resurs]. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-o-zbek-hikoyachiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari>
4. Jaloliddin N. Ota hikoyasi. [Elektron resurs] <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nabi-jaloliddin-1962/nabi-jaloliddin-ota-hikoya>.
5. Oripova G., Abdurasulova N.A. Nabi Jaloliddin nasrida urush qatnashchilari ruhiyati tasviri // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – T., 2023. – Vol. 3, Issue 5. – B. 1025–1030. (E)ISSN: 2181-1784-495-501.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004. – 224 b.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018. – 480 b.
8. Quronov D. Adabiyot va b. Maqolalar to‘plami. – T.: Akadernashr, 2019. – 126 b.
9. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Bookmany print, 2022. – 252 b.
10. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2001. – 120 b.
11. Ulkanboyeva M. Suv obrazining badiiy-estetik talqini // Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yishda filologik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati: Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2023. – B. 291-294.
12. Xurramova M.I. Badiiy adabiyotlarda konsept tushunchasi // Science and Education. – Toshkent, 2023. – Volume 4, Issue 11. – B. 580–585. – ISSN: 2181-0842. – Impact Factor: 3.848.
13. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z: Adabiy o‘ylar. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 346 b.

*Ro'ziqulova Dilbar Muzaffar qizi,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti tadqiqotchisi
(O'zbekiston)
E-mail: dilbarroziqulova1999@gmail.com*

FAXRIYOR SHE'RIYATIDA INTERMATNLIK

Annotatsiya. Hozirgi o'zbek she'riyatida milliy badiiy tafakkur an'alarini zamonaviy poetik izlanishlar bilan uyg'unlashtirayotgan ijodkorlar orasida Faxriyor ijodi alohida e'tibor qozonadi. Shoir she'riyatida jahon adabiyoti tajribalari, sharq va g'arb poetik tafakkuri unsurlari hamda milliy adabiy meros bilan uzviy bog'liq intermatn hodisalari o'ziga xos badiiy talqinda namoyon bo'ladi. Xususan, uning she'rlarida pretsedent birliklar, alluziya, reminissensiya, tagma'no, maqol va matallar, xalqona iboralar hamda diniy-mifologik ishoralar poetik ma'noni chuqurlashtiruvchi muhim vosita sifatida qo'llanadi. Bu esa lirik matnning ko'pqatlamli semantik tuzilishini yuzaga keltirib, o'quvchini matn ichidagi yashirin ma'nolarni anglashga undaydi. Maqolada Faxriyor she'riyatida intermatnlilikning namoyon bo'lish shakllari, ularning poetik funksiyasi hamda badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, shoir ijodida klassik o'zbek adabiyoti, xalq og'zaki ijodi va jahon she'riyati bilan bog'liq badiiy parallelizmlar misollar asosida ochib beriladi. Tadqiqot davomida intermatn elementlarining lirik qahramon ruhiyati, poetik obraz va falsafiy mushohada ifodasidagi o'rni yoritilib, Faxriyor poetikasining zamonaviy o'zbek she'riyatidagi o'ziga xos uslubiy xususiyatlari ilmiy asosda baholanadi.

Kalit so'zlar: intermatn, pretsedent birliklar, Faxriyor ijodi, postmodern she'riyati, tarixi-milliy kod.

Аннотация. Среди представителей современной узбекской поэзии, гармонично сочетающих национальные традиции художественного мышления с современными поэтическими поисками, особое место занимает творчество Фахриюр. В поэзии поэта своеобразно проявляются интертекстуальные явления, связанные с опытом мировой литературы, элементами восточного и западного поэтического мышления, а также национальным литературным наследием. В частности, в его стихах такие формы интертекстуальности, как прецедентные единицы, аллюзия, реминисценция, подтекст, пословицы и поговорки, народные выражения, а также религиозно-мифологические намёки, выступают важными средствами углубления поэтического смысла. Это формирует многослойную семантическую структуру лирического текста и побуждает читателя к осмыслению скрытых смыслов произведения. В статье анализируются формы проявления интертекстуальности в поэзии Фахриёра, их поэтическая функция и художественно-эстетическое значение. Также на конкретных примерах раскрываются художественные параллели, связанные с классической узбекской литературой, устным народным творчеством и мировой поэзией. В ходе исследования освещается роль интертекстуальных элементов в раскрытии внутреннего мира лирического героя, создании поэтического образа и выражении философских размышлений, а также научно обосновываются своеобразные стилевые особенности поэтики Фахриёра в современной узбекской поэзии.

Ключевые слова: интертекст, прецедентные единицы, творчество Фахриёра, постмодернистская поэзия, историко-национальный код.

Abstract. Abstract. Among the representatives of contemporary Uzbek poetry who harmoniously combine national traditions of artistic thinking with modern poetic explorations, the творчество of Faxriyor occupies a special place. In the poet's works, intertextual phenomena connected with the experience of world literature, elements of Eastern and Western poetic thought, and the national literary heritage are manifested through unique artistic interpretations. In particular, such forms of intertextuality as precedent units, allusions, reminiscences, subtext, proverbs and sayings, folk expressions, and religious-mythological references function as important devices that deepen poetic meaning. This creates a multilayered semantic structure within the lyrical text and encourages readers to perceive and interpret its hidden meanings. The article analyzes the forms of intertextuality in Faxriyor's poetry, their poetic functions, and their artistic and aesthetic significance. It also reveals, through specific examples, artistic

parallels related to classical Uzbek literature, folklore, and world poetry. The study highlights the role of intertextual elements in expressing the inner world of the lyrical hero, shaping poetic imagery, and conveying philosophical reflections, while also providing a scholarly assessment of the distinctive stylistic features of Faxriyor's poetics in contemporary Uzbek poetry.

Keywords: intertext, precedent units, Fakhriyor's work, postmodern poetry, historical-national code.

Kirish. An'anaviy adabiyotshunoslikning ayrim tahlil metodlarida matn lingvopoetik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Ammo o'tgan asrning 60-yillarida fransuz struktur adabiyotshunoslari tomonidan iste'molga kiritilgan intermatn hodisasi adabiyotshunoslikda yangi tahlil nazariyalarini yuzaga chiqardi. Ushbu hodisa adabiyotshunoslar tomonidan yer osti suvlariga qiyoslanadi, yashirin, ammo bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Muallif asar yaratish jarayonida ongli yoki ongsiz ravishda o'zidan oldin yaratilgan matnlarga murojaat qiladi, ayni o'rinda jamlanmani o'z maqsadi asosida qayta yaratadi.

Asosiy qism. Fransuz olimasi Yuliya Kristevaning "Baxtin, so'z, dialog va roman" (1967) risolasida ilk bor qo'llanilgan "intermatn" va "intermatnlik" atamasi aksar hollarda postmodern asarlarga nisbatan qo'llanilib kelingan bo'lib, rus adabiyotshunosi T.E.Litvinenkoning doktorlik dissertatsiyasida "barcha matnlarni intertekstlar deb atash mumkin" [4, 14] degan xulosasi badiiy asar tahlilida "muallif – matn – kitobxon" uchligi masalasini yuzaga chiqaradi. Intermatnning "quroq" tabiati muallif hamda kitobxondan yuqori intellektni talab qiladi.

Intertekstuallik og'zaki va yozma adabiyotning eng qadimgi davrlaridanoq muallif va o'quvchi o'rtasida ko'priq vazifasini bajargan. Dastlab, Gomerning "Iliada", "Odessiya" dostonlarida kitobxon ko'plab mifologik syujetlarni o'zlashtirishni boshlagan. Uyg'onish davri va klassisizm adabiyoti vakillari o'z g'oyaviy maqsadini antik adabiyot namunalariga murojaat orqali amalga oshirgan. Biroq, modern ijodkorlar ushbu me'zonni nihoyatda baland qo'yanliklari bois aksar hollarda kitobxon muallif bilan intellektual bahsga kirishishga ojizlik qilmoqda. Xususan, hozirgi o'zbek nasrida bu borada yaxshigina material bera oladigan Omon Muxtor, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Bahodir Qobul va boshqalarning o'nlab asarlarini sanab o'tish mumkin. Shuningdek, o'zbek modern shoirlari Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad asarlarini ham to'la "hazm qilish" uchun kitobxondan xalq og'zaki ijodi, tasavvuf, antik adabiyot namunalari, jahon durdona asarlari bilan tanish bo'lishi talab qilinadi.

Muhokama va natijalar. Bu borada adabiyotshunosligimizda Faxriyorning zamonaviy she'riyatimizdagi izlanishlarida intermatn hodisasi kuzatilishiga oid ayrim maqola va tadqiqotlar ham yuzaga keldi. Shu bois biz bu hodisa yarq etib ko'zga tashlanadigan dostonlarining emas, ayrim she'rlari tahlili bilan cheklanamiz. Misol uchun, shoirning "ayol – qush tilida yozilgan kitob..." deb boshlanuvchi she'ri ham turli makon va zamonga xos pretsedent birliklar majmuasidan iborat ekanligini dastlabki misralardan kuzatishimiz mumkin:

*ayol – qush tilida yozilgan kitob,
faqat alifbosi – kirill yo latin.
tushuna bilmassan, garchi sen xitoy-
chani zo'r bilsang ham. qolgani – botil.*

Parchada keltirilgan "qush tili" – "Lison ut-tayr" dostoniga ishora bo'lib, Navoiy iqroriga ko'ra "... unda ifoda etilgan maqsadni bilib olish qiyin ..." [1, 109]. Ya'ni asar haqiqiy tasavvuf ilmi sohiblarigagina to'la anglashiladi, qush tilini hamma ham tushunavermaydi, ayol lisoni ham shunga monand, demoqchi shoir.

Shoir "ayol mantig'i"ni tilga olar ekan, badiiy paradoksdan foydalanadi, ya'ni aslida – bu mantiqsizlik, anglab bo'lmas hodisa, shoir xulosasi bilan aytganda, ayolni tushunish emas, faqatgina, sevisish mumkin. Ayol sevgisini ham, nafratini ham ochiq-oydin ifodalavermaydi, ko'pincha ramzlar tilga kiradi. Shu bois bu tilni tushunish uchun ham alohida iqtidor kerak. "Ayol mantig'i" – anglashilmagan kishi uchun mantiqsizlikday taassurot qoldiradi.

Pretsedent birliklar alluziya, reminisensiya, epigraf, oksimoron, geminatsiya, tagma'no, iboralar, maqollar, matallar, alliteratsiya, assonans, ko'chimlar (metafora, metonimiya, ironiya), parafraza, anafora, epifora, iqtibos, ellipsis qatorida intermatn birligi hisoblanib, oldin, o'tmishda sodir bo'lib, shu ko'rinishdagi keyingi birliklarga namuna yoki dalil bo'lib xizmat qiluvchi birlik, ya'ni yuqorida ko'rganimizdek, shoir o'z mantig'ini asoslash maqsadida o'tmishga murojaat qilgani kabi. Bu holatda

shoir aniq ilmiylikka tayanishi, mantiq va tarix, xalq ogʻzaki ijodini yaxshi bilishi hamda yuqori badiiy mahorat vositasidagina poetik voqelikka olib kirishi lozim boʻladi. Xuddi shu kabi shoir Faxriyor ham quyidagi bandda miloddan avvalgi 3 ming yillik boshlarida shumerlar tomonidan yaratilgan mixxat yozuvi, Moʻgʻulistondagi Oʻrxun va Janubiy Sibirdagi Enasoy (Yenisey) daryolari sohillarida topilgan V-VII asrlarga oid qadimgi turk tilidagi va yozuvidagi tarixiy yodgorliklarini tilga oladi:

*na izohlab boʻlar. mixxat va yoxud
enasoy bitigin hozirgi tilga
oʻgirsa boʻladi, lokigin behud
ayolni anglamoq urinchi, bilga.*

XIX asrga kelibgina “tilsimlari” ochilgan tarixiy bitiklar toʻliq holda yetib kelmaganligi tabiiy boʻlib, V.Radlov, S.Malov, I.Stebleva, U.Tomson, Genri Roulinsonlar parchalarni tiklashda yuqori mantiqqa tayanishgan. Ayni shu oʻrinda Faxriyorning badiiy kashfiyotiga guvoh boʻlamiz, shoir pretsedent birliklardan tarixiy-madaniy kod koʻrinishida metaforik talqin sifatida foydalanadi. Parcha soʻngida esa iyhom sanʼatidan vositasida bir soʻzning ikki xil anglamini qoʻllaydi: qadimgi turkiy tilda bilga – “bilimdon”, “dono”. Soʻzning ikkinchi maʼnosi qadimgi turk xoqonlaridan biri Bilga xoqonga ishoradir.

Shoir keyingi bandlarda fikr tadrijini oshirib borgani qadar koʻplab diniy va xalq ogʻzaki ijodi motivlaridan foydalanadi. Bir oʻrinda Sharq xalqlarida mashhur Majnun qissasini tilga oladi:

*muhabbat – oʻzgʻir kuch, etadi majbur
uni uqqan kabi oʻzni tutmoqqa:
shu bois sahroda adashdi majnun,
sulaymon har neni yoʻydi oʻtmoqqa [6].*

Sharq adabiyotida, xususan, tasavvuf adabiyotida ishqning uch darajasi tilga olinadi: 1. Majoziy ishq (insoniy ishq); 2. Ilohiy ishq (ruhoniyy ishq); 3. Ruhiiy – maʼnaviy ishq. Mumtoz shoirlar majoziy ishq vositasida ilohiy ishqni tasvirlashga urinishgan. Eng mashhur obrazlardan biri esa Qays – Majnun obrazi hamda u bilan bogʻliq Sharq xalqlarida mashhur qissa hisoblanadi. “Oʻn uch asrdiki, ushbu mavzuda adabiyot olamida sheʼr va dostonlar bitilib keladi” – deb yozadi D.Yusupova [7]. Ushbu qissaning manbai qadim arablar hayoti bilan bogʻliq. Ayrim manbalarga koʻra, Majnun tarixiy shaxs boʻlib, Shimoliy Arabistondagi Bani Omir qabilasiga mansub boʻlgan. Uning ismi Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, al-Aqra va baʼzan al-Buhturiy ibn al-Jaʼd tarzida keltiriladi. Majnun oʻz qabilasidan Laylini sevib, unga bagʻishlab sheʼrlar yozgan va bu haqda “Kitobu-sheʼr va-shuaro”da maʼlumot beriladi. Shu bilan birga, ayrim tarixchilar uni majoziy obraz deb hisoblab, sheʼrlar umaviy davrda yashagan bir yigitga tegishli boʻlib, u Majnun taxallusini qoʻllaganini taʼkidlaydilar. VII asrdan boshlab Majnun obrazi badiiy adabiyotda gʻamgin oshiq qiyofasida namoyon boʻla boshlaydi. Uning sahroda telbasifat kezib yurishi hamda kishilar ismini soʻrashganda “Layli” deya javob berishi Sharq adabiyotida adabiy tipni yaratgan.

Shu kabi mashhur qissalardan biri Shayx Saʼnon qissasi boʻlib, shoir badiiy maqsadini oydinlashtirishda ushbu qissaga ham murojaat qiladi:

*shayx sanʼonga
qurʼonni yoqtirdi ayol sevgisi,
tarsoni deb chiqdi dini va sondan,
imondan ayirdi bir gulning isi –*

Maʼlumki, “Shayx Sanʼon” qissasi Sharq adabiyotidagi ishq-u oshiqlik haqidagi goʻzal va mahzun qissalardan biri. Shayx tarso qiz ishqida aql-u hushidan judo boʻlgandek boʻladi, Eʼtiqodidan voz kechadi. Murid va shogirdlari nazdida Qurʼonni oʻtga tashlagandek, Kaʼbaga oʻt qoʻygandek, may ichgandek boʻladi. Shular bilan bir qatorda Faxriyor matnidagi poetik asosni anglash uchun kitobxon tasavvuf ilmidagi “Soʻfiy sevgilisiga koʻngil qoʻyganida mahbuba yuzida Alloh jamolini koʻradi, uning ishqida yonarkan, men Alloh ishqida yonyapman deb oʻylaydi, bu yoʻlda u jisman va ruhan pok boʻlishga harakat qiladi: mahbusasiga pok nazar bilan boqib, pok lazzat olishni oʻylaydi” [1, 109] nazariyasini ham bilishi talab etiladi.

Badiiy asarlarda klassik davr obraz, motivlaridan poetik maqsadni yanada boʻrttirib tasvirlash uchun foydalanish dastlab Uygʻonish davri adabiyoti, XVII asr fransuz klassizm adabiyotida namoyon boʻladi. Gumanist ijodkorlar Dante, Per Kornel, Jan Rasin, Shekspir asarlarida antik davr mifologiyasi, qahramonlik eposlarini oʻz davrining dolzarb muammolarini ochib berish maqsadida qayta yaratadi. Shu

o‘rinda shoir Shekspirning “Qirol Lir” tragediyasi qahramonining ayol makri oqibatida yuz tutgan fojeiy qiyofasini zukko kitobxon ongida qayta xotirlashga undaydi.

Bundan tashqari, she‘rda Sulaymon payg‘ambar, Isrofil alayhissalom (Qiyomat kuni bo‘lganda surga puflashga vakil qilingan farishta) nomlari ham tilga olinadi. Sanab o‘tilgan nomlarning bosh harflarsiz keltirilishini adabiyotshunos F.Buriyeva postmodern alomatlari sifatida izohlaydi: “postmodernizmda o‘zga matnlarni hech qanday punktuatsion belgilarisiz o‘z matniga singdirish an‘anasi mavjud” [3, 198] hamda shoir boshqa asarlaridagi kabi keltirilgan pretsedent birliklarga izoh keltirmaydi, kitobxon intellektiga havola qiladi.

Ma‘lumki, og‘zaki nutqda harflarning katta-kichikligiga, tinish belgilariga ehtiyoj sezilmaydi. Bizningcha, ayrim shoirlarimiz og‘zaki va yozma nutq imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish maqsadida shunday yo‘l tutmoqdalar. Bu, ayniqsa, Faxriyor ijodida aniq ko‘zga tashlanadi.

Faxriyor yana bir she‘rida Sharq xalqlarida mavjud “Iskandarning shoxi” haqidagi qissadan butun asarning g‘oyaviy mazmunini asoslashda foydalanadi. Bu esa pretsedent nomlarning lingvomadaniy jamiyatga yaxshi tanish, hududlar orasida keng tarqalgan, jamiyat hayoti va tarixi bilan bog‘liq, o‘ziga xos hodisalarni ifodalash uchun xizmat ko‘rsatishga yordam beradigan namunaviy asos, pretsedent birliklar lingvomadaniy jamiyat mafkurasiga, uning mental qiyofasi bor, anglash tarziga qadar singib ketuvchi birlik [5] sifatidagi ta‘rifiga mos tushadi:

*bor quduqlar ko‘milib ketdi,
qamish bo‘yra bo‘ldi o‘rilib,
sotib yuborildi yo chetga,
elning tinchi afzal ko‘rilib.*

Parchada ajratib ko‘rsatilgan birliklar madaniy kod hisoblanib, har biri xalqimiz madaniy, maishiy, ma‘naviy hayotida o‘z o‘rniga ega. Xususan, quduq – dengizdan minglab kilometr uzoqlikda joylashgan hamda qurg‘oqchil Markaziy Osiyo aholisi uchun muqaddas hisoblanib, odatda ko‘milmagan (hozirgi kunda ham ayrim hududlarda aholi ichimlik suvi iste‘moli uchun ochilgan quduqlar tuproq bilan ko‘milishi yaxshilik alomati sifatida qaralmaydi), shuningdek, islom dini mifologiyasida ham Yusuf payg‘ambar haqidagi qissaning asosiysi quduqqa qamalishi voqeasi hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodida esa afsonaviy hukmdor Iskandar Zulqarnayn (ikki shoxli Iskandar) qissasi aynan quduq bilan bog‘liq holda kechadi. Unga ko‘ra Iskandar Zulqarnaynning ikki chakkasida shoxi bor ekan. Sochini oldirgan sartaroshlar bu sirni aytib qo‘yishidan qo‘rqib, ularni o‘ldirar ekan, shu bois sartaroshlar kamayib ketibdi. Bir kuni u sartaroshga sirni hech kimga aytmaslik sharti bilan, uni boy qilishini aytibdi.

Sartarosh sirni ichiga sig‘dirolmay, kundan kunga holsizlanibdi. Oxiri toqqa chiqib, hech kim yo‘q joyda aytmoqchi bo‘libdi, lekin qo‘rqibdi. Bir quduqqa boshini tiqib, “Iskandarning shoxi bor” deb aytib, yuragini bo‘shatibdi.

Oradan vaqt o‘tib, o‘sha quduqdan keyin qamish o‘sib chiqibdi. Uni kim chalmasin, “Iskandarning shoxi bor” degan ovoz eshitilar ekan. Bu gap Iskandarga yetib boribdi. U sartaroshni chaqirib, rostini so‘rganida, sartarosh hammasini tan olibdi. Iskandar esa uni o‘ldirmay, kechirib yuborgan ekan.

Adabiy-falsafiy nuqtayi nazardan esa quduq – dunyolar o‘rtasidagi portal-o‘tkazuvchi hisoblanadi. Sanab o‘tilgan manbalardan ham yaxshi xabardor bo‘lgan shoir tarixiy xotirani qayta jonlantirish orqali milliy ruhni uyg‘otish maqsadida aynan shu rivoyatni tanlaydi.

Kontekstual antonimlar *qamish – bo‘yra* vositasida maqsadini yanada oydinlashtiradi. Suv manbalari, quduqlar atrofida uchraydigan o‘simlik – qamish qadim Sharq xalqlari madaniy, maishiy hayotida muhim vosita hisoblanadi. Ya‘ni qamish tanasiga ishlov berish orqali maxsus cholg‘u asbobi nay hosil qilingan. Odatda, nay vositasida eng mahzun kuylar ijro etilgan. Mumtoz, tasavvuf adabiyotida nay timsol vasifasini bajaradi, oshiq ko‘ngil timsoli. “Tingla nay andoq rivoyatlar qilur, Ayriqliqlardan shikoyatlar qilur”, - deb yozadi Rumi. Rumi talqinida inson xudoning bir zarrasi, ya‘ni foniy dunyoda yaratgandan judo bo‘lgan, xuddi shunday nay ham o‘zining yashil qamishzordan ayrilgan. Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda esa nayning tug‘ilishi qamishning o‘limini talab qiladi. Shoir A.Oripov talqini bilan aytganda:

*O‘sardi u adirda durkun,
Epkinlarga ochgancha quchoq.
Keldilar-u odamlar bir kun,*

Tanasiga soldilar pichoq.

Ayirdilar avval boshidan,
So'ng ko'zlarin oldilar o'yib,
Yetmagandek bu ham bo'g'zidan
Pufladilar lablarin qo'yib.

Parchaga avlodlararo vorisiylik jihatidan nazar tashlansa, shoir Faxriyorning g'oyaviy maqsadi bilan uyg'unlik kasb etganligining guvohi bo'lish mumkin. Shuningdek, nay timsol sifatida zamonaviy she'riyatda ham uchraydi:

So'nggi dam o'zimla o'chakishsam, hay,
Sohir ko'zlarindan talab etsam may,
E voh, kekirdagim kesib etsam nay.
Puflasam, kuy yonsa, sim simey-sim, sim.
Mobodo aldasam, yuragim tinsin (A.Qutbiddin).

Tabiiyki, Faxriyor o'zigacha ma'lum va mashhur bo'lgan bu matnlardan xabardor bo'lgan. Ijod psixologiyasining hamishayam aqlga bo'yinsunmas qonuniyatlari bilan o'zga matnlardagi qamish, nay, quduq obraz-detallari shoir onggi va ongostida o'z izlarini qoldirganki, mazkur she'rda ular tarixiy-madaniy kodning yangi qirrasini sifatida o'zligini namoyon etgan.

Kontekstual tazodni batafsil tavsiflash uchun bo'yraning izohini ham qisqacha keltirib o'tish joiz. Bo'yra – pishgan qamish po'stini tozalab to'qiladigan solinchiq (to'shama). Uy-joylarda namat (kigiz), gilam, palos tagidan to'shaladi. Bo'yra paloslarni tuproq va zaxdan saqlagan. Ko'rinadiki, yuqoridagi talqinlarning barchasidan xabardor shoir ma'rifat sohiblari davrasida nay sifatida foydalanilgan qamishning maishiy vositaga aylantirilganini metaforik talqinda asrlar davomida e'zozlanib kelingan milliy g'ururning bugungi kunda so'nib borayotgani sifatida izohlaydi. Shoir Iskandar shoxi haqidagi rivoyatni o'z davriga moslab qayta ishlaydi. Bir so'z bilan aytganda, shoir madaniy kodni qayta faollashtiradi.

tolqon emas, shukr solingan
har bandaning og'ziga – qoyil.
baxtliman deb tilxat olingan,
baxtsiz bo'lmoq endi ne joiz?

Shoir qissa mazmuniga mos xalq og'zaki ijodida faol qo'llanib kelayotgan “og'ziga talqon solgan” frazeologik birikmasini davr voqeligini ifodalash maqsadida yuksak mahorat bilan she'riy parchaga omuxtalashtirib yuboradi. Parchadan anglashilib turgan kesatiq, piching – bu postmodern adabiyotining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Uzoq yillar davomida xalq orasida sayqallanishga uchragan frazeologik birikmalarga poetik ishlov bergan holda foydalanish ijodkordan katta mahorat talab qiladi, deb yozadi F.Buriyeva, shuningdek, Faxriyor ijodida intermatn hodisasining 3 asosiy: 1) maqol, matal, frazeologik birikmalar, hikmatli so'zlarning novatorona, o'zgartirilgan shakllarida, 2) o'zigacha mavjud bo'lgan matnlarga kinoyaviy yondashuv, 3) afsonaviy tarixiy shaxslar, adabiy qahramonlar talqini sifatidagi ko'rinishlarini sanab o'tadi.

bilib oldik shukr qilishni,
ne hojatdir ko'ngil torligi?
endi hamma shartmas bilishi
iskandarning shoxi borligin.

Parchadan rivoyat asli to'g'ri gapni qo'rquv tufayli aytaolmaslik sabab to'qilgan, ammo o'sha ota-bobolarning bugungi zurriyoti dardini hatto quduqqa aytishga ham qo'rqib, qalbiga ko'mayapti va uning ustini soxta shukronalik bilan xaspo'shlayapti degan xulosasi anglashiladi.

Xulosa. Ijodkor o'zidan oldin yozilgan mavzu, motiv, syujetga murojaat qilishi mumkin, faqat u o'shalarning yangi qirrasini ochishi kerak. Faxriyorning yutug'i shundaki, u o'sha mazmunni yangiladi, ya'ni unga qadar hech kim rivoyat bilan soxta shukronalik tuyg'usini bunchalik achchiq kinoya bilan qiyoslamagan edi. Qadimgi yunon faylasuflari hamda Arastu o'zining “Poetika” asarida san'atni “memesis” – taqlid, aks ettirish san'ati deya izohlaydi, ya'ni, nafaqat aks ettiradi, balki qayta ishlaydi ham. San'atning turli sohalarida aks ettirish vositasi turlicha gavdalanadi. Badiiy adabiyot esa so'z vositasida hayotga taqlid qiladi, hayotdan ko'chirma oladi. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, badiiy

adabiyot o'z-o'zidan-da ko'chirma olish huquqiga ham ega. Ayni o'rinda muallif o'zlashtirmani o'z g'oyasi bilan qorishtirib, birlashtirib yuboradi, hosilaning mavqei muallifning mahoratini belgilab beradi, o'quvchini esa intermatn olamiga sayohatga boshlaydi. R.Bart aytganidek, "muallifning o'limi o'quvchining tirilishi"ga olib keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. Nasriy bayon. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 110 b.
2. Аристотель. Поэтика (Поэзия санъати ҳақида). – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 152 б.
3. Buriyeva F. Hozirgi o'zbek she'riyatida an'ana va novatorlik tamoyillari. Fil.fanlari doktori diss. –Samarqand, 2026. – 220 b.
4. Litvinenko T. E. Intertekst va uning lingvistik asoslari: Lotin Amerikasi adabiy matnlari asosida: mualliflik referati. diss. ... Filologiya fanlari doktori / T. E. Litvinenko. – Irkutsk: IGLU, 2008. – 200 b.
5. www.in-academy.uz
6. https://t.me/faxriyor_ijodi1
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/layli-va-majnun-radiopesa.html>

Sharipov Ma'mur Mansurovich,
Teacher of the Department of English
Literature Bukhara State University
(Uzbekistan)
E-mail: m.m.sharipov1@buxdu.uz

XIX–XX ASRLAR INGLIZ ADABIYOTIDA XIZMATKOR OBRAZI TALQINI

Annotatsiya. XIX-XX asr ingliz adabiyoti jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, sinfiy tafovutlar va insoniy munosabatlarning murakkab tizimini chuqur aks ettirgan davr sifatida ajralib turadi. Ushbu davr asarlarida nafaqat aristokratiya yoki o'рта tabaqa vakillari, balki jamiyatning past qatlamiga mansub bo'lgan xizmatkorlar obrazi ham muhim o'rin egallaydi. Xizmatkorlar ko'pincha voqealar rivojida ikkinchi darajali personaj sifatida namoyon bo'lsa-da, ular orqali yozuvchilar jamiyatning yashirin qatlamlarini, insoniy munosabatlardagi nozik jihatlarni va ijtimoiy tengsizlikni yoritishga muvaffaq bo'lganlar. Mazkur maqolada XIX-XX asr ingliz adabiyotida xizmatkorlar obrazi, ularning badiiy vazifasi, ijtimoiy ahamiyati hamda lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: realistik tasvir, axloqiy mezonlar, insoniy qadr-qimmat, fojiaiy qahramon, sun'iy tabaqalanish, ichki monologlar, ijtimoiy tizim, kontrast yaratish, mustaqil shaxs, insoniy munosabatlar.

Аннотация. Английская литература XIX–XX веков выделяется как период, глубоко отражающий социальную стратификацию, классовые различия и сложную систему человеческих отношений в обществе. В произведениях этого периода важную роль играет образ слуг, принадлежащих к низшим слоям общества, не только представителей аристократии или среднего класса, но и самих слуг, принадлежащих к низшим слоям общества. Хотя слуги часто выступают в роли второстепенных персонажей в развитии событий, через них писателям удавалось осветить скрытые слои общества, тонкости человеческих отношений и социальное неравенство. В данной статье анализируется образ слуг в английской литературе XIX-XX веков, его художественная функция, социальное значение и лингвопоэтические особенности.

Ключевые слова: реалистический образ, моральные критерии, человеческое достоинство, трагический герой, искусственная стратификация, внутренние монологи, социальная система, создание контраста, независимая личность, человеческие отношения.

Abstract. English literature of the 19th-20th centuries is distinguished as a period that deeply reflected the social stratification, class differences, and complex system of human relations in society. In the works of this period, the image of servants belonging to the lower strata of society, not only representatives of the aristocracy or the middle class, but also the image of servants belonging to the lower strata of society, plays an important role. Although servants often appear as secondary characters in the development of events, through them writers managed to illuminate the hidden layers of society, the subtleties of human relations, and social inequality. This article analyzes the image of servants in English literature of the 19th-20th centuries, their artistic function, social significance, and linguopoetic characteristics.

Keywords: realistic image, moral criteria, human dignity, tragic hero, artificial stratification, internal monologues, social system, creating contrast, independent personality, human relations.

Kirish. Xizmatkor obrazining ijtimoiy konteksti haqida to'xtaladigan bo'lsak, XIX asr Angliyasi sanoat inqilobi natijasida keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. Jamiyat boylar va kambag'allar o'rtasida keskin ajralib ketdi. Xizmatkorlar esa asosan aristokratik oilalarda xizmat qiluvchi, iqtisodiy jihatdan qaram bo'lgan qatlamni tashkil etardi. Ularning hayoti ko'pincha egalarining hayoti bilan chambarchas bog'liq edi. Adabiyotda xizmatkorlar obrazining paydo bo'lishi bejiz emas. Bu obraz orqali yozuvchilar jamiyatdagi adolatsizlik, insoniy qadr-qimmat masalalarini ko'tarishga harakat qilganlar. Xizmatkorlar ko'pincha ijtimoiy tizimning jim guvohlari sifatida tasvirlanadi.

XIX asr adabiyotida xizmatkorlar ko'pincha realistik tasvirda beriladi. Ular sodda, mehnatkash, sadoqatli, ba'zan esa kulgili yoki fojiaiy qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Bu davr yozuvchilari

xizmatkorlar orqali jamiyatning axloqiy mezonlarini ko'rsatishga intilganlar [14]. Masalan, xizmatkor obrazi ko'pincha quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Egasining xarakterini ochib berish;
- Ijtimoiy kontrast yaratish;
- Voqealarga tashqi kuzatuvchi sifatida baho berish.

Asosiy qism. Ba'zi hollarda xizmatkorlar o'z egalriga nisbatan aqlliroq yoki axloqan ustunroq qilib tasvirlanadi. Bu esa yozuvchilarning jamiyatdagi sun'iy tabaqalanishga tanqidiy qarashini ifodalaydi [15].

XX asr ingliz adabiyotida xizmatkorlar obrazining evolyutsiyasida aancha o'zgarishlar ro'y berdi. XX asrga kelib xizmatkorlar obrazi sezilarli darajada murakkablashadi. Endilikda ular faqat fon qahramoni emas, balki mustaqil fikrlovchi, ichki dunyosi boy shaxs sifatida tasvirlana boshlaydi. Bu davr adabiyotida quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi:

Xizmatkorlarning psixologik chuqurligi ortadi. Ularning ichki monologlari, hissiyotlari ko'proq yoritiladi. Ijtimoiy tizimga nisbatan tanqid kuchayadi.

Xizmatkor endi faqat xizmat qiluvchi emas, balki jamiyatdagi o'z o'rnini anglashga harakat qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa modernizm va realizm oqimlarining ta'siri bilan bog'liq. Lingvopoetik xususiyatlar ham ushbu davrning bir qismiga to'g'ri keladi. Xizmatkorlar obrazini yaratishda yozuvchilar turli lingvopoetik vositalardan foydalanadilar. Ularning nutqi ko'pincha quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

Sodda va xalqona til – xizmatkorlar nutqi aristokratlarga nisbatan oddiroq bo'ladi.

Dialekt va ijtimoiy nutq elementlari – ularning kelib chiqishini ko'rsatadi.

Ironic va kinoya – ba'zan xizmatkorlar orqali muallif yashirin tanqidni ifodalaydi.

Dialoglar orqali xarakter ochish – xizmatkorlarning nutqi ularning ijtimoiy mavqeyini aniq ko'rsatadi.

Ingliz adabiyotida quyi tabaqa vakillari, xususan, xizmatkorlar va ishchilar sinfining badiiy talqini davrlar o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgargan. Bu borada Tomas Hardining "Tess of the d'Urbervilles" (D'Erbervillar oilasidan Tess) asari eng yorqin misollardan biri bo'la oladi.

Ushbu asarda quyi tabaqa vakillarining hayoti nafaqat iqtisodiy qiyinchiliklar, balki ma'naviy va ijtimoiy tazyiqlar kontekstida ham mahorat bilan tasvirlangan.

Tess Durbeyfield: Quyi tabaqa ayolining fojiasi:

Hardy asarida Tess obrazini yaratish orqali viktoriya davri jamiyatidagi qat'iy sinfiy tabaqalanishni va bu tabaqalanishning inson taqdiriga ta'sirini ko'rsatib beradi.

Ijtimoiy ziddiyat: Tess oddiy dehqon oilasidan chiqib, o'zini oqsuyak nasldan deb hisoblovchi boylar dunyosiga to'qnash keladi. Uning badiiy qiyofasida quyi tabaqaga xos bo'lgan soddalik, tabiat bilan uyg'unlik va mehnatsevarlik mujassamlashgan.

Lingvistik jihat: Asarda Tess va uning oilasi muloqotda dialektlardan foydalanishi ularning ijtimoiy mavqeyini ko'rsatuvchi muhim belgi hisoblanadi. Boy tabaqa vakillari esa «toza» ingliz tilida so'zlashadi, bu esa ular orasidagi masofani yanada kengaytiradi.

Badiiy tasvirdagi asosiy vositalar:

Quyi tabaqa vakillarining obrazini yaratishda ingliz yozuvchilari ko'pincha quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishadi:

Portret va kiyim-kechak: Tessning qizil tasmasi yoki uning daladagi ish kiyimlari orqali muallif uning ijtimoiy kelib chiqishini va estetik go'zalligini uyg'unlashtiradi.

Nutq xususiyatlari: Qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi ularning leksikasi va talaffuzi orqali namoyon bo'ladi. Bu "lingvopoetika" tushunchasining asardagi amaliy ifodasidir.

Muhit tasviri: Qahramon yashaydigan kulba va u ishlaydigan fermadagi og'ir mehnat sharoitlari quyi tabaqa hayotining realistik manzarasini yaratadi.

Boshqa asarlardan misollar

Muallif	Asar	Quyi tabaqa vakili
Charles Dickens	"Oliver Twist"	Oliver va ko'cha bolalari
E.M. Forster	"Howards End"	Leonard Bast (kambag'al kotib)

Muallif	Asar	Quyida tabaqa vakili
D.H. Lawrence	“Lady Chatterley’s Lover”	Mellors (o‘rmon qorovuli)

Ushbu asarlar orqali biz ingliz adabiyotida quyida tabaqa vakillari shunchaki fon emas, balki jamiyatdagi chuqur ijtimoiy-psixologik muammolarni ochib beruvchi markaziy figuralar ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Muhokama va natijalar. Lingvopoetik tahlilda xizmatkorlar nutqi adabiy asarlarda ijtimoiy mavqe, madaniy daraja va xarakter ochilishining muhim vositasi sifatida tasvirlanadi. Ularning nutqi ko‘pincha muallif tomonidan maxsus stilistik belgilar orqali ajratib ko‘rsatiladi.

1. Soddalik va og‘zaki nutq unsurlari. Xizmatkorlar nutqi odatda sodda, qisqa va og‘zaki uslubga yaqin bo‘ladi. Bu ularning ijtimoiy tabaqasini ko‘rsatadi. Masalan, *Pride and Prejudice* asarida xizmatkorlar nutqi murakkab sintaktik tuzilmalardan yiroq: “Yes, ma’am, right away, ma’am,” – bu kabi takroriy va sodda iboralar xizmatkorning itoatkorligini va ijtimoiy masofani bildiradi.

2. Hurmat va itoat ifodalovchi formulalar. Xizmatkorlar nutqida “sir”, “madam”, “janob”, “xonim” kabi murojaat shakllari tez-tez uchraydi. Bu ijtimoiy ierarxiyani aks ettiradi. Masalan, *The Remains of the Day* romanida bosh qahramon Stivens nutqi juda rasmiy: “I believe I have carried out my duties to the best of my abilities, sir.” Bu yerda “sir” murojaati va rasmiy konstruktsiya uning professional etikasi va ichki intizomini ko‘rsatadi.

3. Dialekt va ijtimoiy belgilangan til. Ba’zi asarlarda xizmatkorlar nutqi dialekt yoki grammatik jihatdan “oddiy lashtirilgan” shaklda beriladi. Bu realizmni kuchaytiradi. Masalan, *Jane Eyre* asaridagi xizmatkor Bessi nutqida xalqona elementlar bor: “You’re a queer child, Miss Jane.” Bu ibora orqali xizmatkorning oddiy xalq vakili ekani seziladi.

4. Frazologik birliklar va xalqona obrazlilik. Xizmatkorlar nutqida ko‘pincha maqol, ibora va xalqona tasvirlar ishlatiladi. Bu ularning milliy va madaniy muhitini aks ettiradi. Masalan, o‘zbek adabiyotida Qutlug‘ qon romanidagi xizmatkorlar nutqida: “Boyning ishi – buyurish, bizning ish – bajarish.” Bu kabi iboralar ijtimoiy tengsizlikni qisqa va obrazli ifodalaydi.

5. Ichki nutq va psixologik chuqurlik. Zamonaviy adabiyotda xizmatkorlar faqat oddiy nutq egasi emas, balki murakkab ichki monologga ega shaxs sifatida tasvirlanadi. Masalan, yana *The Remains of the Day* da Stivensning ichki nutqi: “What is dignity?” Bu savol orqali xizmatkorning ichki dunyosi va o‘zini anglash jarayoni ochiladi.

Lingvopoetik jihatdan xizmatkorlar nutqi asarda realistik muhit yaratishda muhim vosita hisoblanadi [16].

Xizmatkorlar obrazining badiiy funksiyalarini kuzatadigan bo‘lsak, xizmatkorlar obrazining adabiyotdagi o‘rni quyidagi funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi:

- ijtimoiy oynalik funksiyasi – jamiyatdagi tengsizlikni aks ettiradi;
- kontrast yaratish – boy va kambag‘al qatlam o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi;
- sujetni rivojlantirish – ko‘pincha muhim voqealarga sababchi bo‘ladi;
- axloqiy mezon – ba’zan xizmatkorlar halollik va sadoqat timsoli sifatida beriladi.

Shuningdek, ular orqali insoniy munosabatlarning samimiy yoki soxta ekanligi ochib beriladi.

Xulosa. XIX–XX asr ingliz adabiyotida xizmatkorlar obrazi muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ular orqali yozuvchilar jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, insoniy qadr-qimmat va axloqiy muammolarni chuqur tahlil qilganlar. XIX asrda xizmatkorlar ko‘proq fon qahramoni sifatida tasvirlangan bo‘lsa, XX asrga kelib ular mustaqil shaxs sifatida shakllanadi. Xizmatkorlar obrazi nafaqat adabiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u jamiyatdagi real muammolarni aks ettiradi. Shu bois ushbu obrazni o‘rganish ingliz adabiyotining chuqur qatlamlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Bahodirovna A.M. Semantic Field and Sema in Uzbek (In the Example of „Ma‘naviyat“). // International journal of inclusive and sustainable education, vol. 1, no. 4, Oct. 2022. – P. 77-80. <http://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/P-173>.
2. Light Alison. Mrs. Woolf and the Servants: An Intimate History of Domestic Life in Bloomsbury. Bloomsbury, 2008. – 194 p.

3. Sharipov M.M. The Problem of Intertextuality in Modern Literature//Indonesian Journal of Innovation Studies, 2022. – P. 332-334.
4. Sharipov M.M. Description of the psychological state of the character Miryoqub in Cholpon's novel “Night and day” // International journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social sciences, 2023. – P. 78-82.
5. Sharipov M.M. Z.I Rasulov. THE EFFECT OF THE MORPHOLOGICAL LEVEL OF ECONOMY ON LANGUAGE CHANGES. //Theoretical & Applied Science, 2020. – P. 215-218.
6. McClintock, Anne. Imperial Leather: Race, Gender and Sexuality in the Colonial Contest. Routledge, 1995. – P. 148-152.
7. Назаров Б., Каримов Н., Мамажонов С. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 412 б.
8. Sharipov M.M. Intertextuality and Intertext: Main elements and determination. //International journal of inclusive and sustainable education <http://interpublishing.com/index.php/IJISE/article/download/187/148>. – P. 301-305.
9. Sharipov M.M. Modernist prose in the light of intertextuality in modern literary criticism 2022/3/31 Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects <https://www.openconference.us/index.php/ISPADP/article/view/258,P-212>
10. Sharipov M.M. The author's skill in describing the character of the servant in the novels of Abdulla Kadiri and Oybek.// International Scientific and Practical conference, 2023/9/24. – P. 301-305.
11. Sharipov M. Servant Characters in English Literature: A Study of Their Significance and Role // Spanish Journal of Innovation and Integrity, vol. 19, June 2023. – P. 3-6. (Impact Factor: 6.692).
12. Sharipov M. Intertextuality in Sacred and Mystical Literary Texts as a Linguistic Phenomenon of Intercultural Dialogue: Based on the Material of English and Uzbek Languages // Academic Journal of Digital Economics and Stability, 2022. – P. 111-114.
13. Sharipov M.M. Dafne du Maurierning “Rebekka” asaridagi xizmatkor obrazi. Moddiy va nomoddiy madaniy meros uyg'unligi. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya, Buxoro, 2023, 9 sentyabr. – B. 253-255.
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xYnKb5EAAAAJ&citation_for_view=xYnKb5EAAAAJ:mVmsd5A6BfQC
15. <https://ijins.umsida.ac.id/index.php/ijins/article/view/604>
16. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xYnKb5EAAAAJ&citation_for_view=xYnKb5EAAAAJ:d1gkVwhDpl0C

*Norova Mexri Baxtiyorovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
o'qituvchisi, f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
E-mail: norova_mexri@buxdpi.uz*

ZAMONAVIY INGLIZ VA O'ZBEK SHE'RIYATIDA OQ VA YASHIL RANG RAMZLARINING MUSHTARAK JIHTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyatidagi ramzga oid qarashlar, oq va yashil ranglarning o'xshash jihatlari, ularning zamonaviy she'riyatdagi o'rni, ma'no-mazmuni va qo'llanilishi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, maqolada ramziy tahlil uchun tanlangan obyekt asosida ifodalangan ko'chma – timsoliy ma'no aniqlangan hamda obyektlar, so'zlar yoki tushunchalar muayyan assotsiatsiyalarni keltirib chiqarishi o'rganilgan. Zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyati kesimida hodisani tekshirish asosida uning mushtarak mazmun ifodalashi kuzatilib, bir necha rangga oid timsollar orqali fikrlar dalillangan.

Kalit so'zlar: ramz, rang ramzlari, ramziy tahlil, rang ramzlari turlari, poetik obraz.

Аннотация. В данной статье рассматриваются взгляды на символизм в современной английской и узбекской поэзии, сходство белого и зеленого цветов, их роль в современной поэзии, значение и содержание, а также их использование. В статье также определяется переносное значение, выраженное на основе выбранного для символического анализа объекта. Также, исследуется то, вызывают ли объекты, слова или понятия определенные ассоциации. На основе анализа явления в современной английской и узбекской поэзии установлено, что оно выражает общее значение, а идеи подкрепляются несколькими цветовыми символами.

Ключевые слова: символ, цветовые символы, символический анализ, типы цветовых символов, поэтический образ.

Abstract. Following article deals with the views on symbolism in modern English and Uzbek poetry, the similarities of white and green colors, their role in modern poetry, their meaning and content, and their use. The article also identifies the figurative meaning expressed on the basis of the object selected for symbolic analysis, and studies whether objects, words, or concepts cause certain associations. Based on the examination of a phenomenon in modern English and Uzbek poetry, it is observed that it expresses a common meaning, and the ideas are substantiated through several color symbols.

Keywords: symbol, color symbols, symbolic analysis, types of color symbols, poetic image.

Kirish. She'r – lirik kechinma mahsuli. Uni kuchli, ta'sirchan ifodalashning o'ziga xos vositalari mavjud. Ramz shu qatorda turadi. Adabiyotshunoslikda simvolizm va simvol termin sifatida farqlanadi. Simvolizm adabiy oqim nomini bildirsa, simvol poetik ko'chim sifatida talqin etiladi. Ayni chog'da bu tushunchalar bir-birini taqozo etadi. Chunki simvolizm asosida simvol yotadi. Ramzga nisbatan simvol termini sinonim sifatida ishlatiladi.

Zamonaviy she'rshunoslikda "ramziy-majoziy fikrlash" tarzi degan termin ko'p-ko'p qo'llanilmoqda. Adabiyotshunos N. Rahimjonov bugungi she'riyatning bir nechta muhim jihatlari aniqlaydi va shundan ikkinchisi sifatida quyidagini ko'rsatadi: "Ikkinchidan, ramzlar, timsollar, metaforalar asosida mushohada yuritish va badiiy umumlashmalarda falsafiy teranlikka intilish hozirgi bosqich she'riy madaniyatining galdagi ustuvor xususiyatlaridan sanaladi. Badiiy umumlashtirilgan, ramzli, taxayyulli fikrlash ushbu yo'nalishdagi asarlarning bosh fazilatiga aylandi".[8]

Asosiy qism. Ramz metafora kabi poetik fikrni ta'sirchan yetkazishning muhim vositasidir. Ramz orqali falsafiy teranlikka erishish mumkin. Ayni chog'da, ramz umumestetik hodisa sifatida universallik va individuallik kasb etadi. Universallik kasb etganda, bir necha xalqlarni birlashtiradi, individuallikni ifoda etganda esa milliy-madaniy o'ziga xoslikka ega bo'ladi. Shu jihatdan, ramz turli tizimli tillar adabiyotida muayyan ma'no qirralariga ega. Jumladan, zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyati kesimida hodisani tekshirish asosida uning mushtarak mazmun ifodalashi kuzatildi. Buni bir necha rangga oid timsollar orqali dalillashga harakat qilamiz.

Oq rang. Ingliz shoiri Gerald Gould she'rlari bu jihatdan e'tiborli:

I came to Oxford in the light

Of a spring – coloured afternoon;
Some clouds were grey and some were white,
And all were blown to such a tune
Of quiet rapture in the sky,
I laughed to see them laughing by [11].

Oq rang va bahor yangilanish, qayta tug'ilishni anglatadi. Bahor ko'pincha yangi hayotning boshlanishini bildiradi. Shu ma'noda lirik qahramonning Oksfordga kelishi hayotidagi yangi boshlanishga ishoradir. Keyin bulutlar uch xil rangda bo'ladi: oq, kulrang, qora. She'rdagi oq va kulrang rang tilga olingan. Bu esa pokizalik bilan yondosh mushkulotlarni aks ettiradi. Yuqoridagi parchada bahor, yorug'lik va bulutlar tasvirlari tabiat va insoniyat o'rtasida bog'liqlikni, hayotdagi quvonch va murakkabliklarni ochib berishga xizmat qilgan. Rus olimasi Y.V. Osipovaning yozishicha: "Oq rangning ramziyligi bilan bog'liq mo'jizaviyligi shundan iboratki, bu shoirga ijodiy kuchlar bag'ishlovchi, ezgulik va ma'rifat yog'dularini sochuvchi hamda farosat timsoli bo'lgan ilohiy nurdir" [7].

Agron Shele she'rlarida oq rang turli ma'nolarni bildirib kelgan:

A white light,
Wakened in the waters of my soul,
Over the wings of a flying bird
Just as once before... [11]

Muhokama va natijalar. Yuqoridagi satrlarda *oq nur* poklik, tiniqlik, soflik va ma'rifat ramzini ifoda etgan. "Ko'ngil suvlari" istiorasi his-kechinmalarni, *uchar qushlar* esa erkinlik, intilish, go'zallik, quvonchni aks ettirib kelgan.

Agron Shelening quyidagi misralarida ham oq rangga e'tibor qaratilgan:

My dreams are there
Over rainbow arches, colors of thoughts;
A white day, hope and happiness,
Trenches are twisted, poetry rebellion [12].

Bunda "Oq kun, umid va baxt" misrasida *oq rang* poklik va yangilanishni bildirgan. Ya'ni oq kun lirik qahramonga umid va baxtni boshlab keladi. Shu ma'noda oq rang umidni aks ettiradi, zulmatdan yorug'likka chiqish va erkinlikka erishish hamda ezgu intilishlarni ifodalaydi.

Oqarganda sochlar eslaymiz,
Sarxush bahor, kuz o'tganini.
Kimlarnidir rad etganmiz biz,
Kimlar bizni rad etganini [10].

Halima Xudoyberdiyevaning yuqoridagi she'rida "oqargan sochlar" yoshning o'tganligi, bahor va kuz esa shu ma'noni kengaytirib, umrning o'tkinchiligini ifodalab kelgan. Sochlarning asli qora bo'lishini bilamiz, uning oqarishi esa inson hayotining keksalik tomon qadam tashlaganligini anglatadi. Oq rangning xuddi shu ma'nosi Oydin Hojiyeva ijodida ham uchraydi:

Onam qora sochlari
Bo'ldi bora-bora oq.
Ko'p askarlar singari
Akam qaytmasdi biroq [6].

Hasbi hol tarzida yozilgan ushbu she'rdagi shoir akasi urushdan qaytmaganligi sababdan onasining qora sochi oqarganini aytadi. Bunda o'ziga xos tazod mavjud. Ya'ni bunda oq soch g'am-anduhning ramzi bo'lib kelgan. Shunday mazmun Erkin Vohidov she'rlarida ham ko'zga tashlanadi:

Bugungidek yana sahar turasan,
Ajratasan keraklarning keragin.
Sochlaringda bir tola oq ko'rasan,
Birinch bor sanchganida yuraging. [9]

Bunda shoir o'zbek ayolining har sahar vaqtli turib, turish-turmushi, bolalari uchun tinim bilmay harakat qilishi, sog'ligini yo'qotib, birinch bor yuragi sanchganidagina, oynaga qarab, qora sochlariga oq oralaganini ko'rishi aks etgan. Ya'ni *oqargan soch* o'tib borayotgan umr ramzi bo'lib kelgan.

Oydin Hojiyevaning yana bir she'rida oq rangning o'ziga xos ramzlantirilganligini kuzatish mumkin:

Oq ro'molin bir uchini yelkaga tashlab sipo,
Darvozada turar onam, qo'li ishga bormayin:
Tashvish bilan, mehnat bilan toliqtirganday dunyo,
Ko'zlari ham xira tortib bormoqdadir kun sayin.[6]

Onaning umr bo'yi mashaqqat bilan mehnat qilgani va natijada toliqib, ko'zlari xira tortib qolgani haqidagi ushbu she'rda oq rang ona ro'moliga sifatlash tarzida kelgan. Shoiraning Navoiy viloyati Qiziltepa tumanida tavallud topgani inobatga olinsa, bu yerning xalqi oq ro'molni faqat azador bo'lganda bog'laydi. Demak, she'rda *oq ro'mol* azadorlik ramzini bildirib kelgan. Bu tasvir oq rangning milliy-madaniy xoslikni ifodalashini ham bildiradi. Shoiraning akasi urushga borib, qaytib kelmagan.

Jabr bo'ldi yurakka yolg'iz
Mangu bitmas undagi chandiq.
Ilon chiqdi, tanlab ikkimiz
Baxt bor deya ochgan oq sandiq.[6]

Oq sandiqdan ilon chiqishi motivi o'zbek xalq ertagi "Zumrad va Qimmat"da bor. Ertak qahramoni Qimmat ham turli zeb-u ziynat va javohirlar bor deb ochgan oq sandiqdan ilon chiqadi. Shoir ham shu voqelikka ishora qilib, *oq sandiqni* baxtsizlik ramzi sifatida qo'llaydi.

Na nozik kashfiyot bilan yaralmish,
Kulgiga chayilgan oppoq yuzlaring.
Va yana ko'zingdan yog'du taralmish,
Va yana labingda sirli so'zlaring.
Ruhimda sevgining pinhon sururi,
Bebaxtlik – oydindir, saodat – qaro.
O'lib ketish mumkin yoningda turib,
Qarshimda borliging tilsimi aro [3].

Usmon Azimning yorga bag'ishlangan ushbu she'rida "oppoq yuz" birikmasi sifatlash va "qora saodat" birikmasi oksimoron badiiy san'atini hosil qilgan. Saodat – baxt degani, ammo baxtni odatda oq rangda ifodalaymiz, bebaxtlikni esa qora rangda. Shoir saodatni qora, bebaxtlikni esa oydin deb teskari ifoda bilan oksimoron qilgan. Bundan tashqari, "yuzning kulgiga chayilishi"da istiora bor.

O'raladi bo'ynimga
Oyning oppoq bilagi.
Ushaldi bor tilagim...
Baxtning qo'lidan o'pib,
Kelyapti yig'lagim.[3]

Mazkur she'riy parchadagi oy so'zida istiora bor, oy deb go'zal yor nazarda tutilyapti. Chunki osmondagi oyning bilagi yor bo'yniga o'ralishi haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Bilakni oppoq deb ta'riflashda esa sifatlash san'ati namoyon bo'lgan.

Oq rang ingliz va o'zbek she'riyatida ko'p qo'llaniladi hamda bir necha mushtarak ramziy ma'nolarni ifodalab keladi. Jumladan, *oq rang* nur, poklik, tiniqlik, soflik va ma'rifat (ingliz); nur, poklik, tiniqlik, soflik va ma'rifat, g'am-anduh, o'tib borayotgan umr, azadorlik, baxtsizlik (o'zbek) kabilar shular jumlasidandir. E'tibor berilsa, qator ma'nolari uzviylik kasb etadi. Ayni chog'da, o'zbek she'riyatida bu rangning alohida ma'nolari borki, bu – milliy-madaniy urf odatlar va qadriyatlarga borib tutashadi.

Yashil rang. *Yashil rang* adabiyotda umid, yasharish, yangilanish va uyg'unlik ramzi bo'lib keladi. Bu rang, shu bilan birga, unumdorlik, farovonlik va hayotiylikni bildirib keladi. Ada Limonning quyidagi she'ri ham e'tiborli:

Sky of spring rains, it's the greening of the trees
that really gets to me. When all the shock of white
and taffy, the world's baubles and trinkets, leave
the pavement strewn with the confetti of aftermath,
the leaves come. Patient, plodding, a green skin
growing over whatever winter did to us.[13]

Yuqoridagi satrlarda yashil rang hayot ramzi sifatida bahor bilan kirib keladigan yangilanish, yasharishni ifoda etadi. She'rdagi "daraxtlarning ko'karishi" qish uyqusidan keyingi hayotning uyg'onishini bildiradi. Darhaqiqat: "...yashil rang ko'pincha umid va yangi boshlanishlarni uyg'otadigan timsoldir, bu – qiyin paytlardan keyin ham hayot yana gullab-yashnashi mumkinligini ko'rsatadi".[14] Qishdan keyingi yashillik keng ma'noda o'tmishdagi yaralar va undan keyingi yangi hayotning boshlanishiga ishoradir.

Ko'rinadiki, Ada Limon she'riyatida yashil rang ma'nolari o'zbek adabiyotidagi mazkur rang ramzlari, ma'nolariga uyg'un. Shu jihatidan bu rangning G'arb bilan tutashadigan jihatlari bor. Shunga ko'ra yashil rangni universal ramzlar qatoriga kiritish mumkin.

Robert Frostning "Nothing gold can stay" ("Har narsa ham oltin bo'lib qolmaydi") nomli she'rida ham yashil rang qo'llangan:

Nature's first green is gold,
Her hardest hue to hold.
Her early leaf's a flower;
But only so an hour.[5]

Robert Frostning "Har narsa ham oltin bo'lib qolmaydi" she'rida ham tabiat manzarasi aks etgan. Unda *oltin rang* o'tkinchilikni bildirsa, *yashil rang* esa yangilanish, ertangi kunga umidni ifoda etgan. Frost bahorda hayotning dastlabki belgilari ko'pincha yashil rang bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. "Uning erta barglari gul; lekin faqat bir soat" satrlaridagi erta ko'klamda quloq chiqargan yaproqlar gullar kabi go'zal bo'lsa ham, bu chiroyning umri qisqaligini ifoda etadi. Demak, bahor yoshlikka qiyos etilsa, uning tez o'tib ketishi nazarda tutiladi.

O'zbek shoiri Usmon Azimning bir she'rida esa yuqoridagi holatlarga aks tasvirni ko'rishimiz mumkin:

Yam-yashil bog' ichra
Yaproq sarg'aydi.
Ko'nglimda bir nozik
Titroq sarg'aydi.[3]

Ingliz she'riyatida kuzgi sarg'aygan bog'larda yashil daraxtni ko'rgan bo'lsak, endi yashil bog' ichida bir yaproq sarg'ayib tushgani tasvir etilgan. Bu esa aynan sariq va yashil bog'larni emas, ular timsolida inson umrini bildirib kelgan. Shunday holat har bir inson hayotida ro'y berishi mumkin: juda tushkun va g'amgin holatimizda qaysidir bir baxt uchquni bizni yupatishi yoki yaxshi kunlarga umid bag'ishlashi mumkin yo, aksincha, hamma orzularimiz amalga oshib, baxt qasrini qurganimizda, qalbimizning qaysidir burchagidagi kemtiklik insonga azob beradi.

Yashillikni bog'
Junjikib yechdi.
Yozni sevardim
U mendan kechdi [3].

Usmon Azim bunda "Kuz keldi" degan gapni jonlantirish san'atidan foydalangan holda badiiy ifoda etgan: salqin havodan eti junjikka bog' yashil libosini yechdi, men yozni sevar edim, u mendan kechib ketdi, ya'ni yoz ketib, kuz keldi.

Yashil rangining ham ramziy ma'nolari juda keng. Yashil – bahoriy rang. *Yashil rang* – yangilanish, jonlanish ramzi. Shu bilan birga, hayot rangi, muvozanat va uyg'unlikni ifoda etadi.

Yashillandi keyin birma-bir
Dala, chorbog', omonat ko'prik.
Dovuchchadek mo'ltirab boqdi,
Qo'shni bog'ga tushgan bolalik [4].

Xurshid Davron umrning har bir pallasini alohida bo'yoqlarda tasvirlaydi. Uningcha, bolalik kezlari dunyo ham, ko'chalar ham, hattoki qorong'i tun ham oppoq ko'rinadi. Inson unib-o'sgan sayin kamol topa borishi bilan uning umr daraxti avval yashil rangga kirib, yashnab gurkiraydi. So'ng esa o'rta yoshida dunyoni, insonlarning asl qiyofasini anglagan, uncha-muncha sinovlardan o'tgan davrida inson hayoti sokinlik kasb etib, moviy rangga kiradi. Bu davrda endi inson o'zini anglashga urina boshlaydi.

Hayotning ma'nosi-yu qadrini anglaganda esa oq, yashil va ko'k ranglar aralashib, nur xira tortganday bo'ladi. Bu vaqtda yuqoridagi ranglarni topib bo'lmaydi, ularni faqat tushda ko'rish mumkin.

Bunday vaqtda esa oq bolishlarga mahzun ko'zlardan tomgan oppoq tomchilar qoladi. Shoir insonning tug'ilishi, o'sishi va qarib o'lim topishini oq, yashil va moviy ranglar uyg'unligi vositasida juda chiroyli topilmalar bilan ifodalab bergan.

Xulosa qilib aytganda, *yashil rang* ingliz va o'zbek she'riyatida o'ziga xos hayotiy-falsafiy mazmun kasb etgan. Ya'ni bu rang universal ramz sifatida hayot, yangilanish, umid (ingliz), bahor, muvozanat va uyg'unlik, yangilanish, jonlanish (o'zbek) kabilarni bildirib keladi. *Oq rang* ingliz va o'zbek she'riyatida nur, poklik, tiniqlik, soflik va ma'rifat, g'am-anduh, umr, azadorlik, baxtsizlik kabi mushtarak ma'nolarda keladi. *Yashil rang* esa ingliz va o'zbek she'riyatida universal ramz sifatida hayot, yangilanish, umid, bahor, muvozanat va uyg'unlik ramzini bildirib keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. «Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади» мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 б.
3. Azim A. Yurak. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2009. – 126 b.
4. Davron X. Qadrdon quyosh. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 128 b.
5. Frost R. Poems. Classic poetry series, 2004. – Poemhunter.com The world's poetry archive. – 146 p.
6. Hojiyeva O. Shom shu'lalari. – T.: Sharq, 2010. – 122 b.
7. Осипова Ю.В. Символ в поэтике А.С. Пушкина 1830. Дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2003. – 187 с.
8. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: Фан, 2007. –260 б.
9. Vohidov E. Inson. – Toshkent: O'qituvchi. 2018. – 254 b.
10. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2000. – 320 b.
11. <https://www.poemhunter.com/poem/oxford-3/>
12. https://www.best-poems.net/poem/white-light-by-agron-shele.html#google_vignette
13. <https://www.poemhunter.com/poem/my-dreams-are-there/>
<https://grateful.org/resource/instructions-not-giving/>
14. <https://www.littleinfinite.com/the-colors-of-poetry-red-blue-green-yellow/>

*To‘rayeva Umriniso Rahmatovna,
Buxoro davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
f.f.f.d. (PhD)(O‘zbekiston)
E-mail: umrinisotorayeva@gmail.com
O‘ktamova Kumushoy Oltinovna,
Buxoro davlat universiteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
mutaxassisligi magistranti (O‘zbekiston)
E-mail: kumusholtinovna96@gmail.com*

“TUHFAT UL-AHBOB FI TAZKIRAT UL-ASHOB” ASARINING TUZILISHI, MAZMUNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Qori Rahmatulloh Vozehning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” asari XIX asr Buxoro adabiy muhiti, ilmiy-ma’naviy hayoti hamda tazkiranavislik an’analarini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur tazkira o‘zining tuzilishi, mazmun doirasi va bayon uslubi bilan alohida ilmiy-adabiy ahamiyat kasb etadi. Asar an’anaviy sharq tazkirachiligi mezonlariga muvofiq ravishda tartiblangan bo‘lib, unda shoir va adiblar muayyan adabiy hamda ijtimoiy mezonlar asosida tanishtiriladi. Har bir ijodkor haqida uning ism-sharifi, taxallusi, nasab-nasli, tug‘ilgan va yashagan hududi, kasbi, ilmiy va adabiy muhiti, ustoz va shogirdlari, safarlari hamda ijodiy faoliyati haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, tazkirada shoirlarning she’rlaridan namunalar keltirilib, ularning badiiy mahorati va uslubiy xususiyatlari yoritiladi. Asarda Buxoro adabiy muhitining o‘ziga xos jihatlari, davr ijodkorlari o‘rtasidagi adabiy aloqalar, ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bog‘liq masalalar ham aks ettirilgan. Maqolada “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” asarining tuzilishi, mazmuni, badiiy xususiyatlari hamda uning o‘zbek mumtoz adabiyoti va manbashunosligidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qori Rahmatulloh Vozeh, “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob”, Buxoro adabiy muhiti, tazkira, qasida, madrasa, mudarris, saroy, amir, qo‘lyozma, manba,

Аннотация. Произведение Кари Рахматуллоха Возеха “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” является одним из важных источников для изучения литературной среды Бухары XIX века, а также традиций восточного тазкироведения. Данное произведение обладает особой научно-литературной ценностью благодаря своей структуре, содержанию и стилю изложения. Тазкира составлена в соответствии с традиционными принципами восточной литературной биографистики, где поэты и литераторы представлены на основе определённых литературных и социальных критериев. О каждом авторе приводятся сведения о его имени, тахаллусе (псевдониме), происхождении, месте рождения и проживания, профессии, научной и литературной среде, наставниках и учениках, путешествиях, а также творческой деятельности. Кроме того, в произведении представлены образцы стихотворений поэтов, раскрываются особенности их художественного мастерства и индивидуального стиля. В тазкире также отражены характерные черты литературной среды Бухары, литературные связи между представителями эпохи, а также вопросы развития науки и культуры того времени. В статье анализируются структура, содержание, художественные особенности произведения «Tuhfat ul-Ahbob fi Tazkirat ul-Ashob», а также его значение в изучении узбекской классической литературы и источниковедения.

Ключевые слова: Кари Рахматуллох Возех, «Тухфат ул-ахбоб фи тазкират ул-ашоб», бухарская литературная среда, тазкира, касыда, медресе, мударрис, двор, амир, рукопись, источник.

Abstract. Qori Rahmatulloh Vozeh’s work “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” is considered one of the significant sources for studying the literary environment of nineteenth-century Bukhara as well as the traditions of tazkira writing in the East. The work possesses particular scholarly and literary value due to its structure, content, and narrative style. The tazkira is organized according to the traditional principles of classical Eastern biographical literature, in which poets and literary figures are introduced on the basis of specific literary and social criteria. Detailed information is provided about each poet, including his name, pen name, lineage, place of birth and residence, profession, scholarly and literary

milieu, teachers and disciples, travels, and creative activity. In addition, the work contains samples of the poets' verses, highlighting their artistic mastery and stylistic characteristics. The tazkira also reflects the distinctive features of the Bukhara literary environment, the literary relationships among poets of the period, and issues related to the development of science and culture. The article examines the structure, content, and artistic features of "Tuhfat ul-Ahbob fi Tazkirat ul-Ashob" and analyzes its importance in the study of Uzbek classical literature and source studies.

Keywords: Qori Rahmatulloh Voze, "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob", Bukhara literary environment, tazkira, qasida, madrasa, mudarris, court, amir, manuscript, source.

Kirish. "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob" asari Voze tomonidan mintaqaviy va zamonaviy uslubda, tadqiqiy ruhda yozilgan forsiy tazkiradir. Voze ushbu asarida sun'iy va murakkab saroy tilidan qochib, Buxoro xalqiga tushunarli bo'lgan sodda forsiy (tojik) tilidan foydalangan. Bu xususiyat 1924-yildagi til islohotlaridan ancha oldin Movarounnahr forsiyazbon adabiyotida mustaqil til shakllana boshlaganini ko'rsatadi.

Ushbu tazkirada jami 150 ga yaqin shoirning hayoti va ijodidan namunalar keltirilgan. Ularning aksariyati Mang'itlar davri va xususan Amir Muzaffar davri shoirlaridir. Tazkirada nafaqat Buxoro, balki Xiva, Qo'qon, Balx, Hirot, Kobul, hatto Eron (Tehron va Sheroz) hamda Rossiyadan (Qozon) kelgan shoirlar haqida ham ma'lumotlar berilgan. Shoirlar ismlari alifbo tartibida joylashtirilgan.

Asosiy qism. Asar uch asosiy qismdan iborat:

Muqaddima, asosiy matn va xotima.

Muqaddima (1-8 betlar). Bu qismda Ollohga hamd va Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga na'tlar keltirilgan. Shuningdek, muallif asarni yozishga undagan sabablarni, xususan Amir Muzaffar Bahodirxon davridagi adabiy muhitni tasvirlaydi.

Asosiy matn (9-213 betlar). Bu qism 28 bobga bo'lingan bo'lib, shoirlar ismlari fors va arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Voze shoirlarning nafaqat she'rlaridan namunalar beradi, balki ularning shaxsiyati, ijtimoiy kelib chiqishi va o'zaro munosabatlarini ham tadqiqiy ruhda yoritadi.

Xotima (213-214 betlar). Asarning yakuni Amir Muzaffarning eslanishi bilan tugaydi.

"Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob" biografik tazkira yozish an'anasiga ko'ra yozilgan. Shoirlarning katta bir qismi uchun bir necha jumalalik izoh berilgan. Ba'zi shoirlar uchun esa ancha keng ma'lumot berilgan, ayrimlarida esa shoir hayotidan qisqa parchalar, kichik hikoyalar yoki asarlaridan hikoya va fikra turidagi iqtiboslar keltirilib, matn boyitilgan.

Tazkira "Bismala"dan so'ng muallifning muqaddimasi bilan boshlanadi. Birinchi bo'limda Alloh taoloning yagonaligi va buyukligi eslatilib, madh etilgandan keyin Hz. Muhammad (s.a.v.) madh etilgan. Shundan so'ng davrning Buxoro xoni Amir Muzaffarxon madh qilinib (Muallif shunday ta'rif beradi: Kitob fatihasi, Qur'on xitobida hijolat fasli furqoni, gavhar konining adolari, yaratdi gavhar koni, shariatning murabbiysi va quvvatlovchisi, millat nusrati va uni rivojlantiruvchi, islom dini va musulmonlarning muqtadosi, sultonlarning iftixori xoqonlarning eng chiroyli guli, xalifatur rohman, tinchlik va omonlikning sabachisi, Allohning adolat bilan buyuringlar degan buyrug'i bilan sifatlangan, Alloh yo'lida mujohid bo'lgan sulton ibni sulton ibni sulton Abulg'oziy va Mansur Sayyid amir Muzaffar Bahodir sulton, uning davlati qiyomatgacha cho'ziladi. Buxoro va unga tobe bo'lgan hududlar uning adlidan tarovat topdi."), tazkiraning yozilish sababi tushuntirilgan. Bundan keyin bahor fasli uzun bir matn tarzida tasvir qilingan. Bahor tasviridan so'ng qisqa bir xulosa qilinib, o'sha davrning Buxoro xoni bo'lgan Amir Muzaffarxon bu tazkirada Amir Kabirxon davridan o'z zamonigacha bo'lgan vaqt ichidagi shoirlar va buyuk zotlar kiritilishini hamda ularning alifbo tartibida joylashtirilishini buyurgani aytilib ("Alqissa Bu saodat va saodatli kunlarda katta tashkilotchilik ishlari, ehtiros hayajon va tuyg'ularni rag'batlantirish qissasi marhum Amir Kabir davridan to hozirgacha shu zamin va uning tevarak-atrofidagi mashhur ulamolar zikrlari bilan bir necha qisqa misralarda jamlangan va uni alifbo tartibida tartibga solgan. U bu risolani "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob" deb nomlagan va bu kitobda o'quvchilarning burchi va mas'uliyati shuki, agar biror bir xatolik topsalar, uni isloh qalami bilan tuzatishga harakat qilishlari va uning sharmandali va xunuk kamchiliklarini mag'firat va iltifot bilan yopishga harakat qilishlari kerak. Alloh u zotdan rozi bo'lsin."), shoirlar va she'rlar qismiga o'tilgan.

Tazkirada shoirlarning taxalluslari alifbo tartibida joylashtirilgan. Shoirlarning tartibi arab alifbosining ketma-ketligiga ko'ra faqat birinchi harf asosida tuzilgan, ammo ikkinchi va boshqa harflar

hisobga olinmagan. Masalan, “alif” harfi ostidagi tartib: Ado (ادا), Otashiy (أتشى), Ansab (انسب), Akbar (اكبر), Afsah (افصح), Irsiy (ارسى), Afg'on (افغان), Eshon (ايشان) A'roj, (اعراج), Amir (امير), Akmal (الكمل), Afkar (افكار), shaklidir. Bu yerda shoirlar nomlarining tartibida birinchi harfdan keyin boshqa harflarga e'tibor berilmagani ochiq ko'rinadi. Bu hol tazkiraning umumiy tuzilishiga ham xosdir.

Muhokama va natijalar. Shoirlarning tartibida diqqatni tortadigan yana bir nuqta shuki, bir xil taxallusga ega shoirlarning odatda ketma-ket joylashtirilishiga qaramay, ba'zi joylarda esa ular bir necha shoirlardan keyin yozilgan.

Masalan, tazkirada Porso, Donish, Rahimiy, Shirin, Uzlat, Niyoz taxallusli ikki nafardan shoir bor va bu shoirlar ketma-ket joylashtirilgan. Ammo bir xil taxallusli ikki Foiqdan birinchisi “fa” harfi bo'limida umumiy tartibda sakson sakkizinchi shoir sifatida joy olgan bo'lsa, ikkinchisi to'qson oltinchi shoir sifatida “fa” harfining oxirgi shoiri hisoblanadi. Yana tazkirada Mirak taxallusli uch shoir ham bor. Ulardan umumiy tartibda 114-, 115- va 119-o'rinlarda joy olganlari mavjud.

Tazkirada bir xil taxallusli shoirlardan elliginchi o'rindagi Rahimiy qirq to'qqizinchi o'rindagi Rahimiy bilan adashmasligi uchun “Rahimiy-i Digar” deb yozilgan va xuddi shuningdek 115-o'rinda joy olgan...

Voze o'z asarida Buxoro adabiy tili va jonli so'zlashuv lahjasini bir-biriga yaqinlashtirishga harakat qilgan. U o'sha davrdagi saroy adabiyotiga xos bo'lgan o'ta murakkab va sun'iy uslubdan voz kechib, tushunarli va sodda tilda yozgan. Bu esa keyinchalik (1924-yilda) tojik tilining shakllanishi uchun poydevor vazifasini o'tagan.

Asarda jami 150 ga yaqin shoir haqida ma'lumot bor. Ularning ichida: Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari shoirlari. Afg'oniston, Eron va Hindistondan kelgan adiblar. Hatto Rossiyadan (Qozondan) kelgan bitta tatar shoiri ham tilga olingan.

Qori Rahmatulloh Voze 19-asrda unitilayotgan forsiy tazkiranavislik an'anasini qayta jonlantirgan. Uning asari Sadridin Ayniy va boshqa ko'plab keyingi adabiyotshunoslar uchun eng ishonchli manba bo'lib xizmat qilgan.

Voze asarning tartibini quyidagicha tushuntiradi: “Shoirlar ismlarini hijoiya (alifbo) tartibida, ushbu o'lkadagi shoirlar bilan boshlab, keyin boshqa o'lkalardagi mashhur shoirlarni imkon qadar bayon qildim”.

Voze o'z asarida ko'plab manbalardan foydalangan, ularni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

1. “Majmuatash-shuaro» (Fazliy Namangoniy tazkiras) Voze o'z asarida Fazliy Namangoniyning ushbu tazkirasiga ishora qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, u Qo'qon xonligi hukmdori Amir Umarxon davridagi 15 nafar shoir haqidagi ma'lumotlarni aynan shu manbadan olgan. Ba'zan she'riy namunalar bir xil bo'lsa-da, Voze ko'pincha boshqa manbalardan (masalan, Ado, Samarqandiy, Hodiq Hirodiy devonlaridan) foydalangan.

2. Devonlar va boshqa asarlar Voze 17 nafarga yaqin shoirning shaxsiy devonlariga tayanadi. Ular orasida quyidagi shoirlar bor: Ado, Samarqandiy, Afgan Buxoriy, Umarxon Xo'qandiy, Fathali Shoh Qojar, Muhammadali Xon Xo'qandiy, Rashid Buxoriy, Qoiniy Sheroziy, Furo'g'iy Bastomiy, G'avg'oi Bastomiy, Xoif Oratapay, Mirzo Sodiq Munshiy, Zuhuriy Kobuliy, Gulxaniy Xo'qandiy.

Shunisi qiziqki, u Qoiniy Sheroziyning asarini topish yo'lini tasvirlar ekan, boshqa tazkiranavislardan farqli o'laroq, uning “Parishon” nomli kitobi Turkmanlar tomonidan Buxoro bozoriga keltirilgani va uni o'sha yerda o'qish baxtiga muayassar bo'lganini hikoya qiladi.

3. Og'zaki manbalar Voze ko'plab shoirlar haqidagi ma'lumotlarni bevosita ularning o'zidan yoki ishonchli shaxslardan eshitib yozgan. U o'z ustozlari, zamondoshlari va do'stlari bilan bo'lgan suhbatlarni asarga kiritgan. Masalan, u shunday yozadi: “Ushbu she'rni muallifdan bevosita eshitdim” yoki “Tabiblik qilish asnosida do'stlarimdan birining huzurida u kishining hol-ahvolini so'radim”. Bunday og'zaki ma'lumotlar asarning tarixiy haqiqiylikini oshiradi.

“Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” fors va arab alifbosi tartibida tuzilgan, shu sababli muallif shoirning taxallusi bilan ish boshlaydi, so'ngra shoirning ismi va ehtimol otasining ismini ham murakkab va ohangdor forsiy hamda arabiy iboralar bilan tanishtiradi. Muallif shoirlarning nima uchun aynan ma'lum bir taxallusni tanlaganliklariga ham to'xtalib o'tgan. Masalan:

Bahor (34-bet), Hasrat (54-bet), Hodiq (56-bet), Shavqiy (101-bet), Anbar (110-bet), Fartut (139-140-betlar) va boshqalar.

Ba'zi shoirlar haqida esa shunday deyiladi:

Sarviy... "Ushbu shoirming she'rlari baland va mazmunli bo'lib, uning fikrlari fasohat daryosi kabidir..."

Furo'g'iy... "U fasohat javohiri va fikrlar chirog'idir..."

Vozev tazkirasida shoirlarning ijtimoiy kelib chiqishi va nasabiga alohida e'tibor qaratadi. U shoirlarni turli tabaqalarga ajratadi:

Hukmdorlar va amaldorlar: Amir va hokimlar tabaqasidan chiqqan shoirlar.

Diniy va ilmiy tabaqa: Mudarrislar, qozilar, ulamolar, mudarrislar, talabalar va xattotlar.

Davlat xizmatchilari: Elchilar, munshiylar, kutubxonachilar va saroy xizmatchilari.

Hunarmandlar va kasb egalari: Tabiblar, rassomlar, zargarlar, xonandalar, oshpazlar va savdogarlar.

Muallif shoirlarni tanishtirishda ularning ajdodlariga ham to'xtaladi, masalan:

"Hazrati Ali (r.a.) avlodidan bo'lgan shoirlar..."

"Nasabi Imom Rizo (a.s.)ga borib taqaladigan adiblar..."

Tazkiranavis shoirlarni ularning adabiy uslublari va fikriy yo'nalishlariga qarab ham guruhlaydi. U o'z asarida nafaqat zamondoshlari, balki klassik shoirlar (Xayyom, Mavlaviy, Bedil, Jomiy, Soib) ta'sirida ijod qilganlarni ham tilga oladi. Shuningdek, forsiy til bilan birga Navoiy va Fuzuliy an'alarini davom ettirgan turkiy (o'zbek) tilli shoirlarga ham joy ajratgan.

Tazkiranavis butun asar davomida oqilona oqimga (janrga) nazar bilan qarashga harakat qiladi va o'z tazkirasida fikriy hamda adabiy jihatdan bir-biriga yaqin guruhlar va tarafdorlarni qayd etadi. Tazkiradagi murojaat obyektlari saroy shoirlari, so'fiylik tariqatlari (Kibroviya, Qodiriya) tarafdorlari, fikriy yo'nalishga ega bo'lganlar, shuningdek, Xayyom, Mavlaviy (Rumiy), Bedil, Jomiy va Soib kabi shoirlarning tarafdorlari, fors va turk tillarida (Navoiy va Fuzuliy uslubida) ijod qiluvchilardir.

Ushbu tazkirada to'plangan ma'lumotlar adabiyotshunoslardan tashqari sotsiologlar, tarixchilar va boshqa gumanitar soha mutaxassislari uchun ham foydalidir. Bu guruhlarga quyidagilar misol bo'ladi:

Saroy shoirlari: Ada Samarqandiy, Afgar, Amir Umarxon, Akmal, Baqo, Bahjat, Jur'at Hodiq, Hasrat, Xotif, Uzat, Anbar va boshqalar.

So'fiylik tariqatlari tarafdorlari: Ado Samarqandiy (Naqshbandiya), Anis (Naqshbandiya), Eshon (Naqshbandiya), Afgar (Qodiriya), Siyrat (Naqshbandiya), Zuhuriy Kobuliy/Hirotiy (Kibroviya va Naqshbandiya muxoliflaridan), Niyoz Hindustoni (Qodiriya), Yakdil (Naqshbandiya).

Qur'on hofizlari: Amlah, Porso, Sarviy, Sharifiy, Zarir, Tohir, Foiq, Mohir, Nosir va Vozev.

Xalq shoirlari: Shukuriy, Volih.

Bedil izdoshlari: Afgar, Afqar, Amlah, Homil, Xijlat, Rahimiy Samarqandiy, Savdo, Sarir, Mutallib.

Navoiy va Fuzuliy tarafdorlari: Homil, Rahimiy, Xon (Fuzuliy).

Xayyom va Mavlaviy (Rumiy) tarafdorlari: Fozil (Xayyom), Majnun (Mavlaviy).

Tug'ilgan joyga ishora qilish tazkiranavislikning qadimiy an'anasidir. Shoirlarning nasabi va tug'ilgan joyi ko'pincha ularning taxalluslaridan so'ng darhol ko'rsatiladi. Tazkiranavis bu borada shunchalik e'tiborliki, masalan, shoir asli buxorolik bo'lsa-yu, ammo uning ajdodlari boshqa joydan kelgan bo'lsa, bunga albatta ishora qiladi. Shoirlarning qariyb 100 foizining tug'ilgan joyi ma'lum bo'lib, bu asar asosida adabiy xarita chizish imkonini beradi. Biroq, mumtoz tazkiralarda bo'lgani kabi, tug'ilgan yillari ko'p hollarda ko'rsatilmagan.

Shuningdek, shoirlarning hayotini tasvirlashda ularning kasbi, ijtimoiy tabaqasi va tahsiliga alohida to'xtaladi. Buxoro Somoniylar davridan buyon yirik ilmiy markaz bo'lgani sababli, deyarli barcha shoirlar madrasa ko'rgan ilmiy kishilardir. Ular madrasada o'qishni tamom qilganlar. Vozev o'z ustozlari va shogirdlarini ham asarda tilga oladi, bu esa o'sha davrning adabiy va ilmiy aloqalari tarmog'ini ko'rsatib beradi:

Vozev saroy muhitini yoqtirmasa-da, tazkirasida saroy shoirlariga keng o'rin bergan. U hatto asarining muqaddimasi va xotimasida Amir Muzaffarni "raiyatparvar va adolatli podshoh" deb ulug'lagan. Biroq boshqa shoirlar, masalan, Fathali Shoh Qojar haqida yozganda, o'z amiri (Muzaffar) huzuridagi qashshoqlik va e'tiborsizlikdan bilvosta shikoyat qiladi. Uning fikricha, haqiqiy shoir o'z davridan o'zib ketishi kerak, ammo Buxoro saroyidagi muhit bunga ko'pincha to'sqinlik qilgan.

Tazkirada ayrim shoirlarning tug‘ilgan joyi, yashagan joyi, vafot etgan joyi va dafn etilgan maskani haqida ma‘lumotlar mavjud bo‘lsa-da, ko‘plab shoirlar uchun bunday ma‘lumotlar uchramaydi. Tazkirada zikr etilgan joylar haqida odatda faqat nomi keltirilgan bo‘lib, juda kam hollarda o‘sha joy haqida qo‘shimcha ma‘lumot berilgan.

Tazkirada eng ko‘p tilga olingan joy, albatta, muallif yashagan va shoirlarini mavzu qilgan Buxorodir. Noma‘lum yoki kam tanilgan shoirlar haqida ma‘lumot berishda esa muallif ularning tug‘ilgan joyi yoki tahsil olgan maskani bilan cheklanadi.

Tazkirada shoirlar haqidagi baholashlarda muallif, odatda, o‘z fikr va qarashlarini bayon etgan. O‘z mulohazalarini ifoda etar ekan, “bu haqirga ko‘ra”, “bu faqirga ko‘ra” kabi iboralarni qo‘llab, o‘zini ulug‘lash o‘rniga, aksincha, o‘zini kamtar qilib ko‘rsatadigan tavoze‘li uslubdan foydalangan.

Ammo ayrim hollarda “eshitilishicha”, “eshitganimga ko‘ra” kabi ifodalar bilan u o‘sha shoirmi shaxsan ko‘rmaganini, balki ma‘lum yoki noma‘lum xabar manbalaridan olgan ma‘lumotlarini yozganini bildirgan.

Yana ba‘zi shoirlar haqida esa “devonini bu faqir ko‘rgan”, “devonini bu haqir ko‘zdan kechirgan” kabi iboralar orqali shoirlar haqidagi ma‘lumotni ularning asarlaridan olganini ta‘kidlagan. Masalan: Rashid haqida: “Uning she‘rlarining barchasi bu kaminaning nazarida to‘rt ming baytdan ham ortiqdir”. مجموع ابیات ایشان آنچه بنظر حقیر جامع این سواد در رسیده از چهار هزار متجاوز است [46]

Hoziq haqida: “She‘rlarining mashhur ekanligini aytishga hojat yo‘q. Mening nuqsonli fikrimcha, uning she‘rlarining shuhrati ularning darajasidan ham ortiqdir. Bunga o‘xshash holatlar har bir davr va zamonda uchrab turadi”.

اشعارش از آن مشهورتر است که

بیان آن توان کرد و به خاطر قاصر میرسد که شهرت شعرش از رتبه آن به درجات پیشتر است و امثال

این واقعه در هر عهد ساری و عصر است. [28]

Hasrat haqida: “Eshitishimcha, u juda xushshubat, shirin kalom va hazilkash bo‘lib, she‘riyatda ham juda hozirjavob va tez fikr almashuvchi edi. Nazarda tutilgan bu durdonalar uning yuksak va nafis badiiy manzumalaridan bo‘lib, ushbu sahifalarda ularga o‘rin berilgan”.

بسیار خوش صحبت و شیرین کلام و لطیفه سنج، بوده در شعر نیز زیاده حاضر جواب و سریع الانتقال این

لالی مقصوده از منظومات بدیعه رفیعه اوست که در این اواق سمت نگارش یافت. [76b].

Muallif tazkirada ayrim shoirlar haqida “taxallusi shudir” kabi qisqa ifodalar bilan kifoyalangan bo‘lsa, boshqalari haqida kengroq adabiy jumlar orqali o‘z munosabati va fikrlarini bayon etadi. O‘ziga bag‘ishlangan qismda esa Vozeh nihoyatda kamtarona yo‘l tutib, o‘zini ulug‘lash yoki maqtashga urinmaydi. Qori Rahmatulloh Vozeh tazkiraga kiritilgan she‘rlar tanlovida ancha erkin yondashgan. Ba‘zi shoirlardan qisqa she‘riy parchalar keltirilgan bo‘lsa, ayrim hollarda bu miqdor hatto bir bayt (fard) bilan cheklanadi. Boshqa ayrim shoirlarga esa sahifalab o‘rin ajratilgan. Asardagi eng diqqatga sazovor jihat shundaki, tazkirada eng ko‘p she‘r namunasi ham janr, ham baytlar soni jihatidan aynan Vozehning o‘ziga tegishli qismda uchraydi. Shoirlar haqidagi fikr-mulohazalarning aksariyati muallifning shaxsiy qarashlariga asoslangan bo‘lsa-da, unda e‘tiborga molik ilmiy va adabiy kuzatishlar mavjud. Vozeh ko‘plab shoirlar haqida batafsil ma‘lumot berib, ularning hayotidan lavhalar, xotiralari hamda asarlaridan she‘riy namunalarni keltiradi. Ayrim hollarda hikoyalar ham qo‘shilgan. Shuningdek, shoirlarning ta‘lim olishi, yoshlik davri, kasbi, bajargan vazifalari, hunari va vafot sanalari nafis uslubda bayon etilgan. Shu jihatlari bilan “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob”ni to‘laqonli biografik tazkira sifatida baholash mumkin.

Xulosa. Qori Rahmatulloh Vozehning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” asari nafaqat o‘z davri adabiy muhitini aks ettiruvchi muhim manba, balki Buxoro tazkiranavislik maktabining shakllanishida alohida o‘rin tutgan asarlardan biridir. Muallif shoirlar haqida ma‘lumot berishda an‘anaviy tazkira uslubini saqlagan holda, unga o‘ziga xos ijodiy yondashuvni ham olib kirgan. Xususan, shoirlarning tarjimai holini bayon etish, ularning ijodidan namunalari keltirish hamda ularga mualliflik bahosini berish orqali Vozeh tazkirachilikning mukammal bir modelini yaratgan. Asarda shoirlarning hayoti, ilmiy va adabiy faoliyati, kasbi, jamiyatdagi mavqei, vafot sanalari kabi ma‘lumotlarning batafsil yoritilishi tazkiraning biografik xarakterini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, muallifning ayrim shoirlar bilan bog‘liq xotiralari, hikoyalari va kuzatishlari asarning tarixiy hamda memuar qiymatini

oshirgan. Shu sababli mazkur tazkira faqat adabiy manba bo'lib qolmay, XIX asr Buxoro adabiy-madaniy muhitini o'rganishda ham muhim tarixiy manba vazifasini bajaradi.

Vozehnin she'riy namunalarni tanlashdagi erkinligi ham uning ijodiy qarashlarini namoyon etadi. U ayrim shoirlardan qisqa parchalar bilan kifoyalansa, ayrimlariga kengroq o'rin ajratadi. Ayniqsa, o'z ijodidan ko'plab namunalar keltirgani muallifning shoir sifatidagi salohiyatini ham namoyon etgan. Shunga qaramay, u o'z shaxsiga baho berishda kamtarona yo'l tutib, o'zini haddan tashqari ulug'lashdan tiyilgan. Eng muhimi, Vozehe yaratgan ushbu uslub keyingi Buxoro tazkiranavislariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning shoir tarjimai holini she'riy namunalar bilan uyg'un holda berish an'anasi keyingi tazkiralarda ham davom etdi. Shu jihatdan qaraganda, Vozehe Buxoro tazkiranavisligini yangi bosqichga olib chiqqan va bu sohada o'ziga xos maktab yaratgan adib sifatida e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Qori Rahmatulloh Vozehe. Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob//Qo'lyozma, Ibn Sino kutubxonasi fondi. Inv. No400/.
2. Зиё Шарифчон-махдومي Садр. Тазкори ашъор. Бо кӯшиши Муҳаммадчон Шакурии Бухорой. – Техрон: Суруш, 1380. – 436 с.
3. Ҳашмат, Мирсиддиқхон. Тазкират-уш-шуаро. Ганчинаи дастнависҳои шарқии АФ Ҷумҳурии Узбекистон ба номи Абӯрайҳони Берунӣ. – Тошканд. – Дастхати №61. – 138 с.
4. Ҳодизода, Расул. Адабиёти тоҷик дар нимаи дуюми асри XIX. – Душанбе: Дониш, 1968. – 292 с.
5. Айнӣ Садриддин. Намунаи адабиёти тоҷик. Аз хати форсӣ таҳия ва тасхеҳи Мубашшири Акбарзод. – Душанбе: Адиб, 2010. – 444 с.
7. Таърихи адабиёти тоҷик (асрҳои XVIII-XX): Комплекси таълимӣ-методӣ. Таҳияи М. Ёрунова, Н. Муродӣ. – Хучанд: Ношир, 2013. – 234 с.
8. Т. Неъматзода. Дар бораи Возеҳ ва асари у “Савонех-ул-масолик”. – Душанбе, 1957. – саҳ. 38.
9. Akyuz Murat, Qari Rahmatullah Vozehe and His Antology Namedtohe-Tul Ahbab Fi Tadhkira-tul As'hab, 2015. – 652 s.
10. https://www.researchgate.net/publication/348336772_TA_29_Qari_Rahmatullah_Vazeh_and_his_book
11. Ebrahim Khodayar Vazeh Bukharayi and his significant role in Persian literary biography writing in Transoxiana Journal of Literary Arts, Vol. 12, Issue 3, No.32, Autumn 2020.

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

*Abuzalova Mehriniso Kadirovna,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)
(O'zbekiston)
E-mail: m.k.abuzalova@buxdu.uz
Qurbonova Nasiba Mustaf o qizi,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
(O'zbekiston)
E-mail: n.qurbonova108@gmail.com*

SEMIOTIKA VA LINGVOSEMIOTIKA: BELGILAR TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada semiotika fanining nazariy asoslari, uning shakllanish bosqichlari hamda belgilar tizimining insoniyat hayotidagi o'rnini tahlil qilinadi. Tadqiqotda insoniyatning dastlabki kommunikativ vositalari sifatida vizual belgilar, piktogramma va ideogrammalarning yuzaga kelishi yoritilgan. Shuningdek, semiotika fanining rivojlanishida muhim o'rin tutgan Charlz Sanders Pirs va Ferdinand de Sossyur nazariyalari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Til belgilar tizimi sifatida talqin qilinib, uning shartli tabiati, strukturaviy xususiyatlari va kommunikativ funksiyalari ochib berilgan. Lingvosemiotika yo'nalishining shakllanishi, belgilar tasnifi hamda ularning semantik, sintaktik va pragmatik jihatlari muhokama qilinadi. Maqolada belgilar tizimining madaniyat bilan uzviy bog'liqligi hamda uning ijtimoiy ongini shakllantirishdagi roli alohida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: semiotika, lingvosemiotika, belgi, til tizimi, piktogramma, ideogramma, kommunikatsiya, semiosfera, ramz, indeks.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы семиотики, этапы её становления, а также роль знаковых систем в жизни человечества. В исследовании освещается возникновение визуальных знаков, пиктограмм и идеограмм как первоначальных средств коммуникации человека. Кроме того, научно обосновываются теории, сыгравшие важную роль в развитии семиотики, разработанные Чарльзом Сандерсом Пирсом и Фердинандом де Соссюром. Язык рассматривается как знаковая система, раскрываются его условная природа, структурные особенности и коммуникативные функции. Обсуждаются формирование направления лингвoseмиотики, классификация знаков, а также их семантические, синтаксические и прагматические аспекты. В статье особо подчёркивается тесная взаимосвязь знаковых систем с культурой и их роль в формировании общественного сознания.

Ключевые слова: семиотика, лингвoseмиотика, знак, языковая система, пиктограмма, идеограмма, коммуникация, семиосфера, символ, индекс.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of semiotics, the stages of its development, and the role of sign systems in human life. The study examines the emergence of visual signs, pictograms, and ideograms as the earliest means of human communication. It also provides a scholarly interpretation of the theories that played a significant role in the development of semiotics, particularly those of Charles Sanders Peirce and Ferdinand de Saussure.

Language is considered to be a system of signs, and its conventional nature, structural features, and communicative functions are explored. The paper discusses the formation of the field of linguosemiotics, the classification of signs, as well as their semantic, syntactic, and pragmatic aspects. Special attention is given to the close relationship between sign systems and culture, as well as their role in shaping social consciousness.

Keywords: Semiotics, linguosemiotics, sign, language system, pictogram, ideogram, communication, semiosphere, symbol, index.

Kirish. Insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab, u o'zaro aloqa qilishga, fikr va ma'lumot almashishga doimiy ehtiyoj sezib keladi. Ma'lumki, yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlar hayot faoliyati davomida turli belgilar tizimi – harakatlar, tovushlar va boshqa signallar orqali bir-biri bilan muloqotga kirishadi. Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq odamlar vizual vositalardan foydalanib muloqot qilishni boshlaganlar. Yozuv hali shakllanmagan davrlarda ham ular rasm chizish orqali o'z fikrlarini ifodalashga harakat qilganlar. Miloddan avvalgi 15000-yillarga oid Altamira (Ispaniya) hamda miloddan avvalgi 25000-yillarga tegishli Lascaux (Fransiya) g'orlaridagi tasvirlar buning yaqqol dalilidir. Ushbu tasvirlarda hayvonlar, insonlar va kundalik hayot lavhalari aks ettirilgan bo'lib, ular orqali qadimgi odamlarning fikr ifodalash usullari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Qoyalar va g'or devorlariga chizilgan rasmlar insoniyatning ilk kommunikativ vositalaridan biri sifatida xizmat qilgan. Vaqt o'tishi bilan insonlar turli ifoda shakllarini sinab ko'rganlar, jumladan, ideogrammalar (tushunchalarni ifodalovchi belgilar) va piktogrammalar (tasviriy belgilar) paydo bo'lgan. Bu tizimlar turli madaniyatlarda so'z va imo-ishoralarsiz aloqa o'rnatishning dastlabki shakllari sifatida namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. Semiotika fanining ildizlari qadimgi falsafaga borib taqaladi. Bu yo'nalishda dastlabki fikr yuritgan olimlar qatoriga Aristotel, Platon va stoik faylasuflarni kiritish mumkin. Ular belgilar tabiatini tushunishga harakat qilganlar. Keyinchalik, ushbu ilmiy yo'nalish qadimgi falsafiy qarashlar hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida shakllanib bordi.

Semiotika yoki semiologiya (semiotika – grekcha semion, semiologiya-grekcha sema va logos so'zlaridan iborat bo'lib, belgi va ta'limot, tushuncha) belgilar sistemasi haqidagi fan bo'lib, u belgilar sistemasiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni, jihatlarni o'rganadi. Semiotika belgilar nazariyasi to'g'risidagi ta'limot hisoblanadi. Zamonaviy semiotikaning kurtaklari XX asr boshlarida paydo bo'la boshladi. Amerika faylasufi Charlz Sanders Pirs (1839–1914) va shvetsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur (1857–1913) deyarli bir vaqtning o'zida bir-biridan bexabar holda zamonaviy semiotika asoslarini yaratdilar. Shvetsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur (1857–1913) zamonaviy tilshunoslikning shubhasiz asoschisi hisoblanadi. Sossyur ta'kidlaganidek, “til” – fikrlarni ifodalovchi belgilar tizimi va boshqa belgilar tizimi (alifbo, yozuv, harfiy belgilar) ichida eng muhimi. Sossyur lingvistik belgini tovush tasviri va tushunchasi sifatida muhokama qildi. Uning fikricha, belgilovchi (tovushli tasvir) va ishora qiluvchi (tushuncha) har qanday tashqi obyektidan mustaqil bo'lib, tovush tasviri ham, tushuncha ham jamoaviy, ijtimoiy kelishuvlarga asoslanadi. Demak, “mushuk” belgisi ham mushuk tovushlarining belgisidan, ham mushuk tushunchasining ishorasidan iborat bo'lib, bu ikkisi belgini tashkil qiladi” [3].

Semiotika va tilshunoslik o'zaro integratsiyasi natijasida lingvosemiotika deb ataluvchi yangi ilmiy yo'nalish yuzaga kelgan. Bu soha tilni belgilar tizimi sifatida o'rganadi. Chunki til birliklari – morfema, so'z, so'z birikmasi, gap, matn va boshqalar muayyan axborotni berish, yetkazish vazifasini bajarish uchun xizmat qiluvchi belgilar sistemasi sifatida tadqiq qilinadi. Shu sababli, til jamiyatda mavjud bo'lgan boshqa belgilar bilan o'xshashlikka, umumiylikka egadir. Shu boisdan, til semiotika fanining – lingvosemiotikaning o'rganish, tadqiq qilish obyektiga aylanadi. Bu fikrni R. Rasulov o'zining “Umumiy tilshunoslik” kitobida ham alohida ta'kidlab: “Til ikkilamchi belgilar sistemasi sifatida semiotikaning – lingvosemiotikaning tekshirish objekti hisoblanadi, ya'ni lingvosemiotika tilning belgi tabiatiga egaligini, informatsiya uzatuvchi til birliklarining xususiyatlarini tadqiq qiladi”[6], - deya ta'riflaydi. Shuningdek, ushbu kitobda til – til (nutq) birliklari (leksema, so'z, so'z birikmasi, gap va boshqalar) muayyan belgilar sifatida ma'no, tushuncha, fikr ifodalashi, ular ma'no, tushuncha, fikr kabilarning simvoli (ramzi) yoki belgisi o'laroq ifodalanishi xususida ham to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari, muallif ushbu kitobda semiotikada ikki turdagi, ikki tipdagi belgilarning farqlanishi haqida ham aytib o'tgan. Ularni tabiiy belgilar (yoki belgilar – priznaklar) va sun'iy belgilar (yoki belgilar – informatorlar) [6] ga bo'lgan. Tabiiy belgilar (priznaklar) aslida belgi emasligi, ular u yoki bu predmet, narsa va hodisalarning muayyan bo'lagi, tarkibiy qismi bo'lib kelishi haqidagi fikr ilgari surilgan. Til belgilar tizimi sifatida o'rganilar ekan, belgilar ikki turga ajratiladi: tabiiy va sun'iy belgilar. Tabiiy belgilar aslida belgidan ko'ra hodisaning bir qismi yoki natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, daraxt shoxlarining tebranishi shamol borligidan darak beradi. Sun'iy belgilar esa insonlar o'rtasidagi kelishuv asosida yaratiladi va kommunikativ vazifani bajaradi. Til belgisi ana shu sun'iy belgilar ichida eng mukammali hisoblanadi.

Boshqa belgilar (signal, ramz) esa ko‘proq yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi va muayyan vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, temir yo‘l signallari, xavf belgilar yoki tinchlik ramzi sifatida kabutar tasviri keltirilishi mumkin. Ramzlar signallardan farqli ravishda obrazlilikka ega bo‘lib, aniq g‘oyani ifodalaydi.

Til birliklari kommunikativ va informativ belgilar ichida eng asosiy o‘rinni egallaydi. Ular nominativ va predikativ vazifalarni bajaradi hamda tilni tafakkur va jamiyat bilan bog‘laydi. Umuman olganda, belgilar tizimi jamiyat bilan birga shakllangan bo‘lib, insoniyat taraqqiyoti davomida uning ajralmas qismiga aylangan. Darhaqiqat, semiotikaning obyekt jamiyat tomonidan faol qo‘llanadigan belgilar tizimi bo‘lib, ular insoniyat yaratilbdiki shu jamiyatga xizmat qiladi. Umuman olganda, belgilar tizimi ham jamiyat singari qadimiydir. Chunki belgilar sistemasi ham jamiyat bilan bir paytda paydo bo‘ladi, u bilan birga “yashaydi”.

Til shartli belgilar tizimi sifatida turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Har qanday tovush, rang, imo-ishora yoki hatto sukut ham ma‘lum bir ma‘no ifodalashi mumkin. Tilshunos olim Baxtiyor Mengliyev shartli belgilar to‘rtta asosiy xususiyatga ega bo‘lishini ta‘kidlaydi. Birinchidan, belgi moddiy shaklga ega bo‘lishi kerak. Ovoz, rang, harakat va hokazo. Ikkinchidan, u ma‘lum bir mazmuni ifodalashi zarur. Qo‘ng‘iroq mashg‘ulot boshlanishini, yashil rang esa harakatlanishni, ikki qo‘lni xoch holatiga keltirish biror harakatni to‘xtatishni ifodalaydi. Uchinchidan, belgi va uning ma‘nosi o‘rtasidagi bog‘lanish shartli bo‘lishi lozim. Bu – eng muhimi. Masalan, eganing tagiga bir chiziq, kesimning tagiga ikki chiziq chizish kelishib olingan. Aslida, kelishilsa, svetofordagi qizil chiroqda harakatlanib, yashil chiroqda to‘xtash ham mumkin bo‘lur edi. Zero, svetofor ranglari bilan ular ifodalaydigan harakatlar orasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q. Lekin qon o‘limning, daraxt chiqarayotgan barglar bahorning shartli emas, balki tabiiy belgilari. Til ifodalari ham borliq hodisalari bilan tabiiy emas, balki shartli bog‘lanishga ega. Agar til va borliq tabiiy bog‘lanishga ega bo‘lsa edi, dunyoda yagona til mavjud bo‘lar edi. Bu tilning shartli belgilar sistemasi ekanligini ko‘rsatadi. To‘rtinchidan esa, belgilar tizimi kamida ikki elementdan tashkil topadi. Liftning oldiga borib qarang, tugmacha chirog‘i yonmagan, bundan uning band emasligini bilasiz. Lekin to‘satdan yondi, demak, band bo‘ldi. E‘tibor bersangiz, bu yerda ham ikkita belgi bor. Chiroqning yongan holati (“bandlik” belgisi) va o‘chgan holati (“band emaslik” belgisi). Yoki, aytaylik, dars qilyapsiz yoningizga do‘stingiz kelib, yelkangizga qo‘lini qo‘ydi “menga qara” ma‘nosiga ega belgi (bir belgi), siz indamay ishingizni qildingiz “xalaqit berma “ ma‘nosini ifodalaydigan belgi. Biz belgi sanamaydigan holat (qo‘lini yelkangizga qo‘yganida, qaramaslik va indamaslik) “nol” belgi bo‘lib, unda ham o‘ziga xos ma‘no borligini unutmasligimiz lozim. Olim mana shu “nol “ belgiga ham alohida e‘tibor qaratadi. Bundan tashqari, olim bir qancha misollar keltirib belgi ma‘lum bir makon va zamondagina o‘z vazifasini bajarishi haqidagi fikrni ham ilgari suradi. Darhaqiqat, bizga ma‘lum bir axborotni, informatsiyani tashiydigan belgilarda zamon va makon asosiy rol o‘ynaydi. Misol uchun, “fakultet binosida qo‘ng‘iroq chalinishi bilan hamma auditoriyaga kira boshlaydi. Telefoningiz ovoz bersa, javob berishga harakat qilasiz. Yo‘lda mashina signal bersa, o‘zingizni chetga olasiz. Lekin, tramvay qo‘ng‘irog‘i ovoz bersa ham, auditoriyaga shoshilasizmi? Mashinaning signalini eshitib, xonangizda ham o‘zingizni chetga olasizmi? Yo‘q, biz bunday kelishmaganmiz. Faqat o‘quv binosidagi qo‘ng‘iroqqa talabalarni auditoriyaga “haydash” vazifasi yuklatilgan. Mashina signalini yo‘lda “joningdan umiding bo‘lsa, qoch” degan ma‘noda tushunamiz. Chunki ular shartli belgilardir”[5]. Masalan, svetofor ranglari bilan ular bildiradigan harakatlar o‘rtasida tabiiy bog‘lanish yo‘q, bu faqat kelishuv mahsulidir. Agar bu bog‘lanish tabiiy bo‘lganida, butun dunyoda yagona til mavjud bo‘lar edi. Bu esa tilning shartli tizim ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Shuningdek, belgilar ma‘lum makon va zamon doirasida o‘z vazifasini bajaradi. Masalan, o‘quv binosidagi qo‘ng‘iroq talabalarga dars boshlanganini bildiradi, ammo shu tovush boshqa joyda boshqa ma‘noga ega bo‘lishi mumkin. Demak, belgilarning ma‘nosi kontekstga bog‘liq. Shu o‘rinda faylasuf Charlz Pirs (1839-1914) ning belgilar nazariyasidagi uchlik ko‘rsatkichlarini keltirib o‘tsak, Charlz Pirs ularni quyidagicha ifodalaydi:

Tasvir ko‘rsatkichi (piktogramma): bu o‘z obyekt bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichdir. U ko‘rsatgan narsani bevosita ifodalaydi va jonlantiradi. Misol uchun, qalam bilan chizilgan chiziq yoki geometrik chiziqni tasvirlaydigan fotosurat.

Piktogramma – bu ma‘lum bir tushuncha, obyekt yoki harakatni ifodalovchi sodda, shartli rasm yoki belgi. Ular matn o‘rniga tezkor ma‘lumot berish, ketma-ketlikni eslab qolish (masalan, she‘r yodlash) yoki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Piktogrammalar o‘zining tushunarlilik bilan til

to'sig'isiz muloqotni ta'minlaydi. Masalan, jamoat joylari: hojatxona, chiqish eshigi, nogironlar uchun joy belgilari. Kompyuter va telefon: ilovalar belgilari (ikonalar)(1-rasmga qarang):



1-rasm. Ma'lum bir tushunchani ifodalovchi shartli rasm yoki belgi

Alomat (Indeks): "Obyekt yo'qolganda o'zini belgiga aylantiradigan narsa" [7]. Misol uchun, o'q otilgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadigan o'q teshigi bunga misoldir. Agar o'q otilmaganida, teshik bo'lmas edi. Ammo kimdir buni otishma bilan bog'laydimi yoki yo'qmi, bu yerda teshik bor. Demak, belgi ikki element orasidagi haqiqiy assotsiatsiyaga asoslanadi. Deylik, tutun – olov alomati; sukut – rizo alomati, turli kasalliklar alomati(2-rasmga qarang):



2-rasm. Sariq kasalligi alomati

Belgi (Ramz): Boshqacha qilib aytganda, ramz odamlar o'rtasidagi kelishuvga asoslangan ko'rsatkichdir. Davlat ramzlari, ramziy obrazlar(sher – mardlik, tulki – makkorlik, bo'ri – ochko'zlik) misol



bo'ladi.

Pirs indeks, ikon va simvol belgilar o'rtasidagi qarama-qarshilikning gradatsion xarakterini chuqur tushungan va asosiy sinflar o'rtasida o'tish hamda aralash holatlar mavjudligini ko'rsatgan. U ikon belgilarni o'xshashlik darajasi va xarakteriga qarab bir necha turlarga ajratgan: obrazlar (bevosita o'xshashlik), sxema(chizma)lar (denotatning tuzilmasi), metaforalar (ko'chma ma'no).

Ko'rinib turibdiki, Pirs belgilarning mantiqiy funksiyasini ta'kidlaydi. Semiotikaga nafaqat belgi bilan, balki ma'noning shakllanish jarayoni bilan ham bog'liq faoliyat sifatida qarash kerak. Shu nuqtai nazardan, semiotika ma'no yaratish jarayonlari bilan shug'ullanadi.

Ba'zi amerikalik olimlar, xususan, mantiqchi va metodist V.Morris, A.Tarski va nemis maktabi vakili R.Karnaplar semiotikani uch yo'nalishda o'rgandilar[2].

Bular:

1. Sintaktik (sintaksis) yo'nalish: belgi va belgilarning boshqa belgi va belgilar bilan munosabati.
2. Semantik (semantik) yo'nalishda: belgilar va ular belgilaydigan obyektlar yoki tushunchalar bilan semantik aloqalar.

3. Pragmatik: belgi va belgidan foydalanuvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlari tekshiradi [2].

Ferdinand de Sossyur semiotik belgilarni dastlab ikki asosiy turga bo'ladi: signifier va signified. Signifier – belgi tashuvchi, signified – ma'no, keyinchalik Ch.S.Pirs, R.Bathers, Y. Lotman kabi olimlar tomonidan bu fikrlar rivojlantiriladi. Pirs ta'limotiga ko'ra, belgilar yana uchga bo'linadi: ikonalar, indekslar, simvollar [1].

Ikonalar – o'xshatishga asoslangan belgilar hisoblanadi (masalan, rasmlar). Indekslar – sabab-oqibat munosabatiga ega belgilar sanaladi (masalan, tutun – olov belgisi). Simvollar – kelishuvga

asoslangan belgilar (masalan, til birliklari) [1]. Shuni unutmashimiz lozimki, jamiyatdagi har qanday belgi barcha uchun tushunarli bo'lsagina, u o'ziga xos semiologik sistemani (ishoralar sistemasini) paydo qiladi. Belgilar tizimi bevosita madaniyat bilan bog'liqdir. Belgilarni madaniyatdan ayro tasavvur etish also mumkin emas. Yuri Lotman belgilar tizimining madaniy kodlar bilan bog'liqligini ta'kidlab, semiosfera atamasini fanga kiritadi. Uning fikricha, madaniyat o'z-o'zini belgilar vositasida tashkil qiladi. Har bir madaniyat o'ziga xos semiosferaga ega va bu semiosfera ichida belgilar tili orqali tafakkur, estetik qarashlar shakllanadi. Masalan, Avstraliya davlatining umumiy belgisi – “Kenguru”, Amerikaniki esa oq rangli “burgut”.

Kenguru Avstraliyaning o'ziga xos noyob tabiati, erkinligi va taraqqiyotini anglatgani uchun mamlakat ramzi hisoblanadi. Ular asosan faqat shu qit'ada yashaydi va orqaga harakatlana olmaydigan jismoniy tuzilishi bilan *mamlakatning doimiy rivojlanishining (faqat oldinga yurish) ramzi* sifatida, hatto davlat gerbida ham tasvirlangan[11]. AQSH davlatining gerbidagi burgut – kuch va qudrat ramzi sanaladi. Semiotik belgilar til va tafakkurning ajralmas bo'lagi bo'lib, ularning tabiati murakkab va ko'p qatlamlidir [1]. Belgilar, nafaqat, aloqa vositasi, balki ijtimoiy ong, madaniyatning ham in'ikosi, ko'zguvidir.

A.S. Karmin madaniyat semiotikasi haqida gapirar ekan, har qanday madaniyatni tushunish – bu uning semiotikasini tushunish, ya'ni unda qo'llaniladigan belgilar ma'nolarini aniqlay olish va ular asosida tuzilgan matnlarni “o'qiy olish” demakdir, deb ta'kidlaydi. Madaniy tillarning o'ziga xosligi va noyobligiga qaramay, ularda bir xil turdagi belgilar va belgilar tizimi qo'llaniladi.

Karmin madaniyatning semiotik maydonida 5 turdagi belgilar va belgilar tizimini ajratadi:

- Tabiiy
- Funksional
- Konvensional
- Verbal
- Yozuv tizimlari

Tabiiy belgilar – bu tabiat hodisalari va belgilaridir. Ko'pincha tabiiy belgi biror butunning xossasi, belgisi yoki qismi bo'lib, shu orqali butun haqida ma'lumot beradi. Ularni tushunish uchun ular nimaning belgisi ekanligini bilish zarur. Ob-havo belgilaru, hayvon izlari, kasallik simptomlari va boshqalar – bularning barchasi tabiiy belgilar bo'lib, ular qabul qiluvchi ushbu tizimga kirgan taqdiridagina tushuniladi. Tabiiy belgilarni tushunish va ulardan foydalanish qadimgi insonning atrof-muhitga moslashuvi va omon qolishining muhim sharti bo'lgan. Sivilizatsiya rivojlanishi, shahar aholisi sonining ortishi bilan tabiiy belgilarni “o'qiy oladigan” insonlar soni keskin kamayib bormoqda.

Funksional belgilar inson faoliyati jarayonida yuzaga keladi va denotatning ushbu faoliyatdagi funksiyasini ko'rsatadi. Bu belgilar ham biror narsaning belgisi hisoblanadi, biroq tabiiy belgilardan farqli ravishda ularning denotat bilan bog'liqligi tabiat qonunlari bilan emas, balki inson faoliyatida bajaradigan funksiyalari bilan belgilanadi. Bu belgilar ma'lum pragmatik vazifaga ega predmetlardir. Ular belgiga aylanish maqsadida emas, balki amaliy foydalanish uchun yaratiladi. Masalan, arxeolog tomonidan qo'rg'onda topilgan qurol – u yerda jangchi dafn etilganining belgisi; yelkasida belkurak ko'targan odam esa uning yer ishlari bilan shug'ullanganini yoki shug'ullanishini bildiradi. Bundan tashqari, inson faoliyatining o'zi ham funksional belgi bo'lishi mumkin. Inson ba'zan o'zining ixtiyorsiz va ongsiz harakatlari orqali o'z his-tuyg'ulari, fikrlari va niyatlari haqida signal beradi. Shuningdek, u ataylab ham belgilar berishi mumkin, masalan, masonlarning maxfiy ishoralari.

“Mason” so'zi inglizcha *freemason* so'zidan olingan bo'lib, so'zma-so'z “erkin quruvchi usta”, deb o'giriladi. Chunki, tashkilotga quruvchilar tomonidan asos solingan. Masonlar Xudoga nisbatan “koinotning ulug' me'mori” atamasini ishlatishgan va o'zlarining tashkilot ramzida qurilishda ishlatiladigan sirkul va uchburchak chizg'ich tasvirlangan [10] (3-rasmga qarang):



3-rasm. Masonlar tashkiloti ramzi

Funksional belgilar o'zining asosiy pragmatik ma'nosidan tashqari ikkilamchi ma'nolarni ham qabul qilishi mumkin. Bu ikkilamchi ma'nolar ko'pincha analogiya asosida paydo bo'ladi. Masalan, eshik ustiga qoqilgan taqa yoki yo'lda uchragan bo'sh chelak.

Konvensional (shartli) belgilar – bu tubdan boshqa turdagi belgilar bo'lib, ular maxsus yaratiladi va belgilik funksiyasi ular uchun asosiy hisoblanadi. Bunga Morze alifbosi, navigatsion signallar, diniy belgilar misol bo'ladi. Madaniyat rivojlanishi bilan konvensional belgilar tizimlari ham rivojlanadi: yo'l belgilar tizimi, marosim tizimlari, san'at tillari va boshqalar. Har bir san'at turi o'z belgilar tizimiga ega: rassomchilik, musiqa, teatr, kino va boshqalar.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, belgilar tizimi insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelgan. Belgilar faqat aloqa vositasi emas, balki tafakkur va madaniyatning ifodasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Belgilar tizimi sintaktik, semantik va pragmatik jihatlarida tahlil qilinib, ularning kompleks tabiati aniqlanadi.

Shuningdek, belgilar tizimining makon va zamonga bog'liqligi, kontekstual xarakteri ham muhim ilmiy xulosalardan biridir. Belgilar faqat ma'lum sharoitda to'liq ma'no kasb etadi. Bu esa semiotik tizimlarning dinamik va ko'p qatlamli ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, semiotika belgilar tizimini o'rganish orqali inson tafakkuri va kommunikativ jarayonlarning mohiyatini ochib beradi. Til esa ushbu tizimning eng mukammal shakli sifatida alohida ahamiyatga ega. Semiotika belgilar tizimini o'rganish bilan birga, ma'no hosil bo'lish jarayonini ham tahlil qiladi. Belgilar insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lib, jamiyat va madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Til esa ushbu tizim ichida eng muhim va mukammal kommunikativ vosita sifatida alohida o'rin tutadi. Lingvosemiotika esa tilni yanada chuqurroq anglash imkonini beruvchi muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov. Sh. Semiotik belgilar va ularning tabiati. Journal of international scientific research, Volume 3, Issue 1, June, 2025. – B. 494-496.
2. Arikli N., Vardar B. Sernantik akimlari. – Istanbul: Yeni insan yayinlari, 1969. – 48 s.
3. Dağtaş B. Reklamı okumak. – Ankara: Ütopya yayınevi, 2003. – 224 s.
4. Ferdinand de Saussure. Course in General Linguistics. – New York: 1959. – 264 p.
5. Mengliyev. B. Hozirgi o'zbek tili (Kirish.Fonetik sath.Leksik-semantik sath). – T.: 2017. – 202 b.
6. Rasulov. R. Umumiy tilshunoslik. – T., 2016. – 188 b.
7. Rıfat M. Göstergebilimin ABC'si. – Istanbul: Simavi yayinlari, 1992. –56 s.
8. Степанов Ю. С. Семиотика. – Москва: Наука, 1971. – 266 б.
9. Charles Sanders Peirce. Collected Papers. – Cambridge: Harvard University Press, 1958. – 508 p.
10. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Masonlik>
11. <https://www.google.com/search?q=kenguru+nima+uchun+avsraliya+simvoli&oq=>

*Jo'rayeva Bibish Muxsinovna,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori,
Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o'qitish va malaka oshirish
markazining Buxoro bo'limi rahbari
(O'zbekiston)
E-mail: bibish.jrayeva@mail.ru
Barnoyeva Samarabonu Uchqun qizi,
Buxoro davlat texnika universiteti o'qituvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: bsamarabonu@gmail.com*

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK ANTROPOSENTRIK PARADIGMA YO'NALISHI SIFATIDA

Annotatsiya: Maqolada lingvomadaniyatshunoslikning antroposentrik paradigma doirasidagi nazariy asoslari hamda amaliy jihatlarini batafsil yoritiladi. Tadqiqotda til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan yagona tizim sifatida talqin qilinib, inson omilining ushbu jarayondagi markaziy o'rni alohida e'tirof etiladi. Til birliklari xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlarini, milliy tafakkuri va madaniy qarashlarini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida tahlil qilinadi. Ayniqsa, maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy kuzatuvlari, urf-odatlarini, an'analari va dunyoqarashini o'zida mujassam etgan lingvomadaniy birlik sifatida o'rganiladi. Tadqiqot davomida maqollarda ifodalangan milliy-madaniy mazmun, insonning tabiat, jamiyat va atrof-muhitga bo'lgan munosabati lingvokulturologik yondashuv asosida sharhlanadi. Shuningdek, til birliklarida xalq mentalitetining aks etishi, obrazlilik va ramziylik vositasida milliy tafakkurning namoyon bo'lish xususiyatlari ochib beriladi. Maqollar tarkibidagi leksik birliklar, ayniqsa, fitonim va boshqa madaniy komponentlarning semantik hamda ramziy ma'nolari tahlil qilinib, ularning xalq madaniyati bilan uzviy bog'liqligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyatshunoslik, antroposentrik paradigma, til va madaniyat, inson omili, milliy tafakkur, lingvomadaniy birliklar, maqollar.

Аннотация: В статье подробно освещаются теоретические основы и практические аспекты лингвокультурологии в рамках антропоцентрической парадигмы. В исследовании язык и культура интерпретируются как единая взаимосвязанная система, при этом особо подчеркивается центральная роль человеческого фактора в данном процессе. Языковые единицы анализируются как важное средство отражения исторического опыта народа, его духовных ценностей, национального мышления и культурных взглядов. Особое внимание уделяется пословицам, которые рассматриваются как лингвокультурные единицы, воплощающие многовековые жизненные наблюдения народа, его традиции, обычаи и мировоззрение. В ходе исследования на основе лингвокультурологического подхода интерпретируется национально-культурное содержание, выраженное в пословицах, а также отношение человека к природе, обществу и окружающему миру. Кроме того, раскрываются особенности отражения народного менталитета в языковых единицах, проявления национального мышления посредством образности и символичности. Анализируются лексические единицы в составе пословиц, в особенности фитонимы и другие культурные компоненты, их семантические и символические значения, а также обосновывается их тесная связь с народной культурой.

Ключевые слова: лингвокультурология, антропоцентрическая парадигма, язык и культура, человеческий фактор, национальное мышление, лингвокультурные единицы, пословицы.

Abstract. The article comprehensively discusses the theoretical foundations and practical aspects of linguoculturology within the framework of the anthropocentric paradigm. The study interprets language and culture as an integrated and interconnected system, emphasizing the central role of the human factor in this process. Linguistic units are analyzed as important means of reflecting the historical

experience of a people, their spiritual values, national mentality, and cultural views. Particular attention is paid to proverbs, which are examined as linguocultural units embodying centuries-old life observations, traditions, customs, and worldview of the people. During the research, the national and cultural content expressed in proverbs, as well as the human attitude toward nature, society, and the surrounding environment, are interpreted through a linguocultural approach. Furthermore, the study reveals the ways in which the national mentality is reflected in linguistic units and how national thinking is manifested through imagery and symbolism. Lexical units within proverbs, especially phytonyms and other cultural components, are analyzed in terms of their semantic and symbolic meanings, and their close connection with folk culture is substantiated.

Keywords: linguoculturology, anthropocentric paradigm, language and culture, human factor, national mentality, linguocultural units, proverbs.

Kirish. Lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi fandir. Bu ta'limot tilning madaniy xususiyatlari jamiyatga qanday ta'sir qilishini aks ettirishga qaratilgan. Lingvokulturologiyani antroposentrik yo'nalish sifatida ko'rib chiqadigan yondashuv inson (antropos) bu tadqiqotning markazi ekanligini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan "antroposentrik yo'nalish"da asosiy e'tibor shaxsga, uning til faoliyati va madaniy amaliyotiga qaratiladi.

Asosiy qism. Antroposentrik nuqtayi nazardan qaralganda lingvokulturologiya tilning madaniy g'oya, qadriyat, me'yor va urf-odatlarining qanday shakllantirishini, shuningdek, madaniy hodisalarning tilda qanday aks etishini o'rganadi. Bu yondashuvda til nafaqat madaniyatni aks ettiradi, balki uning shakllanishida faol ishtirok etadi, deb taxmin qilinadi. Odamlar dunyo, jamiyat, o'zlari va boshqalar haqidagi g'oyalarini yetkazish uchun tildan foydalanadilar. O'z navbatida, bu lingvistik ibora va tuzilmalar madaniy me'yorlarga ta'sir qilishi va o'ziga xos madaniy amaliyotlarni yaratishi mumkin. Shunday qilib, antroposentrik nuqtayi nazardan qaraladigan madaniy tilshunoslik odamlarning til orqali madaniy xususiyatlarni qanday shakllantirishi va uzatishini, madaniy xususiyatlar tilning tuzilishi va funksiyasiga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi. "Lingvokulturologiya" atamasi XX asrning 90-yillarida yuzaga keldi va tilshunoslikning madaniy hamda lingvistik makonida paydo bo'lgan mustaqil yo'nalish nomiga aylandi. Lingvokulturologiya fani tilni madaniy hodisa, o'ziga xos mentalitet va mentalitetning ifodasi sifatida o'rganadi. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigma mahsuli bo'lib, u nutqiy xabarlarini qabul qiluvchi va jo'natuvchi sifatida shaxsni birinchi o'ringa olib chiqadi. Antroposentrik paradigmada inson tildan tashqarida, til esa insondan tashqarida fikr yuritmaydi. Lingvokulturologiya etnolingvistikaning tubida vujudga kelgan fan bo'lib, undan sezilarli farq qiladi va uning bir qismi deb hisoblanmaydi. Etnolingvistika doirasida xalqlarning genetik qarindoshligi, ikki tillilik va ko'p tillilik muammosi hal qilinadi, til va ma'naviy etnik madaniyat rivojiga ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri o'rganiladi. Bu retrospektiv paradigma bo'lib, ko'proq qabilalar, millatlar, dialektlarning madaniyati va tilini o'rganishga qaratilgan. Etnolingvistikadan farqli o'laroq lingvokulturologiya etnik guruhlarining global aloqasi va madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi sharoitida til va madaniyatning sinxron muhitda o'zaro ta'sirini o'rganishga qaratilgan istiqbolli paradigma sifatida faoliyat ko'rsatadi. Etnolingvistika va lingvokulturologiya bir-biridan metodologik asosi bilan ham farq qiladi. Etnolingvistika etnografiya, etnologiya, etnopsixologiya va etnogeografiya tamoyillari va usullariga asoslanadi, lingvokulturologiya esa madaniyatshunoslikda va madaniyatlararo muloqot ta'limotida o'zining nazariy asosiga ega. Ularni umumiy obyekt: til va madaniyat munosabatlari birlashtiradi. Bu, birinchi navbatda, tilni o'rgatish uchun zarur bo'lgan va lingvistik faktlarni chuqurroq empirik o'rganishni o'z ichiga olgan amaliy fandir. Lingvokulturologiya integral fan sifatida o'z ichida bir qancha yo'nalishlarni ajratib ko'rsatadi: etnik lingvokulturologiya; diaxronik lingvokulturologiya; qiyosiy lingvokulturologiya; sinxron lingvokulturologiya; lingvistik va madaniy leksikografiya; umumiy lingvokulturologiya va boshqalar.

Etnik madaniyatshunoslik alohida ijtimoiy guruhning (qabilaning, millatning) u yoki bu mavjudlik davridagi tili va madaniyati xususiyatlarini o'rganadi. V.A.Maslovaning ta'kidicha: "Diaxronik lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanish bosqichlarini tarixiy jihatdan o'rganishga qaratilgan. Qiyosiy lingvokulturologiya genetik jihatdan bog'liq etnik guruhlar tillarida madaniyat aks etishining umumiy o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Chog'ishtirma

lingvokulturologiyada genetik jihatdan bog'liq bo'lmagan xalqlar tilining lingvistik o'ziga xosligi tadqiq etiladi. Sinxron lingvokulturologiya zamonaviy davlatdagi til va madaniyatning o'zaro ta'sirini tarixiy va etimologik jihatlarisiz o'rganadi. Lingvomadaniy leksikografiya madaniyatshunoslik, lingvokulturologiya va mintaqashunoslikka oid lug'atlar tuzish bilan shug'ullanadi. Umumiy lingvokulturologiya fan tarixi va nazariyasini, uning tamoyillari, kategoriyalari va usullarini belgilaydi. Lingvokulturologiya fanining predmetiga: 1) etnik guruh yoki etnik guruhlar hayoti, ruhiyati va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi va boshqa til hamda madaniyatlarda ekvivalentiga ega bo'lmagan so'z va iboralar; 2) mifologiklashgan lingvistik birliklar: tilda mustahkamlangan arxetiplar, mifologemalar, marosim va e'tiqodlar, marosim va urf-odatlar; 3) etnosning ko'p asrlik tajribasini aks ettiruvchi tilning paremiologik fondi; 4) tilning frazeologik birliklari; 5) standartlar, stereotiplar, belgilar, nutq formulalari; 6) tilning metafora va ramzlari; 7) tillarning stilistik tuzilishi; 8) nutqiy xulq-atvor; 9) nutq odobi singarilar kiritiladi.

Muhokama va natijalar. Shunday qilib, lingvokulturologiya lingvistik shaklda ifodalangan etnik guruh, etnik guruhlar jamlanmasi va butun insoniyatning moddiy hamda ma'naviy madaniyatini o'rganadigan gumanitar fan sifatida faoliyat ko'rsatadi. Aynan shu xususiyat tilning asosiy vazifalaridan biri – madaniyatni yaratish, rivojlantirish, saqlash va yetkazish vositasi bo'lish holati qanday amalga oshirilishini aniqlash hamda tushuntirish imkonini beradi.

Zamonaviy antroposentrik yondashuvning kelib chiqishi XX asrning 50-yillariga to'g'ri keladi, tilshunoslik nazariyasida antroposentrizm bugungi kunda eng muhim ilmiy postulat sifatida tan olingan. Antroposentrizm – insonning dunyodagi markaziy mavqeyiga asoslangan, qadriyat, ahamiyat va ma'no nuqtayi nazaridan qaraladigan falsafiy, madaniy tushuncha bo'lib; inson hamma narsaning asosi va mezoni ekanligini, tabiat va dunyoning boshqa tomonlari ham insonga nisbatan qadriyat va mazmunga ega ekanligini anglatadi.

Ushbu konsepsiya turli sohalarda, jumladan falsafa, madaniyatshunoslik, ekologiya va tilshunoslikda qo'llanilishi mumkin. Masalan, tilshunoslikda antroposentrizm tilda insonning rolini birinchi planga olib chiqadi. So'nggi o'n yilliklarda "antroposentrizm" atamasi tez-tez ishlatib kelinmoqda, bu inson faoliyati yer ekotizimlari va iqlimiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omilga aylangan davrni anglatadi. Madaniy tilshunoslikda antroposentrizm til va madaniyat o'rtasidagi yaqin munosabatni aks ettiradi, til tizimi va madaniy kontekstda insonning markaziy roliga e'tibor qaratadi. Bu yondashuv til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini va uni bir-biridan alohida o'rganib bo'lmashligini nazarda tutadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida til ikki paradigma, ya'ni markazlashgan tuzilma va antroposentrik yo'nalishda o'rganildi. Zamonaviy tilshunoslikda tillarni o'rganishda antroposentrik paradigma ustuvor ahamiyatga ega. Bunda tadqiqotchining qiziqishlari bilish obyektidan subyektga o'tkaziladi, ya'ni tildagi shaxs va shaxsdagi til tahlilga tortiladi. Hozirgi bosqichdagi til to'g'risidagi antroposentrik yondashuv tildagi inson omili muammosiga qiziqish bilan birlashtirilgan qator xilma-xil ilmiy yo'nalish va maktablar, lingvistik ta'limot va konsepsiyalarning shartli umumlashtiruvchi nomidir. Ayni shu munosabat antropologik lingvistikaning obyekti hisoblanadi. Antroposentrizm (yunon tilidan antropos – *inson* va lotin tilidan centrum – *markaz*) – tabiat, jamiyat haqidagi har qanday bilimda va bilimning o'zida insoniy o'lchov mavjudligini tasdiqlovchi antropomorfizmning keskin shakli, bilish ko'rsatkichidir. Antroposentrizm tushunchasini Protagor o'zining mashhur "Inson barcha narsaning o'lchovidir" formulasida yaqqol ta'riflab bergan. Antroposentrik yo'nalishning konsepsiyalarida erkin tanlov va mas'uliyatli harakat subyekti sifatida shaxsning mustaqilligi ta'kidlab o'tilgan. Antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan inson o'zini anglash barobarida, shuningdek, ilmiy va amaliy faoliyati orqali dunyoni o'rganadi. Yangi ilmiy paradigmani shakllantirish jarayonida quyidagi tezis e'lon qilindi: "Dunyo – bu narsalar emas, balki dalillar majmuyidir" [5]. Til asta-sekin dalilga, voqeaga qayta yo'naltirildi va so'zlovchining shaxsiyati diqqat markaziga aylandi. Ushbu paradigma til tadqiqining yangi ifoda va maqsadlarini, yangi muhim tushuncha va uslublarini nazarda tutadi. Antroposentrik paradigmadagi lingvistik tadqiq mavzulari ham, ularni o'rganish usullari ham o'zgardi, tadqiqotning umumiy tamoyillari va usullarini tanlashga yondashuv ham o'zgacha tus oldi, lingvistik tavsifning bir qator raqobatdosh metatillari paydo bo'ldi.

Til shaxslar o'rtasidagi muloqot vositasi, madaniyat esa jamiyat taraqqiyotining ma'lum darajasidir. Til madaniyatni asraydi, uni avloddan avlodga yetkazadi. Shu g'oya asosida lingvomadaniyatshunoslik fani vujudga keldi.

Lingvomadaniyatshunoslik — XX asrning 90-yillarida shakllangan til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi lingvistikaning mustaqil yo'nalishi.

Ma'lumki, til va madaniyat o'rtasidagi munosabat muammosi tilshunoslikda uzoq vaqt davomida o'rganilib kelinmoqda va turli yo'nalishlarda tadqiq qilinmoqda. Ushbu muammo yechimining dastlabki urinishlari V.Gumboldt asarlarida o'z aksini topgan. Uning ta'kidlashicha, konsepsiyaning asosiy qoidalari quyidagilar:

1. Moddiy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlashgan.

2. Har qanday madaniyat milliydir, uning milliy tabiati dunyoga munosabatda reallashadi; til har bir xalqqa xos ichki shakllarga ega.

3. Tilning ichki shakli "xalq ruhi", uning madaniyati ifodasidir.

4. Til inson va uning atrofidagi dunyo bilan aloqasidir.

Hatto bir xil tilni bilgan holda odamlar bir-birlarini har doim ham to'g'ri tushuna olmaydilar va buning sababi ko'pincha ular tegishli bo'lgan madaniyatlarning farqidadir.

Inson nutqi so'z va jumladan iborat bo'lib, ularsiz muloqot qilish "mumkin, lekin bunday muloqot ham qiyin, ham soddadir" [3]. So'z va mulohazalar odamlarni muloqot orqali birlashtiradi. Muloqotsiz jamiyat mavjud emas, jamiyatsiz esa na ijtimoiy, na madaniyatli, na idrokli inson mavjud. "Til – xalqning barcha so'zlari va ularning to'g'ri birikmasi, o'z fikrlarini yetkazish majmuyidir" [2]. Til – bu insoniyat jamiyatida tartibsiz paydo bo'lgan va rivojlanayotgan, muloqot maqsadida xizmat qiladigan va insonning dunyo haqidagi bilim hamda tasavvurlari yig'indisini ifodalashga qodir bo'lgan diskret (tushunarli) tovush belgilari tizimidir [3]. Turli davr, mamlakat va maktab vakillarining til ta'riflari asosiy g'oyada birlashadi: til bu aloqa, fikrlarni ifodalash vositasidir. Til inson qadriyatlarini, ideallari va munosabatlarini, odamlarning olam hamda bu dunyodagi hayoti haqidagi fikrlarini aks ettiradi va shakllantiradi. Tilning eng muhim vazifasi bu madaniyatni asrab, uni avloddan avlodga yetkazishdir. Ayni shuning uchun ham til shaxs, milliy xarakter, etnik jamoa hamda millatni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ma'lumki, turli tillarda moddiy madaniyat obyektlarini (masalan, oziq-ovqat, ichimliklar) belgilash uchun maxsus atamalar mavjud. Bunday atamalarning mavjudligi ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan maxsus odatlar, qadriyatlar tizimining xususiyatlari bilan bog'liq. *Madaniyat* so'zi lotincha "Colere" so'zidan kelib chiqqan, "o'stirish, tarbiyalash, rivojlantirish, qadrlash, sig'inish" degan ma'noni anglatadi. XVIII asrdan boshlab madaniyat inson faoliyati, uning maqsadli mulohazalari tufayli paydo bo'lgan barcha jihatlariga e'tibor qarata boshladi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan esa bu so'z ilmiy atama sifatida qo'llanila boshlandi. *Madaniyat* atamasi ko'p ma'noli bo'lib, "Katta ensiklopedik lug'at"da quyidagi ta'rif beriladi: "Madaniyat – bu jamiyat, odamlar hayoti va faoliyatini tashkil etishning turlari va shakllarida, ularning munosabatlarida, shuningdek, ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda ifodalangan shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari taraqqiyotining tarixan belgilangan darajasidir" [1]. Bu o'rinda A.Vejbitskaya G.Klifford tomonidan berilgan ta'rifga amal qiladi: "Madaniyat – bu ramzlarda mujassamlangan ma'nolarning tarixan uzatiladigan namunasi, ramzlar ko'rinishida ifodalangan irsiy tasvirlar tizimi, ular yordamida odamlar bir-biri bilan muloqot qiladi hamda hayot haqidagi bilimlari va hayotiy tafakkurlari mustahkamlanadi, rivojlanadi" [4]. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadiki, odamlar muloqot qiladigan belgilar tildir. Ya'ni madaniyat tilda mujassamlashgan ma'nolarning tarixan uzatilgan namunasidir. Til madaniyat haqiqiylikining eng yaxshi isboti hisoblanadi. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni ko'rib chiqqanda ularning yaqin o'zaro munosabati yaqqol namoyon bo'ladi: 1. Til va madaniyat insonning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllaridir. 2. Madaniyat va til bir-biri bilan muloqotda mavjud (shaxs madaniyat va tilning subyekti bo'lganligi sababli shaxslar o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi til, til esa madaniyatni avloddan avlodga o'tkazish vositasi bo'lishi mumkin bo'lsa, u holda madaniyat va til o'rtasida muloqot yoki ma'lumot uzatish borligini aytishimiz mumkin). 3. Madaniyat va til subyekti – shaxs. 4. Me'yoriylik – til va madaniyat uchun umumiy xususiyat. 5. Madaniyat va tilning muhim xususiyatlaridan biri bu tarixiylikdir. Xulosalar. Yuqoridagilarni hisobga olib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: insonning til qobiliyatini shakllantirishda, ijtimoiy shaxsning barkamollashuvida, ya'ni muloqot jarayonida til va madaniyat o'zaro bog'liq. Umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda til va madaniyatda farqlar ham mavjud:

1. “Tilda fenomenidagi kabi ommaviy adresatga e’tibor ustunlik qiladi, madaniyatda esa elitarlik qadrlanadi” [6]. Tildan muloqot vositasi sifatida jamiyatning turli qatlamlari foydalanishi mumkin. Ammo jamiyatda alohida qatlam – muhim ijtimoiy va madaniy vazifalarni bajaradigan yuqori qatlam yoki elita mavjud.

2. Madaniyat shunday belgilar tizimiki, u o’zini mustaqil ravishda tashkil qila olmaydi [1].

3. Til va madaniyat turli xil belgilar tizimlaridir.

Yuqoridagi farqlar madaniyatning tilga mosligi haqida umumiy xulosaga kelish uchun imkon beradi. Til va madaniyat o’rtasidagi munosabatlar murakkab manzara bo’lib, uning turli tomonlarini yoritish uchun bir nechta yondashuvlar ilgari surilgan:

Birinchi yondashuv S.A. Atanovskiy, G.A. Brutyan, E.I. Kukushkin, E.S. Markaryan kabi faylasuf olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, til va madaniyat o’rtasidagi munosabatlar bir yo’nalishdagi harakat hisoblanadi. Til voqelikni aks ettirganligi, madaniyat esa bu voqelikning ajralmas tarkibiy qismi bo’lganligi sababli til madaniyatning oddiy aksidir. Voqelikdagi o’zgarishlar tildagi o’zgarishlarga olib keladi.

Ikkinchi yondashuv V.Gumboldt, A.A. Potebnya tomonidan taklif qilingan. Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, til bizni o’rab turgan, biz undan tashqarida va uning ishtirokisiz yashay olmaydigan muhitdir. Binobarin, “bizning yashash muhitimiz bo’lgan til bizdan tashqarida obyektiv borliq sifatida mavjud emas, u bizning o’zimizda, ongimizda, xotiramizda; u har bir fikr harakati, har bir yangi ijtimoiy va madaniy roli bilan o’z ko’rinishini o’zgartiradi” [6].

V.A. Maslova til va madaniyat o’rtasidagi munosabat haqidagi munozaralarida yana bir yondashuvni ta’kidlaydi. Olima tilni madaniyat fakti deb hisoblaydi, chunki til: 1. Ajdodlarimizdan meros qilib olingan madaniyatimizning ajralmas qismi. 2. Madaniyatni tashiydigan asosiy vosita...[6].

Demak, til madaniyatning ajralmas qismi va uning quroli, u “ruhimiz voqeligi, madaniyat qiyofasi; u milliy mafkuraning o’ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Til inson uchun ong sohasini ochgan mexanizmdir” [6].

Til madaniyatning “oynasi” bo’lib, u nafaqat insonni o’rab turgan dunyoni, uning hayot sharoitlarini; balki xalqning ijtimoiy o’zini o’zi anglashini, uning tafakkuri, milliy xarakteri, turmush tarzi, urf-odatlarini, ma’naviyati, qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi, mafkurasini aks ettiradi. Tilni oyna bilan qiyoslash o’zini oqlaydi: u haqiqatan ham atrofimizdagi dunyoni aks ettiradi. Har bir so’zning orqasida haqiqiy dunyoning predmeti yoki hodisasi mavjud. Til barcha narsani aks ettiradi: geografiya, iqlim, tarix, yashash sharoitlari va h.k.

Dunyoning tilda aks etishi ushbu tilda so’zlashuvchi xalqlarning birgalikdagi ijodidir va har bir yangi avlod o’z ona tili bilan milliy xarakter, dunyoqarash, ma’naviyat va boshqalarni o’zida mujassam etgan “to’liq madaniyat majmuasini”ni oladi.

“Biroq dunyo va til o’rtasida tafakkur qiluvchi, ona tilida so’zlashuvchi shaxs turadi” [3].

Til va unda so’zlashuvchilar o’rtasida yaqin munosabat va o’zaro bog’liqlik mavjudligi yaqqol ko’zga tashlanadi. Til odamlar o’rtasidagi muloqot vositasi bo’lib, undan foydalanadigan nutq jamoasining hayoti va rivojlanishi bilan uzviy bog’liqdir. Til va real dunyo o’rtasida inson turadi. Sezgi a’zolari orqali dunyoni qabul qiluvchi va idrok etuvchi hamda shu asosda dunyo haqidagi tasavvurlar tizimini vujudga keltiruvchi ham shaxsdir. Til insonga dunyoning ma’lum bir ifodasini yuklaydi.

Til fikrni ifodalash va uni odamdan odamga o’tkazish usuli sifatida tafakkur bilan chambarchas bog’liqdir. So’z voqelik predmetining o’zini emas, balki u ona tilida so’zlovchiga uning ongida ushbu predmet g’oyasi bilan yuklangan ko’rinishini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o’rtasida yuzaga kelgan umumlashma yo’nalish bo’lib, til va madaniyatning o’zaro ta’siri va bog’liqligi, bu bog’liqlikning shakllanishi, takomili, taraqqiyoti bilan shug’ullanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества / М.М. Бахтин. – М.: Художественная литература, 1979. – 424 с.

2. Большой энциклопедический словарь / гл. ред. А. М. Прохоров. – М.: Советская энциклопедия, 1993. – 1632 с.

3. Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 288 с.
4. Витгенштейн Л. Философские исследования // Витгенштейн Л. Философские работы. Ч. I. / пер. с нем. М. С. Козловой и Ю. А. Асеева; сост., вступ. статья, примеч. М. С. Козловой. – М.: Гнозис, 1994. – 612 с.
5. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. – Москва: РУДН, 1997.– 331 с.
6. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: Современное написание: в 2 т.– М.: Астрель: АСТ, 2001.– Т. 4. –1144 с.
7. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – 228 b.
8. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 2007. – 90 b.
9. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. – М.: “Академия”, 2001. – 208 с.
10. Пўлатов А.Қ., Мўминова Т., Пўлатова И.О. Дунёвий ўзбек тили (Ўзбек тилида феълнинг шакллари ва уларнинг рус, инглиз тилларида берилиши). – Тошкент: Университет, 2003. – 404 б.
11. Safarov V.A. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 120 b.
12. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
13. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – 624 с.
14. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – 140 b.
15. Shirinova, Y., Iskandarova, G. (2024). Inson – madaniyatlar chorrahasida. O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5): 83-89 b.

*Rasulov Zubaydullo Izomovich,
Buxoro davlat universiteti,
Ingliz tilshunosligi kafedrasini mudiri,
f.f.d.(DSc), dotsent
(O'zbekiston)
E-mail: z.i.rasulov@buxdu.uz*

*Murtazoyev Otabek Nusrat o'g'li,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: o.n.murtazoyev@buxdu.uz*

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA INTERTELSTUALLIK MASALASINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. Intertekstuallik tilshunoslik va adabiyotshunoslik kesimidagi muhim ilmiy muammodir. Ushbu maqolada mazkur masalaning lingvistik jihatlari, uning spetsifik xususiyatlari va badiiy matndagi vazifalari haqida fikr yuritilgan. Shu jihatdan, intertekstuallik tushunchasi, uning turlari, zamonaviy tilshunoslikka ushbu hodisaning kirib kelishi, tadqiq qilinishi, paratekstuallik, metatekstuallik, gipertekstuallik, arxiotekstuallik kabi ko'rinishlari haqida fikrlar bayon etilgan. Zamonaviy tilshunoslikda lisoniy shaxs tomonidan to'g'ri tushunilishi va matnni asl mazmun-mohiyatini anglab yetishida intertekstual birliklarning ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda intertekstuallik muammolarining ilmiy ahamiyatini o'rgangan tilshunos olimlarning fikrlariga munosabat bildirilgan va muayyan xulosalarga kelingan.

Kalit so'zlar: Intertekstuallik, intertekstual birliklar, badiiy matn, adabiy fakt, tilshunoslik, matn, paratekstuallik, metatekstuallik, gipertekstyallik, arxiotekstyallik, ommaviy matn, ilmiy matn, ish matni.

Аннотация. Интертекстуальность является важной научной проблемой на стыке языкознания и литературоведения. В данной статье рассматриваются лингвистические аспекты данного явления, его специфические особенности и функции в художественном тексте. В этом контексте освещаются понятие интертекстуальности, её виды, проникновение и исследование данного явления в современном языкознании, а также такие формы, как паратекстуальность, метатекстуальность, гипертекстуальность и архитекстуальность. В статье также анализируется значение интертекстуальных единиц в современном языкознании для правильного понимания текста языковой личностью и осмысления его подлинной сущности и содержания. Кроме того, выражено отношение к взглядам учёных-лингвистов, изучавших научную значимость проблем интертекстуальности в современном языкознании, и сделаны определённые выводы.

Ключевые слова: интертекстуальность, интертекстуальные единицы, художественный текст, литературный факт, языкознание, текст, паратекстуальность, метатекстуальность, гипертекстуальность, архитекстуальность, массовый текст, научный текст, деловой текст.

Abstract. Intertextuality is an important scientific problem at the intersection of linguistics and literary studies. This article discusses the linguistic aspects of this phenomenon, its specific features, and its functions in literary texts. In this regard, the paper examines the concept of intertextuality, its types, the introduction and development of this phenomenon in modern linguistics, as well as such forms as paratextuality, metatextuality, hypertextuality, and architextuality. The study also reflects on the significance of intertextual units in modern linguistics for the correct interpretation of texts by linguistic personalities and for understanding the original essence and meaning of a text. Furthermore, the article presents comments on the views of linguists who have studied the scientific significance of intertextuality problems in modern linguistics and draws certain conclusions.

Keywords: intertextuality, intertextual units, literary text, literary fact, linguistics, text, paratextuality, metatextuality, hypertextuality, architextuality, mass text, scientific text, business text.

Kirish. Intertekstuallik matnning tahlil qilishning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, bugungi kunda bu atama adabiyot va tilshunoslikning tadqiqot mavzusiga aylandi. Ba'zi adabiyotlarda ushbu iborani fransuz filologi Y. Kristeva fanga olib kergan deb qaraladi. "Intertekstuallik" (fr. intertextualité) terminini ilk bor 1966-yilda fransuz semiotigi Julia Kristeva (1941-) o'zining "Word, Dialogue and Novel" (Le mot, le dialogue et le roman) maqolasida taklif qilgan. Kristeva rus formalizmi (Mikhail Baxtin) va fransuz strukturalizmi (Ferdinand de Saussure, Roman Jakobson) o'rtasidagi dialog natijasida bu tushunchani yaratdi.

Asosiy qism. Kristeva fikricha, har qanday matn "absorbsiya va transformatsiya qilingan boshqa matnlar mozaikasi"dir (tissu de citations). U matnning ikki o'lchovini ajratib ko'rsatadi:

- Gorizontal o'lchov: matn va qabul qiluvchi o'rtasidagi munosabat
- Vertikal o'lchov: matn va boshqa matnlar o'rtasidagi munosabat

Etimologik tahlil:

- inter- (lot. "o'rtasida, ...aro")
- textus (lot. "to'qima, matn")
- -alite (fr. abstrakt sifat yasovchi qo'shimcha) [1].

Demak, intertekstuallik "matnlar o'rtasida" mavjud bo'lgan munosabat, bog'liqlikni ifodalaydi.

Kristeva intertekstuallikni semiologik tahlil obyekti sifatida ko'radi. Uning fikricha, matnning ma'nosi uning boshqa matnlar bilan bog'liqligidan kelib chiqadi. Bu poststrukturalistik yondashuv matnning avtonomiyasini inkor qiladi va uni ochiq, doimiy ravishda o'zgarib turuvchi hodisa sifatida tasvirlaydi.

Kristeva fikricha, matn faqat boshqa matnlar orqali ma'no hosil qiladi. Bu "matnlararo maydon" (champ intertextuel) tushunchasini yaratdi. Har bir matn bu maydonda joylashgan va boshqa matnlar bilan dialog olib boradi. Kristeva bu g'oyani Mikhail Baxtining "dialogizm" nazariyasidan olgan, lekin uni semiologik jihatdan rivojlantirdi. Kristevaning yana bir muhim g'oyasi – transtekstuallik (transtextualité) tushunchasi. Bu har qanday matnning boshqa matnlarga bog'liqligini ifodalaydi. Keyinchalik Gerard Genette bu tushunchani yanada tizimlashtirdi.

Intertekstuallik tamoyillari ko'plab olimlar tomonidan turli jihatlardan tahlil qilingan. Matn o'rtasidagi munosabatlar nafaqat filologlar, balki faylasuflar va madaniy ishlarga juda qiziqqan odamlar uchun ham qiziq edi. Intertekstuallik bilan bog'liq monografik tadqiqotlar XX asrning oxirgi o'n yilligida paydo bo'lgan. (Milovidov asarlari 1998; Smirnov 1995; Tolochin 1996; Ostin 1995; Fateeva 2000) [8].

Intertekstuallik haqida nashr qilingan asosiy asarlar ushbu toifadagi matn ostida tahlil qilinadi. Xususan, Avtovo, Andreeva, Bashkatova, Bushmanova, Galina, Goncharova, Guz, Zverkova, Malysheva, Pagina, Kamovnikova, Satredinova, Stepanova, Trosnekov, Fomicheva, Barbel, Gnibel, Landfestov, Vays [9] va boshqalar nasriy va she'riy asarlardagi intertekstuallik turlarini tahlil qildilar.

Muhokama va natijalar. So'nggi ishlarda intertekstual birliklar so'zma-so'z matn bilan bog'liqligi tasdiqlangan: Mixaylova, Suprun, Chernyavskaya va Jeykobs ilmiy matnlarda intertekstuallikni o'rganishdi, Zemskeya, Sandalova, Suprun, Uskova, Janich, Ropier, Troschina ommaviy matnda intertekstuallikni o'rganishdi va Suprun ish matnini tahlil qilishdi, shuningdek, siyosiy, hazil, pedagogik va diniy nutqlardagi intertekstual elementlarning ko'rinishi ham turli mualliflar tomonidan o'rganildi. Intertekstuallik, shuningdek, mikrotekst sifatida, aniq aforizmlar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotchilar intertekstuallik tamoyilini turli jihatlardan o'rganishdi.

Ushbu sohada intertekstni tushunish va tiklashda R. Bart, M. Riffaterre, E. Ropier taqiqot olib borgan, X. Blum so'zma-so'z matn yaratishda uning muallifga ta'sirini o'rgangan, bundan tashqari Janet, N. H. Fateeva va P. X. Trop kabi mualliflar intertekstuallikning turi va funksiyasini o'rgangan. Qisqa tadqiqotlarimizda tavsiflovchi tahlil, sintez va taqqoslanadigan usullardan foydalangan holda, biz zamonaviy tilshunoslikda intertekstuallikning o'rni to'g'risida tadbiq qilingan asarlarni tahlil qilamiz.

Hozirgi kunda tilshunoslik va adabiyotda intertekst va intertekstuallik tushunchasi va ularning tipologiyasini o'rganishga qaratilgan ko'plab ishlar mavjud. Biroq, aksariyat hollarda ushbu kontsepsiyaning aniq va qisqacha ta'rifi mavjud emas. Uzoq vaqt davomida o'rganilgan intertekst hodisasi filologiya, adabiyot va madaniy sohalarni o'rganish obyekti bo'ldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, matndagi matnlararo munosabatlar turlari o'rtasida farqlar mavjud. Ayniqsa, matnlarning o'aro ta'sirini o'rgangan fransuz filologi J.Janet matnlarning o'zaro ta'sirini 5 guruhga keng ajratdi va quyidagicha tushuntirdi [10].

Intertekstuallik. Bu yo'nalishda bitta matnda boshqa matnlarni kuzatdi;

Paratekstuallik. Bu so'zma-so'z matn sarlavhasi va epigraf va yo'qolgan so'z o'rtasidagi bog'liqliklardan kelib chiqadigan hodisa;

Metatekstuallik. Bu matn va aniq parchaning dialogli ta'siri;

Gipertekstuallik. Parodiya yordamida ma'lum matnni o'zgartirish;

Arxiotekstuallik. Matnlar orasida janrning mavjudligi.

J. Janett tomonidan berilgan tavsif boshqa tilshunos olim asarlarida kuzatilmagan. Matnlar orasidagi munosabatni o'rgangan yana bir qancha tadqiqotchilar yuqorida aytib o'tilgan barcha voqealarni intertekstuallik kontseptsiyasi ostida birlashtirdilar.

Intertekstuallik tamoyilining nazariy asosi Tinyanov, Baxtin, Kristeva, Fomicheva, Smirnov, Fateeva, Stepanov, Shaxovskiy, Shirova, Axmanova, Gyubennet, Valgina, Babenko asarlari tadqiqotlari asosida yaratilgan. Ularning ishlari intertekstuallikning mohiyati va uning bir qancha asosiy jihatlarini qamrab olgan.

Tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida intertekstuallikni nomlashda turli xil farqlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Ba'zi asarlarda intertekstuallik ikkita so'zma-so'z matnning aloqasi yoki ikki xil yozuvchi ijodidan foydalanish sifatida izohlanadi. Ushbu aloqani so'zma-so'z matnning umumiy tarkibida, bosh qahramonning xususiyatlarida yoki eskizni (rasmni) tavsiflashda ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan, matnlarda intertekst sifatida keltirilgan iqtiboslar joy va vaqt holatiga va matnning pragmatik holatiga qarab o'zgarishi mumkin. Y. Kristevaning intertekstuallik atamasini kiritgan fikrlariga ko'ra, har bir matn mos ravishda kamida ikkita kod bilan kesib o'tadi. Va bu kodlar ikkitadan ortiq matn deb hisoblanadi.

Y. Kristevaning fikricha, uning ishida har bir matn qo'shtirnoq belgisining to'liq yakunlanishi sifatida baholanadi [1]. Ammo ular bir joyda qatlamlanmagan, asosan ular turli matnlar va dialoglar bilan birlashtirilgan bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bitta matn boshqalar bilan kuchli aloqaga ega va bu matnlar orasida umumiy madaniy kodlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Masalan, mumtoz adabiyot namunalariga e'tibor beradigan bo'lsak, Qur'on sahifalari asosida yaratilgan ko'plab namunali kitoblarni ko'rishimiz mumkin. Bu Sharq adabiyotining o'ziga xos xususiyati. G'arb adabiyotiga kelsak, Muqaddas Injil kabi kitoblar ilhomlantirgan yuzlab asarlar mavjud. Bu qabul qiluvchining matn parchasidagi diniy va madaniy kelib chiqishini ko'rsatadi. Agar bu usul adabiy matnlardagi intertekstuallik mexanizmlarini tahlil qilishda hisobga olinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Intertekstuallikni nomlashning xilma-xilligi to'g'risida turli xil qarashlar mavjud. Ayniqsa, V.V.Zadornova "badiiy matnni tushunish va talqin qilish" risolasida intertekstuallikni "filologik kontekst" deb nomlagan. U "filologik kontekst"ni qisqa ma'noda batafsil ajratdi, u "filologik kontekst"ni badiiy matnning chalkash qismiga yordam beradigan so'zlarning yana bir usul deb baholadi. Bunday holda matnni to'liq tushunish filologik yoki tarixiy filologik xarakterga ega bo'lishi kerak. Uning parodiya janrida keng qo'llanilishini payqashimiz mumkin.

N.A.Kuzmina intertekstni til manbai sifatida baholadi va 3 qismga ajratdi [1]:

1. Vaqt
2. Inson
3. Matn

Biroq, keyinchalik N.A.Kuzmina intertekstning kelib chiqishi ko'rib chiqdi va u birinchi marta rus an'anaviy tilshunosligida paydo bo'lganligini aniqladi. Rus psixolingvisti Potebniyning fikricha, til insonga dunyoni idrok etishga yordam beradi. Poetik qahramonlar, shubhasiz, muhim rol o'ynaydi. Insoniyatga azaldan ma'lum bo'lgan rivoyatlar, afsonalar, matal va maqollar ular ongida poetik obraz sifatida shakllangan. Ularning matn matnlari intermatn sifatida lingvistik asosiga va matnning idrokiga ta'sir qiladi.

Shunday qilib, intertekst tushunchasi hozirgi paytda tadqiqot uchun juda muhimdir. Aynan intertekst asosida matnli "ustunlik" paydo bo'ldi, uning asosini presedent matn toifalari va Supermatn nazariyasi tashkil etadi. Dunyoga mashhur asarga ishora qiziqishni uyg'otadi va yoritilayotgan muammo

atrofida muallif uchun zarur bo'lgan jalb Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" nomli buyuk asari zamonaviy xabarlarda boshqacha talqin qilinadi: "Ko'paytirish va jazolash"; "Jinoyatchilik va qamchilash" va boshqalar. Bunday publisistik allyuziya jurnalistlar tomonidan o'z o'quvchilari etuvchi muhitni yaratadi.

Xulosa. Demak, ushbu obyektlar nafaqat bir-biri bilan aloqa qiladi, balki o'quvchida ham matndagi o'zaro bog'liq voqealar tabiati haqida tasavvur uyg'otadi. Bunday aloqaning tuzilishi tarixiy, ijtimoiy, ilmiy yoki falsafiy bo'lishi mumkin. intertekst, xuddi allyuziya singari, asl matn bilan va ishora qilingan yoki havola qilingan matnlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qahramonning ismi metafora shaklini oladi. Shunday qilib, intertekstuallik stilistik va lingvistik nutqning muhim tushunchasidir. "Ishora" tushunchasidan "intertekst" tushunchasi tug'iladi va allyuziya asl matnda olib boradigan ma'noga muvofiq rivojlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Kristeva J. *Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman // Critique.* – Paris, 1967. – T. 23. – №239. – P. 438-465.
2. Xomidova M. *Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik: Filol. fan. fals. dok. (PhD) diss.* – Toshkent, 2021. – 156 b.
3. Culler J. *Presupposition and Intertextuality // MLN.* – 1976. – Vol. 91. – No. 6. – P. 1380–1396.
4. Beaugrande R.A., Dressler W. *Introduction to Text Linguistics.* – London; New York, 1981. – 286 p.
5. Mikhail Bakhtin *Questions of Literature and Aesthetics.* – Moscow: Iskusstvo, 1979. – 424 p.
6. Chernyavskaya V.E. *Polycodedness. Intertextuality. Interdiscursivity.* – Moscow: Librocom, 2009. – 248 p.
7. Dolzhich E.A. *Intertextuality in Modern Scientific Discourse.* – Germany: LAP LAMBERT Academic Publishing, 2012. – 192 p.

*Ruziev Yarash Bozorovich,
Assoziierter Professor des
Lehrstuhls für deutsche Philologie
der Staatlichen Universität Buchara,
(Usbekistan)
E-mail: yarashruziev@gmail.com*

KRITERIEN UND FORMEN DER REDEWIEDERGABE IM DEUTSCHEN UND ITALIENISCHEN

Annotatsiya. Mazkur maqolada nemis va italyan tillarida hozirgacha tadqiq qilingan o`zlashtirmalik hodisasining yuzaga kelish usullari asosiy va yondosh sohalari doirasida tahlil qilinadi. O`zlashtirmalik murakkab lingvistik hodisa bo`lib, uning hosil bo`lishi sintaksis, semantika va pragmatika elementlarining turli nuqtalarda kesishuviga bo`g`liq. Eng ko`p o`rganilgan o`zga nutq turlarining kanonik shakllari bo`lgan ko`chirma, o`zlashtirma va o`ziniki bo`lmagan ko`chirma nutqdan tashqari ularning variantlari, oraliq shakllari va o`zlashtirmalikning boshqa holatlarini iloji boricha to`liq qamrab olishni istasak, bu sohalarni bir-biridan ajralgan holda tasvirlab bo`lmasligini tushunishimiz lozim.

Kalit so`zlar: ko`chirma nutq, o`zlashtirma nutq, fikr, gap, so`zlovchi, nutqiy amal, xabar manbai.

Abstract. Der vorliegende Beitrag berücksichtigt die im Überblick genannten Darstellungsweisen und untersuchten Teilgebiete der Redewiedergabe am Beispiel des Deutschen und Italienischen. Redewiedergabe ist ein komplexes sprachliches Phänomen, dessen Erscheinungsformen sich aufgrund der verschiedenen Kombinationen aus Elementen der Syntax, Semantik und Pragmatik ergeben. Es wird davon ausgegangen, daß sich diese Bereiche nicht getrennt voneinander darstellen lassen, will man über die kanonischen Formen der am häufigsten untersuchten Redewiedergabearten direkte, indirekte und erlebte Rede hinaus möglichst viele ihrer Varianten, Zwischenformen und weitere Fälle von Redewiedergabe erfassen.

Keywords: direct speech, indirect speech, the opinion, the sentence, the speaker, the speech act, speech introduction

Abstract. This article considers the representational methods and examined sub-areas of speech reproduction presented in the overview in German and Italian. Furthermore, by addressing the entire complex of speech reproduction in a German-Italian language comparison, it largely breaks new ground. Speech reproduction is a complex linguistic phenomenon whose manifestations arise from the various combinations of elements of syntax, semantics, and pragmatics. It is assumed that these areas cannot be represented separately if one wants to encompass as many of their variants, intermediate forms, and other cases of speech reproduction as possible, beyond the canonical forms of the most frequently studied speech reproduction types: direct, indirect, and experienced speech.

Stichwörter: direkte Rede, indirekte Rede, die Meinung, der Satz, der Sprecher, der Redeakt, die Redeeinleitung.

Einleitung. Da der Begriff Redewiedergabe verschieden interpretiert werden kann, soll die hier zugrunde liegende Auffassung im Folgenden näher erläutert werden. Hierbei sind einige Erklärungen dazu notwendig, welche Erscheinungen Redewiedergabe umfaßt bzw. welche ausgegrenzt werden müssen.

Zunächst sind sowohl der deutsche Terminus als auch seine italienische Entsprechung *discorso riportato* bzw. *discorso riferito* irreführend, da es sich nicht ausschließlich um tatsächlich geäußerte "Rede" handelt [1, 14]. Bei Redewiedergabe ist vielmehr davon auszugehen, daß es sich um einen sprachwissenschaftlichen Terminus handelt, welcher als solcher auf Erscheinungen referiert, die in letzter Instanz sprachlich-formal und nicht außersprachlich-inhaltlich definiert sind. Das bedeutet: Für die Qualifizierung Redewiedergabe ist es unerheblich, ob es die 'wiedergegebene' Rede tatsächlich gegeben hat (oder auch: noch geben wird) oder nicht; und es ist unerheblich, ob das, was wiedergegeben wird,

wirklich Rede ist oder ob es sich vielmehr zum Beispiel um bis dahin unausgesprochen gebliebene Gedanken oder Gefühle handelt.

Hauptteil. In dieser Erklärung werden die wesentlichen Merkmale angesprochen:

1. "Rede" bedeutet nicht nur, daß eine wirkliche Äußerung, z. B. die Weihnachtsansprache des Bundeskanzlers, vorliegt, die dann kurz darauf in einer Zeitung wiedergegeben wird. Wenn man von einem solchen Idealfall absieht, ist in den meisten Fällen wohl eher davon auszugehen, daß der Redewiedergabe oft keine originale Rede zugrunde liegt.

2. Um Rede wiedergeben zu können, muß sie nicht unbedingt früher stattgefunden haben. Es können neben vergangenen Reden auch gegenwärtige und zukünftige, ja sogar fiktive, gedachte oder auch nicht stattgefundene Reden wiedergegeben werden.

Der folgende Beleg steht für eine zukünftige, damit zugleich auch fiktive und gedachte Rede, was aus der entsprechenden Redekennzeichnung hervorgeht:

(1) Andererseits, wenn er den Jungen einfach zurückschickte...? Wer weiß es könnte einen ungünstigen Eindruck machen, man würde vielleicht reden, Gerüchte könnten entstehen: Baldini sei unzuverlässig geworden, Baldini bekomme keine Aufträge mehr, Baldini könne nicht mehr zahlen [...] (Parfüm 79)

Der reedeinleitende Satz des nächsten Belegs kündigt eine nicht geäußerte, vergangene Rede an:

(2) Io non ho mai preteso che le donne fossero piú buone degli uomini, che per bontà meritassero di non morire. (Bambino 41)

3. Aus dem bisher Gesagten geht hervor, daß mit "Rede" eben nicht nur Äußerungen gemeint sind, sondern auch Meinungen, Gedanken, Wahrnehmungen usw. Kaufmann [9, 19] spricht in diesem Zusammenhang von "innerer Rede", die er der geäußerten Rede gegenüberstellt: Den lautlichen Äußerungen läßt sich eine Art "innere Rede" gegenüberstellen, die nicht "laut" wird und bei der Urheber und Empfänger der Rede ein und dieselbe Person sind. Erwähnung innerer Rede, jenes Hin- und Widerspiels von Gedankenabläufen, eignet sich besonders zur Charakterisierung geistiger und psychischer Phänomene: Annahmen, Einfälle, Gedanken, Meinungen, Vorstellungen, Bewußtseinsinhalte, Erkenntnisse und Einsichten, Gefühle, Hoffnungen und Befürchtungen, Erwartungen und Ahnungen [9, 19].

Kaufmanns weite Auffassung, Redewiedergabe beinhalte auch "innere Reden", findet nicht überall in der Fachliteratur Zustimmung. Gülich [6, 57] z. B. kritisiert, daß bei der Wiedergabe von Annahmen, Einfällen usw. nicht ausdrücklich auf eine sprachliche Handlung Bezug genommen wird, sondern nur auf kognitive Einstellungen oder Vorgänge. Obwohl sie zugibt, daß diese Fälle nicht eindeutig ausgegrenzt werden können, lehnt sie letztendlich ihre Zugehörigkeit zum Bereich der Redewiedergabe mit folgender Begründung ab: Solche [kognitiven] Einstellungen, also z. B. Meinungen, Wünsche oder Bedürfnisse, können Handlungen (und damit natürlich auch sprachliche Handlungen) verursachen, sie selbst sind jedoch keine sprachlichen Handlungen [6, 57].

Würde man diese Ansicht teilen, so wären beispielsweise die folgenden Fälle von Gedankenwiedergabe in indirekter Rede und in erlebter Rede und ebenso entsprechende Darstellungen in direkter Rede oder im Redebericht aus dem Bereich der Redewiedergabe auszuschließen:

(3) Hatte sie [Madame Arnulfi] allerdings bei ihren Er-kundigungen den Eindruck gewonnen, der Pomademarkt sei übersättigt und werde sich in absehbarer Zeit nicht zu ihren Gunsten verknappen, so eilte sie wehenden Schleiers nach Hause. (Parfüm 200)

(4) "E' quello che finirò per fare" ella [Carla] disse con una certa teatrale decisione; ma le pareva di recitare una parte falsa e ridicola; così, era quello l'uomo a cui questo pendio di esasperazione l'andava insensibilmente portando? Lo guardò. (Indifferenti 7)

Meiner Meinung nach kann es sich auch bei einer inneren Rede um einen kommunikativen (Sprech-) Akt verstanden als eine Form von Kommunikation mit sich selbst handeln, der dann durchaus wiedergegeben werden kann.

Gegen Gülichs Ausgrenzung richtet sich ebenfalls Mortara Garavelli [11, 49] mit der rhetorischen Frage: "E l'autocomunicazione non è, a sua volta, un atto comunicativo, ove destinatario e destinatario coincidono nella stessa persona 'reale', ma rappresentano pur sem-pre funzioni distinte?", d. h., auch hier wird die Kommunikation mit sich selbst, zu der die kognitiven Einstellungen gehören, als Sprechakt gewertet und zur Redewiedergabe gerechnet.

Der Bereich der Gedankenwiedergabe wird in den entsprechenden Kapiteln dieser Arbeit insbesondere in denen zum inneren Monolog und zur erlebten Rede wieder aufgegriffen. An dieser Stelle soll nur betont werden, daß ich die Wiedergabe von Einfällen, Wahrnehmungen usw. aus dem Begriff Redewiedergabe nicht grundsätzlich ausklammere.

Der Einfachheit halber sollen im folgenden die Bezeichnungen Rede bzw. Redewiedergabe als Sammelbegriffe für Äußerungen, Gedanken und Wahrnehmungen bzw. deren Wiedergabe gebraucht werden. Entsprechend wird unter Sprecher nicht nur die Person (Figur) verstanden, die etwas laut äußert, sondern auch eine denkende oder wahrnehmende Person. Auch der Begriff 'Kommunikationssituation' soll Gedanken und Wahrnehmungen beinhalten.

Redewiedergabe im kommunikativ-pragmatischen Sinne bedeutet, daß zwei Kommunikationssituationen oder -ebenen vorliegen, die miteinander verknüpft sind. Unter 'Kommunikationssituation 1' soll die des Urhebers der Rede, also des ursprünglichen Sprechers (= Sprecher 1), verstanden werden. Seine Rede wird in einer zweiten Kommunikationssituation wiedergegeben, und zwar durch den referierenden Sprecher (= Sprecher 2). Der referierende Sprecher kann dabei sowohl eine fremde Rede als auch seine eigene Rede wiedergeben. Sind Sprecher 1 und 2 identisch, so müssen für das Vorliegen zweier Kommunikationsebenen zwei verschiedene Sprechzeiten existieren, d. h., die Originalzeit und die Wiedergabezeit dürfen nicht simultan verlaufen.

Zusammenfassend läßt sich mit Fabricius-Hansen [3, 161] festhalten:

Unter Redewiedergabe oder Referat wird die Wiedergabe von Äußerungen, Reflexionen oder anderen Bewußtseinsinhalten einer Person P zu einer Zeit Z durch eine andere Person P' oder die gleiche Person zu einer anderen Zeit verstanden.

Das Vorhandensein zweier Kommunikationssituationen bedeutet demnach, daß entweder verschiedene Sprecher oder bei Sprecheridentität verschiedene Sprechzeiten vorliegen. Daher bereiten die Fälle von Redewiedergaben mit einer Redeeinleitung in der 1. Person Singular Indikativ Präsens Aktiv (im Folgenden 1. Pers. Präs.) gewisse Schwierigkeiten. Ist in diesen Fällen die Trennung der Kommunikationssituationen nicht gegeben, so handelt es sich nicht "um einen Wiedergabe-Akt, sondern um einen performativen Sprechakt oder die unmittelbare Mitteilung eigener Reflexionen o. ä."

Nicht zur Redewiedergabe zu rechnen sind also Fälle von "Erstrede" [12] in erster Linie mit der 1. Pers. Präs. eingeleitete direkte oder indirekte Rede, in denen "der Sprechende keine Rede aus einer anderen Sprechsituation ("Sprechsituation 1") erwähnt, sondern sich selbst als Autor einer Rede einführt, die er in unmittelbarem Anschluß daran realisiert" [9, 22]. Die Tätigkeit des Sprechens und die Darstellung des Redeinhalts verlaufen simultan, und es liegt keine Redewiedergabe vor, sondern nur ein performativer Sprechakt:

Ich sage: "Das ist wahr."

Ich sage, daß dies wahr ist.

Dico: "Questo è vero."

Dico che questo è vero.

Andererseits existieren jedoch auch solche Fälle mit der 1. Pers. Präs., in denen die Kommunikationssituation der ursprünglichen Rede und die des Wiedergabeaktes unabhängig voneinander dargestellt sind. Damit die Trennung der Kommunikationsebenen gewährleistet ist und somit eine Redewiedergabe vorliegt, muss das Verb des RES bestimmte Merkmale aufweisen. [8, 102-104] stellen mehrere "Sonderbedingungen" auf, unter denen nach der 1. Pers. Präs. indirekte Rede vorliegt. is. Ich übernehme diese Bedingungen nur insoweit, als sie für das Vorliegen von Redewiedergabe allgemein von Bedeutung sind: Die folgenden Merkmale, die einzeln oder kombiniert vorkommen, beziehen sich auf einen RES, der direkte und indirekte Rede gleichermaßen einleiten kann:

1. Das Präsens des RES ist als historisches Präsens aufzufassen:

(5) Doch der Studienrat lehnte ab und vertröstete den Ballettmeister auf einen späteren Zeitpunkt: Jenny sei noch zu kindlich unentwickelt. Da trete ich auf dem Pausenhof an den Studienrat Oswald Brunies heran. Ich sage: >>Herr Studienrat, wie hieß denn der Ballettmeister?<<< (Hundejahre 259)

(5') Allora io, nel cortile della ricreazione, mi avvicino al professor Brunies. Io dico: "Signor professore, come si chiamava il maestro di balletto?" (Ubs. 257)

2. Das Präsens des RES hat futurische Bedeutung:

(6) Natürlich denkt so eine gute Vereinsvorsteherin, fünfzig Mark sind eine nette Summe. Aber wenn ich ihr dann meine Schminkrechnung zeige und ihr erzähle, daß ich zum Trainieren ein Hotelzimmer brauche [...] (Clown 37)

(6') [...] e se le spiego che per fare i miei esercizi ho bisogno di una camera d'albergo (Übs. 42)

3. Das Verblexem drückt aus, daß der Redeinhalt rezipiert wird. Häufig verwendete Verben sind z. B. hören, erfahren, lesen.

Ich erfahre, daß Peter nicht kommt.

Vengo a sapere che Peter non viene.

4. Der RES ist negiert:

(7) Andando in giro per Venezia al fianco di Chiara mi sento sempre sbilanciata, è come camminare con una scarpa senza tacco (io) e l'altra con un tacco di quindici centimetri (lei). Non dico che abbia tutti i torti, ma è faticoso condividere le sue estasi per la minima vera di pozzo... (Amante 31)

(7') Ich sage ja nicht, daß sie nicht recht hat... (Übs. 31)

5. Im RES steht ein Modalverb; im folgenden Beleg ist das Modalverb *potere* noch zusätzlich negiert:

(8) Forse qualcuno ci guardò davvero, questa volta, ma non posso dire che mi sentissi imbarazzata. (Amante 82)

(8') Vielleicht sah uns diesmal wirklich jemand zu, aber ich kann nicht sagen, daß ich verlegen gewesen wäre. (Übs. 95)

6. Tritt keines der genannten Merkmale hinzu, kann auch eine wiederholte Rede vorliegen:

(9) Ubertino sorrise anch'egli e lo minacciò col dito: "E guardati dall'abbazia. Questo luogo non mi piace." "Voglio appunto conoscerlo meglio," disse Guglielmo congedandosi, "andiamo Adso." "Io ti dico che non è buono, e tu dici che vuoi conoscerlo. Ah!" disse Ubertino scuotendo la testa. (Nome 71)

(9') "Ich sage dir, daß mir der Ort nicht gefällt, und du erwidert, du möchtest ihn besser kennenlernen! Ah!" sagte Ubertin kopfschüttelnd. (Übs. 87)

In diesem Beleg wäre der Satz *Io ti dico che non è buono* isoliert betrachtet eine Erstrede. Da das im Vorkontext Gesagte jedoch noch einmal mit anderen Worten wiederholt wird, liegt eine Redewiedergabe vor.

Zusammenfassend läßt sich zum hier zugrundegelegten Verständnis des Begriffs Redewiedergabe festhalten: Von den problematisch scheinenden Fällen 1. Redeeinleitung mit 1. Pers. Präs. und 2. kognitive Einstellungen wurde einerseits die Erstrede aus dem Bereich der Redewiedergabe ausgeschlossen, andererseits wurden die kognitiven Einstellungen dazugerechnet. Demnach bedeutet Redewiedergabe das Wiedergeben von tatsächlichen, zukünftigen oder fiktiven Äußerungen, Gedanken und Wahrnehmungen eines ursprünglichen Sprechers zu seiner Originalsprechzeit durch einen referierenden Sprecher in dessen Sprechzeit (=Wiedergabezeit); der referierende und der ursprüngliche Sprecher können auch identisch sein.

Kennzeichen der Redewiedergabe. Diskussion. Da es sich bei Redewiedergabe um ein recht komplexes sprachliches Phänomen handelt, stellen sich einige Probleme für ihre linguistische Beschreibung. Üblicherweise wird eine linguistische Untersuchung einem bestimmten Teilgebiet der Sprachwissenschaft zugewiesen, etwa der Phonetik, Morphologie, Syntax, Semantik oder Pragmatik. Im Bereich der Redewiedergabe zeigt sich aber, daß diese Ebenen nicht voneinander getrennt werden können, will man beschreiben, mit welchen Mitteln die angesprochenen Möglichkeiten der Verknüpfung der beiden Kommunikationssituationen kenntlich gemacht werden. In der Folge lassen sich die einzelnen Redewiedergabearten nur als Kombination von syntaktischen, semantischen und kommunikativ-pragmatischen Merkmalen begreifen:

Redewiedergabe wird in der Regel durch eine Kombination von verschiedenen Gruppen (von Merkmalen) gekennzeichnet. Mit Hilfe der Kombinationsmöglichkeiten lassen sich verschiedene Typen von Redewiedergabe unterscheiden. Auf diese Weise werden differenziertere Charakterisierungen vorkommender Fälle von Redewiedergabe möglich als durch die traditionelle Unterscheidung zwischen direkter und indirekter Rede. Unter Berücksichtigung der wechselseitigen Abhängigkeit der genannten Ebenen werden im Folgenden solche Merkmale beschrieben, die 1. das Erkennen von Redewiedergabe im Textzusammenhang ermöglichen und 2. zugleich der Differenzierung einzelner Redewiedergabeformen dienen.

Die entscheidenden Merkmale für das Vorliegen einer Redewiedergabe und für die Typologisierung der Redewiedergabeformen liegen zum einen auf der syntaktischen Ebene, zum anderen auf der deiktischen Ebene:

Charakteristisch für die jeweilige Redeform ist neben dem Vorhandensein oder Nicht-Vorhandensein eines einleitenden Satzes die deiktische Orientierung der Tempora, der lokalen und temporalen deiktischen Adverbien sowie der Pronomina.

Der besondere Stellenwert der Redeeinleitung und die Veränderung der personalen, zeitlichen und lokalen Deixis für die Beschreibung der Formen der Redewiedergabe ist allgemein anerkannt. Daher wird der Redeeinleitung und der Deixis im Folgenden besondere Beachtung geschenkt. In einem weiteren Schritt soll dann anhand des Modells von Plank [13] die Verbindung von syntaktischer Ebene (Grad der Abhängigkeit der Rede von einer Redeeinleitung) und deiktischer Ebene vorgeführt werden. Es wird sich zeigen, daß für eine vollständige Beschreibung der Redewiedergabe weitere Ebenen wie die Textebene und die graphische Ebene hinzukommen müssen, deren Elemente ebenfalls Aufschluß über das Vorliegen einer Redewiedergabe geben können.

Da die genannten Merkmale grundlegende bzw. übereinzelsprachliche Indikatoren der Redewiedergabe sind, gelten sie für das Deutsche und das Italienische gleichermaßen. Dadurch, daß die Kennzeichen und ihr Zusammenspiel anhand konkreter Einzelbeispiele vorgestellt werden, läßt es sich nicht vermeiden, bereits hier auf einige einzelsprachliche Realisierungen beider Sprachen einzugehen und gelegentlich der eigentlichen Charakteristik der Redewiedergabeformen vorzugreifen.

Die Redeeinleitung. Es wurde bereits gesagt, daß das Vorhandensein einer Redeeinleitung bzw. deren Fehlen eines der wesentlichen Kriterien für die Unterscheidung einzelner Formen der Redewiedergabe ist. Die Redeeinleitung erleichtert das Erkennen einer Redewiedergabe, da in ihr Informationen zur Kommunikationssituation gegeben werden, also Auskünfte über die Sprecherrollen, die Sprechhandlung und die Sprechsituation. In der Redeeinleitung müssen jedoch weder alle kommunikativen Informationen ausgedrückt sein, noch muß sie unbedingt Satzhaftigkeit besitzen, d. h., das Prädikat kann fehlen (er zu mir; so die FAZ).

Wenn die kommunikativen Informationen außerhalb der Grenze des Satzes stehen, in dem die Redewiedergabe formuliert wird, spreche ich im Folgenden von Redekennzeichnung oder Redehinweisen. Enthält die Redeeinleitung dagegen ein Verb mit der kommunikativ-pragmatischen Bedeutung 'Sprechhandlung', bevorzuge ich die präzisere Bezeichnung 'redееinleitender Satz' (kurz: RES). Syntaktisch gesehen ist die wiedergegebene Rede dem RES untergeordnet. Von einem RES (er befahl mir... / mi ordino...) hängen üblicherweise direkte Rede, indirekte Rede und die Infinitivkonstruktion ab. Demgegenüber zeichnet sich z. B. die erlebte Rede für gewöhnlich durch das Fehlen eines RES aus.

Kommunikativ-pragmatische Merkmale. Zunächst werden die kommunikativen Informationen, die in der Redeeinleitung enthalten sein können, im einzelnen vorgestellt und mit Beispielen ihrer einzelsprachlichen Umsetzung im Deutschen und Italienischen illustriert.

1. Angaben über den ursprünglichen Sprecher. Der Urheber der Rede wird durch Nennung von Eigennamen oder Personalpronomina oder andere Referenzwörter wie Demonstrativ- oder Possessivpronomina bezeichnet:

Hans/er/dieser/sein Verhalten...

Hans/egli/questo/il suo comportamento...

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik va kognitiv fanlarda konsept tushunchasi inson ongini, tafakkurini va madaniy tajribasini o'rganishning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida keng e'tirof etiladi. Konsept shaxsning dunyo haqidagi bilimlari, tasavvurlari, farazlari va xotirasida shakllangan mental birliklarini ifodalaydi hamda til orqali ularning aks etishini ta'minlaydi. Shu sababli, konseptni o'rganish nafaqat lingvistik, balki psixologik, kognitiv hamda madaniy-hayotiy kontekstlarda tadqiqot olib borish imkonini yaratadi.

Konseptual tadqiqotlar tarixan o'zining dastlabki ildizlarini o'rta asrlardagi faylasuflar ishlanmalarida topadi. Keyinchalik XIX–XX asrlarda lingvistik va psixologik tadqiqotlar konseptni til va tafakkur, ong va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni tahlil qilish vositasi sifatida qabul qildi. XX asr oxiridan boshlab lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar konsept tadqiqotlarini yangi darajaga olib chiqdi, ularning asosiy vazifasi shaxsning til orqali dunyoni idrok etish jarayonini, mental birliklar va ijtimoiy-madaniy tajribalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlashdir.

Ushbu maqolada konseptual tadqiqotlarning genezisi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tilshunoslikdagi tadrijiy taraqqiyoti tahlil qilinadi. Shu bilan birga, konseptni ilmiy tadqiq etishning lingvokognitiv, psixolingvistik va lingvokulturologik yondashuvlari ko'rib chiqilib, ularning konseptning nazariy va amaliy ahamiyatiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Tadqiqotning mazmuniy ahamiyati shundaki, konseptni tizimli va integrativ nuqtai nazardan o'rganish til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni aniqlashga xizmat qiladi hamda kognitiv fanlarda yangi tadqiqot yo'nalishlarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Asosiy qism. Zamonaviy tilshunoslik va kognitiv fanlarda konsept tadqiqotlari dolzarb ilmiy masala hisoblanadi, chunki inson tafakkuri, til faoliyati va madaniy tajribani izchil o'rganishning asosiy vositasi sifatida konsept konseptual tahlilga muhtoj. Bugungi kunda globalizatsiya va madaniy almashinuv jarayonlari sharoitida milliy til va madaniyatni idrok etishning, shuningdek, inson bilimni tizimli va ko'p qirrali tarzda o'rganishning ahamiyati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan konsept tadqiqotlari insonning bilish jarayonlarini, madaniy qadriyatlarni va ijtimoiy-hayotiy tajribani ilmiy asosda aniqlash imkonini beradi.

Konsept tadqiqotlari lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar yordamida nafaqat til va tafakkur, balki til, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni ochib beradi. Shu bilan birga, konseptni tizimli o'rganish natijasida inson ongida shakllangan bilimlar tizimi, xotira va mental birliklarning funksional strukturalari aniqlanadi. Bu esa konseptologiyaning nazariy va amaliy sohalarida, xususan, tilshunoslik, psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslikda qo'llanilishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Shu bois konsept tadqiqotlarini chuqur o'rganish nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. U shaxsning bilish faoliyati, tafakkur va til faoliyatini yaxlit tarzda tahlil qilishga, milliy va global madaniyatlarni integrativ ravishda o'rganishga xizmat qiladi. Zamonaviy ilmiy izlanishlar konsept tadqiqotlarini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish, til va madaniyatni o'rganishda yangi metodologik platformalarni yaratish zaruratini ta'kidlamogda.

Jamiyat taraqqiyoti oddiydan murakkabga qarab izchil ravishda rivojlanib, uzluksiz o'zgarib boradi. Har bir fan taraqqiyoti ham muayyan bosqichlardan o'tib, takomillashish jarayonida yangi tadqiqot va tahlil usullarini o'zlashtiradi hamda keyingi rivojlanish bosqichlari uchun mustahkam zamin yaratadi. Xususan, antropotsentrik tamoyilning ilmiy muhokama doirasiga kirib kelishi ijtimoiy-gumanitar fanlar metodologiyasini tubdan yangilab, uni mutlaqo yangi yo'nalishga burib yubordi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur yondashuvning shakllanishi natijasida asosiy va yetakchi muloqot vositasi bo'lgan til fenomenini ijtimoiy hamda etnopsixologik hodisa sifatida o'rganish imkoniyati kengaydi. Tilning murakkab tizim ekanligi, shuningdek, til va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat, til va inson omili o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kabi muhim masalalarning ilgari surilishi mavjud nazariy manbalarni yangicha mezonlar asosida qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmogda.

Sh. Safarov tilshunoslikdagi paradigmalarning almashinuvida inson omilining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, sistem-struktur paradigma o'zidan oldin shakllangan qiyosiy-tarixiy paradigma doirasida til hodisalarining "atomistik", ya'ni alohida-alohida, o'zaro bog'liqlikdan uzilgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilgan. Mazkur yo'nalishning eng muhim yutug'i tilning yaxlit va tizimli hodisa ekanligini ilmiy asosda isbotlab berishdan iboratdir. Biroq har ikkala paradigma uchun umumiy bo'lgan muhim kamchilik ham mavjud bo'lib, ularning doirasida til o'z egasi – inson omilidan ajratilgan holda o'rganilgan. Aynan shu nuqsonni bartaraf etishga qaratilgan izlanishlar natijasida pragmatik va kognitiv tilshunoslik kabi yangi paradigmalar shakllandi.

F. de Sossyur tomonidan tilshunoslikka kiritilgan "paradigma" (yunoncha "namuna", "andoza") atamasi hozirgi kunda keng va tor ma'nolarda qo'llanilmoqda. Tor ma'noda u kategoriyalashgan til birliklarining mikro tizimini anglatadi, keng ma'noda esa muayyan metodologiyaga asoslangan ilmiy tadqiqot yo'nalishini ifodalaydi. Paradigma – bu ilmiy muammolarni hal etishda namuna vazifasini bajaruvchi nazariy, metodologik hamda aksiologik qarashlar tizimi bo'lib, u tadqiqot jarayonini yo'naltiradi va ilmiy bashorat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, paradigma muayyan davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan nazariy model sifatida ham talqin etiladi. Paradigmalarning

almashinuvi esa fan taraqqiyotida tub burilishlar, ya'ni ilmiy inqiloblarni yuzaga keltiradi hamda ilmiy faoliyatda shakllangan standartlar majmuasini o'zida mujassam etadi.

V.A. Maslovaning ta'kidlashicha, antropotsentrik tadqiqotlar paradigmasi doirasida til birliklarining nutqiy faoliyatdagi voqelanishini shaxs omili bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish tamoyillari shakllanib, izchil rivojlanib bormoqda. Tilshunoslikda ushbu paradigmaning yuzaga kelishi kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvopragmatika hamda lingvokulturologiya kabi yo'nalishlarning jadal taraqqiy etishiga kuchli turtki berdi.

Muhokama va natijalar. Ma'lumki, antropotsentrik yondashuv inson omili, uning tafakkuri, ruhiyati, hayot tarzi va faoliyati bilan bog'liq keng ko'lamli tadqiqotlarni qamrab oladi. Bu borada D. Xudayberganovanning "O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi muhim ilmiy ahamiyatga ega tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Mazkur ishda antropotsentrik paradigmaning kognitiv-semantik, psixolingvistik hamda lingvokulturologik jihatlari monografik asosda chuqur tahlil qilingan.

Olimaning qayd etishicha, XXI asrning dastlabki yillaridan boshlab o'zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma asosida olib borilgan tadqiqotlar keng ko'lamda shakllana boshlagan bo'lib, ular asosan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan: sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika, psixolingvistika, antropotsentrik paradigmaning umumiy nazariy masalalari hamda lingvokulturologiya.

Mazkur tushunchalar konsept bilan uzviy bog'liqdir. Zero, konsept milliy an'ana va folklor, din va milliy mafkura, hayotiy tajriba hamda san'atdagi timsollar, insonning his-tuyg'ulari va qadriyatlar tizimi kabi omillar ta'sirida shakllanadi. Olimlarning konsept haqidagi qarashlari xilma-xil bo'lishiga qaramay, ularning barchasi mazkur tushunchaning mohiyatini yanada to'liqroq yoritishga xizmat qiladi. Shuni inobatga olgan holda, konsept tushunchasi va uning turli ilmiy manbalarda berilgan talqinlariga qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, D. Xudayberganovanning fikricha, konsept ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilma bo'lib, u bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik hamda lingvokulturologik jihatlarni o'zida mujassam etadi. Bu esa konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekt sifatida keng o'rganilayotganidan dalolat beradi.

Shu bois konseptning tadqiqotchilar tomonidan subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy hamda badiiy konseptlar kabi turlarga ajratilishi yagona mohiyatga turli nuqtayi nazardan yondashuv sifatida baholanishi mumkin. Darhaqiqat, til tizimi aynan shunday ko'p qirrali xususiyatlarni o'zida mujassam etgan murakkab va serqatlam hodisalardan biri hisoblanadi.

Inson o'zini o'rab turgan borliqning har bir detalini muayyan tasavvurlar, fikrlar va tushunchalar orqali idrok etadi. Ana shu idrok jarayonini umumlashtiruvchi asosiy kategoriyalardan biri sifatida kognitiv tilshunoslik, umuman olganda kognitivistikaning markaziy tushunchasi – "konsept" e'tirof etiladi.

"Konsept" atamasi kognitiv-diskursiv terminologik tizimga mansub bo'lib, u til birliklari orqali ifodalanadigan, leksikografik hamda ensiklopedik ma'lumotlarni o'zida sintez qiluvchi murakkab bilimlar majmuasini anglatadi. Shu jihatdan u subyektning borliqni idrok etish jarayonida shakllangan bilimlarini yagona tizimga birlashtiradi.

Xususan, muayyan mavzu doirasidagi lisoniy birliklarni konsept sifatida tadqiq etish til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni chuqurroq anglash, ularni uyg'unlashtirish hamda tizimlashtirish imkonini beruvchi samarali lingvokognitiv platforma hisoblanadi.

Kognitiv yondashuv esa tadqiqot obyektini yaxlit holda ko'rib chiqish, leksik ma'nodagi tarkibiy qismlarni kengroq va chuqurroq talqin etish imkonini yaratadi. Zero, inson so'zlarni faqat ularning lug'aviy ma'nosi darajasida emas, balki ular ifodalovchi mazmun – ya'ni konseptlar darajasida o'zlashtiradi.

Kognitiv atamalar lug'atida kognitologiyaning funksiyasi quyidagicha izohlanadi: u turli bilim turlari haqidagi tasavvurlar strukturasi, shuningdek, nutqni hosil qilish va uni qabul qilish jarayonida bilimning konseptual qurilish usullarini o'rganadi.

Bugungi kunda "konsept" tushunchasi jahon tilshunosligida insonning borliq haqidagi bilimlarini aks ettiruvchi muhim vositalardan biri sifatida keng qo'llanilmoqda. Mazkur atama ilk bor o'rta asrlarda bir qator faylasuflar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, ularning talqiniga ko'ra, konsept

muayyan predmet va hodisalarning o'ziga xos belgilarini umumlashtiruvchi hamda inson ongida shakllanuvchi mental birlik sifatida izohlanadi.

Shu jihatdan konsept o'zida muhim va dolzarb axborotni mujassam etgan universal kategoriya hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar ushbu tushunchaga nisbatan turli yondashuvlar, talqinlar va ta'riflar mavjud bo'lib, bu esa uning murakkab va ko'p qirrali mohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

“Konsept” atamasi tilshunoslikda ilk bor S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u keyinchalik kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biriga aylandi. “Konsept” (lotincha *conceptus* – ma'no, mazmun, tushuncha) inson ongining murakkab mental tuzilmasi bo'lib, unda shaxsning hayotiy tajribasi, bilimlari, tasavvurlari va dunyo haqidagi qarashlari mujassam bo'ladi. U nafaqat til birliklari orqali ifodalanadigan ma'nolarni, balki inson xotirasi, tafakkuri va ruhiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bilimlar tizimini ham aks ettiradi. Shu bois konsept inson ongida shakllangan olam manzarasining konseptual modeli sifatida talqin qilinadi, ya'ni u shaxsning borliqdagi obyekt va hodisalarga oid tasavvurlari, mulohazalari, farazlari va bilimlarining umumlashgan ifodasidir.

Y.Y. Proxorov o'zining “V poiskax kontsepta” (“Konsept izlanishlarida”) nomli monografiyasida konsept tushunchasiga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjudligini alohida ta'kidlaydi. Jumladan, u konseptni turli olimlar tomonidan quyidagicha talqin qilinganini ko'rsatadi: lingvokognitiv hodisa (Kubryakova, 1996), psixolingvistik hodisa (Zalevskeya, 2001), abstrakt ilmiy tushuncha (Solomonik, 1995), madaniyatning asosiy birligi (Stepanov, 1997), shuningdek, lingvomadaniy hodisa (Slisshkin, 2000; Karasik, 2001).

Mazkur yondashuvlarning xilma-xilligi konseptning ko'p qirrali va serqatlam mohiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki konsept nafaqat til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi, balki u insonning individual va ijtimoiy tajribasi, milliy-madaniy qadriyatlarini hamda ruhiy olami bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab fenomen sifatida namoyon bo'ladi.

Odatda konsept tadqiqida lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar yetakchi metodologik asoslar sifatida e'tirof etiladi. Lingvokognitiv nuqtayi nazardan konsept inson ongining aqliy va ruhiy resurslari bilan bog'liq bo'lgan murakkab mental birlik sifatida talqin qilinadi. U shaxsning bilim va tajribasini aks ettiruvchi axborot strukturasi ifodalashga xizmat qilib, xotiraning operativ mazmuniy birligi, psixik leksika, ong tili (*lingua mentalis*) hamda konseptual tizimning ajralmas komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, konsept inson psixikasida shakllangan til va borliqning yaxlit, tizimli modelini ifodalaydi.

O.A. Kozyrevaning ta'kidlashicha, lingvokulturologik tadqiq obyektini kognitiv aspektda o'rganish yanada samarali ilmiy natijalarga erishish imkonini beradi. Bunday integrativ yondashuv tahlil qilinayotgan birliklarni til, madaniyat va tafakkurning o'zaro dinamik ta'siri mahsuli sifatida talqin etishga imkon yaratadi. Natijada, ularning milliy-madaniy xususiyatlari, semantik qatlamlari va konseptual mazmuni yanada chuqurroq ochib beriladi. Mazkur yondashuv konseptni nafaqat lingvistik birlik, balki ko'p o'lchovli kognitiv-madaniy fenomen sifatida o'rganishning innovatsion ilmiy asosini shakllantiradi.

Xulosa. Maqolada konseptual tadqiqotlarning genezisi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tilshunoslikdagi tadrijiy taraqqiyoti tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, konsept inson ongidagi bilimlar, tasavvurlar va mental birliklarni tizimli ravishda aks ettiruvchi asosiy ilmiy kategoriya sifatida shakllangan. Lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar konsept tadqiqotlariga yangi metodologik imkoniyatlar yaratib, til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, konsept tushunchasi tarixan o'zining dastlabki ildizlarini o'rta asrlardagi faylasuflar ishlanmalarida topgan bo'lsa-da, XX–XXI asrlarda lingvistik, psixologik va kognitiv fanlarda tadrijiy rivojlanib, inson bilim va tajribasini ilmiy izchil tahlil qilish vositasiga aylandi. Zamonaviy tadqiqotlar konseptni nafaqat til birliklari, balki ijtimoiy-madaniy va mental kontekstlarda o'rganishga e'tibor qaratmoqda.

Shu bilan birga, konsept tadqiqotlari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy nuqtai nazardan ham dolzarbdir. U til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi integratsiyalashgan tizimni aniqlash, milliy va global madaniyatlarni o'rganish, shuningdek, ilmiy va pedagogik jarayonlarda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish imkoniyatini beradi. Kelajakda konseptual tadqiqotlarning rivojlanishi kognitiv fanlar va tilshunoslik sohalarida yangi ilmiy yo'nalishlarni shakllantirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Козырева О.А. Когнитивные аспекты исследования лингвокультурологического поля (на материале поля «дом/жилье»): дисс... канд. филол. наук. – М., 2003. – С.35-36.
2. Попова З.Д., Стернин И.А. Язык и национальная картина мира. – Воронеж: Истоки, 2002. – 90 с.
3. Степанов Ю. С. Концепт // Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997. – С. 40-76.
4. Bahramova M.M. “Ayol” konseptosferasining verbalizatorlari va kognitiv tahlili: Filol.fanl.bo‘y.fals.dokt.diss.avtoref. Farg‘ona, 2023. – 52 b.
5. Ртищева О.В. Онтологические и гносеологические аспекты функционирования языковой картины мира: автореф. дис... канд. философ. наук: 09.00.01. Кемеровский гос. ун-т культ. и искусств. – Кемерово, 2006. – 24 с.
6. Маруфова З.Н. Мумтоз бадий матнларда “гўзаллик” концептининг вербаллашуви: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореферати. – Фарғона, 2022 – 52 б.
7. Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблемы когнитивной лингвистики: Сб. науч. тр. / Под ред. И.А.Стернина. – Воронеж: ВГУ, 2001. – С. 75-80.
8. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 90 с.

*Ro‘zimboyev Sarvar Saparboyevich,
RANCH universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
(O‘zbekiston)
E-mail: sarvarbek2109@gmail.com
Bahodirova Maftuna Bahrombek qizi,
Xorazm Ma‘mun akademiyasi tayanch doktoranti
(O‘zbekiston)
E-mail: maftunabahodirova0604@gmail.com*

STOMATOLOGIK KOSMETONIMLARING MAVZUIY-SEMANTIK GURUHLARI

Annotatsiya. Maqolada stomatologik kosmetonimlarning semantik motivatsiyasi, nominativ xususiyatlari hamda ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari onomastika va marketing lingvistikasi nuqtayi nazaridan kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda stomatologiya sohasida qo‘llanilayotgan kosmetonimlarning nomlanish tamoyillari, ularning iste‘molchi ongiga ta‘sir etuvchi lingvokognitiv omillari hamda reklama-estetik vazifalari yoritilgan. Shuningdek, kosmetonimlarning til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqligi, brend yaratishdagi o‘rni hamda nominatsiya jarayonidagi assosiativ birliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida stomatologik kosmetonimlar antroponimik, toponimik, fitonimik, tarkibiy-ilmiy, funksional-deskriptiv, rang-vizual va marketing motivli mavzuiy-semantik guruhlariga ajratildi. Ushbu tasnif stomatologik nomlarning semantik strukturasi ochib berish, ularning nominativ imkoniyatlarini aniqlash hamda zamonaviy marketing kommunikatsiyasidagi ahamiyatini baholashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: stomatologik kosmetonimlar, tish pastasi, semantik motivatsiya, brend, mavzuiy-semantik guruhlar, marketing nominatsiyasi

Аннотация. В статье комплексно анализируются семантическая мотивация, номинативные особенности и коммуникативно-прагматические функции стоматологических косметонимов с точки зрения ономастики и маркетинговой лингвистики. В исследовании рассматриваются принципы наименования косметонимов, используемых в стоматологической сфере, а также лингвокогнитивные факторы, влияющие на восприятие потребителя, и их рекламно-эстетические функции. Особое внимание уделяется взаимосвязи языка и культуры, роли косметонимов в формировании бренда, а также ассоциативным механизмам процесса номинации. В результате исследования стоматологические косметонимы были разделены на антропонимические, топонимические, фитонимические, структурно-научные, функционально-deskriptivные, цвето-визуальные и маркетингово-мотивированные тематико-семантические группы. Данная классификация позволяет раскрыть семантическую структуру стоматологических наименований, определить их номинативный потенциал и оценить их значение в современной маркетинговой коммуникации.

Ключевые слова: стоматологические косметонимы, зубная паста, семантическая мотивация, бренд, тематико-семантические группы, маркетинговая номинация.

Abstract. Abstract. The article analyzes the semantic motivation, nominative features, and communicative-pragmatic functions of dental cosmetonyms from the perspectives of onomastics and marketing linguistics. The study examines the naming principles of cosmetonyms used in the field of dentistry, as well as the linguocognitive factors influencing consumer perception and their advertising-aesthetic functions. Particular attention is paid to the relationship between language and culture, the role of cosmetonyms in branding, and associative mechanisms involved in the process of nomination. As a result of the research, dental cosmetonyms were classified into anthroponymic, toponymic, phytonymic, structural-scientific, functional-descriptive, color-visual, and marketing-motivated thematic-semantic groups. This classification contributes to revealing the semantic structure of dental names, identifying their nominative potential, and evaluating their significance in modern marketing communication.

Keywords: dental cosmetonyms, toothpaste, semantic motivation, brand, thematic-semantic groups, marketing nomination.

Kirish. Zamonaviy onomastika va marketing lingvistikasi doirasida mahsulot nomlarini o'rganish alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Kosmetik mahsulotlar, xususan og'iz bo'shlig'i gigiyenasi vositalari nomlari semantik motivatsiya, nominativ strategiya va iste'molchi kommunikatsiyasi nuqtayi nazaridan muhim tadqiqot obyekti. Stomatologik kosmetonimlar mahsulot tarkibi, funksiyasi, kelib chiqishi yoki ishlab chiqaruvchisi haqidagi ma'lumotni implisit yoki eksplisit tarzda aks ettiradi hamda iste'molchida muayyan gigiyenik, estetik va terapevtik assotsiatsiyalarni shakllantiradi.

Stomatologik kosmetonimlar tizimning alohida segmenti bo'lib, ko'p manbali semantik motivatsiyaga ega. Ular tarkibiy modda (BioMin, Chlorodont), funksional natija (Aquafresh, Sensodyne), tabiiy komponent (Babool, Meswak), rang-estetik belgi (White Glo) yoki shaxs nomi (Colgate) kabi turli nominativ asoslarda yaratiladi. Shu sababli stomatologik kosmetonimlarni mavzuiy-semantik guruhlariga ajratish ularning nominativ xususiyatlarini tizimli yoritish hamda kosmetik mahsulotlar nomlash tamoyillarini aniqlash imkonini beradi.

Asosiy qism. Tadqiqot natijasida stomatologik kosmetonimlar semantik motivatsiyasiga ko'ra quyidagi guruhlariga tasniflandi: 1) antroponimik motivli nomlar; 2) toponimik motivli nomlar; 3) fitonimik motivli nomlar; 4) tarkibiy-ilmiy motivli nomlar; 5) funksional-deskriptiv motivli nomlar; 6) rang-vizual motivli nomlar; 7) marketing motivli (sun'iy yasalgan) nomlar.

1. Antroponimik motivli nomlar. Antroponimik motivli nomlar shaxs nomi yoki familiyasiga asoslangan brendlarni qamrab oladi. Bunday nominatsiya mahsulotni uning yaratuvchisi yoki asoschisi bilan semantik jihatdan bog'lab, mualliflik, tarixiylik va ishonchlik konnotatsiyalarini yuzaga chiqaradi. Colgate. Brend nomi kompaniya asoschisi Uilyam Kolgeyt familiyasidan olingan [10]. Nom mahsulotni tarixiy an'ana va korporativ meros bilan assotsiatsiyalab, ishlab chiqaruvchining uzoq tajribasini implisit tarzda bildiradi.

Dauids. Dauids nomi asoschi Erik Devid Bass shaxs nomiga tayanadi [9]. Antroponimik model bu yerda individual mualliflik va tabiiy stomatologik vosita konsepsiyasini ifodalaydi.

Dr. Lyon's. Nom stomatolog Irvin Lyon familiyasiga asoslangan bo'lib [4], "Dr." komponenti professional maqomni bildiradi. Antroponimik nominatsiya bu holda tibbiy ekspertlik va ilmiy asoslanganlik semantikasini faollashtiradi.

Squibb. Squibb nomi amerikalik farmatsevt va tadbirkor Edward Robinson Squibb familiyasidan olingan [1]. Brend nomi ishlab chiqaruvchi shaxs identifikatoriga asoslangan bo'lib, mualliflik va farmatsevtik ishonchlik semantikasini yuzaga chiqaradi. Shu sababli antroponimik nominatsiya guruhiga kiradi.

K.P.Namboodiri. K.P.Namboodiri nomi Hindistonda mashhur ayurveda tabibi va shu nom bilan tanilgan sulola familiyasiga asoslangan [4]. Nom mahsulotni muayyan shaxs va an'anaviy tabobat maktabi bilan bog'lab, mualliflik va tarixiylik konnotatsiyasini yuzaga chiqaradi. Shu sababli u antroponimik motivli nominatsiya sifatida talqin qilinadi.

Dabur. Dabur nomi hind tilidagi *Daktar Burman* ("doktor Burman") birikmasining qisqartmasidan hosil bo'lgan bo'lib, brend asoschisi Burman familiyasiga ishora qiladi [4]. Nom mahsulotni muayyan shaxs nomi bilan bog'lab, mualliflik va tarixiylik konnotatsiyalarini yuzaga chiqaradi. Shu sababli Dabur antroponimik motivli nominatsiya sifatida talqin qilinadi.

2. Toponimik motivli nomlar. Toponimik motivli nomlar muayyan geografik makon yoki madaniy hudud bilan bog'liq brendlarni qamrab oladi. Bunday nominatsiya mahsulotni hududiy tabiiy resurs, milliy an'ana yoki regional sifat tasavvuri bilan assotsiatsiyalaydi.

Pomorin. Nom Bolgariyaning Pomoriye hududi nomi bilan bog'liq. Mazkur hudud mineral tuzlari bilan mashhur bo'lib, mahsulot tarkibida ham shu resurslardan foydalaniladi [5].

Himalaya. Nom Himolay tog' tizmasiga asoslangan [2]. Himolay hududi dorivor o'simliklar va ayurvedik tabobat manbasi sifatida tanilgan bo'lib, mahsulotni tabiiy sharqona parvarish konsepsiyasi bilan bog'laydi.

Swissdent. Nom Swiss ("Shveysariya") va dent ("tish") komponentlaridan tuzilgan [7]. Shveysariya stomatologik texnologiyalar sifati bilan assotsiatsiyalanib, mahsulotni klinik aniqlik konsepsiyasi bilan bog'laydi.

Siberian Wellness (Сибирское Здоровье). Siberian nomi Sibir geografik hududi nomidan olingan [6]. Mazkur hudud tabiiy o'simliklar va ekologik toza muhit manbai sifatida tasavvur qilinadi.

Shu sababli nom mahsulotni hududiy tabiiy resurslar va o'simlik ekstraktlariga asoslangan parvarish konsepsiyasi bilan bog'lovchi toponimik nominatsiya hisoblanadi.

3. Fitonimik motivli nomlar. Fitonimik motivli nomlar o'simlik nomi yoki o'simlik xomashyosi bilan semantik jihatdan bog'liq brendlarni qamrab oladi. Bunday nominatsiya mahsulot tarkibining tabiiy manbaga asoslanganini bildiradi hamda o'simlik tabobati konseptini faollashtiradi.

Babool. Nom Hindistonda keng tarqalgan babul (arab akatsiyasi) daraxti nomidan olingan [4]. Mazkur o'simlik an'anaviy tish tozalash vositasi sifatida qo'llangan bo'lib, mahsulotni hind xalq tabobati bilan bog'laydi.

Meswak (Misvak). Nom *Salvadora persica* o'simligining sharqona nomiga asoslangan [4]. Misvak qadimdan og'iz gigiyenasi vositasi sifatida ishlatilgan bo'lib, nom sharqiy gigiyena an'analari semantikasini yuzaga chiqaradi.

Aloe vera. Nom dorivor aloe o'simligiga asoslangan. Aloe og'iz bo'shlig'i parvarishida yallig'lanishga qarshi xususiyatlari bilan tanilgan bo'lib, mahsulotning o'simlik ekstraktiga asoslanganini bevosita bildiradi.

Cranberry. Nom klyukva o'simligi nomidan olingan. Mazkur meva antibakterial xususiyatlari bilan stomatologik parvarishda qo'llanib, mahsulotni tabiiy meva ekstraktiga asoslangan gigiyena konsepsiyasi bilan bog'laydi.

4. Tarkibiy-ilmiy motivli nomlar. Tarkibiy-ilmiy motivli nomlar mahsulot tarkibidagi faol modda yoki kimyoviy komponent bilan bog'liq brendlarni qamrab oladi. Bunday nominatsiya ilmiy terminologiya va yunon-latin morfemalariga tayanib, mahsulotning terapevtik samaradorligi semantikasini yuzaga chiqaradi.

BioMin. Nom bio ("biologik") va min ("mineral") komponentlaridan tuzilgan [4]. Brend biomineral texnologiya asosida emalni remineralizatsiya qiluvchi tarkibga ega.

Chlorodont. Nom chloro ("xlor") va dont ("tish") morfemalaridan tashkil topgan. Nom mahsulot tarkibida antiseptik xlor birikmalari mavjudligini bildiradi.

Lacalut. Nom laktat asosidagi mineral komponentga ishora qiladi [4]. Alyuminiy laktat stomatologiyada milkni mustahkamlashda qo'llanadi, shu bois nom tarkibiy-ilmiy motivli hisoblanadi.

Ftorodent. Nom ftor va dent komponentlaridan hosil qilingan. Ftor birikmalari kariyes profilaktikasida qo'llanadi, nom esa fluorid tarkibni bevosita bildiradi.

R.O.C.S. Bu nom inglizcha *Remineralizing Oral Care Systems* ifodasining qisqartmasi bo'lib, tish emalini remineralizatsiya qilishga yo'naltirilgan stomatologik parvarish tizimini bildiradi [4]. Shu sababli u abbreviatura shaklida tarkibiy-ilmiy motivli nominatsiya guruhiga mansub.

5. Funktsional-deskriptiv motivli nomlar. Funktsional-deskriptiv motivli nomlar mahsulotning gigiyenik ta'siri yoki stomatologik natijasini bevosita ifodalovchi brendlarni qamrab oladi. Bunday nominatsiyada nom semantik markazida mahsulotdan kutiladigan effekt turadi.

Aquafresh. Nom aqua ("suv") va fresh ("tozalik") komponentlaridan tuzilgan [4]. Nom og'iz bo'shlig'ini tozalash va yangilash funksiyasini bildiradi.

Sensodyne. Nom sensitive ("sezgir") komponentiga asoslangan bo'lib, tish sezgirliğini kamaytirish funksiyasini ifodalaydi [4].

Parodontax. Nom parodont ("tish atrofidagi to'qima") terminiga asoslangan [4]. Nom mahsulotning milk muammolariga mo'ljallanganini bildiradi.

Dentacare. Nom dent ("tish") va care ("parvarish") komponentlaridan tuzilgan [4]. Nom kundalik stomatologik parvarish funksiyasini ifodalaydi.

6. Rang-vizual motivli nomlar. Rang-vizual motivli nomlar tarkibida rang bildiruvchi birlik mavjud bo'lgan va mahsulotning estetik natijasini ifodalovchi brendlarni qamrab oladi. Bunday nominatsiya tishlarning oqarlighi va vizual tozalighi konseptini faollashtiradi.

White Glo. Nom white ("oq") va glow ("porlash") komponentlaridan tuzilgan [4]. Nom tishlarning oppoq va yorqin ko'rinishini ta'minlash estetik natijasini bildiradi.

BlueM. Nom blue ("ko'k") rang komponentiga asoslangan [4]. Ko'k rang tibbiy tozalik va professional gigiyena bilan assotsiatsiyalanadi.

V34. Nom tarkibidagi V komponenti violet (binafsha) rangga ishora qiluvchi qisqartma sifatida talqin qilinadi, 34 esa pigment formulasi yoki texnologik varianti belgisi hisoblanadi [4]. Nom binafsha rang pigment asosidagi optik oqartirish texnologiyasini bildiradi.

Естественная белизна. Nom rus tilidagi белизна (“oqlik”) komponentiga asoslangan bo‘lib, tishlarning tabiiy oq rangini tiklash estetik natijasini bildiradi.

7. Marketing motivli (sun‘iy yasalgan) nomlar. Marketing motivli nomlar aniq semantik manbaga ega bo‘lmagan, fonetik brend konstruksiya asosida yaratilgan nomlarni qamrab oladi. Bunday nominatsiyada asosiy vazifa esda qoluvchanlik va brend differensiasiyasini ta‘minlashdir.

Zendium. Zendium nomi tish pastasi formulasi asosini tashkil etuvchi fermentlar (enzimlar) tadqiqotlari bilan bog‘liq ekani haqidagi talqin mavjud [3]. Nom tarkibidagi -ium elementi ilmiylik assotsiatsiyasini yuzaga keltiradi. Nom ilmiy terminologiyaga o‘xshash fonetik tuzilishga ega sun‘iy yaratilgan brenddir.

Marvis. Nom real leksik birlikka ega bo‘lmagan fonetik konstruksiyadir. Ba‘zi talqinlarga ko‘ra, Marvis nomi *marvel* (“mo‘jiza”) va tibbiy terminologiyada qo‘llanadigan lotincha *vis* (“kuch”) komponentlari birikmasidan hosil qilingan deb taxmin qilinadi [8]. Shu bilan birga, mazkur talqin aniq tarixiy asos bilan tasdiqlanmaganligi sababli Marvis nomi marketing motivli (sun‘iy yasalgan) nominatsiya sifatida baholanadi.

Signal. Bu nom umumtil leksikasiga mansub bo‘lib, stomatologik kosmetonim bilan bevosita semantik bog‘lanishga ega emas. Nom mahsulot tarkibi yoki funksiyasini ifodalamaydi, balki metaforik asosda shakllangan brend nomi sifatida qo‘llanadi. Shu sababli u marketing nominatsiyasi sifatida talqin qilinadi.

President. President nomi umumtil leksikasida davlat rahbari ma‘nosini bildiradi va mahsulot xususiyatlari bilan bevosita bog‘lanmaydi. Biroq nom tarkibidagi *dent* (“tish”) morfemasi og‘iz gigiyenasi sohasi bilan implitsit assotsiatsiya uyg‘otadi, shu bois u nufuz konnotatsiyasini saqlagan holda qisman motivatsiyali marketing (sun‘iy yasalgan) nominatsiya guruhiga mansub.

Yuqoridagi guruhlardan tashqari, stomatologik kosmetonimlar orasida ikki yoki undan ortiq semantik motivlar kombinatsiyasi asosida shakllangan aralash nominatsiyalar ham kuzatiladi. Bunday nomlar bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq semantik motivga asoslangan nominatsiyalarni qamrab oladi.

Tom’s of Maine. Nom asoschi Tom Chappell ismi va Maine hududi nomi kombinatsiyasidan tuzilgan [4]. Tarkibida antroponimik va toponimik komponentlar birlashganligi sababli u aralash motivli nominatsiya sifatida talqin qilinadi.

Blend-a-med. Blend-a-med nomi mustaqil leksik birlik bo‘lib, biror tilga mansub so‘z hisoblanmaydi. U ishlab chiqaruvchi kompaniya nomi *Blendax* fragmenti va tibbiy terminologiyaga ishora qiluvchi *med* (medical) qisqartmasi birikmasidan hosil qilingan [4]. Natijada nom mahsulotni tibbiy-stomatologik parvarish konsepsiyasi bilan bog‘laydi hamda marketing va ilmiy komponentlar birlashuvi asosida shakllangan aralash motivli nominatsiya sifatida talqin qilinadi.

White Birch. Nom white (“oq”) rang komponenti va birch (“qayin”) o‘simlik nomidan tuzilgan [4]. Rang-vizual va fitonimik elementlar birlashuvi natijasida tabiiy oqartirish konsepsiyasi yuzaga keladi. Coolwhite. Nom cool (“salqinlik”) va white (“oq”) komponentlaridan tuzilgan [4]. Rang-vizual va funksional-deskriptiv motivlar birlashuvi mahsulotning oqartirish va yangilovchi effektini birgalikda ifodalaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari stomatologik kosmetonimlar onomastik tizimning semantik jihatdan ko‘p manbali segmentini tashkil etishini ko‘rsatdi. Ular tarkib, funksiya, tabiiy manba, hududiy kelib chiqish yoki ishlab chiqaruvchi bilan bog‘liq turli motivlar asosida shakllanib, iste‘molchida gigiyenik, estetik va terapevtik assotsiatsiyalarni yuzaga chiqaradi.

Tahlil asosida stomatologik kosmetonimlarning antroponimik, toponimik, fitonimik, tarkibiy-ilmiy, funksional-deskriptiv, rang-vizual va marketing motivli, shu bilan birga, aralash nominatsiya guruhlari aniqlandi. Natijalar zamonaviy stomatologik-kosmetik brend nominatsiyasida funksional-deskriptiv va tarkibiy-ilmiy model yetakchi ekanini ko‘rsatdi. Mazkur tasnif kosmetik mahsulotlar nomlash strategiyalaridagi semantik motivatsiya modellarini tizimli yoritadi hamda kosmetonimlar lingvosemantikasini tadqiq etishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Bristol-Myers Squibb [Elektron resurs] // Wikipedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Bristol_Myers_Squibb.
2. Himalaya Since 1930: Dental Cream [Elektron resurs]. – URL: <https://www.letu.ru/product/himalaya-since-1930-pasta-zubnaya-dental-cream>
3. Les dentifrices Zendium arrivent en France [Zendium in France] [Elektron resurs]. – 2015. – URL: <https://www.zendium.com>
4. List of toothpaste brands [Elektron resurs] // Wikipedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_toothpaste_brands
5. Pomorin toothpaste official site [Elektron resurs]. – URL: <https://pomorin.info>
6. Siberian Wellness: зубные пасты [Elektron resurs]. – URL: <https://sibhealth.pro/cat/zubnyepasty/>
7. Swissdent official website [Elektron resurs]. – URL: <https://en.swissdent.com/>
8. Зубная паста Marvis: что мы о ней знаем [Elektron resurs]. – URL: <https://xn--80aaadf9abagjohr9n.xn--p1ai/blogs/blog/zubnaya-pasta-marvis-cto-my-o-ney-znaem>
9. История Дэвида [Elektron resurs]. – URL: <https://davids-oralcare.com>
10. История компании Colgate-Palmolive: 200 лет ярких улыбок [Elektron resurs]. – URL: <https://www.colgate.com>

*Xojiyeva Maxfirat Yusupovna,
Buxoro davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
(O'zbekiston)
E-mail: m.y.xojiyeva@buxdu.uz*

JAHON TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK TERMINOLOGIYANING TIZIMLANISHI

Annotatsiya. Jahon fanining asosiy tushunchasi termin va terminlar majmuasi sanalgan terminologiyadir. Til fani, xususan, onomastika sohasi ham o'z terminologiyasiga ega yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Onomastik terminologiya dunyo tilshunosligida ICOS tomonidan tartibga solinadi. Onomastik terminologiya o'ziga xos bir mustaqil tizimni tashkil etadi, mazkur terminologiya tarkibida ot so'z turkumiga oid, jumladan turdosh otlar asosiy o'rin egallaydi. Mazkur axborotda, asosan, jahon tilshunosligida onomastik terminologiyaning shakllanishi va tizimi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Onomastika, terminologiya, onimik lug'at, onomast terminolog, ICOS, onomotermin, onim, stixiyali, lingvistik sharh.

Аннотация. Главным понятием мировой науки является терминология, представляющая собой совокупность терминов и понятий. Лингвистика, в частности, ономастика, также является одной из областей, имеющих собственную терминологию. Ономастическая терминология в мировой лингвистике регулируется ICOS. Ономастическая терминология представляет собой единую самостоятельную систему, в структуре которой существительные, включая родственные слова, занимают важное место. Данная информация в основном посвящена формированию и системе ономастической терминологии в мировой лингвистике.

Ключевые слова. Ономастика, терминология, онимический словарь, ономастический терминолог, ICOS, ономотермин, оним, спонтанный, лингвистический комментарий.

Abstract. The main concept of world science is terminology, which is a set of terms and terms. Linguistics, in particular, the field of onomastics, is also one of the areas that has its own terminology. Onomastic terminology is regulated by ICOS in world linguistics. Onomastic terminology constitutes a unique independent system, in the structure of which nouns, including cognates, occupy a major place. This information mainly deals with the formation and system of onomastic terminology in world linguistics.

Keywords: Onomastics, terminology, onymic dictionary, onomastic terminologist, ICOS, onomotermin, onym, spontaneous, linguistic commentary.

Kirish. Jahon tilshunosligida onomastik terminlarning o'rganilishi atoqli otlarning izohli lug'atlari yaratilishi bilan bog'liq. Rus tilshunosligida ismlar leksikografik strukturasi tuzilishida Mineylar-ismlar – cherkov tomonidan ulug'langan shaxslarni yod etish kunlari va cherkov xizmatlarining oylik ro'yatlari yozilgan kitobi asos hisoblanadi. Rus tilida dastlab “Азбуковник”, ya'ni “Alifbo kitobi”, “Alifbo lug'ati” kabi diniy-axloqiy va ma'rifiy tushunchalar izohi berilgan va alifbo tartibida joylashtirilgan va asosan, diniy marosimlar o'tkazilishi uchun qo'llanma vazifasini o'taydigan onimik lug'atlar XIII asrlarda shakllanganligini rus terminologlarining asarlarida berilgan ma'lumotlardan bilish mumkin.

Alifbo lug'atlari ko'pincha turli cherkov kitoblarida yozilgan sahifa chetidagi izohlar, ya'ni asosiy matndan tashqarida sahifa chetida yozilgan qo'shimcha izohlar va glossariylar (maxsus terminlar va ularning izohlari) ga asoslanib tuzilgan. Bu kabi lug'at kitoblarning matnlarida o'quvchi uchun tushunarsiz so'zlar ko'plab uchragan, bunday so'zlar qatorida, tabiiyki, diniy muqaddas sanalgan budlar, shaxslarning ismlari bo'lgan. Alifbo lug'atlarida hamma birliklar qorishgan holda, ya'ni filologik va ensiklopedik tamoyillar birgalikda aralash holda berilgan. Dastlabki lug'at sanalgan Alifbo lug'atlari orfografik lug'at, izohli, onomastik lug'at, umumiy qilib aytganda, barcha lug'atlar uchun asos vazifasini o'tagan.

Asosiy qism. Onomastik terminlarning izchil alifbo tartibida berilishiga namuna sifatida XVI asrning ikkinchi yarmida yaratilgan Maksim Grekning “Ismlarga alifbo bo'yicha izohlar” asarini

ko'rsatish mumkin. Xuddi shu singari lug'at namunalari Pamyva Berinda tomonidan ham tuzilganligini o'rgangan materiallarimiz asosida guvohi bo'ldik. 1556-1572-yillarda Antverpenda to'rt tilda (qadimgi ibroniy, xaldey, qadimgi yunon va lotin) [5]. Bibliya matnlaridagi ismlarning izohi keltirilgan lug'atlar ham nashr etilganligi aynan onomastik terminologiya rivoji va diaxron o'rganilishi uchun asos bo'lgan. Ko'rsatkich ham shu to'rt tilda tuzilgan bo'lib, unda ibroniy, yunon, xaldey va lotin tillaridagi erkak va ayol ismlari, xalqlar, daryolar, tog'lar va boshqalar ro'yxati berilgan. Bu manbada ismlarning to'rt tilda to'rt xil yozilishi keltirilgan bo'lib, so'ngra semantik xususiyatlari ochib berilgan, shu bilan bir qatorda ism egasining tavsifi, ya'ni faoliyati haqida ham ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Dastlabki lug'at namunalari sifatida berilayotgan kitoblarda ismlarning izohlanishi, ismlar soni, lingvistik sharhlarning mukammalligini kuzatgan onomastlar antroponimiya va antroponimik leksikografiya sohasidagi ilk ilmiy tadqiqotlardan ekanligi va bu lug'atlar bir vaqtning o'zida ensiklopedik (ism egalari haqida ma'lumotlar) va lingvistik (ismlarning dastlabki ma'nosi) xususiyatga ega bo'lgan va boshqa lug'atlar uchun asos vazifasini o'tagan.

Muhokama va natijalar. Demak, o'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, rus va g'arb tillarida onomastik lug'atlar Bibliya matnlariga yozilgan glossariylardan boshlangan bo'lsa, kichik xalqlar tillari tarixida atoqli otlar ilk bor tilshunoslar e'tiboriga tarjima lug'atlarini tuzish jarayonida yuzaga kelgan, ularning vokabulyariylari (so'zlar ro'yxati)ga kiritilgan. Keyingi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, umumiy lug'atlar tarkibida atoqli otlar uchun alohida bo'limlar yopiq bo'lib qolgan. Bunga misol – latish leksikografiyasining dastlabki qadamlari. Latish tili leksikasi ilk bor XVIII asrda chop etilgan ikki tilli nemis-latish va latish-nemis lug'atlarida namoyon bo'lgan. Ularning tuzuvchilari nemis ruhoniylari bo'lgan. Latish shaxsiy ismlarining bir qismi G.F. Stenderning 1761-yilda tuzilgan latish-nemis lug'atiga kiritilgan [2]. Bu lug'atda ismlar alifbo tartibida lug'atlar tarkibida joylashtirilgan. Bugungi leksikografik amaliyotda umumiy lug'atlar hozirgi leksikografik amaliyotda umumiy lug'atlar so'zlar ro'yxatiga atoqli ot sifatida ism-sharif kiritilmaydi. Bu lug'atshunoslikda an'ana hisoblanadi. Biroq u izchil amalga oshirilmaydi, chunki turli mamlakatlarda turli tillar materialida yaratilgan ayrim umumiy lug'atlarda ism-shariflar ham keltiriladi. Masalan, ingliz tilining izohli lug'ati – Uebster lug'atida (Webster 1979) – qadimgi va yangi ahd qahramonlari (Abraham, John, Peter va boshqalar), qadimgi mifologiya qahramonlari (Diana, Penelope), zamonaviy badiiy adabiyot qahramonlari (Peter Pan) va boshqalar berilgan. Nomsiz so'zlarga berilgan filologik izoh o'rniga, shaxs ismlari ensiklopedik, ya'ni mufassal ochib beriladi. Masalan, Abraham ismi haqida: “Qadimgi Ahd patriarxi, yahudiy xalqining ajdodlaridan biri”, Peter ismi haqida: “Galileyalik baliqchi, o'n ikki havoriydan biri – xristian cherkovining asoschisi” deb izoh beriladi.

Dastlab onomastik terminlar ko'p jihatdan tartibsiz shakllangan, asosan, rus va xalqaro tilshunoslikda yunon va lotin tilidan olingan elementlar bu kabi terminlarni shakllanishida asos bo'lgan. Bu sohada tadqiqotlar sonining ortishi, onomastika sohasining kengayishi terminlarni yagona shaklga keltirish zaruratini tug'dirdi. Bu jarayon alohida mamlakatlarda ham, faol ilmiy aloqalarga ega bo'lgan davlatlar doirasida ham amalga oshirildi.

Onomast terminolog T.Farkashning aytishicha, ilk lug'atlar nemis (Witkovski, 1964), ukrain (Нимчук, 1966) va serb (Petr, 1969) tilshunosligida paydo bo'lgan [1]. Slavyan tilshunos olimlarining ishlarini tahlil qilish natijasida onomastik terminologiya lug'atlari tuzildi “Základní soustava a terminologie slovanské onomastiky” (Umumslavyan terminologik onomastik lug'at) [7] va “Основен систем и терминологија на словенската ономастика” (Slavyan onomastikasining asosiy tizimi va terminologiyasi) [3].

Keyinchalik aynan shu lug'atlarga tayangan holda har bir tilshunoslikda alohida-alohida qo'llanmalar yaratildi. Misol uchun rus va O'rta Osiyo tilshunosligida N.V.Podolskayaning 1978-yilda “Словарь русской ономастической терминологии” (Rus onomastik terminologiyasi lug'ati) nashr etilgan [4]. Oradan o'n yil o'tib, bu lug'atning ikkinchi, to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri chop etildi. Onomastologlarning fikricha bu sohaga e'tibor XX asrning 2-yarmidan boshlangan bo'lib, bunga sabab umumiy onomastika nazariyasi muammolarini o'rganish faollashuvi bilan belgilashadi. Bu e'tibor yangi terminlarning paydo bo'lishi va tarqalishida (masalan: pragmatonim, geortonim, bationim, artionim, biblionim va boshqalar) hamda ularning ortidan kelishi zarur bo'lgan terminlarni tizimlashtirish davrida namoyon bo'ldi.

Bugungi kunda xalqaro onomastik terminologiyani muvofiqlashtirish uchun Xalqaro onomastika fanlari kengashi (International Council of Onomastic Sciences, ICOS) doirasida muhokama qilinib terminlarni bir xillikka keltirish uchun bu tashkilot tomonidan asosiy onomastik terminlar ro'yxati (ICOS List) [6] tayyorlangan bo'lib, ularda xilma-xil atoqli otlarni o'rganish uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalar jamlangan va kiritilgan. Bu terminlar bir tilshunoslik doirasida emas, balki turli onomoterminologlar tomonidan muhokama qilinib terminlarning bir xillashtirish uchun harakatlar davom etmoqda.

I.Valentova slovak terminologiyasi va ICOS taqqoslab o'rganadi hamda uning ta'kidlashicha, slovak onomastik terminologiyasining shakllanishi ikki bosqichni qamrab oladi. Birinchi bosqich 1960-1980-yillar bo'lib empirik davr sanaladi, asosan, terminlarni yig'ish, saralash va tahlillar amalga oshirilgan. Ikkinchi bosqich esa 1990-yillardan hozirgi kunda ham davomiydir. Bu bosqichda onomoterminologlar terminlar, ularning ko'lami, yangi terminlarning lingvistik tahliliga alohida e'tibor qarab, asosan sohalarda turli tomonlama onomastik terminlarni tahlilga tortmoqdalar. I.Valentova terminologiyani tizimlashtirish va tartibga solish zarurligi muhim ekanligini ta'kidlab, onomastika bo'yicha ko'plab ishlar paydo bo'lishi natijasida yangi tushchalar stixiyali ravishda yuzaga kelayotganligini, bu esa yagona terminologik apparatning yo'qligi va tilshunoslarning ayrim hodisalarni tasvirlashda ijodiy yondashuv ko'rsatishga intilishi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuni alahida ta'kidlashimiz kerakki, Valentova Xalqaro Onomastika Fanlari Kengashi uchun terminlar ro'yxatini tayyorlagan va uning bu izlanishi slovak onomastika komissiyasi tomonidan ma'qullangan. E'tiborlisi shundaki, hozirgi kungacha yaratilgan ishlar barchasi onomastik terminologiyani baholash va turli mamlakat olimlari o'rtasida to'laqonli ilmiy muloqotni amalga oshirish uchun hal etilishi lozim bo'lgan asosiy muammolarni aniqlash imkonini beradi.

Tilshunos olimlar atoqli otlarni o'rganish bo'yicha turli xil qarashlarni va onomastlarning fikrlarini qiyosiy tahlil qilishadi va ba'zi onimlarni hamma uchun tushunarli birlik sifatida, boshqa bir guruh olimlar esa ularni apellyativdan kattaroq ko'lamga hamda ma'noga ega maxsus so'zlar sifatida qabul qilishni taklif etishadi. Atoqli otga berilgan ta'riflarga e'tibor qaratsak, ingliz tilida atoqli otlar boshqa otlardan aynan aniqlovchi element sifatida ishlatilishi alohida ta'kidlaydilar. Tilshunos olimlar bu kabi xususiyatlar hind-yevropa tillarining barchasi uchun xosligini misollarda izohlaydilar. Atoqli otni eng tipik nominative kategoriya sifatida olib muhokama qilganda, aynan onimlarga xos bo'lgan belgi – "belgilarsiz" xususiyatlarida ajratib ko'rsatiladi. Atoqli otlar obyektga tavsif bermaydi, o'sha obyektning belgilari bilan bog'liq va aloqador bo'lsa-da, ularni ko'rsatmaydi, ishora qilmaydi, balki sof belgi sifatida voqelanadi. V.Van Langendoskning qarashicha, atoqli otlar o'z funksiyasi tufayli indeksal belgilar sifatida namoyon bo'ladi va olmoshlarga yaqinlashadi.

Boshqa bir guruh olimlar onomastika doirasida atoqli otlar alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, ularni onimga o'tish mumkin bo'lgan apellyativlardan ajratish zarurligini qayd etishadi, shu bilan birga so'z atoqli otga o'tgandan so'ng ham ma'lum bir muddat davomida apellyativ sifatida qo'llanishi va shu funksiyani davom ettirishi mumkin. Atoqli otlar tilshunoslar tomonidan, ko'pincha shaxs olmoshalari bilan qiyoslanadi. Chunki ularning umumiy xususiyatlari mavjud, bu bilan mualliflar atoqli ot sifatidagi otlar va atoqli otlar tushunchalarini farqlash muhimligini ta'kidlashadi. Atoqli ot sifatidagi otlar – odamalar, shaharlar yoki mamlakatlarni nomlash uchun xizmat qiladi, imlo jihatdan bosh harf bilan yoziladi va asosan, bir so'zdan iborat bo'ladi. Atoqli ot esa yakka atoqli otlarni va atoqli ot kombinatsiyalarini, zamonaviy urbanomik terminologiya va uni unifikatsiya (bir xillikka keltirish) muammosini o'z qamroviga oladi. Har bir tilning o'z ichki imkoniyatlari, o'ziga xosligi bilan boshqasidan ajralib turadi, xalqning tarixi va madaniyati ta'sirida shakllanadigan leksik tarkibga ega. Xuddi shu holatni atoqli otlar yoki terminlar tizimida ham kuzatishimiz mumkin. Chunki terminlar, asosan, uch usulda hosil qilinishini fan nazariyalaridan barchamizga ma'lum. Birinchi usul xalqdan olinadi, ya'ni kundalik hayotda ishlatiladigan so'zlar fan va kasb-hunar sohalariga ko'chiriladi, ikkinchi usul esa so'z yasash orqali hosil qilinadi, o'z yoki o'zlashma qatlam birliklariga yasovchi qo'shish orqali turli soha terminlari yasaladi va uchinchi usul esa so'zlarni o'zlashtirish, boshqa tildagi terminlarni to'ridan to'g'ri qabul qilish. Ayniqsa, onomastik terminologiyada bir xillikka kelish, tillararo terminlarning muqobilini saqlab qolganidan voz kechish maqsadli ekanini onomastlar ta'kidlab ICOS da birlashishni tavsiya etadilar. Dunyo tilshunosligida shahar ichki onimlar tizimi uchun umumiy termin sifatida toponim ishlatiladi, deyarli barcha mamlakatlarning onomastik terminologiyasi tizimiga kiradi.

Toponimist olim F.A.Ursin toponimlarni “lug‘at elementlari bo‘lib, ular joy nomi sifatida faoliyat yuritadi” deb ta‘riflaydi. Ingliz terminologiyasida toponim terminiga sinonim sifatida “placename” – joyning atoqli oti qo‘llanilishini kuzatish mumkin. Bundan tashqari toponim termini o‘rniga turli tasviriy ifodalar ham qo‘llaniladi, M.Rutkovski bu atama o‘riga geographical name (geografik nom) terminidan foydalanadi. U terminla “ramzlar hokimiyatining vositasi”ga aylanib, nomad aks etadigan turli qadriyatlarini ifodalaydi, degan fikrni ilgari suradi.

Onomastlarning qarashlarini o‘rganib aytadigan bo‘lsak, toponimlarning shahar onimik makonida faoliyat yuritadigan eng yirik turkumi xoronimlardir – “Toponim guruhi har qanday hudud, viloyat, tuman atoqli oti, jumladan, ma‘muriy, shahar, tabiiy xoronim” [4]. ICOS tomonidan taklif etilgan terminologiyada bu nom mavjud, ammo ingliz tilida “choronym” bilan to‘la qonli mos kelmaydi. Bu atama yerning yirik geografik yoki ma‘muriy birliklari nomi tushunilishini izohlaydi. Ma‘lum darjada ICOSdagi choronym settlement name (posyolka nomi) termini bilan ham bog‘lanadi. K. Hough uni quyidagicha ta‘riflaydi: bu odamlar birgalikda yashaydigan hududlarni bildiruvchi toponim prototipi. Bu terminlarning o‘zaro o‘xshash tomonlari bo‘lsa-da, farqlari ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

So‘ngi abzastlarda berilgan fikrlar faqatgina toponimika sohasi bilan bog‘liq ayrim mulohazalar xolos, hali onimlarning juda ko‘p tarmoqlari bo‘lib tasnifli o‘rganishni taqozo etadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, atoqli otning chegaralarini tushunish turli mamlakatlarning lingvistik an‘analarida turlicha. Onomastik terminlarning o‘rganilish jarayoning boshlanishi rus tilshunosligida ismlarning stixiyali, leksikografik tadqiqiga borib taqalishi va shu asosda onomoterminologiya atamasining kirib kelishiga asos bo‘lgan. Atoqli otning an‘anaviy talqini N.V.Podolskayaning “Rus onomastik terminologiyasi lug‘ati”da aks etgan: Onim (ónoma, atoqli ot) – boshqa obyektlar orasida nomlangan obyektini ajratib ko‘rsatish, uni individuallashtirish va identifikatsiya qilish uchun xizmat qiladigan so‘z yoki so‘z birikmasi; jumladan, antroponim, toponim, zoonim, fitonim, anemonim, xromonim, astronom, kosmonim, teonim, ideonim, xrematonim – bular turli onim razryadlarini tashkil etadi [4].

Onim xarakterli birliklarning tilshunoslikda kengayishi va tuzilish jihatdan gap hamda boshqa shakllarda (ko‘p komponentli) bo‘lishi bu sohani kengroq ko‘lamda o‘rganishni taqozo etadi. Shunday ekan kun sayin yangilanib boradigan va o‘z qamroviga yangi birliklarni qurshab oladigan bu soha doimiy o‘rganishni hamda tahlilni talab etaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Фаркаш Т. Общеславянский терминологический ономастический словарь/ Уппсала–Будапест: Интернационал Соунсил оф Ономастик Ссиэнсэс, 2017. Пп. – С. 65-84.
2. Готхард Фридрих Стендер. Латышский словарь. – М., Наука, 1952. – 267 с.
3. Osnoven sistemi terminologija na slov enskata onomastika = BSTSO – Basic system and terminology of Slovenian onomastics / hg. von B. Vidoeski. Skopje: Makedonska Akademija na naukitei umetnostite: Međunaroden komitet na slavistite: Komisja za slovenska onomastika, 1983. – 412 s.
4. Подольская Н.В. “Словарь русской ономастической терминологии”. – Москва: Наука, 1978. – 199с.
5. Суперанская А.В. Восточнославянская ономастика. – М., Наука, 1972. – 367 с.
6. Valentova I. Slovak and ICOS onomastic terminologies // Journal of the International Council of Onomastic Sciences. Onoma 55. 2020. – P. 289-310.
7. ZSTSO – Základní soustava a terminologizé slo vanské ономастикй. Грундсйстем унд Терминологизэ дер слависчен Ономастик. Вёновáно ВИИ. мезинáроднйму сжезду слаvistу. Гевидмет дем ВИИ. Интернационален 74 Е. А. Казнина Верхневолжский филологический вестник, 2022. – № 3(30).
8. Yokubova S., Khojiyeva M. RETRACTED: Word combination and patterns of linguistic syntactic construction //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – 538 pp.
9. Хожийева Махфират. Tilshunoslikda didaktik terminlarning sintaktik tabiati. Ta‘lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali 2.4 (2025). – Б. 217-219.
10. Kilibchev B.E. Buxoro viloyati toponimlarining lingvistik tadqiqi: Филол.фанл.докт. (DSc) ... diss. – Buxoro, 2024. – В.149; 155; 156.

*Valiyeva Nilufar Shamsitdinovna,
Buxoro davlat universiteti
Ingliz adabiyoti va tarjimashunoslik
kafedrası katta o'qituvchisi (O'zbekiston)
Email: nilufarvaliyeva1003@gmail.com*

ATROF-MUHITGA OID KIMYOVIY TERMINLARNING MORFOLOGIK IZOMORFIZMI VA ALLOMORFIZMI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA TIPOLOGIK VA DERIVATSION TADQIQ

Annotatsiya. Mazkur maqolada atrof-muhitga oid kimyoviy terminlarning tuzilishi va qo'llanish xususiyatlari ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologik-kimyoviy terminlarning shakllanish jarayonida morfologik izomorfizm va allomorfizmning namoyon bo'lish holatlari aniqlanadi. Xususan, affiksatsiya, qo'shma so'z yasalihi va abbreviatsiya kabi asosiy so'z yasalihi usullari tahlilga tortiladi. Ingliz tilining analitik tabiati hamda o'zbek tilining agglutinativ tuzilishi terminlarning shakllanishi, ixchamligi va semantik aniqligiga turlicha ta'sir ko'rsatishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kimyoviy jarayonlarni ifodalashda har ikki tilda funksional o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, morfemalarning joylashuvi, qo'shimchalarning birikish tartibi va egalik shakllarining qo'llanishida sezilarli farqlar kuzatiladi. Ushbu qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek tillarining tipologik xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda atrof-muhitga oid kimyoviy terminlarni tarjima qilish va standartlashtirish jarayonida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: morfologik tipologiya, izomorfizm, allomorfizm, atrof-muhitga oid kimyoviy terminlar, derivatsiya, qo'shma so'z yasalihi, agglutinatsiya, ingliz tili, o'zbek tili.

Аннотация. В данной статье в сопоставительном аспекте анализируются структура и особенности функционирования химических терминов, относящихся к окружающей среде, на материале английского и узбекского языков. В исследовании выявляются проявления морфологического изоморфизма и алломорфизма в процессе формирования эколого-химических терминов. В частности, анализируются такие основные способы словообразования, как аффиксация, словосложение и аббревиация. Обосновывается, что аналитическая природа английского языка и агглютинативный строй узбекского языка по-разному влияют на формирование терминов, их компактность и семантическую точность. Результаты исследования показывают, что, несмотря на наличие функциональных сходств в выражении химических процессов в обоих языках, наблюдаются существенные различия в расположении морфем, порядке присоединения аффиксов и употреблении посессивных форм. Данный сопоставительный анализ способствует более глубокому пониманию типологических особенностей английского и узбекского языков, а также имеет практическое значение для перевода и стандартизации химических терминов, относящихся к окружающей среде.

Ключевые слова: морфологическая типология, изоморфизм, алломорфизм, химические термины, относящиеся к окружающей среде, деривация, словосложение, агглютинация, английский язык, узбекский язык.

Abstract. This article explores the structural and functional intricacies of environmental chemistry terminology through a comparative lens, focusing on English and Uzbek linguistic systems. The study identifies the manifestations of morphological isomorphism and allomorphy in the formation of ecological terms. By analyzing three primary word-formation models—affixation, compounding, and abbreviation—the research highlights how the analytic nature of English and the agglutinative structure of Uzbek influence terminological density. The findings reveal that while functional isomorphism exists in the conceptual mapping of chemical processes, significant allomorphy arises in the directionality of morpheme attachment and the use of possessive constructions. This comparative analysis not only enriches the typological understanding of both languages but also provides practical insights for technical translation and the standardization of environmental lexicon in Uzbekistan.

Keywords: morphological typology, isomorphism, allomorphy, environmental chemistry, derivation, compounding, agglutination, English, Uzbek.

Kirish. So'nggi yillarda global ekologik muammolarning keskinlashuvi oqibatida ilmiy muloqotda yangi terminologik qatlamning shakllanishiga sabab bo'ldi. Xususan, iqlim o'zgarishi, kimyoviy ifloslanish, chiqindilarni qayta ishlash, yashil texnologiyalar va barqaror rivojlanish kabi masalalar atrof-muhitga oid kimyoviy terminlarning ilmiy hamda amaliy ahamiyatini yanada oshirdi. Bugungi kunda bu terminlar faqat tor doiradagi mutaxassislar nutqida qo'llanadigan birliklar emas, balki xalqaro ekologik siyosat, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalarida faol ishlatiladigan muhim kommunikativ vositaga aylangan.

Anastas va Warner tomonidan ilgari surilgan yashil kimyo konsepsiyasi kimyoviy jarayonlarni ekologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan qayta baholashga asos bo'ldi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan o'n ikki tamoyil nafaqat kimyoviy amaliyotning yangi yo'nalishini belgilab berdi, balki ushbu soha uchun xos bo'lgan maxsus terminlarning shakllanishiga ham zamin yaratdi [1, 29-56]. Jumladan, atom iqtisodiyoti, biokataliz, barqaror loyihalash kabi terminlar dastlab laboratoriya va ilmiy tadqiqotlar doirasida qo'llangan bo'lsa, hozirda xalqaro ekologik diskursning ajralmas qismiga aylangan. Shu sababli bunday terminlarning aniq, izchil va to'g'ri qo'llanishi nazariy kimyo bilan amaliy atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Maxsus terminlarning yuzaga kelishi tasodifiy jarayon emas. U har bir tilning ichki imkoniyatlari, morfologik tuzilishi va so'z yasaliş an'analari bilan bevosita bog'liq. Sagerning fikricha, termin yaratish jarayoni ongli va maqsadli faoliyat bo'lib, unda leksik birliklar imkon qadar aniq, ixcham va noaniqlikdan xoli bo'lishi kerak [8, 64-102]. Cabré esa ilmiy terminologiyaning rivojlanishida derivatsion va kompozitsion mexanizmlar muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [3, 95-120]. Atrof-muhitga oid kimyoviy terminlar misolida bu holat ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi, chunki murakkab kimyoviy jarayonlar ko'pincha ixcham, barqaror va aniq lingvistik birliklar orqali ifodalanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida bunday terminlarning shakllanishi turli tipologik asoslar bilan belgilanadi. Ingliz tili analitik xususiyatga ega bo'lgani sababli termin yaratishda erkin morfemalar, prefikslar va qo'shma birliklardan keng foydalanadi. O'zbek tili esa agglutinatív til sifatida ma'no munosabatlarini asosan qo'shimchalar ketma-ketligi orqali ifodalaydi. Comrie ta'kidlaganidek, analitik va agglutinatív tillar o'rtasidagi bunday farq termin yaratishning turli morfologik usullarini yuzaga keltiradi [4, 42-65]. Shu jihatdan, kimyoviy tushunchalarning ingliz va o'zbek tillarida qanday shakllanishini o'rganish nafaqat lingvistik, balki tarjimashunoslik va terminologiyani standartlashtirish nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan strukturaviy tafovutlar nuqtayi nazaridan izomorfizm va allomorfizm tushunchalari muhim tahliliy mezon sifatida maydonga chiqadi. Haspelmath va Simsning nazariy qarashlariga ko'ra, izomorfizm turli tillar o'rtasidagi farqlarga qaramay saqlanib qoladigan funksional va strukturaviy o'xshashliklarni bildiradi. Allomorfizm esa muayyan tilga xos bo'lgan morfologik ifodalanish farqlarini izohlashga xizmat qiladi [6, 41-58]. *Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi atrof-muhitga oid kimyoviy terminlar tarkibida ushbu hodisalarning namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Shu bois ishda affiksatsiya, qo'shma so'z yasaliş va abbreviatsiya modellari har ikki tilda qiyosiy tahlil qilinadi. Bu orqali universal terminologik mantiq bilan har bir tilning o'ziga xos tipologik cheklovlari o'rtasidagi nisbat ochib beriladi.*

Asosiy qism. Derivatsion morfologiya ingliz va o'zbek tillarida atrof-muhitga oid kimyoviy terminlarning shakllanishida asosiy strukturaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Nazariy jihatdan derivatsiya fleksiya dan tubdan farq qiladi. Chunki derivatsiya mavjud leksemaning grammatik shakllarini emas, balki yangi leksik birliklarni hosil qiladi. Spencerning fikricha, derivatsion jarayonlar so'z turkumining o'zgarishi, leksik tarkibning kengayishi va semantik ma'noning modifikatsiyalanishi bilan tavsiflanadi. Fleksiya esa asosan grammatik paradigmadagi shakli o'zgarishlar doirasida amal qiladi [9, 12-15]. Bu farq terminologik tizimlar uchun ayniqsa muhimdir, chunki bunday tizimlarda leksik aniqlik va so'z yasalişining izchil modeli yetakchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligi an'analari so'z yasaliş muayyan model va qoidalarga asoslangan jarayon sifatida talqin qilinadi. V.V. Vinogradov ta'kidlaganidek, yangi so'zlarning hosil bo'lishi tilda allaqachon mavjud bo'lgan so'z yasaliş qoliplari yoki yangi derivatsion elementlarning faollashuvi orqali amalga oshadi. Ushbu tamoyil kimyoviy terminologiyaga ham bevosita taalluqlidir. Chunki yangi ilmiy tushunchalar odatda tasodifiy tarzda yaratilgan leksik birliklar orqali emas, balki mahsuldor morfologik modellar asosida ifodalanadi. Demak, terminologiya til tizimidan uzilib qolgan mutlaqo yangi birliklar

majmui emas; aksincha, u mavjud leksik ildizlar, qo‘shimchalar va derivatsion mexanizmlar asosida bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Danilenko ham umumiy leksikaning tabiiy rivojlanishidan farqli ravishda termin yasalishi ongli, tartibga solingan va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon ekanini alohida ta’kidlaydi. Bunday jarayon, avvalo, maksimal aniqlik, muntazamlik va universallikka erishishga qaratiladi. O‘zbek kimyoviy terminologiyasida bu holat ayrim derivatsion morfemalarning muayyan terminologik kichik tizimlar doirasida faollashuvi va ixtisoslashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, ba’zi qo‘shimchalar ilmiy tasniflash vazifasini bajarishga moslashadi. Bu esa terminologiyada morfologik mahsuldorlik tasodifiy emas, balki tizimli va tanlab qo‘llanadigan hodisa ekanini ko‘rsatadi.

So‘z yasalishi nazariyasi nuqtayi nazaridan Spencer so‘z yasalishi qoidalari, ya’ni Word Formation Rules (WFRs) tushunchasini ilgari suradi. Ushbu qoidalar asos va undan yasalgan shakllar o‘rtasidagi derivatsion munosabatlarni izohlashga xizmat qiladi. Ular affiks tanlovi, so‘z turkumining belgilanishi va hosila birlikning semantik talqinini tartibga soladi [9, 45-89]. Atrof-muhitga oid kimyoviy terminlarda derivatsion affiksatsiya, asosan, jarayonni bildiruvchi va xususiyatni ifodalovchi leksik birliklarni hosil qiladi.

Ingliz tilida suffiksatsiya asosiy derivatsion usullardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, -ation suffiksi jarayon nomlarini hosil qiladi: oxidation, nitration, contamination. Bunda fe‘l asosidan ot yasaladi. Xuddi shuningdek, -ize suffiksi kimyoviy o‘zgarish yoki transformatsiyani bildiruvchi fe‘llarni hosil qiladi: polymerize, neutralize. -ity suffiksi esa mavhum xususiyat nomlarini yaratadi: toxicity, acidity, alkalinity. Bu kabi birliklar Spencer tomonidan ta’riflangan derivatsion morfologiyaning mahsuldor, qoidalarga asoslangan va maxsus sohalarda semantik jihatdan izchil amal qiluvchi tizim ekanini tasdiqlaydi.

O‘zbek tilida esa derivatsion morfologiya agglutinatив suffiksatsiya orqali ro‘yobga chiqadi. Jarayonni bildiruvchi terminlar, odatda, -lanish va -lash qo‘shimchalari yordamida hosil qilinadi: oksidlanish, parchalanish, bug‘lanish, filtrlash, polimerlash, tozalash. Xususiyatni bildiruvchi birliklarda esa -lik qo‘shimchasi faol qo‘llanadi: kislotalilik, zaharlilik. O‘zbek terminologiyasiga oid tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, o‘zbek kimyoviy terminologiyasi tarkibida ko‘plab xalqaro va rus tili orqali kirib kelgan leksik asoslar mavjud bo‘lsa-da, ularning morfologik moslashuvi o‘zbek tilining ichki so‘z yasalish qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Demak, o‘zlashgan asoslar ham milliy derivatsion modellarga moslashtiriladi va bu holat terminologik morfologiyaning tizimli xususiyatini yanada kuchaytiradi.

Tipologik qiyos shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida funksional izomorfizm hamda strukturaviy allomorfizm mavjud. Funksional jihatdan har ikki til kimyoviy jarayonlar, xususiyatlar va transformatsiyalarni ifodalashda derivatsion affiksatsiyadan foydalanadi. Biroq strukturaviy jihatdan ular bir-biridan farqlanadi. Ingliz tilida asosan lotincha kelib chiqishga ega suffikslar qo‘llanadi va ularning morfologik shaffoflik darajasi turlicha bo‘ladi. O‘zbek tilida esa aniq ajratiladigan, shakliy jihatdan ravshan va muntazam agglutinatив qo‘shimchalarga tayaniladi. Bu holat ilmiy terminologiyada derivatsiyaning funksional vazifasi turli tillarda nisbatan barqaror ekanini, biroq uning morfologik ifodalanishi har bir tilning o‘ziga xos tipologik xususiyatlarini aks ettirishini tasdiqlaydi.

Natijada atrof-muhitga oid kimyoviy terminlarda derivatsion affiksatsiya bir tomondan universal strukturaviy tamoyillarni, ikkinchi tomondan esa muayyan tilga xos morfologik strategiyalarni namoyon etadi. Spencerning morfologik yondashuvi hamda o‘zbek terminologiyasi nazariyasida ilgari surilgan qarashlar, xususan, Vinogradov va Danilenko fikricha, termin yasalishi tizimli so‘z yasalish modellari asosida amalga oshirishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu jarayon analitik va agglutinatив tillar o‘rtasidagi tipologik farqlarga ham bevosita bog‘liq holda kechadi.

Ingliz tilidagi atrof-muhitga oid kimyoviy terminlar qo‘shma so‘z yasalishi orqali yuqori darajadagi strukturaviy mahsuldorlikni namoyon qiladi. Laurie Bauer ta’kidlaganidek, qo‘shma so‘z yasalishi ilmiy uslubda markaziy so‘z yasalish mexanizmlaridan biri hisoblanadi (Bauer, 2003). Atrof-muhit kimyosi doirasida qo‘shma terminlar faqat shakliy birlik sifatida emas, balki murakkab tushunchalarni ixcham va aniq ifodalashga xizmat qiluvchi kognitiv vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur sohada eng mahsuldor strukturaviy qolip N + N, ya’ni ot + ot modelidir, greenhouse gas – issiqxona gazi, ozone layer – ozon qatlami, carbon footprint – uglerod izi kabi terminlar ikki otning birikishi orqali yagona ekologik tushunchani ifodalaydi. Masalan, greenhouse gas terminida asosiy

semantik markaz gas - *gaz* soʻzi boʻlib, u butun birikmaning grammatik turini belgilaydi. Greenhouse komponenti esa atmosferada issiqlikning ushlanib qolishi bilan bogʻliq ekologik mexanizmni aniqlashtiradi. Xuddi shuningdek, carbon footprint terminida footprint - *iz* komponenti metaforik tarzda oʻlchanadigan taʼsirni bildiradi, carbon - *uglerod* komponenti esa ushbu taʼsirni chiqindilar va emissiyalar bilan bogʻliq hodisalar doirasida cheklaydi. Bunday tuzilish Bauer tomonidan qayd etilgan, oʻng tomondagi komponentning bosh unsur boʻlishi, tamoyiliga mos keladi, yaʼni qoʻshma birlikda ikkinchi komponent grammatik va semantik jihatdan yetakchi oʻrin egallaydi.

Muhokama va natijalar. Xuddi shunday strukturaviy ixchamlik jarayonga yoʻnaltirilgan terminlarda ham kuzatiladi. “Wastewater treatment” – oqova suvlarni tozalash, soil contamination – tuproq ifloslanishi, air pollution – havo ifloslanishi, hazard assessment – xavfni baholash kabi birliklar keng sintaktik izoh talab qiladigan tushunchalarni qisqa termin shaklida ifodalaydi. Masalan, air pollution termini, havoning zararli moddalar bilan ifloslanishi, degan murakkab tushunchani hech qanday ochiq grammatik bogʻlovchisiz ifodalaydi. Bu yerda havoning ifloslanishi maʼnosidagi semantik munosabat yashirin holda saqlanadi. Demak, ingliz tilida bunday terminlar koʻpincha morfologik vositalar orqali emas, balki leksik birliklarning yonma-yon kelishi orqali shakllanadi. Shuningdek, water quality monitoring – suv sifati monitoringi termini uchta leksik birlikni yagona konseptual zanjirga birlashtiradi, biroq uning grammatik tuzilishi baribir ixcham va sodda koʻrinishda qoladi.

A + N, yaʼni sifat + ot modeli esa termin tarkibiga sifat jihatdan aniqlashtiruvchi maʼno kiritadi. Toxic waste – zaharli chiqindi, hazardous substance – xavfli modda kabi birikmalarda sifat komponenti kimyoviy obyektning baholovchi yoki xavfsizlik bilan bogʻliq xususiyatini bildiradi. Renewable energy – qayta tiklanadigan energiya termini barqarorlik va ekologik xavfsizlik gʻoyasini oldinga chiqaradi, volatile compound – uchuvchan birikma esa moddaning fizik-kimyoviy xususiyatini ifodalaydi. Har bir holatda sifat komponenti bosh otning maʼno doirasini toraytiradi va aniqlashtiradi, biroq terminning umumiy tuzilishini murakkablashtirmaydi. Shu jihatdan ingliz tilidagi model semantik aniqlik va shakliy ixchamlikni bir vaqtning oʻzida taʼminlaydi.

Vaqt oʻtishi bilan bunday qoʻshma terminlarning koʻpchiligi leksiklashuv jarayonidan oʻtadi. Dastlab erkin tahlil qilinadigan soʻz birikmalari asta-sekin barqarorlashib, muayyan soha doirasida mustaqil termin sifatida qoʻllana boshlaydi. Masalan, acid rain – kislotali yomgʻir termini endilikda shunchaki kislotali yogʻin maʼnosidagi tavsifiy birikma emas, balki oltingugurt va azot oksidlari bilan bogʻliq ilmiy jihatdan aniqlangan atmosfera hodisasini anglatadi. Xuddi shuningdek, climate change – iqlim oʻzgarishi, ozone depletion – ozon qatlamining yemirilishi, ecosystem imbalance – ekotizim muvozanatining buzilishi kabi birliklar ham terminologik mustaqillikka ega boʻlgan. Ularning ichki tarkibi maʼno jihatdan tushunarli boʻlib qolsa-da, ular ongda alohida-alohida soʻzlar yigʻindisi sifatida emas, balki yaxlit ilmiy tushuncha sifatida qabul qilinadi. Bunday barqarorlashuv ilmiy diskurs uchun muhimdir, chunki u meʼyoriy hujjatlar, akademik tadqiqotlar va xalqaro ekologik siyosat doirasida terminlarning izchil qoʻllanishini taʼminlaydi.

Oʻzbek tilidagi atrof-muhitga oid kimyoviy terminlarda ham qoʻshma birliklar xuddi shunday nominativ vazifani bajaradi. Biroq ularning shakllanishi oʻzbek tilining agglutinatib tabiati bilan bogʻliq holda namoyon boʻladi. Ingliz tili koʻproq strukturaviy ixchamlikka intilsa, oʻzbek tilida morfologik shaffoflik va maʼno munosabatlarining aniq ifodalanishi ustunlik qiladi.

Issiqxona gazi, kislotali yomgʻir, havo ifloslanishi kabi nominal birikmalar oʻzbek tilida ot + ot modeli hamda derivatsion tuzilmalarning mahsuldorligini koʻrsatadi. Masalan, issiqxona gazi termini ingliz tilidagi greenhouse gas birikmasiga semantik jihatdan mos keladi. Biroq oʻzbekcha shaklda komponentlar oʻrtasidagi maʼno chegarasi yanada aniqroq seziladi. Havo ifloslanishi termini esa ingliz tilidagi air pollution birikmasidan ancha farq qiladi. Ingliz tilida ikki ot yonma-yon qoʻyilib, munosabat yashirin tarzda ifodalansa, oʻzbek tilida ifloslanish soʻzi ifloslanmoq feʼlidan -ish qoʻshimchasi orqali yasaladi va -i egalik qoʻshimchasi yordamida “havoning ifloslanishi” maʼnosi ochiq grammatik shaklda beriladi. Demak, ingliz tilida yashirin qolgan semantik munosabat oʻzbek tilida morfologik jihatdan koʻrinadigan holga keladi.

Oʻzbek tilida maʼno munosabatlarini kengroq va aniqroq ifodalash xususiyati, ayniqsa, qaratqich-egalik konstruksiyalarida yaqqol namoyon boʻladi. Ozon qatlamining yemirilishi, atmosferaning ifloslanish darajasi kabi birikmalarda -ning qaratqich qoʻshimchasi va -i egalik qoʻshimchasi komponentlar oʻrtasidagi tobelik munosabatini ochiq ifodalaydi. Masalan, ozon qatlamining yemirilishi

birikmasida ozon qatlami va yemirilish o'rtasidagi bog'liqlik grammatik jihatdan aniq ko'rsatilgan. Ingliz tilidagi ozone depletion terminida esa bunday munosabat morfologik vosita bilan belgilanmaydi, balki kontekst orqali anglashiladi. Xuddi shuningdek, suvning kimyoviy tarkibi birikmasi ingliz tilidagi chemical composition of water ifodasiga mos keladi. Biroq o'zbek tilida munosabat ma'nosi predlog yoki alohida sintaktik vosita orqali emas, balki so'zning morfologik tarkibi orqali ifodalanadi.

O'zbek tili xalqaro terminlarni qabul qilgan holatlarda ham morfologik aniqlik saqlanib qoladi. Karbon chiqindilari – carbon emissions, tuproq eroziyasi – soil erosion, bioakkumulyatsiya jarayoni – bioaccumulation process kabi birliklar o'zlashgan yoki gibrid komponentlarning ham o'zbek tilining ichki morfologik qoliplariga moslashishini ko'rsatadi. Masalan, eroziyasi so'zidagi -si egalik qo'shimchasi, chiqindilari so'zidagi -lari ko'plik va egalik shakli termin tarkibida grammatik yaxlitlik hamda semantik aniqlikni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, o'zbek tilida ham terminlarning barqarorlashuvi kuzatiladi. Issiqxona effekti, karbon izi kabi birliklar hozirgi kunda ekologik diskursda tan olingan va mustahkam o'rin egallagan terminlar sifatida qo'llanadi. Ular morfologik jihatdan tahlil qilinishi mumkin bo'lsa-da, nutqda alohida komponentlar yig'indisi sifatida emas, balki yagona terminologik birlik sifatida qabul qilinadi. Bu jihatdan ular ingliz tilidagi mos terminlar bilan o'xshash xususiyatga ega.

Demak, o'zbek tilida qo'shma terminlar, avvalo, grammatik aniqlik va strukturaviy kengayishga tayanadi. Til semantik munosabatlarni shunchaki yonma-yon qo'yilgan leksik birliklar orqali emas, balki derivatsion va egalik qo'shimchalari yordamida ifodalaydi. Bu esa murakkab atrof-muhitga oid kimyoviy terminlarda ma'no shaffofligini saqlashga xizmat qiladi.

Tipologik nuqtayi nazardan qaralganda, ingliz va o'zbek tillaridagi atrof-muhitga oid kimyoviy qo'shma terminlar o'rtasidagi farq ikki tilning umumiy strukturaviy tamoyillarini aks ettiradi. Ingliz tili carbon emission, soil erosion, water treatment kabi birliklarda semantik bog'liqlikni morfologik jihatdan ochiq ifodalamaydi; bu munosabat ko'proq kontekst va termin tarkibidagi komponentlar orqali anglashiladi. Ya'ni ingliz tili bunday hollarda yashirin munosabat va strukturaviy ixchamlikka tayanadi.

Biroq ushbu strukturaviy farqlarga qaramay, terminlarning mazmuniy darajasida konseptual izomorfizm saqlanib qoladi. Masalan, ozone depletion va ozon qatlamining yemirilishi terminlari shaklan turlicha bo'lsa-da, ular ifodalaydigan ekologik-kimyoviy hodisa bir xil ilmiy mazmunga ega. Bu holat shakl darajasida tipologik allomorfizm, mazmun darajasida esa semantik izomorfizm mavjudligini ko'rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi atrof-muhitga oid kimyoviy terminlar ikki tomonlama strukturaviy paradigma asosida shakllanishini ko'rsatdi. Ya'ni mazmuniy darajada ushbu terminlarda semantik izomorfizm, shakliy-morfologik darajada esa morfologik allomorfizm kuzatiladi. Har ikki tilda kimyoviy jarayonlar va ekologik holatlarni ifodalashda derivatsiya, qo'shma so'z yasalishi hamda abbreviatsiya kabi usullardan foydalaniladi. Biroq bu modellar har bir tilning tipologik tuzilishiga mos holda turlicha namoyon bo'ladi. Ingliz tili analitik til sifatida termin yaratishda strukturaviy ixchamlikka, o'ng komponentning yetakchiligiga asoslangan qo'shma so'zlarga hamda lotincha kelib chiqishga ega suffikslarga ko'proq tayanadi. Natijada ingliz tilida yuqori leksik zichlikka ega, grammatik munosabatlari ko'pincha ochiq ifodalanmaydigan terminologik birliklar shakllanadi. O'zbek tili esa agglutinativ til sifatida morfologik shaffoflik, qaratqich-egalik konstruksiyalari va qo'shimchalarning ketma-ket birikishiga asoslanadi. Bu esa shaklan kengroq, biroq semantik jihatdan aniq va tushunarli terminlarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, izomorfizm asosan konseptual va funksional darajada namoyon bo'ladi, allomorfizm esa morfologik va sintaktik sathlarda yuzaga chiqadi. Bu holat atrof-muhit kimyosi terminologiyasidagi universallik morfologik bir xillikni anglatmasligini ko'rsatadi. Aksincha, universal ilmiy mazmun har bir tilning o'ziga xos strukturaviy imkoniyatlari va cheklovlariga moslashgan holda ifodalanadi.

Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan olib qaralganda, tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillari o'rtasida texnik tarjima jarayonida ixchamlik va kengayish o'rtasidagi nisbatni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Terminlarni har doim ham bevosita strukturaviy ekvivalent asosida tarjima qilib bo'lmaydi. Shu sababli tarjimon leksik zichlikka ega inglizcha terminlarni o'zbek tilida morfologik jihatdan aniq va izchil shaklda berishi, zarur hollarda esa kengaytirilgan konstruksiyalardan foydalanishi lozim.

Shunday qilib, atrof-muhitga oid kimyoviy terminlar universal ilmiy tafakkur va turli tipologik xususiyatlarga ega tillar o'rtasidagi o'zaro munosabatni yaqqol namoyon etuvchi muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Anastas P. T., Warner J. C. *Green Chemistry: Theory and Practice*. Oxford: Oxford University Press, 1998. – 135 b.
2. Bauer L. *Introducing Linguistic Morphology*. 2-nashr. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2003. – 366 b.
3. Cabré M. T. *Terminology: Theory, Methods, and Applications*. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 248 b.
4. Comrie B. *Language Universals and Linguistic Typology: Syntax and Morphology*. Chicago: University of Chicago Press, 1989. – 264 b.
5. Danilenko V. P. *Русская терминология: опыт лингвистического описания*. – Moskva: Nauka, 1977. – 248 b.
6. Haspelmath M., Sims A. *Understanding Morphology*. 2-nashr. London: Hodder Education, 2010. – 366 b.
7. Madvaliev A. *O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 256 b.
8. Sager J. C. *A Practical Course in Terminology Processing*. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1990. – 254 b.
9. Spencer A. *Morphological Theory: An Introduction to Word Structure in Generative Grammar*. Oxford; Cambridge, MA: Basil Blackwell, 1991. – 512 b.
10. Vinogradov V. V. *Русский язык: грамматическое учение о слове*. 3-nashr, tuzatilgan. Moskva: Vysshaya shkola, 1986. – 640 b.

*Xaitova Gulshan Bahodirovna,
Buxoro davlat universiteti
Nemis va fransuz filologiyasi
kafedrası o'qituvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: xaitovagulshan@gmail.com*

AGROBIZNES TERMINOSFERASINING QIYOSIY INTERPRETATSIYASI (NEMIS, RUS VA O'ZBEK TILLARI ASOSIDA)

Annotatsiya. Mazkur maqolada agrar soha va biznes terminlarining nemis, rus va o'zbek tillaridagi konseptual interpretatsiyasi lingvistik, madaniy va pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Turli tillarda shakllangan terminlarning semantik maydonlari, konseptosferadagi o'rni hamda madaniyatlararo muloqotda tutgan o'rni qiyosiy yondashuv asosida ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda tilshunoslikning terminologiya nazariyasi, kognitiv lingvistika va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalarda agrobiznes terminlari uch tilning iqtisodiy-madaniy konteksti bilan bog'liq holda turlicha konseptual yuklamaga ega ekani aniqlanadi.

Kalit so'zlar: agrobiznes, terminologiya, konseptual tahlil, qiyosiy lingvistika, nemis tili, rus tili, o'zbek tili.

Abstract. This article analyzes the conceptual interpretation of agrarian and business terms in German, Russian, and Uzbek from linguistic, cultural, and pragmatic perspectives. The semantic fields of terms formed in different languages, their place in the conceptsphere, and their role in intercultural communication are demonstrated through a comparative approach. The research applies the theories of terminology, cognitive linguistics, and conceptual analysis. The results reveal that agribusiness terms carry different conceptual loads depending on the economic and cultural context of each language.

Keywords: agrobusiness, terminology, conceptual analysis, comparative linguistics, German, Russian, Uzbek.

Аннотация. В данной статье рассматривается концептуальная интерпретация аграрных и бизнес-терминов в немецком, русском и узбекском языках с лингвистической, культурной и прагматической точек зрения. На основе сопоставительного подхода показаны семантические поля терминов, сформированных в различных языках, их место в концептосфере, а также роль в межкультурной коммуникации. В исследовании применяются теория терминологии, когнитивная лингвистика и методы концептуального анализа. Результаты показывают, что термины агробизнеса обладают различной концептуальной нагрузкой в зависимости от экономико-культурного контекста каждого языка.

Ключевые слова: агробизнес, терминология, концептуальный анализ, сопоставительная лингвистика, немецкий язык, русский язык, узбекский язык.

Kirish. Globalizatsiya jarayonida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari qatori agrobiznes sohasi ham jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Agrobiznes nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, balki ularning qayta ishlanishi, saqlanishi, logistika jarayonlari va xalqaro bozorlarda savdoga chiqarilishini o'z ichiga olgan murakkab tizim sifatida talqin etiladi. Shu bois mazkur sohada shakllanayotgan terminologiya zamonaviy lingvistikaning tadqiqot obyekti bo'lib, terminlarning shakllanish mexanizmlari, konseptual mazmuni va madaniy konnotatsiyalarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism. Agrobiznes terminlari milliy tillarda bir xil bo'lmagan konseptosferalarga asoslanadi. Masalan, nemis tilida agrobiznes sohasidagi terminologiya asosan Yevropa Ittifoqi agrar siyosati, ekologik barqarorlik, innovatsion texnologiyalar va xalqaro savdo normalari bilan bog'liq bo'lsa, rus tilida u ko'proq postsovet agrar merosi, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va resurslar taqsimoti bilan uzviy aloqadorlikda shakllangan. O'zbek tilidagi agrobiznes terminlari esa milliy qishloq

xo'jaligi an'analari, bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga kelgan yangi konseptlar, shuningdek, xalqaro terminlar adaptatsiyasi asosida rivojlanmoqda.

Terminlarning shakllanishi va konseptual interpretatsiyasi ko'plab omillarga, jumladan, iqtisodiy-siyosiy sharoit, madaniy qadriyatlar, tarixiy taraqqiyot hamda xalqaro hamkorlik darajasiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, agrobiznes terminlari millatlararo iqtisodiy hamkorlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida ham namoyon bo'ladi. Turli tillardagi terminlarning qiyosiy tahlili ularning semantik maydonlarini aniqlash, konseptual tafovut va o'xshashliklarni ko'rsatish, shuningdek, xalqaro iqtisodiy diskursda samarali muloqotni ta'minlash imkonini beradi.

Shunday qilib, agrobiznes terminologiyasining nemis, rus va o'zbek tillarida shakllanishini va ularning konseptual interpretatsiyasini tadqiq etish qiyosiy terminologiya, kognitiv lingvistika hamda lingvomadaniyatshunoslik uchun dolzarb masala hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat lingvistik jihatdan, balki iqtisodiy-madaniy va ijtimoiy nuqtai nazardan ham ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

Muhokama va natijalar. Agrobiznes terminologiyasiga oid ilmiy izlanishlar so'nggi yillarda xalqaro va milliy miqyosda faol rivojlanmoqda. Xususan, agrar sohada qo'llanilayotgan terminlarning konseptual asoslarini yoritishda xorijiy va o'zbek tadqiqotchilari turli yondashuvlarni taklif qilganlar.

Avvalo, agrobiznes atamasining ilmiy muomalaga kirib kelishi John H. Davis va Ray A. Goldbergning "A Concept of Agribusiness" asariga borib taqaladi. Mazkur tadqiqotda agrobiznes qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan tortib, uni qayta ishlash, saqlash, transport qilish va iste'molchiga yetkazishgacha bo'lgan kompleks tizim sifatida talqin etiladi[1,53]. Keyinchalik M. Porterning "Competitive Advantage" asarida "qiymat zanjiri" (value chain) konsepsiyasi ilgari surilib, agrobiznes jarayonlarini strategik boshqarish va terminologik ifodalash uchun nazariy asos yaratildi[10,157].

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda agrobiznes tushunchasining turli talqinlari ham kuzatiladi. Oliveira va hammualliflar "Analysis of Conceptual Definitions of Agribusiness" nomli ishida agrobiznes atamasi 2015–2023 yillardagi ilmiy adabiyotlarda qanday talqin qilinganini tahlil qilib, asosiy yondashuvlar (faoliyat, tizim, sanoat, jarayon, amaliyot) va atributlar (savdo, logistika, xizmatlar, agroekosistema) ni aniqlashgan. Ushbu tadqiqot mazkur terminning turli milliy konseptosferalarda turlicha mazmun kasb etishini ko'rsatadi.

Rus tilshunosligida ham agrobiznes terminologiyasi tadqiqotlari mavjud. Donskova va Fedorova [3,108-113] qishloq xo'jaligi terminlarining shakllanish usullari, ularning polisemiyasi va tarjima jarayonidagi qiyinchiliklarni ko'rib chiqib, terminlarning mazmuniy noaniqliklari ko'pincha kontekst yetishmovchiligidan kelib chiqishini ta'kidlagan. CyberLeninka bazasida chop etilgan "Теоретические подходы к понятию агропредпринимательство и малый агробизнес" maqolasida esa agrobiznes va agrotadbirkorlik tushunchalarining nazariy chegaralari aniqlanib, kichik biznes terminlari bilan aloqadorligi izohlangan [7,55-62].

O'zbek tilshunosligida esa ushbu sohaga oid izlanishlar endigina shakllanmoqda. Abdinabiyev va Xudoyqulov ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligi terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini qiyoslab, terminlarning milliy konseptosferalarda qanday mazmun kasb etishini ochib berga[1,101-110]. Shuningdek, N.Hamidov va M.Jo'rayevlarning iqtisodiy atamalar, xususan, qishloq xo'jaligi va agrobiznes sohasidagi terminlar bo'yicha tadqiqotlari mazkur sohaga oid dastlabki ilmiy qadamlar sifatida ahamiyatlidir [6, 212].

Tadqiqot materiali sifatida nemis, rus va o'zbek tillaridagi agrobiznes terminlari tanlab olindi. Metodologik asos sifatida qiyosiy tahlil, konseptual xaritalash, semantik maydon usuli, kognitiv-lingvistik interpretatsiya usullaridan foydalanildi.

Nemis tilida agrobiznes terminlari iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik tushunchalari bilan chambarchas bog'langan. Rus tilida esa terminlar davlat siyosati va ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq. O'zbek tilida agrobiznes terminlari ko'proq amaliyotga, ya'ni fermer xo'jaligi faoliyatiga, ishlab chiqarish jarayoniga yo'naltirilgan. Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, nemis tilida ekologik qadriyatlar ustun, rus tilida davlat siyosati markazda, o'zbek tilida esa an'ana va amaliyot bilan bog'liq konseptual elementlar yetakchi ekani ko'rindi.

Til	Termin(lar) misol	Konseptual yo'nalish	Izoh
-----	-------------------	----------------------	------

Til	Termin(lar) misol	Konseptual yo'nalish	Izoh
Nemis tili	<i>Agrarwirtschaft</i> (аграр хўжалик), <i>Bioanbau</i> (био-экинчилик), <i>Landwirtschaftsbetrieb</i> (қишлоқ хўжалиги корхонаси), <i>Nachhaltige Landwirtschaft</i> (барқарор қишлоқ хўжалиги)	Ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik	Germaniya agrobiznesi atamalarida barqarorlik, bioishlab chiqarish va ekologik mas'uliyat alohida ahamiyatga ega.
Rus tili	<i>Агропромышленный комплекс</i> (АПК), <i>фермерское хозяйство</i> , <i>сельхозпроизводитель</i> (қишлоқ хўжалик ишлаб чиқарувчиси), <i>сельскохозяйственные угодья</i> (қишлоқ хўжалиги ерлари), <i>продовольственная безопасность</i> (оziq-ovqat xavfsizligi)	Davlat siyosati, ishlab chiqarish hajmi, markazlashgan boshqaruv	Sovet va Rossiya tajribasida APK va davlat tartibga solishi ustuvor bo'lib, "oziq-ovqat xavfsizligi" ham muhim konsept hisoblanadi.
O'zbek tili	<i>Agrobiznes, fermer xo'jaligi, dehqon bozori, kooperatsiya, qishloq xo'jaligi klasteri, oziq-ovqat xavfsizligi</i>	Amaliyot, an'ana, modernizatsiya	O'zbekistonda an'anaviy terminlar bilan birga "klaster", "kooperatsiya" kabi yangi atamalar ham milliy iqtisodiy islohotlar natijasida shakllanmoqda.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, agrobiznes terminologiyasi turli tillarda umumiy semantik yadroni saqlab qolgan holda, har bir milliy konseptosferada o'ziga xos ma'no va pragmatik yuklamalar bilan boyitilgan. Bu holat tilshunoslikning kross-madaniy yo'nalishlari uchun muhim ilmiy xulosa hisoblanadi.

Birinchi navbatda, nemis tilida agrobiznes terminlari ekologik barqarorlik, innovatsion texnologiyalar va ekologik mas'uliyat kabi qadriyatlar bilan uzviy bog'langan. Bu holat Germaniyadagi agrosanoat siyosati va barqaror rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Rus tilida esa agrobiznes terminlari ko'proq markazlashgan iqtisodiy boshqaruv tizimi va davlat siyosatiga xos konseptlar asosida shakllangan. Bu rus iqtisodiy-tarixiy tajribasi, kolxoz-sovxoiz tizimi va davlatning tartibga soluvchi roli bilan izohlanadi.

O'zbek tilida esa agrobiznes terminlari milliy an'analar, mehnat munosabatlari va amaliyot ustuvorligi bilan ifodalanadi. Xususan, qishloq xo'jaligiga oid terminlarda xalq og'zaki ijodi va etnografik omillar ta'siri kuchli ko'zga tashlanadi.

Xulosa. Qiyosiy tahlil shuni anglatadiki, agrobiznes terminologiyasining o'rganilishi faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Xususan, tarjimada semantik noaniqliklarni oldini olish, iqtisodiy-huquqiy hujjatlarda izchillikni ta'minlash va milliy termin tizimini boyitish imkoniyatlarini yaratadi.

Kelgusida quyidagi yo'nalishlarda izlanishlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Agrobiznes terminlarining ko'p tilli elektron lug'atini yaratish va unda konseptual semantika va qiyosiy izohlarini berish.
2. Parallel korpuslar asosida semantik xaritalarni ishlab chiqish, terminlarning qiyosiy interpretatsiyasini avtomatlashtirilgan tahlil qilish.
3. Kognitiv-lingvistik tadqiqotlarni kengaytirish va agrobiznes sohasi terminologiyasini xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish.
4. Milliy iqtisodiy amaliyotda terminlardan samarali foydalanish uchun tarjimonlar va iqtisodchilar uchun metodik qo'llanmalar tayyorlash.

Shunday qilib, agrobiznes terminologiyasi sohasidagi qiyosiy tadqiqotlar lingvistika, iqtisodiyot va madaniy muloqotda muhim nazariy va amaliy natijalarga ega bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Abdinabiyev S., Khudoyqulov A. The peculiarities of agricultural terms in English and Uzbek // *Tadqiqotlar.uz.* – 2023. – Т. 2. – №4. – P. 101–110. – URL: <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/1111>
2. Davis J. H., Goldberg R. A. *A Concept of Agribusiness.* – Boston: Harvard University Press, 1957. – 136 p.
3. Donskova L. A., Fedorova T. D. Agricultural terminology: Some ways of forming terms and their polysemy // *Epomen.* – 2020. – №38. – С. 108–113.
4. Felber H. *Terminology Manual.* – Paris: UNESCO, 1984. – В. 78-80.
5. Grinev-Grinevich S. V. *Terminovedenie.* – М.: Akademiya, 2008. – В. 45-48.
6. Ҳамидов Н., Жўраев М. Қишлоқ хўжалиги терминологияси ва унинг ривожланиш хусусиятлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2019. – 212 б.
7. Иванова О. В., Петров С. А. Теоретические подходы к понятию агропредпринимательство и малый агробизнес // *Экономика и управление: анализ, практика.* – 2018. – Т. 3. – №12. – С. 55–62. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-podhody-k-ponyatiyu-agropredprinimatelstvo-i-malyy-agrobiznes>
8. Lotte D. S. *Osnovy postroeniya nauchno-tehnicheskoy terminologii.* – М.: Nauka, 1961.
9. Oliveira E. dos S., Silva F. P., Andrade E. R., Nobre H. T. Analysis of conceptual definitions of agribusiness using the conceptual bibliographic method // *ResearchGate*, 2023. – DOI: 10.13140/RG.2.2.23758.74564.
10. Porter M. E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance.* – New York: Free Press, 1985. – 557 p.

*Kaxorova Nargiza Nusratovna,
Buxoro davlat universiteti
Ingliz adabiyotshunosligi
va tarjimashunoslik kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: kaxorovanargiza5@gmail.com*

A COMPARATIVE DIACHRONIC CORPUS-BASED ANALYSIS OF LINGUISTIC FEATURES AND LITERARY GENRES IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek adabiyotidagi lingvistik xususiyatlar hamda adabiy janrlarning qiyosiy diaxron korpus asosidagi tahlili taqdim etiladi. Tadqiqot turli adabiy davrlardagi til va janr tizimlaridagi tarixiy o'zgarishlarni o'rganib, ikki adabiy an'ana o'rtasidagi tipologik o'xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan. Korpus lingvistikasi metodlariga tayangan holda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, strukturaviy va madaniy tafovutlarga qaramay, har ikkala adabiyot ham til transformatsiyasi va janr evolyutsiyasining o'xshash jarayonlarini namoyon etadi. Tadqiqot ingliz va o'zbek adabiyotining rivojlanishidagi asosiy tarixiy bosqichlarni aks ettiruvchi diaxron korpuslarni yaratish va tahlil qilishga asoslanadi. Muhim lingvistik o'zgarishlar hamda janrga xos markerlarni aniqlash uchun chastota tahlili, kalit so'zlarni ajratib olish va kollokatsiyalar xaritalash kabi hisoblash va korpus tahlili usullaridan foydalaniladi. Qiyosiy tahlil, shuningdek, ijtimoiy-madaniy, tarixiy va lingvistik omillar ta'sirida shakllangan janr rivojidagi o'xshashlik va tafovutlarni yoritadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz adabiyotida janr differensiasiyasi nisbatan erta va tarkibiy jihatdan xilma-xil shakllangan bo'lsa, o'zbek adabiyotida janrlarning shakllanish jarayoni og'zaki an'analar hamda keyingi standartlashtirish jarayonlari ta'sirida asta-sekin rivojlangan. Tadqiqot, shuningdek, til kontaktlari, modernizatsiya va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar har ikkala adabiy an'ananing rivojlanishida muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot korpusga asoslangan adabiyotshunoslikka janr evolyutsiyasi va lingvistik o'zgarishlarni tizimli qiyosiy yondashuv asosida o'rganish orqali hissa qo'shadi. Tadqiqot ingliz va o'zbek adabiyoti tarixida til, madaniyat va adabiy shakl o'rtasidagi dinamik munosabatlarga oid yangi ilmiy xulosalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: diaxron tahlil, korpus lingvistikasi, adabiy janrlar, tipologiya, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti.

Аннотация. В данной статье представлен сравнительный диахронический корпусный анализ лингвистических особенностей и литературных жанров в английской и узбекской литературе. Исследование рассматривает исторические изменения в языковом употреблении и жанровых системах различных литературных периодов с целью выявления типологических сходств и различий между двумя литературными традициями. Исследование основано на создании и анализе диахронических корпусов, представляющих основные исторические этапы развития английской и узбекской литературы. Для выявления значительных языковых изменений и жанрово-специфических маркеров применяются вычислительные и корпусно-лингвистические методы, включая частотный анализ, извлечение ключевых слов и картирование коллокаций. Сравнительный анализ также позволяет определить сходства и различия в развитии жанров, обусловленные социокультурными, историческими и лингвистическими факторами. Результаты исследования показывают, что английская литература характеризуется более ранней и более разнообразной жанровой дифференциацией, тогда как узбекская литература отражает постепенный процесс формализации жанров, находившийся под влиянием устной традиции и последующих процессов стандартизации. Исследование также демонстрирует, что языковые контакты, модернизация и социально-политические трансформации сыграли важную роль в формировании литературного развития обеих традиций. В целом данное исследование вносит вклад в корпусные литературоведческие исследования, предлагая систематический межязыковой подход к изучению языковой и жанровой эволюции. Работа открывает новые перспективы для понимания динамического взаимодействия языка, культуры и литературной формы в истории английской и узбекской литератур.

Ключевые слова: диахронический анализ, корпусная лингвистика, литературные жанры, типология, английская литература, узбекская литература.

Abstract. This article presents a comparative diachronic corpus-based analysis of linguistic features and literary genres in English and Uzbek literature. The study explores historical changes in language and genre systems across different periods. Using corpus linguistics methods, the research identifies typological similarities and differences between the two literary traditions. The findings reveal that despite structural differences, both literatures demonstrate parallel evolutionary patterns in genre development and linguistic transformation. The research is based on the construction and analysis of diachronic corpora representing different historical stages of English and Uzbek literary development. Using computational tools and corpus analysis software, including frequency analysis, keyword extraction, and collocation mapping, the study identifies significant linguistic shifts and genre-specific markers. In addition, comparative analysis is conducted to highlight similarities and differences in genre evolution influenced by sociocultural, historical, and linguistic factors. Preliminary findings suggest that English literature demonstrates earlier and more structurally diversified genre differentiation, while Uzbek literature reflects a gradual formalization of genres influenced by oral tradition and later standardization processes. The study also indicates that language contact, modernization, and socio-political transformations play a crucial role in shaping literary development in both traditions. Overall, this research contributes to corpus-based literary studies by offering a systematic cross-linguistic perspective on genre evolution and linguistic change, providing new insights into the interaction between language, culture, and literary form.

Keywords: diachronic analysis, corpus linguistics, literary genres, typology, English literature, Uzbek literature

Introduction. In modern linguistics and literary studies, corpus-based approaches have become increasingly important. Diachronic analysis allows researchers to examine language evolution over time. English and Uzbek literatures, shaped in different socio-cultural contexts, provide rich material for comparative study. The research employs corpus linguistics methods, comparative analysis, and diachronic approaches. Texts from different historical periods are analyzed to identify linguistic and genre-based changes. Language and literature are dynamic systems that continuously evolve under the influence of historical, cultural, and social changes. Diachronic corpus-based linguistics provides a powerful methodology for analyzing these changes by using large digital collections of texts from different time periods. This approach allows researchers to identify systematic patterns in linguistic usage and literary development across centuries. English and Uzbek literary traditions offer an interesting comparative case. English literature has developed through well-documented stages from Old English epics to modern global literature, while Uzbek literature has evolved from classical Chagatai poetry and Islamic literary traditions to Soviet-influenced prose and contemporary post-independence works. Although these languages belong to different language families—English is Germanic and Uzbek is Turkic—they both reflect deep historical transformations shaped by external contact, political shifts, and cultural modernization. The main aim of this study is to compare the diachronic development of linguistic features and literary genres in English and Uzbek literature using corpus-based methods. The study focuses on lexical change, morphology, syntax, stylistics, and genre evolution.

Main Part. Linguistic Features. English language evolved from synthetic to analytic structure, while Uzbek maintained agglutinative features. Lexical borrowing played key roles in both languages. English literature shows development of novel and drama, while Uzbek literature historically emphasized poetry before prose expansion. The relationship between language and genre reveals that structural changes in language influence genre formation. In recent decades, corpus linguistics has emerged as a powerful methodological framework in both linguistic and literary studies. It allows researchers to analyze large collections of authentic texts and identify patterns that are not easily observable through traditional qualitative approaches. A diachronic corpus, in particular, provides valuable insights into how language and literary forms evolve across different historical periods. English and Uzbek literatures represent two distinct yet equally rich traditions. English literature has undergone significant transformations from Old English to Modern English periods, while Uzbek literature has evolved from classical Chagatai texts to contemporary literary forms. Despite differences in linguistic typology and cultural background, both traditions reveal comparable processes of linguistic adaptation and genre

development. The main objective of this study is to explore the typological characteristics of linguistic features and literary genres in English and Uzbek literature through diachronic corpus analysis. English vocabulary has undergone extensive transformation due to historical contact with Norman French, Latin, Greek, and more recently global languages. As a result, English contains a high percentage of loanwords. Scientific and technological revolutions further expanded its lexical inventory. In contrast, Uzbek vocabulary has been shaped by Arabic and Persian influence during the Islamic period, Russian during the Soviet era, and English in the modern global era. However, native Turkic roots remain dominant in everyday vocabulary. A corpus analysis reveals that English shows higher lexical diversity and rapid lexical expansion, while Uzbek exhibits cyclical borrowing patterns tied to political history. English has experienced a dramatic simplification of morphology. Old English had a complex system of noun declensions and verb conjugations, which gradually disappeared. Modern English relies heavily on word order and auxiliary verbs instead of inflection.

Uzbek, on the other hand, is an agglutinative language and has maintained a stable morphological system. Words are formed through the addition of suffixes that express grammatical relationships such as tense, possession, and case. Corpus data shows remarkable continuity in Uzbek morphological patterns over centuries. English syntax has become increasingly fixed, primarily following Subject-Verb-Object (SVO) order. Earlier stages of English allowed more flexibility, but modern usage prioritizes clarity and structural consistency. Uzbek syntax typically follows Subject-Object-Verb (SOV) order but allows greater flexibility for stylistic and pragmatic purposes, especially in poetry and classical literature. Corpus analysis shows that Uzbek literary texts often manipulate word order for emphasis and rhythm.

English literary style has shifted from highly ornate Renaissance prose to more concise modern and postmodern styles. The rise of psychological realism and stream-of-consciousness techniques demonstrates increasing complexity in narrative structure. Uzbek literature shows a transition from highly metaphorical and poetic classical styles to more direct narrative prose in the 20th century. Soviet realism imposed stylistic constraints, while post-independence literature has introduced stylistic diversity and experimentation.

Discussion and Results. The study employs a mixed-method approach combining qualitative and quantitative analysis. The primary methods include:

- Corpus-based analysis: Examination of representative texts from different historical periods
- Diachronic analysis: Investigation of linguistic and genre changes over time
- Comparative method: Identification of similarities and differences between the two literary traditions
- Statistical analysis: Frequency and distribution of linguistic units

The corpus includes samples from:

- Old, Middle, and Modern English literature
- Classical, Jadid, and modern Uzbek literature

Lexical Development

Lexical change is one of the most dynamic aspects of language evolution. In English, vocabulary expansion has been significantly influenced by contact with Latin, French, and other languages. This has resulted in a highly heterogeneous lexicon with multiple synonyms and stylistic layers. In contrast, Uzbek vocabulary has been shaped by strong influences from Arabic and Persian, particularly in classical literature. However, modern Uzbek shows a tendency toward lexical simplification and standardization.

Grammatical Evolution. English has undergone a shift from a synthetic to an analytic language. This transformation involved the reduction of inflectional morphology and increased reliance on word order and auxiliary verbs. Uzbek, as an agglutinative language, has preserved its morphological structure. Grammatical relations are expressed through suffixation, which provides clarity and consistency in sentence formation.

Stylistic Features. Stylistic variation reflects both linguistic and cultural changes. In English literature, the transition from classical to modern styles is marked by simplification and increased use of colloquial language. Similarly, Uzbek literature experienced stylistic transformation during the Jadid period, when writers began to adopt more accessible and socially oriented language. Drama, especially during the Renaissance period, played a crucial role in shaping literary language and narrative techniques. Uzbek literature has historically emphasized poetic forms such as ghazals and rubaiyat. These genres are characterized by rich metaphorical language and strict formal structures. The development of prose

genres in Uzbek literature is relatively recent and is closely associated with socio-political changes in the 19th and 20th centuries.

Typological Analysis. From a typological perspective, both literatures exhibit parallel developmental patterns despite structural differences:

- Both traditions show a transition from formal, complex styles to more accessible language
- Genre diversification increases over time
- Literary forms adapt to reflect changing social realities

These similarities suggest that literary evolution is influenced not only by linguistic structure but also by universal cultural and communicative needs.

The relationship between language and genre is reciprocal. Changes in linguistic structure often lead to the emergence of new genres, while genre conventions shape language use.

For example:

- Dramatic texts favor dialogic structures
- Narrative genres utilize descriptive and temporal language
- Poetry emphasizes rhythm, imagery, and metaphor

This interaction highlights the functional nature of language in literary expression.

Discussion. The findings of this study confirm that diachronic corpus analysis is an effective tool for examining linguistic and literary evolution. The comparative approach reveals that despite typological differences, English and Uzbek literatures share common developmental trajectories. The results also support the hypothesis that genre evolution is closely linked to linguistic change, as well as to broader socio-cultural transformations.

Conclusion. The study confirms that diachronic corpus analysis is effective in identifying typological patterns in literature. This study has examined the diachronic development of linguistic features and literary genres in English and Uzbek literature through a corpus-based comparative approach. The analysis demonstrates that both languages have undergone significant but structurally different transformations shaped by historical, cultural, and socio-political influences. In the case of English, the diachronic trajectory shows extensive structural simplification, particularly in morphology, alongside major expansion in vocabulary due to sustained contact with Latin, French, and other global languages. The evolution of English literature also reveals a strong shift in genre hierarchy, with the novel emerging as the dominant form from the 18th century onward, followed by increasing diversification into modernist and postmodern experimental genres. Uzbek literature, by contrast, exhibits remarkable morphological stability due to its agglutinative nature, which has remained largely consistent across historical stages. However, its lexical system has been highly dynamic, reflecting successive waves of influence from Arabic, Persian, Russian, and English. Genre development in Uzbek literature follows a different path, moving from a strong classical poetic tradition (particularly ghazal and rubai forms) toward prose-based narrative forms in the 20th century, especially under Soviet literary influence, and later expanding into more diverse and hybrid genres in the post-independence period.

Overall, the comparative findings highlight that while English has experienced deeper structural linguistic change, Uzbek literature has maintained grammatical continuity while undergoing significant lexical and stylistic adaptation. Despite these differences, both traditions show parallel tendencies in genre modernization and increased linguistic borrowing driven by globalization and cultural interaction. In conclusion, a diachronic corpus-based perspective provides a systematic and evidence-driven understanding of how language and literature evolve over time. It also demonstrates that literary development is closely tied to broader historical processes, making corpus linguistics a valuable tool for comparative literary and linguistic studies.

REFERENCES:

1. Biber, D. (2011). *Corpus Linguistics and Discourse Analysis*. Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.
3. McEnery, T., & Hardie, A. (2012). *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice*. Cambridge University Press.
4. Qodirov, M. (2010). *History of Uzbek Literature*. Tashkent.
5. Rahmatullayev, Sh. (2006). *Modern Uzbek Literary Language*. Tashkent

*Abdullayeva Umida Nigmatullayevna,
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti katta o'qituvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: @abdullayeva_umida7777@gmail.com*

EKOTURIZM TERMINLARINING LINGVOSEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI QIYOSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekoturizm terminlarining ingliz va o'zbek tillaridagi lingvosemantik hamda lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ekoturizm sohasiga oid terminlarning semantik tuzilishi, ularning ma'no ko'lamlari hamda madaniy komponentlari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashdan iborat. Maqolada zamonaviy lingvistik yondashuvlar, jumladan, qiyosiy tahlil, semantik tahlil va lingvokulturologik metodlardan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida ekoturizm terminlari ko'proq global va universal xarakterga ega bo'lsa, o'zbek tilida ular milliy-madaniy xususiyatlar bilan boyigan holda qo'llanadi. Shuningdek, ayrim terminlarning tarjimasida semantik muvofiqlik muammolari kuzatiladi. Tadqiqot natijalari ekoturizm terminologiyasini tizimlashtirish va uni tarjima jarayonida samarali qo'llash uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ekoturizm, terminologiya, lingvosemantika, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil, semantik maydon, tarjima muammolari, madaniy komponent

Abstract. This article examines the linguosemantic and linguocultural features of ecotourism terminology in English and Uzbek through a comparative perspective. The primary objective of the study is to identify similarities and differences in the semantic structures, meaning extensions, and cultural components of ecotourism-related terms. The research employs contemporary linguistic approaches, including comparative, semantic, and linguocultural analysis. The findings reveal that English ecotourism terminology tends to demonstrate a more globalized and standardized character, whereas Uzbek equivalents often reflect national and cultural specificity. In addition, certain challenges related to semantic equivalence in translation are observed. The results of the study provide both theoretical and practical insights for the systematization of ecotourism terminology and its effective application in translation practices.

Keywords: ecotourism, terminology, linguosemantics, linguocultural analysis, comparative study, semantic field, translation issues, cultural specificity

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвoseмантические и лингвокультuroлогические особенности терминов экотуризма в английском и узбекском языках на основе сравнительного анализа. Основной целью исследования является выявление сходств и различий в семантической структуре, значениях и культурных компонентах терминов, относящихся к сфере экотуризма. В работе применяются современные лингвистические методы, включая сравнительный, семантический и лингвокультuroлогический анализ. Результаты исследования показывают, что английская терминология экотуризма носит более универсальный и стандартизированный характер, тогда как узбекские эквиваленты отражают национально-культурную специфику. Также выявлены определённые трудности, связанные с семантической эквивалентностью при переводе. Полученные результаты могут служить теоретической и практической основой для систематизации терминологии экотуризма и её эффективного использования в переводческой практике.

Ключевые слова: экотуризм, терминология, лингвoseмантика, лингвокультuroлогия, сравнительный анализ, семантическое поле, проблемы перевода, культурная специфика.

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida turizm sohasi jadal rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish g'oyalari asosida shakllanayotgan ekoturizm yo'nalishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ham ega bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, mazkur sohaning rivojlanishi yangi terminlar va tushunchalarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu esa

tilshunoslikda, xususan, terminologiya, lingvosemantika va lingvokulturologiya yoʻnalishlarida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Ekoturizm terminologiyasi asosan ingliz tilida shakllangan boʻlib, global ilmiy va amaliy muhitda keng qoʻllaniladi. Shu sababli mazkur terminlarning boshqa tillarga, jumladan, oʻzbek tiliga oʻzlashuvi va tarjima qilinishi jarayonida turli lingvistik va madaniy muammolar yuzaga keladi. Xususan, ayrim terminlarning toʻliq semantik muvofiqligi taʼminlanmasligi, ularning maʼno koʻlamining torayishi yoki kengayishi, shuningdek, milliy-madaniy komponentlarning turlicha aks etishi kuzatiladi. Bu holat esa terminlarning toʻgʻri talqin qilinishi va amaliyotda samarali qoʻllanilishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, ekoturizm terminlarining lingvosemantik va lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan oʻrganish orqali ularning mazmuniy va funksional jihatlari chuqurroq yoritiladi. Bu esa nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik va amaliy kommunikatsiya sohalari uchun ham muhim ilmiy asos yaratadi. Ayniqsa, ingliz va oʻzbek tillari oʻrtasidagi terminologik moslik darajasini aniqlash, ularning oʻzaro ekvivalentligini baholash hamda muqobil tarjima variantlarini taklif etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi ekoturizm terminlarining ingliz va oʻzbek tillaridagi lingvosemantik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: ekoturizm terminologiyasining nazariy asoslarini aniqlash; ingliz va oʻzbek tillarida qoʻllaniladigan asosiy terminlarning semantik tuzilishini tahlil qilish; ularning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash; tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni oʻrganish hamda ularni bartaraf etish boʻyicha takliflar ishlab chiqish. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, semantik tahlil, tavsifiy hamda lingvokulturologik metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida ekoturizm terminlarining maʼno xususiyatlari, ularning til tizimidagi oʻrni va madaniy konnotatsiyalari keng qamrovda oʻrganildi. Shuningdek, terminlarning qoʻllanish doirasi va funksional xususiyatlari ham tahlil qilindi. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ekoturizm terminlari ilk bor ingliz va oʻzbek tillari kesimida lingvosemantik va lingvokulturologik jihatdan kompleks tarzda qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ekoturizm terminologiyasini tizimlashtirish, ularni standartlashtirish va tarjima jarayonida samarali qoʻllash uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ekoturizm terminologiyasi soʻnggi yillarda tilshunoslik, tarjimashunoslik hamda madaniyatlararo kommunikatsiya doirasida faol oʻrganilayotgan yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotchilar orasida terminologiya nazariyasi, xususan, terminlarning semantik tuzilishi va tizimliliigi masalalari keng yoritilgan. Terminologiya sohasida olib borilgan ilmiy ishlarda terminlarning aniqligi, bir maʼnoliligi va tizimli tashkil etilishi muhim mezon sifatida qaraladi. Ekoturizm terminlari esa ushbu umumiy qonuniyatlar asosida shakllangan boʻlsa-da, ular ekologiya, turizm va ijtimoiy madaniyat kesishgan nuqtada paydo boʻlishi bilan alohida xususiyat kasb etadi. Lingvosemantik yondashuv doirasida terminlarning maʼno tuzilishi, ularning semantik maydondagi oʻrni hamda oʻzaro bogʻliqligi oʻrganiladi. Bu borada koʻplab tadqiqotlarda terminlarning polisemiya, sinonimiya va giponimiya kabi hodisalari tahlil qilingan. Ekoturizm terminologiyasida ham “barqaror turizm”, “eko-yoʻnalish”, “yashil turizm” kabi tushunchalarning maʼno jihatdan yaqinligi yoki farqlanishi lingvosemantik tahlilni talab etadi. Shu bilan birga, ingliz tilida shakllangan koʻplab terminlarning oʻzbek tiliga oʻzlashuvi jarayonida ularning semantik hajmi oʻzgarishi yoki torayishi kuzatiladi, bu esa terminologik muvofiqlik masalasini dolzarb qiladi. Lingvokulturologik yondashuv esa terminlarning nafaqat til tizimidagi, balki madaniy kontekstdagi oʻrnini aniqlashga qaratilgan. Ekoturizm terminlari koʻpincha maʼlum bir jamiyatning ekologik ong darajasi, tabiatga munosabati va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bogʻliq holda shakllanadi. Ingliz tilidagi terminlar koʻproq global va standartlashgan xarakterga ega boʻlsa, oʻzbek tilidagi muqobil milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirishi bilan farqlanadi. Shu sababli, terminlarning lingvokulturologik tahlili ularning chuqurroq mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham terminologiya, tarjima muammolari va lingvokulturologiya masalalari boʻyicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda terminlarning oʻzbek tiliga moslashtirilishi, milliy til imkoniyatlari asosida yangi terminlar yaratish hamda xorijiy terminlarning adekvat tarjimasini taʼminlash masalalari yoritilgan. Biroq ekoturizm terminologiyasining aynan ingliz va oʻzbek tillari kesimidagi kompleks lingvosemantik va lingvokulturologik tahlili yetarli darajada oʻrganilmagan boʻlib, bu mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Mazkur tadqiqot

metodologik jihatdan bir nechta yondashuvlar uyg'unligiga asoslanadi. Avvalo, qiyosiy-tahliliy metod yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi ekoturizm terminlari o'zaro solishtirildi, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Semantik tahlil metodi orqali terminlarning ma'no tuzilishi, semantik maydondagi o'rni va funksional xususiyatlari o'rganildi. Lingvokulturologik metod yordamida esa terminlarning madaniy komponentlari, milliy xususiyatlari va ularning til orqali ifodalanish shakllari tahlil qilindi. Bundan tashqari, tavsifiy metod orqali terminlarning qo'llanishi, shakllanishi va rivojlanish jarayoni izohlandi. Tadqiqot jarayonida tanlangan ekoturizm terminlari namunaviy birlik sifatida olinib, ularning ingliz va o'zbek tillaridagi muqobillari tahlil qilindi. Shuningdek, tarjima tahlili metodi asosida terminlarning bir tildan ikkinchi tilga o'tish jarayonidagi semantik muvofiqlik darajasi baholandi. Umuman olganda, mazkur metodologik yondashuvlar ekoturizm terminlarining lingvosemantik va lingvokulturologik xususiyatlarini har tomonlama yoritish, ularning qiyosiy tahlilini amalga oshirish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot jarayonida ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan ekoturizm terminlari lingvosemantik hamda lingvokulturologik jihatdan qiyosiy tahlil qilinib, bir qator muhim natijalarga erishildi. Avvalo, aniqlanishicha, ekoturizm terminologiyasining asosiy qismi ingliz tilida shakllangan bo'lib, ular global ilmiy va amaliy muhitda standartlashgan birliklar sifatida faol qo'llanadi. Masalan, "ecotourism", "sustainable tourism", "eco-friendly", "biodiversity", "conservation" kabi terminlar o'zining aniq semantik chegaralari va keng qo'llanish doirasi bilan ajralib turadi. Ushbu terminlar o'zbek tiliga tarjima qilinganda asosan to'g'ridan-to'g'ri (kalka) yoki izohli tarjima orqali o'zlashtiriladi, natijada "ekoturizm", "barqaror turizm", "eko-do'st", "biologik xilma-xillik", "tabiatni muhofaza qilish" kabi muqobillar shakllangan. Lingvosemantik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi terminlar ko'pincha bir ma'noli va tizimli xarakterga ega bo'lsa, o'zbek tilida ularning semantik hajmi ayrim hollarda kengayishi yoki torayishi kuzatiladi. Masalan, "sustainable tourism" termini ingliz tilida aniq ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik komponentlarini o'z ichiga olsa, o'zbek tilidagi "barqaror turizm" atamasi ba'zan faqat ekologik jihat bilan cheklanishi mumkin. Bu holat terminlarning semantik muvofiqligida qisman tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim terminlarda sinonimik qatlam yuzaga kelishi ham kuzatildi, masalan, "eco-friendly" atamasiga nisbatan "eko-do'st", "ekologik toza", "tabiatga zarar yetkazmaydigan" kabi bir nechta variantlar qo'llaniladi, bu esa terminologik birlikning barqaror emasligini bildiradi.

Lingvokulturologik tahlil natijalari esa terminlarning madaniy komponentlari til tizimida muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Ingliz tilidagi ekoturizm terminlari ko'proq global ekologik qadriyatlar va universal tushunchalarni ifodalasa, o'zbek tilidagi muqobillar milliy-madaniy xususiyatlar bilan boyitilgan holda qo'llanadi. Masalan, o'zbek tilida tabiatga hurmat, yer va suvga ehtirom kabi qadimiy madaniy qarashlar ayrim terminlarning mazmuniga bilvosita singib ketgan. Bu esa terminlarning faqat lingvistik birlik emas, balki madaniy kod sifatida ham ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar ham aniqlandi. Birinchidan, ayrim terminlarning to'liq ekvivalenti mavjud emasligi sababli ularni izohli tarzda berishga to'g'ri keladi. Ikkinchidan, semantik tafovutlar tufayli terminlarning ma'nosi to'liq yetkazilmasligi mumkin. Uchinchidan, terminlarning ko'p variantlilik holati ularning standartlashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda ingliz tilidagi terminlarning o'zbek tilida aynan shaklda qabul qilinishi (transliteratsiya) ham kuzatiladi, bu esa milliy terminologiya rivojiga ikki xil ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Muhokama jarayonida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ekoturizm terminologiyasini o'zbek tilida yanada takomillashtirish uchun ularni tizimlashtirish, standartlashtirish va yagona me'yor asosida qo'llash zarur. Terminlarning lingvosemantik aniqligini ta'minlash bilan birga, ularning lingvokulturologik xususiyatlarini ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tarjima jarayonida faqat lingvistik moslik emas, balki madaniy moslikni ham ta'minlash zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ekoturizm terminlarining ingliz va o'zbek tillaridagi o'ziga xos jihatlarni ochib berdi hamda ularning qiyosiy tahlili orqali terminologiya va tarjimashunoslik sohalari uchun muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon yaratdi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot doirasida ingliz va o'zbek tillaridagi ekoturizm terminlarining lingvosemantik hamda lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy asosda tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar natijasida ekoturizm terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishida ingliz tilining yetakchi rol o'ynashi, uning global ilmiy va amaliy muhitda asosiy manba sifatida xizmat qilishi aniqlandi. Shu bilan

birga, mazkur terminlarning o'zbek tiliga o'zlashuvi jarayonida ularning semantik tuzilishi va madaniy komponentlarida muayyan o'zgarishlar yuz berishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi ekoturizm terminlari asosan standartlashgan, aniq va bir ma'noli tizimga ega bo'lsa, o'zbek tilida ularning qo'llanishida ko'p variantlilik va ba'zan semantik noaniqlik holatlari uchraydi. Bu esa terminlarning to'liq ekvivalentligini ta'minlashda qiyinchiliklar tug'diradi. Ayniqsa, tarjima jarayonida ayrim terminlarning ma'nosi to'liq ifodalanmasligi yoki ortiqcha kengayib ketishi holatlari kuzatildi. Shu sababli, terminlarning lingvosemantik jihatdan aniqligini ta'minlash muhim ilmiy va amaliy vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Lingvokulturologik tahlil esa terminlarning faqat til birliklari emas, balki muayyan xalqning madaniy qarashlari, ekologik tafakkuri va qadriyatlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Ingliz tilidagi terminlar global xarakterga ega bo'lsa, o'zbek tilidagi muqobillar milliy-madaniy xususiyatlar bilan boyitilgan holda shakllanadi. Bu esa terminlarning tarjimasida faqat lingvistik moslikni emas, balki madaniy moslikni ham hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi. Tadqiqot asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi: birinchidan, ekoturizm terminologiyasini o'zbek tilida tizimlashtirish va standartlashtirish zarur; ikkinchidan, terminlarning semantik aniqligini ta'minlash uchun ularning ilmiy asoslangan izohlarini ishlab chiqish lozim; uchinchidan, tarjima jarayonida lingvokulturologik omillarni hisobga olish orqali terminlarning mazmuniy to'liqligini ta'minlash mumkin; to'rtinchidan, ekoturizm terminologiyasini o'rganishda kompleks yondashuv, ya'ni lingvosemantik va lingvokulturologik tahlilni uyg'unlashtirish samarali natijalar beradi. Mazkur tadqiqot natijalari ekoturizm terminologiyasini yanada chuqur o'rganish, uni takomillashtirish va amaliyotda qo'llash uchun muhim nazariy asos yaratadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda korpus lingvistikasi asosida kengroq tadqiqotlar olib borish, shuningdek, ekoturizm terminlarining tarjima standartlarini ishlab chiqish ilmiy jihatdan dolzarb masalalardan biri bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR:

1. Fennell D.A. Ecotourism. – 5th ed. – London: Routledge, 2020. – 344 p.
2. Weaver D.B. Sustainable Tourism: Theory and Practice. – 2nd ed. – Oxford: Elsevier, 2019. – 268 p.
3. Honey M. Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise? – Washington: Island Press, 2018. – 432 p.
4. Gössling S., Scott D., Hall C.M. Pandemics, tourism and global change: a rapid assessment of COVID-19 // Journal of Sustainable Tourism. – 2021. – Vol. 29, No. 1. – P. 1–20.
5. UNWTO. Sustainable Development of Tourism. – Madrid: World Tourism Organization, 2022. – 150 p.
6. Hall C.M. Tourism and Climate Change: Impacts, Adaptation and Mitigation. – London: Routledge, 2021. – 320 p.
7. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins, 2018. – 248 p.
8. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam: John Benjamins, 2017. – 300 p.
9. Wierzbicka A. Imprisoned in English: The Hazards of English as a Default Language. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – 288 p.
10. Sharipov Sh.S. O'zbek tilida terminologiya masalalari va rivojlanish tendensiyalari. – Toshkent: Fan, 2021. – 180 b.
11. Mahmudov N.M. Til va madaniyat: lingvokulturologik tadqiqotlar. – Toshkent: Akademiya, 2020. – 220 b.
12. Rasulov R.A. Tarjimashunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 256 b.

*Xusenova Mehriniso O'ktamovna,
Buxoro davlat universiteti
Ingliz adabiyotshunosligi va
tarjimashunoslik kafedrası
o'qituvchisi (O'zbekiston)
E-mail: khusenovamehriniso@gmail.com*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ASTRONOMIYAGA OID TERMINLARNING MORFEMIK TAHLILI VA STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur ishda ingliz va o'zbek tillaridagi astronomik terminlarning morfemik tuzilishi, leksik-derivatsion xususiyatlari hamda shakllanish mexanizmlari keng tahlil qilingan. Tadqiqotda terminlar tub (sodda) va affiksatsiya hamda kompozitsiya usulida yasalgan yasama birliklarga ajratilib, ularning ichki strukturaviy qatlamlari yoritilgan. Tub terminlar asosan grek va lotin tillaridan o'zlashgan bo'lib, zamonaviy til tizimida yaxlit va bo'linmas leksik birlik sifatida qaraladi. Yasama terminlar esa aniq morfemik segmentatsiyaga ega bo'lib, xalqaro va milliy affiksalar hamda ildizlar asosida hosil qilinadi. Tahlil natijalari ingliz tilida astronomik terminologiya yuqori darajada standartlashgan va barqaror derivatsion tizimga ega ekanini, o'zbek tilida esa milliy leksika va xalqaro o'zlashmalar uyg'unlashuvi asosida shakllangan moslashuvchan terminologik tizim mavjudligini ko'rsatadi. Umuman olganda, astronomik terminlar har ikki tilda ilmiy axborotni aniq, ixcham va tizimli ifodalashga xizmat qiladi, biroq ularning morfemik tashkil topishi turli lingvistik mexanizmlar orqali amalga oshadi hamda bu holat til va ilmiy tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.

Kalit so'zlar: astronomik terminlar, morfemik tahlil, affiksatsiya, tub terminlar, kompozitsiya, o'zlashma so'zlar, terminologiya.

Аннотация. В данной работе проводится расширенный анализ морфемной структуры астрономической терминологии в английском и узбекском языках, а также её лексико-derivационных особенностей и механизмов формирования. Термины классифицируются на простые (нечленимые) и производные, образованные посредством аффиксации и композиции. Простые термины в основном заимствованы из греческого и латинского языков и функционируют как целостные лексические единицы, тогда как производные термины обладают чёткой морфемной структурой и формируются на основе международных и национальных аффиксов и корней. Результаты исследования показывают, что английская астрономическая терминология характеризуется высокой степенью стандартизации и устойчивой derivационной системой, тогда как узбекская терминология представляет собой гибкую систему, основанную на взаимодействии национального словарного фонда и международных заимствований. В целом астрономические термины в обоих языках обеспечивают точность и системность научного выражения, однако их морфемная организация реализуется различными лингвистическими механизмами, отражающими специфику каждого языка.

Ключевые слова: астрономические термины, морфемный анализ, аффиксация, корневые термины, словосложение, заимствования, терминология.

Abstract. This study provides an expanded analysis of the morphological structure of astronomical terminology in English and Uzbek, focusing on its lexical-derivational properties and formation mechanisms. The terms are classified into simple (indivisible) units and derived forms created through affixation and compounding. Simple terms are mainly borrowed from Greek and Latin and function as holistic lexical units, while derived terms have clear morphemic segmentation and are formed using international and native roots and affixes. The findings show that English astronomical terminology is highly standardized with a stable derivational system, whereas Uzbek terminology represents a more flexible system shaped by the interaction of native lexical resources and international borrowings. Overall, astronomical terms in both languages ensure precision and systematic representation of scientific knowledge; however, their morphological organization is realized through different linguistic mechanisms, reflecting the structural and functional specificity of each language.

Keywords: astronomical terms, morphological analysis, affixation, root terms, compounding, borrowings, terminology.

Kirish. Astronomiyaga oid terminlar ingliz va o‘zbek tillarida morfemik jihatdan tahlil qilinganda, ularning tuzilishi murakkab leksik-derivatsion tizim asosida shakllanishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday terminlar ilmiy tafakkurning rivojlanishi, xalqaro ilmiy almashinuv va tilning ichki so‘z yasash imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq holda yuzaga kelgan. Natijada astronomik terminologiya ko‘p qatlamli, tarixiy jihatdan shakllangan va struktur jihatdan differensiallashgan tizim sifatida qaraladi. Mazkur terminlar asosan ikki katta qatlamga ajraladi: tub (sodda) terminlar va affiksatsiya hamda kompozitsiya usulida yasalgan terminlar. Tub terminlar morfemik jihatdan bo‘linmaydigan, semantik jihatdan yaxlit birliklar bo‘lib, ular ko‘pincha grek va lotin tillaridan o‘zlashgan. Bu guruhga kiruvchi terminlar ilmiy terminologiyada tayanch birlik vazifasini bajaradi, chunki ular asosiy astronomik obyektlar va hodisalarni nomlashda ishlatiladi. Ularning ichki tuzilmasi zamonaviy til nuqtai nazaridan motivatsiyasiz ko‘rinadi, ya‘ni komponentlarga ajratib talqin qilish imkoniyati deyarli yo‘q.

Ikkinchi qatlam esa affiksatsiya va kompozitsiya orqali hosil bo‘lgan yasama terminlarni o‘z ichiga oladi. Bu terminlar aniq morfemik segmentatsiyaga ega bo‘lib, ularning har bir komponenti muayyan semantik yuklamani tashiydi. Ingliz tilida bunday jarayon ko‘pincha grek-lotin ildizlari va xalqaro affikslar asosida amalga oshadi. Masalan, *astronomy* (astro- + -nomy), *astronaut* (astro- + -naut), *astrophysics* (astro- + physics) kabi terminlar murakkab derivatsion modelga ega. Bu birliklar ilmiy tushunchalarni tizimli va ierarxik shaklda ifodalash imkonini beradi.

Asosiy qism. Tub sodda terminlar morfemik jihatdan bo‘linmaydigan yoki sinxron tahlil nuqtai nazaridan ajralmas birlik sifatida qabul qilinadi. Bunday terminlar ko‘pincha grek va lotin tillaridan kirib kelgan bo‘lib, zamonaviy til tizimida yagona leksik blok sifatida idrok etiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *albedo*, *anomaliya*, *akkretsiya*, *aberratsiya*, *apogey*, *efemerida* hamda ingliz tilidagi *albedo*, *anomaly*, *accretion*, *aberration*, *apogee*, *ephemeris* terminlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, ingliz tilidagi *blazar*, *bulge*, *bolide* kabi terminlar ham morfemik jihatdan bo‘linmaydi. O‘zbek tilida esa *burj*, *yulduz*, *falak*, *Aqrab (Chayon)*, *Asad (Arslon)*, *Dalv (Qovg‘a)* kabi birliklar milliy qatlamga mansub sodda terminlar hisoblanadi. Ingliz tilida *Leo*, *Scorpius*, *Aquarius* kabi yulduz turkumlari nomlari ham shu guruhga kiradi.

Affiksatsiya va kompozitsiya usulida yasalgan terminlar esa aniq morfemik segmentatsiyaga ega bo‘lib, bir nechta ma‘noli komponentlardan tashkil topadi. Ingliz tilida bu jarayon grek-lotin ildizlari va xalqaro affikslar asosida shakllanadi. Masalan **astronomy** = astro- + -nomy; **astronaut** = astro- + -naut; **aberration** = aberr- + -ation; **astrophysics**, **astrobiology**, **astrodynamics**, **astronautics** kabi terminlar ham murakkab derivatsion tuzilishga ega.

O‘zbek tilida esa affiksatsiya ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: milliy qo‘shimchalar orqali va o‘zlashma asosga qo‘shimcha qo‘shish orqali. Masalan: **astronomik** = astronom + -ik; **astronavtika** = astronavi + -ika; **yulduzli** = yulduz + -li; **koinotshunoslik** = koinot + -shunos + -lik kabilar. Shuningdek, *astronomiya*, *astrofizika*, *astrologiya*, *astrobiologiya* kabi terminlar xalqaro morfemalar asosida o‘zlashgan yasama birliklar hisoblanadi. O‘zbek tilida kompozitsiya ham faol: **quyosh tizimi**, **yulduzlar xaritasi**, **osmon jismi** kabi birikmalar bunga misoldir.

Mazkur masalani yanada chuqurroq yoritishda tub sodda va yasama terminlarning faqat morfemik emas, balki leksik-semantik hamda funksional xususiyatlarini ham hisobga olish lozim. Terminologik tizimda bunday birliklar nafaqat shakliyl tuzilishi, balki ilmiy tafakkurni ifodalashdagi roli bilan ham farqlanadi.

Tub sodda terminlar, odatda, ilm-fan taraqqiyotining ilk bosqichlarida shakllangan yoki boshqa tillardan tayyor holda o‘zlashgan bo‘ladi. Ularning asosiy xususiyati – ichki morfemik segmentatsiyaning yo‘qligi va ma‘noning yaxlit holda idrok etilishidir. Shu sababli bunday terminlar ko‘pincha “leksik blok” yoki “terminologik atom” sifatida ham talqin qilinadi. Ular ilmiy matnlarda barqarorlikni ta‘minlaydi, chunki ularning ma‘nosi kontekstga nisbatan kam o‘zgaruvchan bo‘ladi.

Bundan tashqari, tub terminlarning ko‘p qismi internatsional xarakterga ega bo‘lib, turli tillarda fonetik jihatdan moslashgan holda qo‘llaniladi. Bu holat ilmiy kommunikatsiyaning globallashtirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *albedo*, *anomaly*, *apogee* kabi terminlar deyarli barcha yevropa tillarida bir xil yoki juda yaqin shaklda ishlatiladi. Bu esa ilmiy axborot almashinuvini yengillashtiradi.

Yasama terminlar esa tilning ichki so‘z yasash imkoniyatlarini aks ettiradi. Ular affiksatsiya, kompozitsiya hamda aralash (gibrid) usullar orqali hosil qilinadi. Bunday terminlar murakkab ilmiy tushunchalarni qismlarga ajratib, ularning tarkibiy elementlarini aniq ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan,

astrofizika terminida “astro” (osmon, yulduz) va “fizika” (tabiat haqidagi fan) komponentlarining birlashuvi natijasida yangi ilmiy tushuncha hosil bo‘ladi. Bu esa terminning motivatsion asosini ochib beradi. Yasama terminlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning produktivligidir. Ya’ni bir ildiz yoki asosdan bir nechta yangi terminlar hosil qilish mumkin. Masalan, *astro-* komponenti asosida *astronomiya, astronaut, astrobiologiya, astrofizika* kabi ko‘plab terminlar shakllanadi. Bu holat terminologik tizimning sistemaviyligini va ichki bog‘liqligini kuchaytiradi.

O‘zbek tilida terminlarning shakllanishi ikki qatlamda amalga oshadi: o‘zlashma (xalqaro) qatlam va milliy qatlam. O‘zlashma qatlam asosan grek-lotin asosli ilmiy terminlarni o‘z ichiga olsa, milliy qatlamda esa mavjud so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shish yoki ularni birikma shaklida qo‘llash orqali yangi terminlar yaratiladi. Masalan, *koinotshunoslik* (koinot + shunos + lik) milliy yasaliş modeli asosida shakllangan bo‘lib, ilmiy tushunchani ona til resurslari orqali ifodalaydi.

Shuningdek, terminlarning morfemik tahlili tarjima jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tub terminlar odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri transliteratsiya qilinsa, yasama terminlar esa ko‘pincha semantik moslashtirishni talab qiladi. Bu esa tarjima nazariyasida “terminologik ekvivalentlik” muammosini yuzaga keltiradi.

Muhokama va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi astronomik terminologiya yuqori darajada tizimlashgan bo‘lib, asosan grek-lotin morfemalari asosida barqaror derivatsion modelga ega. Bu til ilmiy termin yaratishda standartlashgan affiks va ildizlardan keng foydalanadi. O‘zbek tilida esa terminologik tizim ikki qatlamli xarakterga ega: milliy leksika va xalqaro o‘zlashmalar birgalikda ishlaydi. Bu holat tilning adaptatsion imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq morfemik bixillik darajasi ingliz tiliga nisbatan pastroq ekanini ko‘rsatadi.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, har ikki tilda ham astronomik terminlar ilmiy aniqlik va ixchamlikni ta’minlashga xizmat qiladi, biroq ularning morfemik tashkil topishi turli lingvistik mexanizmlar asosida amalga oshadi.

Tub sodda terminlar		Affiksatsiya usulida yasalgan terminlar (Sodda yasama)	
O‘zbek	Ingliz	O‘zbek	Ingliz
Aberratsiya	–	–	Aberra/tion (from Aberrant)
Afeliy	Aphelion	Aerografiya	Aerography
Akkreetsiya	Accretion	–	Apo/gee (Tarixan yasama)
Albedo	Albedo	Astronomik	Astronomic
Anomaliya	Anomaly	Astronomiya	Astronomy
Apogey	Apogee	Asterism	Asterism
Aqrab (Chayon)	Scorpius (the Scorpion)	Asteroid	Asteroid
Asad (Arslon)	Leo (The lion)	Astrobiologiya	Astrobiology (Exobiology)
Basterlar	–	Astrobotanika	Astrobotany
Bulj	Bulge	Astrodinamika	Astrodynamicis
Blazar	Blazar	Astrognoziya	Astrogonosy
Bolid	Bolide	Astrograf	Astrograph
Blazar	Blazar	Astrolyabiya	Astrolabe
Burj	–	Astrolog	Astrologer
Davr	Epoch	Astrologiya	Astrology
Dalv (Qovg`a)	Aquarius (The water)	Astronavt	Astronaut
Efemerida	Ephemeris	Astronavtika	Astronautics
		Astronom	Astronomer

Tahlillar natijasida shuni ham ta’kidlash mumkinki, astronomik terminlarning morfemik tuzilishi nafaqat til ichki qonuniyatlariga, balki ilm-fanning xalqaro rivojlanish tendensiyalariga ham bevosita bog‘liqdir. Xususan, ingliz tilida terminlarning ko‘pchiligi standart grek-lotin elementlari asosida

barqaror modelga ega bo'lib, bu ilmiy kommunikatsiyada aniqlik va birxillikni ta'minlaydi. O'zbek tilida esa terminlar asosan o'zlashma birliklarning moslashtirilishi hamda milliy so'z yasash imkoniyatlari orqali shakllanadi, bu esa terminologik tizimda variantlilik va moslashuvchanlikni yuzaga keltiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, har ikki tilning termin yaratish mexanizmi turlicha bo'lsa-da, ular ilmiy axborotni ifodalashda funksional jihatdan bir xil vazifani bajaradi.

Xulosa. Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillaridagi astronomik terminlar morfemik jihatdan murakkab va ko'p qatlamli tizimga ega bo'lib, ular ilmiy bilimlarni aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda ham astronomik terminlar tub (sodda) va affiksatsiya hamda kompozitsiya usulida yasalgan birliklarga ajraladi, biroq ularning shakllanish mexanizmlari va strukturaviy xususiyatlari turlicha namoyon bo'ladi.

Ingliz tilida astronomik terminologiya asosan grek-lotin ildizlari va xalqaro affiksalar asosida shakllangan bo'lib, bu tilning ilmiy termin yaratishda yuqori darajadagi standartlashgan va tizimlashgan modelga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunday terminlar ko'pincha aniq morfemalarga ajraladi va ularning ichki tuzilishi barqaror derivatsion qonuniyatlarga bo'ysunadi. Shu sababli ingliz tilida astronomik terminlar ilmiy muhitda universal va xalqaro kommunikatsiyani ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbek tilida esa astronomik terminlar ikki asosiy qatlam – milliy leksik birliklar va o'zlashma xalqaro terminlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllangan. Bu jarayonda affiksatsiya va kompozitsiya usullari faol qo'llanilib, tilning ichki imkoniyatlari hamda tashqi ta'sirlar integratsiyasi kuzatiladi. Natijada o'zbek astronomik terminologiyasi moslashuvchan, dinamik va rivojlanib boruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim terminlarning diaxron va sinxron tahlil nuqtai nazaridan farqli talqin qilinishi, ya'ni tarixan yasama bo'lgan birliklarning hozirgi til tizimida sodda termin sifatida qabul qilinishi (leksikizatsiya jarayoni) ham aniqlanadi. Bu holat terminologik tizimning doimiy evolyutsiyada ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. A.G'ulomov, A.Tixonov, R.Qo'ng'irov. O'zbek tilining morfem lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1977. – 463 b.
2. B.Mengliyev, B.Bahriddinova, O'.Xoliyorov. O'zbek tilining so'z yasalihi o'quv lug'ati. – Toshkent, 2007. – 142 b.
3. Xodjayeva D.I. Lexicographic codification of terms connected with nouns in explanatory dictionaries. *Международный академический вестник//Научный журнал № 1(33)2019.* – 82-84 b. Xodjayeva D.I. Tilshunoslik terminlarining leksikografik tahlili (ingliz, rus va o'zbek tillari izohli lug'atlari materiallari misolida). Ph.Diss. Toshkent- 2018.
4. Khusenova, M. U., & Khusenova, M. U. (2021, march). Lexicographic analysis of orthographic terms. In *E-Conference Globe* (pp. 113-117).
Xusenova, M. (2023). Termin lisoniy tadqiqotlar obyekti sifatida. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 97-102.
5. Khusenova M.U. Lexical-Semantic Features of Astronomical Terminology in the English Language // *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*. ISSN (E): 2993-2769. – Volume 02, Issue 11. – USA, 2024. – P.279-282
Khusenova Mehriniso. Lexico-semantic features of Uzbek astronomical terminolog // *Til va adabiyot.uz.* – Toshkent, 2025. – № 5. – B.121-122
6. Khusenova M.U. Functional Features of Astronomical Terms in English and Uzbek Languages // *American Journal of Education and Evaluation Studies*. E-ISSN: 2997-9439. – Volume 2, № 1. – The USA, 2025. – P. 138-143
7. *Macmillan English Dictionary for Advanced Learners.* – Macmillan Publishers Limited, 2006. – 1692 p.
8. *Oxford Advanced Learner's Dictionary, 7th edition.* – Oxford University Press, 2006. – 1715 p.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. I. L–P / Mas'ul muharrirlar A. Madvaliyev, D. Xudayberganova. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964 b.

*Egamberdiyeva Sevara Yakubjanovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil izlanuvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: farhodinyaz@gmail.com*

GENDER VA NUTQ TADQIQINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender va nutq o'rtasidagi munosabatlarning nazariy hamda metodologik asoslari keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender lingvistikasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ilmiy yondashuvlar, jumladan, kommunikativ-pragmatik nazariya, sotsiolingvistika va diskurs tahlili doirasidagi qarashlar yoritiladi. Maqolada shuningdek, jamiyatdagi gender rollarining nutq birikmalariga, muloqot strategiyalari va til birliklarining tanlanishiga ta'siri ilmiy dalillar asosida ko'rsatib beriladi. O'zbek va ingliz tillari misolida genderni oid nutq xususiyatlarining o'ziga xos jihatlari solishtirilib, mazkur yo'nalishda qo'llaniladigan metodlar samaradorligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: gender lingvistika, nutq strategiyalari, kommunikativ-pragmatik yondashuv, diskurs tahlili, sotsiolingvistika, gender rollari, til va jamiyat, gender nutqi.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методологические основы исследования гендера и речи. Анализируются ключевые научные подходы, повлиявшие на формирование гендерной лингвистики, включая коммуникативно-прагматическую теорию, социолингвистику и дискурс-анализ. В работе показывается, как социально сформированные гендерные роли отражаются на речевом поведении, выборе языковых средств и коммуникативных стратегиях. На материале узбекского и английского языков приводятся сопоставительные наблюдения о гендерно маркированных особенностях речи. Также оценивается эффективность современных методов, применяемых в гендерных лингвистических исследованиях.

Ключевые слова: гендерная лингвистика, речевые стратегии, прагматика, дискурс-анализ, социолингвистика, гендерные роли, язык и общество, гендерная речь.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of research on gender and speech. It explores major scholarly approaches that have shaped gender linguistics, including the communicative-pragmatic framework, sociolinguistic theories, and discourse analysis. The study highlights how socially constructed gender roles influence speech patterns, communicative strategies, and linguistic choices. Comparative observations on gender-related speech features in English and Uzbek languages are provided to illustrate cross-cultural tendencies. Furthermore, the paper evaluates the effectiveness of contemporary methodological tools used in gender-oriented linguistic research.

Keywords: gender linguistics, communicative strategies, pragmatics, discourse analysis, sociolinguistics, gender roles, language and society, gendered speech.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda gender masalasi alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, til va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Til faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki ijtimoiy identifikatsiya, madaniy qadriyatlar va gender rollarining aks etadigan muhim fenomeni sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois, genderni oid nutq xususiyatlarini o'rganish nafaqat lingvistik birliklarning tuzilishi va ma'nosi, balki ularning ijtimoiy-madaniy kontekstda qanday ishlatilishi va idrok etilishini ham tahlil qilishni talab etadi. Gender va nutqning o'zaro bog'liqligini tadqiq etishda sotsiolingvistika, pragmatik lingvistika, psixolingvistika va diskurs tahlili singari yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvlar tilning jamiyatdagi funksiyalarini, nutq strategiyalari va kommunikativ xulq-atvorning gender omili bilan qanday belgilanishini ilmiy asosda yoritib beradi. Ayniqsa, kommunikativ-pragmatik negizda genderning nutq jarayonida qanday namoyon bo'lishi, erkaklar va ayollarga xos bo'lgan til birliklarining tanlanish sabablari, muloqot jarayonidagi ustuvor strategiyalar kabi jihatlar dolzarb ilmiy mavzulardan biri hisoblanadi. Tilning genderni oid xususiyatlari har bir jamiyatning madaniy qadriyatlari, an'analari va ijtimoiy stereotiplari bilan chambarchas bog'liq bo'lgani bois, turli tillardagi gender nutq birliklarini solishtirish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ingliz va o'zbek tillarida gender rollarining nutqda namoyon bo'lishi sezilarli darajada farqlanishi va umumiyliklari tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy dalillarni taqdim etadi. Bu farqlar muloqot uslubi, so'z tanlovi, murojaat shakllari, ijtimoiy mavqe ifodalari va

Ikki qarama-qarshi ma'noli komponent ishtirokida yasalgan qo'shma so'zlar. Masalan, *actor-director*, *maid-servant*”[6, 65]. Ko'rinib turibdiki, keltirilgan misollar tasniplarni bir-biridan mohiyatan to'liq ajratmaydi, o'rtadagi farqni aniq ko'rsatmaydi, fikr chalkashadi.

Biz yuqorida sanab o'tgan turlanishlar, umuman, qo'shma so'zlarga doir hisoblanadi. Endi fikrimizni son komponentli qo'shma so'zlar doirasida davom ettiramiz.

Son komponentli qo'shma so'zlar son va boshqa so'z turkumlarining birikishi orqali hosil qilinadi. Masalan: *one-sided*, *two-faced*, *three-dimensional* kabi birliklar.

Bu turdagi qo'shma so'zlar semantik jihatdan oddiy umumiy ma'nodan tashqari, qo'shimcha ma'nolarni ham ifodalaydi.

Son komponentining semantik roli. Son komponenti qo'shma so'z tarkibida turli xil semantik vazifalarni bajaradi:

a) Aniq miqdor ifodalash

Ba'zi qo'shma so'zlarda son o'zining bevosita ma'nosida qo'llanadi:

two-storey building (ikki qavatli bino)

three-day trip (uch kunlik safar)

Bu yerda son komponenti konkret miqdorni bildiradi.

b) Taxminiy yoki umumlashtiruvchi ma'no

Ba'zi hollarda son aniq miqdorni emas, balki umumiylikni ifodalaydi:

a thousand times (juda ko'p marta)

one hundred percent (to'liq)

Bu holatda son kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

c) Ko'chma va idiomatik ma'no

Ko'plab qo'shma so'zlarda son komponenti ko'chma ma'noda qo'llanadi:

two-faced (ikkiyuzlamachi)

one-track mind (bir fikrga berilib ketgan)

Bu birliklarda son real miqdorni emas, balki xarakter yoki holatni ifodalaydi.

Semantik tasnif. Son komponentli qo'shma so'zlarni semantik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Denotativ ma'noli birliklar

Bu guruhga kiruvchi so'zlar real predmet yoki hodisani bildiradi:

four-wheel drive

five-star hotel

2. Konnotativ ma'noli birliklar

Bu birliklarda baholovchi yoki emotsional ma'no mavjud:

first-class (a'lo darajada)

second-rate (past darajada)

3. Idiomatik birliklar

Bu guruhdagi qo'shma so'zlarning ma'nosi tarkibiy qismlar yig'indisidan kelib chiqmaydi:

at sixes and sevens (tartibsiz holatda)

two-timing (xiyonat qilish)

4. Son komponentli qo'shma so'zlarning nutqdagi funksiyasi

Mazkur birliklar nutqda quyidagi vazifalarni bajaradi:

qisqalik va ixchamlikni ta'minlaydi;

ifodaning ta'sirchanligini oshiradi;

obrazlilikni kuchaytiradi;

baholovchi munosabatni bildiradi.

Masalan, oddiy "very good" o'rniga "first-class" ishlatilsa, nutq yanada ifodali bo'ladi.

5. Ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy jihatlar

Ingliz tilida son komponentli qo'shma so'zlar keng qo'llanadi. O'zbek tilida ham shunga o'xshash birliklar mavjud, ammo ular kamroq darajada idiomatiklashgan. Masalan: ingliz tilida: *two-faced*; o'zbek tilida: "ikkiyuzlamachi"

Bu misol ikki til o'rtasidagi semantik o'xshashlikni ko'rsatadi. Shu bilan birga, ingliz tilida bunday birliklarning ko'lami kengroq va faolroq hisoblanadi.

Endi ingliz tilida son komponentli qo'shma so'zlarda son komponentining qo'shma so'zda anglatayotgan ma'nosiga ko'ra turlarini ko'rib chiqamiz. Ingliz tilida son komponentli qo'shma so'zlarni semantik jihatdan quyidagi 3 guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Son miqdori va nomi ayni bo'lgan qo'shma so'zlar:

Two-seater – a vehicle or piece of furniture with seats for only 2 people (2 ta o'rindiqli avtomobil yoki mebel).

Three-day event – (n) a sport event lasting three days in which people ride horses in various competition (odamlar ot choptirib bellashadigan va uch kun davom etadigan sport musobaqasi).

Three-wheeler – (n) a vehicle that has three wheels, especially motorcycle, tricycle (uchta g'ildirakli avtomobil, asosan, mototsikl, uch g'ildirakli velosiped).

2. Sanoq son va hajm bildiruvchi so'z ko'chma ma'noda ishlatiladigan qo'shma so'zlar:

Two-bit – not very good or not important (Am.Eng. – Informal) (unchalik yaxshi emas yoki muhim emas).

Two-star – a two-star hotel is of an average standard (ikki yulduzli mehmonxona – bu o‘rtacha standartdagi, ya’ni qulaylikdagi mehmonxona).

Four-eyes – (impolite) an insulting word for someone who wear glasses (ko‘zoynak taqadigan insonga nisbatan ishlatiladigan qo‘pol so‘z – to‘rtko‘z).

3. Ma’nosi izohtalab bo‘lgan son komponentli qo‘shma so‘zlar:

One-horse race – a contest in which one candidate or competitor is clearly superior to all the others and seems certain to win (ishtirokchilardan yoki nomzodlardan bittasi eng kuchli va yutishi oldindan muqarrar bo‘lgan musobaqa).

Xulosa. Ingliz tilida son komponentli qo‘shma so‘zlar leksik tizimning muhim qismini tashkil etadi. Ular nafaqat miqdorni ifodalash, balki ko‘chma va idiomatik ma’nolarni yuzaga chiqarishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, ingliz tilida qo‘shma so‘zlar umumiy jihatdan klassifikatsiya qilingan bo‘lishiga qaramay, son komponentli qo‘shma so‘zlar hali alohida tasniflanmagan. Shu ma’noda, son komponentli qo‘shma so‘zlarni, bizning tavsiyamizga ko‘ra, yuqorida sanab o‘tilgan 3 turga ajratgan holda klassifikatsiya qilish va o‘rganish kelajakda ushbu tilga qiziquvchilar va tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar uchun ham til o‘rganish yoki shu tilda ilmiy izlanishlar qilishda jarayonini ancha yangilliklar keltirib chiqarishi shubhasiz, nazarimizda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, son komponenti qo‘shma so‘zlarda turli semantik funksiyalarni bajaradi: aniq miqdor ifodalash, umumlashtirish, baholash va obrazlilik yaratish.

ADABIYOTLAR:

1. Bauer, L. *English Word-Formation*. Cambridge University Press.
2. Quirk, R., Greenbaum, S. *A Comprehensive Grammar of the English Language*.
3. Marchand, H. *The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation*.
4. Chomsky N. Remarks on Nominalization. – Indiana: Linguistics Club, 1968.;
5. Chomsky N. Language and the Mind (A. Bar-Adon, & W. Leopold, Eds.). – New Jersey: Prentice Hall, 1969.
6. Sweet H. A new English Grammar, Logical and Historical. – Oxford, 1974. – P.65.
7. Laurie B. Introducing linguistic morphology. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2002. – P.160.;
8. Laurie B. English Exocentric & Endocentric Compound. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – P.1–14.;
9. Sergio S., Irene V. Cross-Disciplinary Issues in Compounding. // Amsterdam Studies in the Theory and History of Linguistic Science. Series IV, Current Issues in Linguistic Theory, ISSN – 2010. – P.382.;
10. Igna P. Word-formation in English. – New York: Cambridge University Press, 2003. – P.240.;
11. Antonietta B., Sergio S. The classification of compounds. // *Lingue E Linguaggio*. – 2005. – P.17.;
12. J. Grammar of the English tongue. – Oxford, 1759. – P.300.;
13. Laurie B., Rochelle L., Ingo P. English morphology. – Oxford: University Press, 2013. – P.718.;
14. Rochelle L. Morphology and lexical semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – P.196.

Safarova Zilola Tolibovna,
Buxoro davlat universiteti
f.f.f.d. (PhD) dotsent
E-mail: salomat1331@gmail.com
(O'zbekiston)
Ergasheva Salomat Ravshan qizi,
Buxoro davlat universiteti magistri
(O'zbekiston)
E-mail: salomat1331@gmail.com

GILLIAN FLINNING “BEDARAK YO‘QOLGAN” ASARIDA JINOYAT ADABIYOTI JANRI BELGILARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola Gillian Flinning “Gone Girl” (“Bedarak yo‘qolgan”) romanida jinoyat adabiyoti janri belgilarining o‘ziga xos namoyon bo‘lishini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Asarda jinoyat romani uchun xos bo‘lgan sirli voqea, gumon, tergov jarayoni, dalillar tizimi, psixologik keskinlik, aybdor va jabrlanuvchi obrazlarining almashinuvi kabi belgilar muhim o‘rin tutadi. G.Flinn an’anaviy jinoyat romanidagi “qurbon ayol” va “jinoyatchi erkak” qolipini buzib, o‘quvchini kutilmagan badiiy yechimga olib keladi. Romanda Emmi Dyunning g‘oyib bo‘lishi oddiy jinoyat voqeasi sifatida boshlansa-da, keyinchalik bu hodisa puxta rejalashtirilgan psixologik manipulyatsiya ekanligi ayon bo‘ladi. Shu jihatdan “Bedarak yo‘qolgan” asari klassik detektiv an‘analarini zamonaviy psixologik triller va oilaviy drama unsurlari bilan uyg‘unlashtirgan roman sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: jinoyat adabiyoti, detektiv roman, psixologik triller, gumon, tergov, jinoyatchi obrazi, jabrlanuvchi.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу своеобразного проявления признаков жанра криминальной литературы в романе *Gone Girl* (“Исчезнувшая”) Gillian Flynn. В произведении важное место занимают такие характерные для криминального романа элементы, как загадочное происшествие, подозрение, процесс расследования, система улик, психологическое напряжение, а также смена ролей виновного и жертвы. Г. Флинн разрушает традиционный шаблон криминального романа, в котором “жертвой” выступает женщина, а “преступником” – мужчина, и приводит читателя к неожиданному художественному решению. Хотя исчезновение Эми Данн в романе начинается как обычное преступление, впоследствии становится ясно, что это тщательно спланированная психологическая манипуляция. В этом отношении роман «Исчезнувшая» приобретает особое значение как произведение, сочетающее классические детективные традиции с элементами современного психологического триллера и семейной драмы.

Ключевые слова: криминальная литература, детективный роман, психологический триллер, подозрение, расследование, образ преступника, жертва.

Abstract. This article is devoted to the analysis of the distinctive manifestation of crime fiction genre features in *Gone Girl* by Gillian Flynn. The novel contains significant elements characteristic of crime fiction, such as a mysterious incident, suspicion, the investigation process, a system of evidence, psychological tension, and the shifting roles of the criminal and the victim. Gillian Flynn breaks the traditional pattern of crime novels in which the woman is portrayed as the “victim” and the man as the “criminal,” leading the reader toward an unexpected artistic resolution. Although Amy Dunne’s disappearance initially appears to be an ordinary crime case, it later becomes evident that the event is a carefully planned psychological manipulation. In this regard, *Gone Girl* stands out as a novel that combines classical detective traditions with elements of the modern psychological thriller and domestic drama.

Keywords: crime fiction, detective novel, psychological thriller, suspicion, investigation, criminal image, victim.

Kirish. Ma’lumki, jinoyat adabiyoti badiiy adabiyotning eng qiziqarli va kitobxonni kuchli ruhiy taranglikda ushlab turadigan janrlaridan biri hisoblanadi. Bu janrda odatda sirli jinoyat, jinoyatchini

aniqlash jarayoni, tergov, dalillar, gumondorlar va kutilmagan yechim asosiy o'rinni egallaydi. Jinoyat romanlarida kitobxon voqeani faqat kuzatibgina qolmaydi, balki tergov jarayonining ichki ishtirokchisiga aylanadi. U har bir detalga e'tibor beradi, qahramonlarning gap-so'zlari va xatti-harakatlarini solishtiradi, kim aybdor ekanini taxmin qilishga urinadi. Shu sababli jinoyat adabiyoti o'zining sirli voqealari, keskin burilishlari va psixologik murakkabligi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi.

Zamonaviy ingliz va Amerika adabiyotida jinoyat janri yangi shakllarda rivojlanmoqda. An'anaviy detektiv asarlarda jinoyat sodir bo'ladi, keyin tergovchi yoki boshqa bir markaziy qahramon jinoyatchini topishga harakat qiladi. Biroq, hozirgi zamonaviy romanlarda jinoyat hodisasi faqat tashqi voqea sifatida emas, balki inson ruhiyati, oilaviy munosabatlar, jamiyat bosimi va axloqiy inqirozlar bilan bog'liq holda tasvirlanadi.

Gillian Flinning 2012-yilda nashr etilgan "Gone Girl" romani zamonaviy psixologik triller va jinoyat adabiyotining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Asar voqeasi Emmi Dyun ismli ayolning to'satdan bedarak yo'qolishi bilan boshlanadi. Tashqi tomondan qaraganda, bu oddiy jinoyat romaniga xos boshlanishdir: ayol g'oyib bo'ladi, eri Nik Dyun esa asosiy gumondorga aylanadi. Ammo asar syujeti rivojlangani sari o'quvchi voqealarning asl mohiyati ancha murakkab ekanini tushunadi. Muallif jinoyat janrining an'anaviy belgilaridan foydalangan holda, ularni yangicha psixologik va ijtimoiy mazmun bilan boyitadi.

Elif Gülderen Gillian Flinn romanlarida ayol obrazining zo'ravonlik, g'azab va axloqiy noaniqlik bilan bog'liq tarzda tasvirlanishini tahlil qiladi. Uning tadqiqotida quyidagi jumlar keltiriladi: "the post-feminist claim of Gone Girl is that the male-dominated society and media culture should acknowledge and accept amorality and violence not as purely male but human traits" [10, 87]. Bu fikr roman tahlili uchun juda muhimdir. Chunki, an'anaviy adabiyotda zo'ravonlik, sovuqqonlik, xiyonat va manipulyatsiya ko'pincha erkak obrazlari bilan bog'lab tasvirlangan. G.Flinn esa Emmi Dyunn obrazi orqali bunday xususiyatlar faqat erkaklarga emas, ayol tabiatiga ham xos bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Demak, Emmi obrazi ayolni ideallashtirmaydi, balki uni yaxshi va yomon tomonlari bor murakkab inson sifatida ochib beradi.

Xing He yana Flinn romanidagi feministik mazmunni ehtiyotkorlik bilan talqin qiladi. U shunday deydi: "Gillian Flynn does not encourage women to commit crime by imitating Amy when they suffer from husband's infidelity" [10, 192]. Bu fikr juda muhim, chunki Emmi Dyunn obrazini noto'g'ri talqin qilish mumkin. Yozuvchi Emmining qarorlari va sodir etgan jinoyatini oqlamaydi. Aksincha, ayolning ruhiy bosim, xiyonat, nikohdagi soxtalik va jamiyatdagi gender rollar ta'sirida qanday xavfli obrazga aylanishi mumkinligini badiiy tarzda yoritib beradi.

Asar boshida Nikning quyidagi fikrlari o'quvchini oilaviy munosabatlar ichidagi sovuqlik va begonalashuvga tayyorlaydi: "Amy didn't care to know my family, didn't want to know my birthplace." [1, 16] Bu jumla oddiy oilaviy kelishmovchilikni emas, balki keyinchalik jinoyat voqearining psixologik sabablariga aylanishi mumkin bo'lgan chuqur ichki masofani ko'rsatadi. Flinn jinoyatni faqat tashqi hodisa sifatida emas, balki munosabatlar, yolg'on, ishonchsizlik va ichki noroziliklar natijasi sifatida tasvirlaydi.

Asosiy qism. Jinoyat adabiyotining eng muhim belgilaridan biri asarning sirli voqea bilan boshlanishidir. "Bedarak yo'qolgan" romanida ham voqea Emmi Dyunning g'oyib bo'lishi bilan boshlanadi. Bu holat bir qarashda jinoyat sodir bo'lganini anglatadi. Uy ichidagi tartibsizlik, qon izlari, Emmining yo'qligi va Nikning o'zini g'alati tutishi o'quvchini darhol shubha muhitiga olib kiradi. An'anaviy detektiv romanlarda bunday vaziyat odatda jinoyat yechimini izlash uchun asos bo'ladi. Flinn ham xuddi shu usuldan foydalanadi, lekin keyinchalik ushbu an'anaviy boshlanishni butunlay o'zgacha yo'nalishga burib yuboradi.

Roman boshida o'quvchi Nikni aybdor deb o'ylashi mumkin. Chunki asarda uning xotini bilan munosabatlari sovuqlashgani, u xiyonat qilgani va Emmining yo'qolgan kuni o'zini shubhali tutgani ko'rsatiladi. Jinoyat adabiyotida gumondor obrazi muhim o'rin tutadi. Nik Dyun obrazi ham aynan shunday vazifani bajaradi. U jinoyatchi bo'lishi mumkin bo'lgan odam sifatida tasvirlanadi. Ammo, Flinn Nikni to'liq yovuz obrazga aylantirmaydi. Aksincha, uning o'zligi, xatolari, ruhiy bosimi va jamiyat oldidagi himoyasizligi ko'rsatib boriladi.

Asarda jinoyat janriga xos yana bir belgi – tergov jarayonining mavjudligidir. Politsiya Emmining yo'qolishini tekshiradi, uy ichidagi dalillar o'rganiladi, Nikning harakatlari tahlil qilinadi. Tergov

davomida topilgan har bir detal Nikka qarshi ishlayotgandek ko'rinadi. Bu esa o'quvchida shubhani yanada kuchaytiradi. Jinoyat romanlarida dalillar muhim rol o'ynaydi, lekin "Bedarak yo'qolgan"da dalillar haqiqatni ochishga emas, balki yolg'onni haqiqat sifatida ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu jihat asarning eng muhim o'ziga xosliklaridan biridir.

Emmining "I'm so much happier now that I'm dead" [1, 246] degan so'zlari uning o'z g'oyib bo'lishini oddiy yo'qolish emas, balki sovuqqonlik bilan tuzilgan reja sifatida qabul qilganini ko'rsatadi. Bu jumla roman syujetidagi eng keskin burilishlardan biriga ishora qiladi. Emmi o'zini "o'lgan" qilib ko'rsatish orqali Nikni nafaqat qonun oldida, balki jamiyat oldida ham aybdor qilishga harakat qiladi. Bu holat jinoyat romaniga psixologik triller xususiyatini olib kiradi.

Jinoyat adabiyotida jabrlanuvchi va jinoyatchi obrazlari odatda aniq ajratiladi. Biroq, G.Flinn ushbu chegarani buzadi. Asarning boshida Emmi jabrlanuvchi sifatida ko'rinadi. U yo'qolgan, ehtimol o'ldirilgan, erining xiyonatidan aziyat chekkan ayol sifatida tasavvur qilinadi. Nik esa bevafo er, ehtimoliy qotil sifatida ko'rsatiladi. Lekin syujet rivojlangani sari bu rollar almashadi. Emmi jabrlanuvchi emas, balki jinoyat rejasining muallifi ekani ayon bo'ladi. Nik esa jinoyatchidan ko'ra manipulyatsiya qurboniga o'xshay boshlaydi.

Asarda psixologik jinoyat belgisi ham kuchli ifodalangan. Emmi jinoyatni jismoniy kuch bilan emas, aql, reja, psixologik bosim va manipulyatsiya orqali amalga oshiradi. U ommaviy axborot vositalarining qanday ishlashini, jamiyatning ayol va erkak haqidagi tasavvurlarini, politsiyaning qaysi dalillarga ishonishini yaxshi biladi. Shuning uchun uning jinoyati faqat qonuniy jinoyat emas, balki psixologik va ijtimoiy manipulyatsiya hamdir.

Emmining "Sometimes I feel like Nick has decided on a version of me that doesn't exist" [1, 142] degan fikri uning ichki noroziligini ochib beradi. Bu jumlada Emmi o'zini erining tasavvuridagi obrazga moslashishga majbur bo'lgan ayol sifatida ko'rsatadi. Biroq, aynan shu norozilik keyinchalik haddan tashqari keskin shaklga aylanadi. Muallif bu orqali jinoyat motivini faqat moddiy manfaat yoki ochiq nafrat bilan emas, balki shaxsiy kamsitilish, munosabatdagi yolg'on va ichki inqiroz bilan bog'laydi.

Romanda jinoyat adabiyotiga xos keskinlik va kutilmagan burilishlar ham alohida ahamiyatga ega. Asar bir maromda davom etmaydi. Har bir yangi ma'lumot oldingi tasavvur va gumonlarni o'zgartirib boradi. Dastlab, Emmining kundaligi o'quvchini Nikka qarshi ishontiradi, ko'p o'tmay esa Emmining o'zi barcha voqealarni boshqargani ochiladi. Bunday syujet qurilishi asarni kitobxon uchun qiziqarli va hayajonli qiladi. Jinoyat janrining asosiy vazifalaridan biri ham aynan shu – kitobxonni oxirigacha qiziqishda ushlab turishdir.

G.Flinnning yana bir muhim yutug'i shundaki, u jinoyatni oilaviy munosabatlar ichiga joylashtiradi. "Bedarak yo'qolgan"da jinoyat qorong'i ko'cha, begona qotil yoki tasodifiy zo'rvonlik bilan bog'liq emas. Aksincha, jinoyat er-xotin munosabatlari, nikohdagi ishonchsizlik, xiyonat, ijtimoiy bosim va ichki nafrat ichidan o'sib chiqadi. Bu esa asarni oddiy detektiv emas, balki oilaviy psixologik triller darajasiga olib chiqadi. Nik va Emmi o'rtasidagi munosabatlar tashqi tomondan oddiy nikohdek ko'rinsa-da, ichkaridan qaraganda yolg'on, rol o'ynash va o'zaro jazolash maydoniga aylangan.

Nikning xiyonati va Emmining unga nisbatan javobi romandagi jinoyat motivini kuchaytiradi. Emmi oddiy ranjigan ayol sifatida emas, balki o'zini kamsitilgan, aldangan va qadrsizlangan deb his qilgan shaxs sifatida harakat qiladi. Vaholanki, uning bu harakati axloqiy jihatdan oqlanmaydi. Muallif Emmi qahramon sifatida aqlli, kuchli, lekin juda xavfli va shafqatsiz obraz sifatida ko'rsatadi. Shu jihatdan roman jinoyatchi obrazini ham murakkablashtiradi. Emmi yovuzlik timsoli emas, lekin begunoh ham emas. U inson ruhiyatidagi qorong'i tomonlarni ochib beruvchi obrazdir.

Natija va muhokamalar. Jinoyat adabiyotida ommaviy axborot vositalarining roli odatda yordamchi unsur bo'lishi mumkin. Ammo "Bedarak yo'qolgan" romanida media jinoyat voqeasining muhim ishtirokchisiga aylanadi. Emmi aynan jamiyat va media qanday fikrlashini hisobga olib reja tuzadi. U odamlar yo'qolgan ayolga achinishini, bevafo erga esa nafrat bilan qarashini oldindan biladi. Shuning uchun Nikni aybdor sifatida ko'rsatish uchun faqat politsiya dalillari emas, balki jamoatchilik fikri ham ishlatiladi. Bu jihat romanni zamonaviy jinoyat adabiyotiga yaqinlashtiradi.

Asarda an'anaviy detektiv qahramon deyarli yo'q. Ya'ni voqeani boshidan oxirigacha aql bilan yechib boradigan klassik tergovchi obrazi markazda turmaydi. Buning o'rniga o'quvchining o'zi haqiqatni izlaydi. Nik, Emmi, politsiya, jurnalistlar va jamiyatning har biri voqeaning bir qismini ochadi, lekin hech biri to'liq haqiqat egasi emas. Shu sababli romanda haqiqat tushunchasi ham murakkablashadi.

Kimga ishonish kerakligi oxirigacha aniq bo'lmaydi. Bu esa psixologik trillerga xos ishonchsizlik muhitini yaratadi.

G.Flinning hikoya qilish uslubi ham jinoyat janri belgilarini kuchaytiradi. Roman ikki asosiy ovoz – Nik va Emmi hikoyasi orqali beriladi. Bunday usul o'quvchida ikki xil taassurot uyg'otadi. Bir tomondan, Nikning hikoyasi hozirgi voqealarni ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan, Emmining kundaligi o'tmishdagi munosabatlarni ochib beradi. Ammo keyinchalik kundalikning ham ishonchli emasligi ma'lum bo'ladi. Demak, roman ishonchsiz hikoyachi usulidan samarali foydalanadi. Jinoyat adabiyotida bu usul juda muhim, chunki u o'quvchini adashtiradi, shubhada ushlab turadi va haqiqatni kechroq ochadi.

“I don't know what I am supposed to do” [5, 85] degan jumla Emmining o'zini ichki ikkilanish holatida ko'rsatishga uringanini bildiradi. Tashqi tomondan bu so'zlar ayolning ruhiy iztirobini ifodalagandek tuyuladi. Ammo, roman davomida o'quvchi Emmining bunday jumalari ham o'z obrazini yaratishning bir qismi bo'lishi mumkinligini tushunadi. Shu orqali muallif yozma nutq, kundalik va xotira kabi vositalarning ham haqiqatni yashirishga xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Asarda jinoyat faqat huquqiy muammo sifatida emas, balki axloqiy muammo sifatida ham yoritiladi. Kitobxon xayolini kim aytbdor degan savol chulg'ab oladi. Nik qotil emas, lekin xiyonat qilgan, yolg'on gapirgan va xotinini tushunmagan. Emmi jinoyat rejasini tuzgan, odamlarni aldagan va begunoh insonni ayblashga uringan. Biroq uning harakati ham ma'lum darajada nikohdagi yolg'on va jamiyatdagi ikkiyuzlamachilikdan oziqlangan. G.Flinn ana shu murakkablikni ko'rsatadi. U o'quvchiga tayyor hukm bermaydi, balki insonning yaxshi va yomon tomonlari bir-biriga aralashib ketishini ko'rsatadi. Shu jihatdan “Bedarak yo'qolgan” romani jinoyat adabiyoti janrining asosiy belgilarini saqlagan holda, ularni yangi mazmun bilan boyitadi. Unda sirli yo'qolish, gumondor, tergov, dalil, yolg'on izlar, keskin burilish, psixologik bosim va kutilmagan yakun mavjud.

Xulosa. Gillian Flinning “Bedarak yo'qolgan” romani jinoyat adabiyoti janrining zamonaviy va o'ziga xos namunasi hisoblanadi. Asarda jinoyat romani uchun xos bo'lgan sirli voqea, gumon, tergov, dalillar, yolg'on izlar, psixologik keskinlik va kutilmagan burilishlar mahorat bilan qo'llangan. Biroq muallif bu belgilarni oddiy detektiv syujet doirasida emas, balki murakkab oilaviy munosabatlar, ijtimoiy stereotiplar va inson ruhiyatidagi qorong'i tomonlar bilan bog'liq holda tasvirlaydi. Romanning eng muhim xususiyati shundaki, unda jabrlanuvchi va jinoyatchi obrazlari an'anaviy tarzda ajratilmaydi. Emmi Dyun boshida qurbon sifatida ko'rinsa-da, keyinchalik jinoyatni rejalashtirgan asosiy shaxsga aylanadi. Nik Dyun esa dastlab gumondor sifatida tasvirlanadi, ammo voqealar davomida manipulyatsiya qurboniga ekanligi ayonlashadi. Bu obrazlar almashinuvi asarning jinoyat janridagi o'ziga xosligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Flynn G. *Gone Girl*. – New York: Crown Publishing Group, 2012. – 476 p.
2. Cawelti J. G. *Adventure, Mystery, and Romance: Formula Stories as Art and Popular Culture*. – Chicago: University of Chicago Press, 1976. – 336 p.
3. Scaggs J. *Crime Fiction*. – London: Routledge, 2005. – 184 p.
4. Priestman M., ed. *The Cambridge Companion to Crime Fiction*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 288 p.
5. Knight S. *Crime Fiction, 1800-2000: Detection, Death, Diversity*. – London: Palgrave Macmillan, 2004. – 256 p.
6. Horsley L. *Twentieth-Century Crime Fiction*. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 328 p.
7. Gregoriou C. *Deviance in Contemporary Crime Fiction*. – London: Palgrave Macmillan, 2007. – 250 p.
8. Kane R. *Gillian Flynn's novel Gone Girl offers a cultural critique of Western patriarchal society and advances the representation of women in literature*, 2019. – 26 p.
9. Gülderen Elif. *Feminism in Gillian Flynn's Novels: Violence, Malice and Rage*. 2020. – 88 p.
10. He Xiny. Jia Xiaoqing. *Feminism Interpretation in Gone Girl // US-China Foreign Language*. – 2021. – Vol. 19. – No. 7. – 192 p.

*Raximov Mubin Muradovich,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: mubinrahimovbuba@gmail.com*

MAVJUD TIL KORPUSLARIDA GRAMMATIK QURILMALARNI O'RGANISH ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALASI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada til korpuslari asosida grammatik qurilmalarni o'rganish masalasi keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz va o'zbek tillari korpuslari qiyosiy aspektda o'rganilib, grammatik birliklarning qo'llanish chastotasi, strukturaviy xususiyatlari hamda funksional-semantik imkoniyatlari yoritib beriladi. Muallif korpus lingvistikasi metodlari yordamida grammatik hodisalarning real nutq jarayonidagi namoyon bo'lishini tahlil qiladi hamda korpus texnologiyalarining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyatini ochib beradi. Shuningdek, maqolada avtomatik grammatik tahlil vositalarining imkoniyatlari, statistik yondashuvlarning samaradorligi va ayrim metodologik cheklolari muhokama qilinadi. Tadqiqot davomida korpus materiallari asosida grammatik kategoriyalarni aniqlash, ularni tasniflash va qiyosiy tavsiflashning ilmiy-amaliy jihatlari ko'rsatib berilgan. Maqola natijalari xorijiy til o'qitish metodikasi, tarjimashunoslik, kompyuter lingvistikasi hamda amaliy tilshunoslik sohalari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot korpus lingvistikasining zamonaviy ilmiy izlanishlardagi istiqbolli yo'nalish ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: til korpuslari, grammatik qurilmalar, tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, ingliz tili, o'zbek tili, grammatik tahlil, avtomatik tahlil, lingvistik birliklar, funksional grammatika, statistik tahlil, kompyuter lingvistikasi

Аннотация. В статье всесторонне анализируется проблема изучения грамматических конструкций на основе языковых корпусов. В исследовании в сравнительном аспекте рассматриваются корпуса английского и узбекского языков, раскрываются частотность употребления грамматических единиц, их структурные особенности, а также функционально-семантические возможности. Автор с помощью методов корпусной лингвистики анализирует проявление грамматических явлений в реальном речевом процессе и освещает роль и значение корпусных технологий в современной лингвистике. Кроме того, в статье обсуждаются возможности автоматических средств грамматического анализа, эффективность статистических подходов и отдельные методологические ограничения. В ходе исследования показаны научно-практические аспекты выявления, классификации и сравнительного описания грамматических категорий на основе корпусных материалов. Результаты статьи имеют важное теоретическое и практическое значение для методики преподавания иностранных языков, переводоведения, компьютерной лингвистики и прикладного языкознания. Исследование подтверждает, что корпусная лингвистика является перспективным направлением современных научных исследований.

Ключевые слова: языковые корпуса, грамматические конструкции, языкознание, сравнительное языкознание, английский язык, узбекский язык, грамматический анализ, автоматический анализ, лингвистические единицы, функциональная грамматика, статистический анализ, компьютерная лингвистика.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the issue of studying grammatical structures based on language corpora. The research comparatively examines English and Uzbek language corpora, revealing the frequency of grammatical units, their structural characteristics, and functional-semantic features. Using corpus linguistics methods, the author analyzes the manifestation of grammatical phenomena in real speech processes and highlights the role and significance of corpus technologies in modern linguistics. The article also discusses the possibilities of automatic grammatical analysis tools, the effectiveness of statistical approaches, and certain methodological limitations. The study demonstrates the scientific and practical aspects of identifying, classifying, and comparatively describing grammatical categories based on corpus materials. The findings of the article are of considerable theoretical and practical importance for foreign language teaching methodology, translation studies, computational

linguistics, and applied linguistics. The research confirms that corpus linguistics is a promising field in contemporary scientific studies.


Keywords: language corpora, grammatical structures, linguistics, comparative linguistics, English language, Uzbek language, grammatical analysis, automatic analysis, linguistic units, functional grammar, statistical analysis, computational linguistics.

Kirish. Til korpusining asosiy tarkibiy birligi – bu matn bo‘lib, u so‘zlar majmuasidan tashkil topadi. Har bir matn ichidagi gaplar esa so‘zlarning muayyan grammatik qonuniyatlar asosida o‘zaro bog‘lanishi natijasida axborot hosil qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, barcha tillarda bo‘lgani kabi ingliz tilida ham matnlar grammatik qoidalarga amal qilgan holda shakllanadi. Shu bilan birga, har bir leksemaning semantik mazmuni ham matn yaratilishida muhim o‘rin egallaydi. Bu jarayon esa bir qator omillarga – so‘zlovchining fikrni ifodalash usuli, emotsional holati, ijtimoiy kelib chiqishi, tafakkur darajasi, kommunikativ kompetensiyasi va boshqa faktorlar bilan chambarchas bog‘liq. Biroq til korpusini grammatik qurilmalarsiz tasavvur etish mumkin emas, chunki har bir leksema aynan grammatik tamoyillar asosidagina muloqot vositasiga aylanadi.

Asosiy qism. Ingliz va o‘zbek tillari korpuslarini qiyosiy tahlil qilishda asosiy murakkablik ularning turli til oilalariga mansubligi bilan izohlanadi. Bu farqlar ayrim jihatlarida tahlilni qiyinlashtirsada, matn uslublarining umumiy xususiyatlari ularni umumlashtirish imkonini beradi. Masalan, gap tuzilishida sezilarli tafovut kuzatiladi: ingliz tilida gap odatda S+V+A.M (ega + kesim + ikkinchi darajali bo‘laklar) tartibida tuzilsa, o‘zbek tilida esa ega + ikkinchi darajali bo‘laklar + kesim ko‘rinishida ifodalanadi. Har ikkala tilda rasmiy uslubni tahlil qilganda, matnlar ifodasida buyruq maylining faol qo‘llanishi kuzatiladi. Shuningdek, fe‘llarning kelasi zamon shakli ham keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Til korpuslarida grammatik qurilmalar chastotasini aniqlash muayyan darajada cheklangan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Tilshunos olim M. Makkarti grammatikani o‘rganishda til korpuslarining ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. U o‘z tadqiqotida 200 dan ortiq mamlakat vakillariga mansub 150 nafar til o‘rganuvchilarining 200 000 ta Cambridge universiteti imtihon topshiriqlari asosida shakllangan, umumiy hajmi 55 million so‘zni tashkil etuvchi ingliz tili grammatika korpuslaridan (“English Grammar Corpus” va “Cambridge Grammar Corpus”) foydalanganini qayd etadi [1. 43-44]. Tahlil natijasida A1 darajadan C2 darajagacha bo‘lgan o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan 32 milliondan ortiq xato va kamchiliklar kompyuter bazasida kodlashtirilgan. “1.3.1-rasmga qarang” iborasi ostida ushbu xatolarning dinamikasi grafik shaklda ifodalangan. “1.3.1-rasmga qarang”.

Natija va muhokamalar.



1.3.1-rasm. Grammatik xato va kamchiliklar dinamikasi

Mazkur grafik A1 dan C2 darajagacha bo‘lgan o‘quvchilarning fe‘l zamonlarini o‘zlashtirish jarayonida yo‘l qo‘ygan xatolari hamda fe‘llarni leksik jihatdan noto‘g‘ri qo‘llash holatlarini aks ettiradi. A1 va A2 bosqichlarda lug‘at boyligining cheklanganligi sababli xatolar nisbatan kam uchraydi. B1 darajaga yetganda esa o‘quvchilar o‘z bilimlarini faol qo‘llay boshlagani bois, hali to‘liq shakllanmagan

grammatik bilimlar sababli xatolar soni ortadi. B2 darajadan boshlab esa C2 darajagacha grammatik ko'nikmalar tobora mustahkamlanib boradi va natijada xatolar soni kamayadi.

Shu bilan birga, Makkarti tomonidan o'quvchilarning grammatik qurilmalarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlari ham tahlil qilingan bo'lib, ushbu natijalar "1.3.1-jadvalga qarang" havolasi orqali keltirilgan.

1.3.1 - jadval. Talabalarning bog'lovchilarni o'zlashtirib borish dinamikasi

Daraja	And, but, or	Both... and...	Either...or	Neither... nor...	Not only... but also	Neither+ inversion
A1	<input type="checkbox"/>					
A2	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>				
B1	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>				
B2	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>		
C1	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
C2	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>

Mazkur jadvalda talabalarning bog'lovchilarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish jarayoni aks ettirilgan. Unda ayniqsa C1 va C2 darajalarda *not only ... but also* hamda *neither + inversion* kabi murakkab bog'lovchili konstruksiyalarni qo'llash ko'nikmasi shakllanib borishi yaqqol ko'rinadi. Aksincha, A1 va A2 bosqichlarda o'quvchilarning bog'lovchilar bilan tanishuvi nisbatan cheklangan doirada kechadi.

Og'zaki va yozma nutqda qo'llaniladigan grammatik me'yorlar o'rtasidagi tafovutlar ham korpus tahlili orqali aniqlanadi. "Ko'pincha og'zaki nutq grammatikasiga xos bo'lgan ifodalar yozma nutqda kamroq uchraydi yoki buning aksi ham kuzatiladi." [2. 675-724;]. Ushbu holatni aniqroq yoritish maqsadida M. Makkarti va R. A. Karter tomonidan olib borilgan Kembrij xalqaro korpusi (Cambridge International Corpus) tadqiqotiga murojaat qilish mumkin. "Tadqiqotchilar ingliz tilining rasmiy yozma shakli hamda muloqot jarayonida qo'llaniladigan bog'lovchilar (conjunctions) va bog'lovchili ifodalarni (linking expressions) korpus tahlili asosida o'rganib, natijalarni quyidagi jadvalda taqdim etganlar." [3. 256-262;].

1.3.2-jadval. Frequency of conjunctions and linking expressions (per million words)

Words	Formal writing	Conversation
Therefore	56	26
thus	60	0
cos	9	3122
in the end	57	96
as a result	36	3


Yuqoridagi tahlildan shuni tushunish mumkinki, odamlar gaplashganda va rasmiy yozganda grammatik birliklardan foydalanish bir xil emas. Masalan, rasmiy matnlarda ko'p ishlatiladigan ayrim grammatik shakllar kundalik suhbatda deyarli uchramasligi mumkin, yoki aksincha - oddiy muloqotda faol ishlatiladigan vositalar rasmiy yozuvda kamroq qo'llanadi.

Ingliz tilidagi korpuslarda grammatik hodisalarni avtomatik tarzda chuqur tahlil qilish hali unchalik rivojlanmagan. Shunga qaramay, Corpus Grammar platformasi matnni tekshirib, undagi xatolar yoki kamchiliklarni ko'rsatib berishga yordam beradi.

Mazkur dastur ikki oynali interfeys asosida yaratilgan: foydalanuvchi yuqori oynaga kerakli jumlaning kiritilishi, so'ng "CONC" tugmasini bosgach, pastki oynada korpusdagi real matnlar asosida tahlil natijalari chiqadi. Shu jarayonda jumladagi xatolar ham alohida ko'rsatib beriladi. Muhimi, tahlil kiritilgan birliklar asosida amalga oshiriladi, ya'ni dastur natijalarni aynan berilgan matnga moslab taqdim etadi. Platformada turli yo'nalish va sohalarga oid bir nechta til korpuslari jamlangan bo'lib, bu tadqiqotchiga o'z izlanishini maqsadga muvofiq ravishda olib borishda qulaylik yaratadi.

Grammatik hodisalarni til korpuslari asosida o'rganish ko'plab olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Jumladan, tilshunos N. V. Kozlova ta'kidlaganidek, amaliy materiallarni yig'ish va tahlil qilishda korpuslardan foydalanish tilshunoslikda axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq tabiiy jarayon hisoblanadi [4. 79;].

Ingliz va o'zbek tillaridagi lingvistik korpuslarda grammatik qurilmalarni qiyosiy o'rganish maqsadida English-Corpora: COCA hamda O'zbek tili milliy korpusi tahlil qilindi. Dastlab, leksik bazasi bir milliarddan ortiq birlikni o'z ichiga olgan COCA korpusi o'rganildi. Ushbu platformada "search" (qidiruv), "frequency" (chastota), "context" (kontekst) kabi asosiy bo'limlar mavjud bo'lib, undan to'liq foydalanish uchun ro'yxatdan o'tib, shaxsiy profil yaratish talab etiladi (1.3.3-rasmga qarang).



1.3.3 - rasm. English-Corpora.org platformasidagi COCA interfeysi

Yuqorida keltirilgan chizmadan ko'rinib turibdiki, dastur ishga tushirilganida dastlab izlash funksiyasi faol holatda bo'ladi. Mazkur qidiruv oynasida n-gram, bigram yoki 3n-gramli so'z birikmalarni kiritib qidirish imkoniyati mavjud. Mazkur dastur "qidiruv oynasi"ga mavzudan kelib chiqqan holda "constitution of" 2 n-gramli so'z birikmasi qidiruvga berildi. Bunda asosan ot+n-gram formulasi asosida amal qilindi.

Xulosa. Ingliz tili korpuslari rivoji davomida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, uchinchi avlod konkordanser dasturlarining paydo bo'lishi og'zaki va yozma nutq namunalarni o'z ichiga olgan yirik megakorpuslarning yaratilishiga katta turtki berdi. Natijada, korpus lingvistikasi yanada takomillashib, ingliz tilining turli janr, uslub va dialektlarga xos xususiyatlarini milliardlab so'zlar asosida chuqur tahlil qilish imkoniyati yuzaga keldi. Shunga qaramay, bu korpuslarning ayrim cheklavlari ham mavjud: xususan, hissiy-emosional mazmunga ega nutqni to'liq tahlil qilish masalasi hali ham qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi.

Korpus asosida olib borilgan tadqiqotlar til birliklarining qanchalik tez-tez qo'llanishi, ularning qaysi muhitda ishlatilishi va qanday funksional yuklama bajarishini aniqlashga yordam beradi. Bu esa grammatik va leksik birliklarni an'anaviy yondashuvlarga nisbatan aniqroq va asosliroq tavsiflash imkonini beradi.

Turli tillar korpuslarini qiyosiy o'rganish esa umumiy lingvistik qonuniyatlar bilan birga, har bir tilga xos milliy xususiyatlarni ham ochib beradi. Bunday tahlillar tarjimashunoslik, til o'qitish metodikasi va kompyuter lingvistikasi kabi yo'nalishlarda yangi ilmiy yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Grammatika nuqtai nazaridan qaralganda, shakl va ma'no o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish juda muhim. Ayniqsa, ingliz va o'zbek tillarida mustaqil hamda yordamchi so'z turkumlarini qiyoslash orqali

ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Bu jarayon shuni ko'rsatadiki, grammatik shakl o'zgarigan sari mazmun ham o'zgaradi.

Shu bilan birga, lingvistik korpuslarda grammatik qurilmalarni tahlil qilishda inson omili hali ham muhim o'rin tutadi. Chunki hozircha grammatikani to'liq avtomatik tarzda mukammal tahlil qila oladigan dastur mavjud emas. Bunga sabab so'zning grammatik shakli va ma'nosi ko'pincha uning kontekstdagi o'rniga qarab o'zgarib boradi. Shunday bo'lsa-da, ingliz va o'zbek tillari korpuslarini qiyosiy o'rganish ularning grammatik tahlil imkoniyatlari turlicha ekanini ko'rsatadi, hamda ayrim grammatik qurilmalarni avtomatik aniqlash hali ham cheklanganligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. E. A. Захарова. Применение результатов исследований корпусной лингвистики в обучении грамматике английского языка на продвинутом уровне. //Иностранные языки: лингвистические исследования, методика преподавания. – № 2. // – М., 2016 – ст. 43-44. УРЛ: <https://cyberleninka.ru/article/n/primenenie-rezultatov-issledovaniy-korpusnoy-lingvistiki-v-obuchenii-grammatike-angliyskogo-yazyka-na-prodvinutom-urovne/viewer>
2. Leech, G. Grammars of spoken English: new outcomes of corpus-oriented research, //Language Learning Vol. 50 (4). 2000. – pp. 675–724. Available at: https://www.lancaster.ac.uk/fass/projects/corpus/ZJU/xpapers/Leech_spoken_grammar.pdf
3. Carter, R A and McCarthy, M J. Cambridge Grammar of English. – UK. Cambridge: Cambridge University Press. 2006. – pp. 256–262. Available at: <https://staff.tiiame.uz/storage/users/262/books/0ZuSnsNWrw4oK8elrA8a7LGpSx45LfQNCtIN83Fc.pdf>
4. Козлова Н. В. Лингвистические корпуса: определение основных понятий и типология // Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2013. – Т., 11. – № 1. – 80 с.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/fe-l-so-z-turkumi-va-uning-leksik-semantik-tasnifi/viewer>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/fe-l-so-z-turkumi-va-uning-leksik-semantik-tasnifi/viewer>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-regulirovanie-vyborov-v-soedinennom-korolevstve-velikobritanii-i-severnoy-irlandii/viewer>
8. <https://fayllar.org/reja-ingliz-tilida-sifat-soz-turkumi-va-uning-jihatlari.html>
9. <https://inacademy.uz/index.php/zdit/article/download/18198/12543/16348>
10. <https://ru.scribd.com/document/780109725/1706093790>
11. <https://www.english-corpora.org/>
12. <http://www.natcorp.ox.ac.uk/>
13. https://www.english-corpora.org/representativity.asp#coca_bnc

Orazgalieva Ayjamal Marat qizi,
doctoral student (Phd)
Nukus State Pedagogical Institute
(Karakalpakstan)
E-mail: orazgalieva.ayjamal@mail.ru

THE CONCEPT “CHILD/BALA” IN ENGLISH AND KARAKALPAK: DERIVATIONAL AND EVALUATIVE PERSPECTIVES IN LEXICOGRAPHY

Abstract. This study examines the derivational and evaluative potential of the concept *CHILD* in English and Karakalpak within a lexicographic and cognitive-semantic framework. The analysis is based on dictionary definitions of child-derived lexemes such as *childhood*, *childcare*, *childlike*, *childish*, *childless*, and *childfree*, along with their Karakalpak equivalents. The findings show that both languages share a common semantic core, while differences emerge in evaluative meaning, lexical abstraction, and conceptual extension. English demonstrates higher semantic generalization and metaphorical flexibility, whereas Karakalpak reflects stronger cultural embedding and pragmatic variability. The study highlights how derivation contributes to the expansion of conceptual meaning in different linguocultural systems.

Keywords: Concept, derivation, lexicography, cognitive semantics, evaluative meaning

Аннотация. Данное исследование посвящено деривационному и оценочному потенциалу концепта *CHILD* в английском и каракалпакском языках в рамках лексикографического и когнитивно-семантического подхода. Анализ основан на словарных определениях производных единиц, таких как *childhood*, *childcare*, *childlike*, *childish*, *childless* и *childfree*, а также их каракалпакских эквивалентов. Результаты показывают наличие общего семантического ядра при существенных различиях в оценочности, степени абстракции и семантических расширениях. Английский язык характеризуется большей обобщённостью и метафорической гибкостью, тогда как каракалпакский язык демонстрирует более тесную связь с культурным контекстом. Исследование показывает роль деривации в развитии концептуального значения.

Ключевые слова: концепт *CHILD*, деривация, лексикография, когнитивная семантика, оценочное значение.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ingliz va qoraqalpoq tillarida *CHILD* konTseptining derivatsion va baholovchi imkoniyatlarini leksikografik va kognitiv-semantik yondashuv asosida o'rganadi. Tahlil *childhood*, *childcare*, *childlike*, *childish*, *childless*, *childfree* kabi hosila birliklar hamda ularning qoraqalpoq tilidagi ekvivalentlari asosida olib boriladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda umumiy semantik yadro mavjud bo'lsa-da, baholovchanlik, abstraktsiya darajasi va semantik kengayishlarda farqlar kuzatiladi. Ingliz tilida umumlashtirish va metaforik moslashuv yuqori, qoraqalpoq tilida esa madaniy va pragmatik bog'liqlik kuchliroq namoyon bo'ladi. Tadqiqot derivatsiyaning konseptual ma'no kengayishidagi rolini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: konTsepti, derivatsiya, leksikografiya, kognitiv semantika, baholovchi ma'no, ingliz tili, qoraqalpoq tili

Introduction. The study of linguistic concepts occupies a central position in contemporary cognitive linguistics and linguoculturology, where language is understood not only as a system of lexical units but also as a structured representation of cultural knowledge and social experience. Within this perspective, dictionary meaning is not limited to denotation but includes evaluative and culturally conditioned components encoded in lexical usage. As noted in lexicographic theory, dictionary definitions reflect conventionalized semantic knowledge and the ways in which speakers categorize experience [3, 23-27]. In this regard, the concept *CHILD* represents a complex and dynamic category that extends beyond its primary meaning to include evaluative, derivational, and sociocultural dimensions.

While previous research has examined the basic lexical meaning of *child*, less attention has been paid to how this concept expands through derivation into adjectives, abstract nouns, and socially marked terms. However, semantic theory suggests that lexical meaning is not static but develops through processes of extension, evaluation, and contextual reinterpretation [2, 52-55]. This is particularly evident

in derivatives such as *childhood*, *childcare*, *childish*, *childlike*, *childless*, and *childfree*, where the concept *CHILD* is reinterpreted across temporal, social, and evaluative domains.

The relevance of the present study lies in its focus on this extended semantic field in a cross-linguistic perspective. The comparison of English and Karakalpak allows us to observe how similar conceptual bases develop differently depending on linguistic structure and cultural norms. Such differences are especially visible in the presence or absence of evaluative meanings, the degree of lexical abstraction, and the ways in which social concepts are encoded in language.

The aim of the study is to analyse the semantic, derivational, and evaluative potential of the concept *CHILD* in English and Karakalpak through lexicographic data. To achieve this aim, the following objectives are pursued: (1) to examine dictionary definitions of child-derived lexemes; (2) to identify their semantic components and evaluative features; (3) to compare their conceptual structure across the two languages; and (4) to interpret the findings within cognitive and linguocultural frameworks.

By addressing these objectives, the study contributes to a more precise understanding of how conceptual meaning expands through derivation and how lexicographic data reveal both stable semantic cores and culturally specific patterns of evaluation

Main part. The present study employs a qualitative, comparative, and cognitive-semantic approach to the analysis of the concept *CHILD* and its derivational extensions in English and Karakalpak. The research is based on the assumption that lexicographic sources provide a structured and reliable representation of lexical meaning, including both denotative and evaluative components. This assumption is grounded in lexicographic and semantic theory, where dictionary definitions are treated as formalized descriptions of conventional meaning rather than purely descriptive glosses [3].

The empirical material consists of dictionary definitions extracted from authoritative lexicographic sources. For English, the data include entries from Noah Webster's *American Dictionary of the English Language* (1828), *Oxford Advanced Learner's Dictionary*, *Cambridge Advanced Learner's Dictionary*, *Merriam-Webster's Collegiate Dictionary*, and the *New Oxford Dictionary of English*. For Karakalpak, the primary source is *Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi*, which provides detailed semantic descriptions of the lexemes *bala* and its derivatives.

The study focuses on a set of derivationally related lexemes, including *childhood*, *childcare*, *childlike*, *childish*, *childless*, and *childfree*, along with their Karakalpak equivalents (*balalıq*, *bala kútimi*, *baladay*, *balasha*, *balasız*, *balasızlıq*). These units are analysed as elements of an extended conceptual field, where meaning is distributed across related lexical forms rather than confined to a single word. Such an approach corresponds to the view that lexical meaning is organized in interconnected semantic networks [2].

The methodological framework integrates several analytical procedures. Lexicographic analysis is used to examine and compare dictionary definitions in order to identify core meanings and semantic variations. Componential analysis enables the decomposition of meanings into basic semantic features such as age, kinship, evaluation, and intentionality. Comparative analysis is applied to reveal similarities and differences between English and Karakalpak lexical systems, particularly in terms of derivational productivity and semantic extension. Cognitive-semantic analysis is employed to interpret figurative and evaluative meanings, especially where lexical items extend beyond their primary denotation.

The analysis proceeds in stages. First, dictionary definitions of each lexeme are examined and systematized. Second, their semantic components are grouped into broader conceptual domains, such as temporal stages, social roles, evaluation, and institutional practices. Third, a cross-linguistic comparison is conducted to identify both shared semantic structures and language-specific developments. Finally, the results are interpreted within a cognitive and linguocultural framework in order to explain how derivational processes contribute to the expansion of conceptual meaning.

This integrated approach ensures that the analysis remains closely grounded in lexicographic data while allowing for the interpretation of deeper semantic and cultural patterns reflected in the structure of the concept *CHILD*.

